ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2023 / №4

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nash etiladi

2023/ № 4

Термиз – 2023

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan.
Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir.
Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.04.2023
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Avazjon MARAXIMOV, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)

Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)

O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)

Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)

Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)

Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)

Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)

Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Jabbor Eshonqul, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Normat Yo'ldoshev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Asqar Eshmo'minov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)

Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)

Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.04.2023
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ» ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649
E-mail: philologicalresearch@umail.uz
Официальный сайт: www. philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Авазжон МАРАХИМОВ, доктор технических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Жаббар Ишанкул, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ

ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.04.2023
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155
Printed at the
"Printing House of the TerSU"
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Avazjon MARAKHIMOV, doctor of technical sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)

Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)

Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)

Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)

Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)

Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)

Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)

Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Jabbar Ishankul, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)

Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)

Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)

Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)

Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)

Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)

Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)

Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)

Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)

Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)

Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)

Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)

Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

КАРИМОВ СУЮН АМИРОВИЧ
Ўзбек тилида тиниш белгиларининг семантик-стилистик хусусиятлари 7

ЁДГОРОВ ҲАМИД
Дисфемик бирликларнинг поэтик имкониятлари.....14

BEGMATOVA GULCHEXRA XOLMUROTOVNA
Idiomalarning vazifaviy xususiyatlari: pragmatik vazifa 17

АМОНТУРДИЕВА ШОИРА РАВШАНОВНА
Диний матнларнинг туркологияда ўрганилиши 19

AXMEDOVA NARGIZA SHIXNAZAROVNA
O‘zbek tilida assotsiativ maydon va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....23

ADAMBOEVA NAFISA QODIRBERGANOVNA
Shaxslararo muloqot va xushmuomalalik kategoriyasining
turli yondashuvlar kesimidagi talqini.....25

МУКУМОВ МАХМУД ХУДАЙБЕРДИЕВИЧ
Фанда термин ва номенклатура тушунчаси 29

NAZAROVA ZIYODA KATTAYEVNA
Frazeologizm tillararo tadqiqot obyekti sifatida.....33

ТЎЙЧИЕВА ЗУЛАЙҲО
Шеърий матнда диалектизмлар 35

JO‘RAYEV NABI NARZIYEVICH
Milliy mentallik sohibining kognitiv imkoniyatlari.....38

KASIMOVA MUQADDAS BEKPO‘LATOVNA
Fe’lning lug‘aviy shakllarida darajalanish hodisasining namoyon bo‘lishi 44

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
O‘zbek tilida jargonlarning struktur va semantik tahlili.....47

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
O‘zbek xalq ertaklarida somatik frazeologizmlarning semantik
va lingvomadaniy taqiqi (bosh, yurak, qo‘l, quloq somatizmlari misolida) 51

КОМИЛОВА МУКАРРАМ ҚОБИЛЖОНОВНА
Рус ва ўзбек тиллари инвестиция ва кредит терминларининг
қиёсий-типологик таҳлилига доир мулоҳазалар 55

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

БАҲОДИР КАРИМ
Абдулла Қодирийнинг “Жаннатмакон” хонга муносабати 57

ЮЛДАШЕВ НОРМАТ
Чўлпон шеъриятида ижровий ва персонажли лирика 59

НУРИДДИНОВ ШАҲОБИДДИН БАБАЯРОВИЧ
“Девони Комил”нинг Тошкент литографик нашри 63

БАЛТАЕВА ЗАМИРА ШАНАЗАРОВНА
Эркин Воҳидов ижодида маънавий мезон ҳамда жанрий интизом 67

НАМОЗОВА САОДАТ БАХТИЁРОВНА
Шекспир ижоди ва миллий адабиёт 69

ДОШАНОВА ГУЛЖАХАН
Кичик шеърий шакллар ҳақида баъзи мулоҳазалар 74

ATADJANOVA YULDUZXON DILSHADOVNA
Shaxs va jamiyat ziddiyatlarining “Sabo va Samandar” romanidagi in’ikosi 77

АБДУНАЗАРОВ ЎТКИР
Носир Фозилов эссе-хотираларида ижодий ҳамкорлик ва
қардошлик ришталарининг бадиий талқини 81

TULIBOYEV SARVARBEK DILMURODOVICH
O‘zbek-turk adabiy aloqalari genezisi 84

BERDIYEVA NAZIRA O‘RALOVNA
“Lolazor” romanida hayot voqeligining majoziy, ko‘p qatlamli
badiiy psixologik tasvir usullari 88

JO‘RAYEVA GAVHAR
A’zam O‘ktam she’rlarida avtopsixologik lirikaning aks etishi 92

DO‘SALOVA XUSNIYA RUSTAM QIZI
“Sabzazor” milliy she’rlar majmuasi xususida 95

TA’LIM

IBRAGIMOVA HILOLA BAHODIRJON QIZI
Nutqiy kompetensiyani takomillashtirishda podkastlarning roli 98

SAMADI NOORIA
Afg‘oniston maktablari o‘quv dasturlarining shakllanish
jarayonlari va unga doir muammolar 102

NIZOMIDDINOV OBIDXON
O‘zbek tilida sifat va ravish so‘z turkumlari
Grammatik shakllar bazasini tuzish 106

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

Turkum maqolalar[1]

ЎЗБЕК ТИЛИДА ТИНИШ БЕЛГИЛАРИНИНГ СЕМАНТИК-СТИЛИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

(1-мақола)



Каримов Суюн Амирович,
Самарқанд давлат университети профессори,
филология фанлари доктори

***Каримов Суюн Амирович**, филология фанлари доктори, профессор, ўзбек тилшуноси. 1950 йилда Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Нуробод туманида ишчи оиласида туғилган, миллати ўзбек, 1972 йилда СамДУ ўзбек ва тожик филологияси факультетини тугатган.*

С.А.Каримов 30 дан ортиқ алоҳида нашрлар муаллифи. «Зулфия поэзиясининг тили» (Самарқанд, 1984), “Нутқ маданияти асослари. I, II, III қисмлар” (Самарқанд, 1985,1986,1987), “Ўзбек тилининг функционал стиллари” (Самарқанд,1985), “Бадиий матннинг услубий аломатлари” (Самарқанд,1992), “Ўзбек тилининг бадиий услуби” (Самарқанд,1992), “Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари” (Самарқанд,1994), “Тил таълими ва меъёр” (Тошкент, 2002), “Нутқ маданияти ва давлат тилида иш юритиш” (Тошкент, 2003), “Юристнинг нутқ маданияти” (Тошкент,2003), “Ғафур Ғуломнинг поэтик маҳорати” (Самарқанд), “Ўзбек тилининг функционал стилистикаси” (2010), “Ўзбек тилининг фоностилистикаси” (2016), “Нутқ маданияти ва мутолаа санъати” (2020), “Ўзбек тилида тиниш белгилари стилистикаси” (2022), “Ўзбектилининг морфологик стилистикаси” (2023) асарлари шулар жумласидандир.

Асосий машғул бўлган соҳаси ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти бўлиб, олиб борaётган тадқиқотлари мустақиллик даври ўзбек тили стилистикасининг долзарб муаммоларини ҳал этишга ҳамда олий ва ўрта махсус ўқув юртларида ўқиш жараёнини яхшилашга, талабаларни истиқлол ғояси руҳида тарбиялашга, уларнинг маънавий камолотини янада юксалтиришга қаратилган.

Каримов С.А. меҳнат фаолиятида эришган ютуқлари ва ёш авлодни тарбиялашда кўрсатган алоҳида хизматлари учун 1995 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонига кўра “Шуҳрат” медали билан мукофотланган.

Оғзаки нутқ жараёнидаги оҳанг товланишларини ёзма нутқда мукаммал ифодалашнинг имкони йўқ. Тиниш белгилари ёрдамида улар қисман ифодаланиши мумкин. Ана шу қисман ифодалаш учун ҳам тиниш белгиси ўз орбитасидан ташқарига чиқиши, зиммасига устама вазифа олишни тақозо этади. Матн таҳлилининг стилистик сатҳида ана шу жиҳатларга ҳамда экспрессив синтаксис ва муаллиф индивидуаллиги масалалари ёритилиши лозим бўлади. Шунинг учун ҳам пунктуациянинг ўрганилиши семантик-грамматик тадқиқотлар доирасида қолиб кетмайди. Тиниш белгилари ёрдамида экспрессивликни ифодалаш зарурати уларга стилистик ёндашувни ҳам тақозо этади.

Қуйида ўзбек тилидаги тиниш белгиларининг ўз зиммасига оладиган семантик-стилистик хусусиятлари ҳақида сўз юритилади.

[1] “Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim” jurnali taniqli olimlarimizning turkum maqolalarini chop etishni yo‘lga qo‘yganini ma’lum qiladi.

Нуқта.

Нуқта матнда грамматик вазифани бажаради – мазмунан тугалланган дарак гап охирига қўйилади ва барча функционал услублар учун баравар саналади. Мана шу хусусиятига кўра у экспрессивлиги бўлмаган тиниш белгилари сирасига киритилади.

Илмий адабиётларда дарак гаплардан хабар маъноси ифодаланиши айтилади. Шу билан бирга, "улардан илтимос, насиҳат, орзу-истак, гумон, қатъийлик каби маъно оттенкалари ҳам англашилади", дейилади.[1] Масалан: – *Бегим, сиз ҳам очилибгина* ***ўлтиринг****. – Моҳим, мактубингизни давом эттиринг. Мавлоно Фазлиддинни* ***чақиртиринг****. Тортинмай эркин* ***ўлтиринг*** (П.Қодиров, Юлдузли тунлар) каби.

Бу маъноларнинг англашилишида **нуқта** (.) нинг иштироки қандай бўлади? Иштирок эта олмайди. Гапдаги бу маъноларни англаш, биринчи навбатда, ўқувчи ёки тингловчининг табиий интеллектига, иккинчи навбатда, гап таркибида иштирок этаётган лексик-грамматик воситаларга боғлиқ бўлади.

Шунингдек, унинг айрим буйруқ гаплар охирига қўйилиши ҳақида фикрлар ҳам бор. Бу фикрларга кўра, соф буйруқ гаплардан фарқли ўлароқ, буйруқ-илтимос, буйруқ-ялиниш, буйруқ-истак, буйруқ-маслаҳат, буйруқ-насиҳат, буйруқ-огоҳлантириш, буйруқ-даъват (ундаш), буйруқ-рухсат (ёки таклиф) каби эмоционал маъноларни ифодаловчи гаплар охирида нуқта қўйилади.[2] *Аввал ўйла, кейин сўйла. Бугунги ишни эртага қўйма. Етти ўлчаб, бир кес* каби мақолларни бунга мисол қилиб келтириш мумкин.

Бу алмашинишнинг сабабини мутахассислар гап мазмунида алоҳида эмоционалликнинг йўқлиги деб ҳам изоҳлашган.[3]

Демак, ҳам дарак гаплар, ҳам буйруқ гаплар охирида нуқтанинг қўйилиши кузатилмоқда. Биринчи ҳолатни меъёрий деб баҳолаш мумкин. Иккинчисини қандай баҳолаш керак? Бунинг устига, нега энди у ундов белгиси ўрнига қўйилмоқда? Бу алмашинувни нуқта-ундов синонимияси деб аташ мумкинми?

Иккинчи ҳолатда нуқтанинг семантик вазифаси кенгайиб, нуқта ўзининг асосий грамматик вазифасини бажаришдан ташқарига чиқиб, кўпмаънолилик касб этаётганини кузатамиз.

Нуқтанинг ундов белгиси ўрнида қўйилишининг муайян сабаблари бўлиши керак, албатта. Бир нарса аниқки, ундов гапларнинг юқорида санаб ўтилган барча шаклларида у ёки бу даражада эмоционаллик оттенкаси, нутқ муаллифининг субъектив муносабати бор. Назаримизда, гап ана шу эмоционаллик даражасида. Грамматикада *соф буйруқ* жумласи бекорга ишлатилмайди. Демак, соф буйруқ гаплар ҳақиқий буйруқ маъносини берадиган, эмоционаллиги юқори бўлган, оғзаки нутқда ҳам баланд оҳангда талаффуз этиладиган гаплар бўлади ва бундай гаплар охирига сўзсиз ундов белгиси қўйилади. Мана шу ҳолат ундов белгисининг қўлланиши учун меъёр ҳисобланади.

Буйруқ гапларнинг *-(а)й, -(а)йин, -гил (-қил, -ғил, -кил), -гин (-қин, -кин), -(и)нг, -(и)нглар, -(и)нгиз, -(и)нгизлар, -(и)нглар* каби бир қатор қўшимчалар билан ҳосил қилинган шаклларида эса эмоционаллик даражаси, яъни буюриш, қатъият оттенкаси нисбатан кучсиз. Бундай пайтларда эмоционал оттенкаларни ифода этиш нуқтанинг зиммасида эмас, деб ўйламиз. Стилистик маъно гапдаги кесим таркибидаги қўшимчаларда бўлади.

Қуйидаги мисолларни қиёсласак, фикримиз яна ҳам ойдинлашади: 1. *Барча амирларга, аъёну боёнларга фармон берсин: дарҳол чаноқийга* ***йиғилсин****!..* 2. *Доруға Мироншоҳга амри олийни етказгайсен: барча аъёну боёнлар дарҳол Кўксаройга* ***йиғилсин****. Машварат қилурмен.* (О.Ёқубов, Улуғбек хазинаси). Яна қиёслаймиз: – *Қайси арбоб? – деди. – Ким у?* ***Келтиринг!*** (П.Қодиров, Юлдузли тунлар). ***Оқйигит****. Сизлар тавба қилинглар, улуғлар! Хато қарорингиздан воз кечинг. Мен отам васиятига содиқман, сиз уни буздингиз. Васиятга хилоф иш қилмоқ – катта гуноҳ. Сизлар тавба* ***келтиринг****.* (Зулфия, Камалак). Ҳақиқатдан ҳам, матнларда қўлланган *йиғилсин* ва *келтиринг* сўзлари гарчи шаклан бир хил бўлса-да, матн қуршовидаги эмоционаллик даражасига кўра икки хил экани маълум бўлиб туради.

Буйруқ гаплар эмоционаллик даражасининг бир хил эмаслиги уларни матнда ифодалашда фарқлаш заруриятини келтириб чиқарган, деб ўйлаймиз. Ўзбек тилида тиниш белгилари қўлланишининг тарихий тараққиётида ундов белгисини қўллаш кейинги йилларнинг маҳсули бўлгани каби, унинг ўрнида нуқтанинг ишлатилиши нисбатан кейинроқ пайдо бўлган бўлиши мумкин.

"Ёзувларимизда ҳам тиниш белгилари қўлланиши асослари уларни фикр ифодаси, текст ўқилиши ва уқилиши ўнғайлиги учун зарур бўлган ўринлардагина ишлатишга мосланиб ривожланган"[4]лигини таъкидлаган Ҳ.Ғозиев бир неча асар-

[1] Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 32.

[2] Назаров К. Кўрсатилган асар. – Б. 32.

[3] Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. – Б. 6.

[4] Ғозиев Ҳ. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 160.

лар нашрини ўзаро солиштиради. Жумладан, А.Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романининг 1925 йилдаги араб, 1933 йилдаги лотин, 1958 йилдаги кирилл имлоси билан чоп этилган матнларини ўзаро таққослайди. Бу қиёслашларда ундов белгиси ўрнида нуқтанинг қўлланиш ҳолатлари ҳам таҳрир этилади. Масалан, 1958 йилги нашрида:

– Лекин… тил билан кўнгил бошқа-бошқадир, ўғлим…

Отабек бу терс ва кўрс муқобаладан тоқатсизланди:

– Янглишасиз, ота!

– Янглишмайман, билъакс билиб, қаноатланиб сўзлайман.

– Тилим билан кўнглимнинг бошқалигини исбот қилингиз (24-бет).

Асарнинг 1925 йилги араб имлоси нашрида биринчи ва тўртинчи гаплар охирига ундов белгиси қўйилган. Учинчи нашрида нуқта билан алмаштирилган.

Бу каби матнларда ундов ўрнида нуқтанинг қўлланишини бу икки белги ўртасида синонимик муносабат мавжуд деб айта оламизми ёки шунчаки вазифадошликми? Айрим мисолларни кўздан кечириб, бу икки тиниш белгиси ўртасида баъзан синонимик муносабат содир бўлади, деб ўйлаймиз. Масалан:

– Ҳа, бўладиган. Нима қилиш кераклигини Раҳимжонга айтаман; Хайр! ***Саломат бўлинг!*** *(А.Қаҳҳор)*

Орқа томондан Комиссарнинг йўғон овози келди:

– Хорма, қизим!

Қурбоной хола куракка суянган куйи хотиржам бурилиб қаради.

– ***Саломат бўлинг****, – деди салом бериб. (Ў.Ҳошимов)*

А.Қаҳҳор ва Ў.Ҳошимов асарларидан олинган парчаларда қўлланган *саломат бўлинг* жумласи ўртасидаги семантик-стилистик маъно ёзма матнда айнан бу икки тиниш белгиси орқали фарқланган.

“Сароб” романидан олинган парчадаги Саидийнинг Муродхўжа домлага қарата *“саломат бўлинг”* деганида самимият бор ва бу хитоб ундов белгиси орқали юзага чиққан. “Тушда кечган умрлар” асаридан олинган парчадаги Қурбонойнинг гапида бу самимиятни учратмаймиз. У Комиссарни жуда ёмон кўради, аммо одоб юзасидан шундай дейишга мажбур бўлган. Матнда нуқта ана шу совуқ ва носамимий муносабат ифодасини ўз зиммасига олган. Матнда *“Саломат бўлинг”* дан кейин вергул турганига ажабланиш керак эмас. Аслида бу тугалланган гап охирида нуқта турибди. Матнда персонаж ва муаллиф нутқи кетма-кет келганда давомлиликнинг ифодаси сифатида одатда нуқта ўрнида вергул қўлланади, холос.

Нуқтанинг шеърий матнларда қўлланиш хусусиятлари ҳақида ишнинг “Функционал услублар стилистикаси” қисмида тўхталамиз.

Айрим ижодкорларда гап ўртасида ҳам нуқта қўйилиши кузатилади. Бу билан гўё гап парчалангандай, қисмларга бўлиниб кетгандай кўринади. Аслида бу бўлинишлар онгли равишда амалга оширилади. Чўзиқ гапдаги фикрни англаб кетиш қийин кечиши, ўқувчини толиқтириши мумкин. Шу маънода, гап ичидаги нуқталар бирмунча қулайлик туғдиради – фикр ихчам, қисқа, аниқ ва лўнда ҳолда тақдим этилади. Бу каби микроматнлар таъсирчан ва услубий жиҳатдан маъқулдир.

Жавзо. Бир эрка шамол
Буғдойзорга урар тўш.
От елар. Чавандознинг
Бир енги ҳилпирар – бўш. (нуқта) (У.Азим)

Сатр ўртасида нуқтанинг қўйилиши билан мисра бўлинади, аммо шу йўл билан қисқалик ва таъсирчанликка эришилади. Мисра охиридаги сўз кейинги сўз билан боғланиб, фикрий давомлилик пайдо бўлади, алоҳида оҳанг пайдо бўлади. Ёки биринчи мисрадаги фикр иккинчи мисрадаги сўз билан тугайди ва бу ҳам нуқта билан белгиланади. Бу ҳолат ижодкорнинг индивидуал услуби ҳисобланади. Шунинг учун ҳар бир ижодкор матнининг пунктуация тизими алоҳида ўрганилиши мақсадга мувофиқдир.

Гап илм олувчи талабадами, ё билим берувчи муаллимдами. Ушбу гап охирига сўроқ белгиси қўйилиши керак эди. Аммо қўйилмаган. Нима учун? Гап шундаки, муаллиф фақат саволига жавоб излаётган эмас, балки ўзи ҳам *гап фақат илм олувчи талабадагина эмас, балки унга билим берувчи муаллимда ҳамдир* демоқчи. Бу ерда нуқта ана шу маънони бера олувчи экспрессив-стилистик воситага айланган. *Гап илм олувчи талабадами, ё билим берувчи муаллимдами – Гап фақат илм олувчи талабадагина эмас, балки унга билим берувчи муаллимда ҳамдир* ўртасида синонимия мавжуд бўлгани каби, бир пайтнинг ўзида бу гапда сўроқ белгиси ва нуқта синонимияси ҳам бор дейиш мумкин.

Таҳлиллар айрим хулосаларга келишга имкон беради. Нуқта ёзма матнда гап охирига қўйилиши билан ўзининг асосий грамматик вазифасини адо этади. Шунинг билан биргаликда, у матнда қўшимча вазифаларни ҳам ўз зиммасига олиши мумкин. Нуқтанинг ундов ва сўроқ белгилари ўрнида қўлланишида ва айрим ҳолатларда бу тиниш белгилари билан синонимик муносабатда бўлишида ана шу стилистик оттенкалар намоён бўлади.

Ундов.

Ундовга стилистик белги сифатида қараш лозим. Чунки ёзма матнда бир хил тузилишда бўлган гапга икки хил тиниш белгисининг қўйилиши уларнинг маъноларини фарқлайди: *Дадам келди. – Дадам келди!* каби.

Эмоционалликни ифодалаш даражаси ҳам шу белгига боғлиқ бўлиб қолади. Айтайлик, бир ундов белгиси ёрдамида эмоционалликнинг бир даражаси, икки ундов белгиси ёрдамида ундан юқорироқ даража ифодаланиши мумкин. Баъзан уч ундов белгиси қўйилган ҳолатлар ҳам кузатилади:

– Ҳо, телба-ю, во, телба!
Гапингни айтгин елга!
Дарахт йиғласа – йиғлар,
Не ташвиши бор сенга!! (У.Азим, Эртак).

ёки

Ўзбекнинг дўпписи бошида анвор,
Белбоғи ва тўни мисоли дўст-ёр.
Сийми зарин олсанг олгину аммо,
Тегма
Дўппи
Белбоғ
Тўнига
зинҳор!!!

(А.Суюн, Ўзбекнинг дўпписи) сингари.

Бу каби ҳолатларни эътиборга олган айрим тадқиқотчилар тиниш белгилари қаторига ??, !! сингари белгиларни ҳам киритишни таклиф этишган. Аммо бунга алоҳида зарурият йўқ. Чунки эмоционал гапларнинг ёзма матнларда бу тарзда ифодаланиши доимий эмас. Улар кўпинча индивидуал характерда бўлади. Бунинг устига, икки сўроқ (??) ёки икки ундов (!!) белгилари айнан битта белгининг такрорланиши, холос.

Ундов белгисининг қаватланган ҳолда қўлланиши эмоционаллик даражасининг юқори эканлигини тасдиқловчи восита бўлса-да, бу таъсирчанликни ифодалашнинг бирдан бир йўли эмас. Бу вазифанинг маълум қисмини гап таркибидаги сўроқ олмошлари ёки юкламалар ҳам ўз зиммасига олиши мумкин. Масалан: *Гапир-чи!; Қани, гапир!; Қани, гапир-чи!; Гапир!!* гапларининг эмоционаллик даражаси бир хил ва *Гапир!* га қараганда юқори.

Баъзан бу эмоционалликка биргина ундов белгиси ёрдамида эришиб бўлмайди, бу ўринда сўроқ олмошларини қўллаш шарт бўлади. Масалан: *Нима бизга Америка!* Гапдан *нима* олмошининг тушириб қолдирилиши мантиқсизликка олиб келади. Демак, бу каби ҳолатларда ҳар бир тил бирлигининг, жумладан, олмош ёки тиниш белгисининг ўрни алоҳида эканлигини эътироф этиш лозим бўлади.

"Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари"да келтирилганидек, *қандай, қанчалик, қанақа, нақадар, мунча, бунчалик* каби сўзлар мавжуд бўлган гаплар риторик сўроқ ва буйруқ гаплар, номинатив ва вокатив гаплар; эмфатик урғу олган сўзни такрорлаш ҳолатлари мавжуд бўлган ва инверсив ҳолатда қўлланган гаплар ҳис-ҳаяжон ва саломлашиш-хайрлашиш, табрик, миннатдорлик, ташаккур, маъқуллаш, рағбатлантириш каби муомала одатларини билдирадиган гаплардан сўнг ундов белгисининг қўйилиши уларда эмоционаллик ва таъсирчанликнинг мавжудлиги билан боғликдир.

Демак, ундов белгисига ўзбек тилидаги бошқа тиниш белгиларидан фарқли ўлароқ стилистик белги сифатида қараш тўғри бўлади.

Сўроқ.

Ёзма матнларда сўроқ белгисининг сўроқ гаплар охирида қўлланиши тилдан фойдаланувчилар учун тушунарли бўлган ҳолатдир.

Шунинг учун соф сўроқ гаплар охирига сўроқ белгисининг қўйилиши пунктуацион меъёрий ҳолат ва ундан стилистик маъно ахтариш керак эмас. Масалан: *– Эса... нега йиғлайсан? Омонлиқма, болам? – деди момо, аллақандай хатарли туйғудан юраги ҳамон безиллаб. – Куёвимга не бўлди? – деди жеркинқираб. – Овриб қолдима?* (О.Ёқубов, Адолат манзили) каби.

Аммо сўроқ гапларнинг мазмунан икки хил – соф сўроқ ва риторик сўроқ характерда бўлишининг ушбу белги қўлланилишига таъсири қандай бўлади, деган савол пайдо бўлади. Демак, соф сўроқ гаплар берилган саволга жавоб талаб қилинадиган гаплар ва сўроқ белгиси ҳам ана шундай гапларнинг охирига қўйилади.

Лекин мана бу мисоллар таркибида келаётган *Нима қилиш керак?* гапи мазмунан қандай гап бўлиши мумкин? Бу гап алоҳида олинганда соф сўроқ гап эканлиги аниқ билиниб туради, аммо матн қуршовида бундай эмасдай.

Акамдан бир қизчаси ҳам бор эди. ***Нима қилиш керак?*** *Расмимиз қурсин... мен никоҳлаб олдим; Бунинг учун* ***нима қилиш керак?*** *Икки йўл бор: бири – Тангриқул ҳожининг йўли, иккинчиси – мирзароллик собиқ батрак ва чоракорлар тутган йўл;* ***Нима қилиш керак?*** *Нотайинсан, кеча бузуқ эдинг ёки эртага бузилиб кетасан деб звеноликка йўл бермаслик, иложи бўлса колхоздан ҳайдаш керакми?* (А.Қаххор, Қўшчинор чироқлари) каби ҳолатларда нутқ муаллифи саволига бировдан жавоб сўраётган эмас. Тушунишимизча, ушбу сўроқ гап асосий фикр ифода этилган гапнинг даромади сифатида, уни кучайтириш учун, тингловчи ёки ўқувчининг ўз фикрига эътиборини қаратиш учун келтирилмоқда. Шундай экан, у соф сўроқ гаплардан стилистик жиҳатдан фарқ қилади.

Табиийки, юқоридаги гаплар мана бу каби савол-жавобларидаги соф сўроқдан фарқ қилади:

Сухсуров. Нима қилиш керак бўлмаса?

Қори*. Тадбир топиб қаматмоқ керак!* (А.Қаххор, Сўнгги нусхалар) Бундай пайтларда сўроқ белгисининг вазифаси қандай бўлади? Кейинги ҳолатдаги стилистик вазифа олган гапнинг шаклланишида унинг ҳам бирон бир иштироки борми? Йўқ. Бу оттенка матн қуршовида сўроқ гапнинг ўзидан англашилмоқда. Бунда белгининг аҳамияти йўқ.

Аммо нутқда баъзан шундай гаплар учрайдики, уларнинг маъносини сўроқ белгисисиз англаш мумкин бўлмайди. Масалан: *– Тоҳир, жиян? – деб сўради. – Оч, мен тоғойингмен!* (П.Қодиров, Юлдузли тунлар). Матнда *жиян* сўзидан кейин келиши керак бўлган *сенмисан* сўзи туширилган ва унинг вазифасини сўроқ белгиси ўз зиммасига олган. *Тоҳир, жиян, сенмисан?* гапида сўроқнинг қўйилиши грамматика талаби ва саводхонлик нуқтаи назаридан зарур бўлса, *Тоҳир, жиян?* дан кейин келаётган сўроқ белгиси стилистик жиҳатдан муҳимдир. Чунки, китобхон гапдаги *тоғойингман* сўзидан сўнг қўйилган белгига қараб, сўроқ ўрнида *– Тоҳир, жиян! – деб сўради. – Оч, мен тоғойингмен!* тарзида ундов белгисининг қўйилишини тўғри деб ҳисоблайди. Аммо бу қўлланиш ёзувчи кутган мазмунни бермайди. Чунки, *Тоҳир, жиян?* дейилганда овозни танимаганлик ёки иккиланганлик оттенкаси айнан ана шу белги орқали ифодаланмоқда.

Мана бу *– Бирон сабаб билан келгандирсиз-да, мулла тоға**?** – сўради Тоҳир* (П.Қодиров, Юлдузли тунлар) гапида сўроқ белгисининг қўлланиши ҳатто ўринсиздай туюлиши ҳам мумкин. Унинг ўрнида нуқта ёки ундов белгисини қўйса ҳам бўлади. Аммо бу уч тиниш белгиси Тоҳирнинг гапига уч хил маъно беради. Нуқта қўйилса, ташрифга бўлган бефарқлик оттенкаси, ундов қўйилса, келишдан норозилик оҳанги ифодаланади. Аммо матн таркибида *сўради* сўзининг келаётгани бу тиниш белгиларининг қўлланилишига монелик қилади. Бунга уларни *деди* элементи билан алмаштиришгина имкон бериши мумкин. Аммо матнда бунга зарурат йўқ. Гап охирига қўйилган сўроқ белгиси бу ўринда *сўради* сўзига боғлиқ бўлмаган ҳолда Тоҳирнинг ўз тоғаси мулла Фазлиддинга бўлган ҳурмат ва одобини билдириб туради.

Шунингдек, П.Қодировнинг “Юлдузли тунлар” романидан олинган *Мударрис қироат билан уқтираётган дарслари беҳуда кетаётганини бирдан сезиб қолди, секин ўрнидан турди-да, Бобурнинг ёнига келди. Бобур суратни яширишга улгуролмади.*

*– **Одам сурати**? – шиддат билан сўради мударрис. – Сиз қуръони шарифдан сабоқ эшитиш ўрнига, шариат қатъиян ман этган сураткашлик билан машғулмисиз* ёки

– Сиз ҳали аҳволни билмайсиз, жаноб Қосимбек! Содиқ бекларингиз Хўжандни ёғийга топширди! Исфарани топширди! Марғилонни топширди!

*– **Марғилонни?!** – сесканиб сўради Бобур. – Қачон?* сингари матнларни кўздан кечириш айрим ҳолатларда экспрессивлик сўроқнинг қўйилиши билан боғлиқ, деган хулосага келиш мумкин.

Бадиий матнларда баъзан бир хил қурилишда бўлган сўроқ шаклидаги гапларда тўрт тиниш белгиси – сўроқ, ундов, нуқта ва кўпнуқтанинг қўлланилиши кузатилади:

*– Сизнинг кўрган-кўрмаганлигингизни **мен қаёқдан биламан?*** (А.Қаххор, Сароб). *– **Қаёқдан биласан**, балки ҳозир ҳам юқоридан қарарман!..* (А.Қаххор, Сароб).

*– **Мен қаёқдан билай.** Дада, у қанақа сайлов?* (А.Қаххор, Йиллар).

*– Биз Канизак колхоздан ҳайдалсин деяётганимиз йўқ, – деди ғилай жувон хийла бўшашиб, – айб ўзида, бизга ҳеч қўшилмайди, нуқул водокачкадаги рус хотинлар билан гаплашади. **Биз қаёқдан билайлик...*** (А.Қаххор, Қўшчинор чироқлари).

*– Бир палла тарвузнинг пўчоғидан шунча иш чиқишини **қаёқдан билай!*** (А.Қаххор, Бир палла тарвузнинг пўчоғи) каби.

Матндаги *мен қаёқдан биламан, қаёқдан биласан, мен қаёқдан билай, биз қаёқдан билайлик...* гаплари шаклан сўроқ гаплар. Аммо улар мазмунан сўроқ гаплар эмас. Уларда *мен билмайман, сен билмайсан, биз билмаймиз* сингари маънолар мавжуд. Аммо бир мазмуннинг бу икки хил ифодаси ўртасида тасвирийлик нуқтаи назаридан жиддий фарқлар мавжуд. Бир мазмунни ифодаловчи икки шаклни *мен қаёқдан биламан, мен қаёқдан билай - мен билмайман, қаёқдан биласан - сен билмайсан, биз қаёқдан билайлик - биз билмаймиз* тарзида қиёслаганимизда уларнинг экспрессивлик даражаси яққол кўзга ташланади. Ана шу эмоционалликнинг ифодаланишида *қаёқдан* олмошининг етакчилик қилишини инкор этмаган ҳолда гап мазмунига қўшимча оттенка юкланишида тиниш белгиларининг аҳамиятини таъкидлаш ўринлидир.

*Сизнинг кўрган-кўрмаганлигингизни **мен қаёқдан биламан?*** гапида сўроқ белгиси таъна, маломат, ***Мен қаёқдан билай.*** *Дада, у қанақа сайлов?* (А.Қаххор, Йиллар) гапида нуқта иккиланиш, айни пайтда, суҳбатдошга нисбатан мулойимлик, *Биз Канизак колхоздан ҳайдалсин деяётганимиз йўқ, – деди ғилай жувон хийла бўшашиб, – айб*

ўзида, бизга ҳеч қўшилмайди, нуқул водокачкадаги рус хотинлар билан гаплашади. ***Биз қаёқдан билайлик...*** гапида кўпнуқта гумон ва шубҳа, *Бир палла тарвузнинг пўчоғидан шунча иш чиқишини* ***қаёқдан билай!*** гапида ундов белгиси афсуланиш оттенкаларининг реаллашувига хизмат қилган. Бу гапларда нуқта, кўпнуқта, ундов сўроқ белгиси ўрнида қўлланилмоқда дейиш тўғри бўлмайди, албатта. Аммо эътироф этиш жоизки, сўроқ белгисининг гап охирида қўйилиши юқорида санаб ўтилган маъно оттенкаларини бера олмайди, ифода бошқа томонга бурилиб кетади.

Буни қандай изоҳласа тўғри бўлади? Айрим сўроқ гапларнинг оддий сўраш ва унга жавоб талаб қилиш доирасидан чиқиб, тасвирда эмоционал-экспрессивлик томон юз тутишида тиниш белгиларининг аҳамияти маълум бўлиб қолади. Сўроқ белгиси бу маъно оттенкаларини шакллантиришда заифлик қилганида бошқа тиниш белгилари ёрдамга келади.

Шу мулоҳазаларга таяниб, тиниш белгилари экспрессив синтаксиснинг муҳим аломатларидан бири эканлиги ҳақида хулоса келиб чиқади.

А.Қаҳҳорнинг “Сўнгги нусхалар” пьесасидан олинган мана бу парчага эътибор берайлик: ***Обиджон****. Пулнинг баракасини учириб нима қиласиз, бирдан бергани яхши-да! Заёмдан беш марта ўн минг сўмдан ютуқ чиққан одамга эллик минг сўлкавой* ***нима деган гап****.* Масалага бир томонлама ёндашсак, *нима деган гап* дан кейин нуқтанинг қўйилишини пунктуацион хато сифатида баҳолаш мумкин. Лекин бундай дейиш билан ва гапнинг ифода мазмунини англаб етмай иккинчи хатога йўл қўямиз. Бу эса бизнинг ёзувчи муддаосини тушунмаганлигимизни кўрсатади. Хўш, ёзувчи нима учун сўроқ ўрнига нуқта қўйган? Матнда Обиджон нутқидан иккита гап келтирилган. Уларнинг иккинчиси биринчисининг мантиқий давоми, мазмунан бири иккинчисини тўлдирган. Гапларга стилистик нуқтаи назардан қараганимизда, уларнинг ифодалалилик даражаси бир хил эмаслигини кузатдик. Биринчи гапда қатъият, фикр ифодасида кескинлик мавжуд ва бунда ундов белгиси ўз ўрнида турибди. Асосий фикр биринчи гапда айтиб бўлинди. Иккинчи гап уни мазмунан далиллаётгани учун ифода темпи пасаяди. Бинобарин, унинг экспрессивлик даражаси биринчисиники каби бўлмайди. Бу ўринда сўроқ ёки ундовнинг қўйилганлиги айнан ана шу ҳолатни бера олгани учун ҳам нуқта стилистик мазмунга эга.

Шу маънода айрим матнларда сўроқ белгиси ўрнида бошқа бир тиниш белгисининг қўлланиши лингвопоэтик мазмун касб этишини ҳам кузатиш мумкин:

Қиш... Қор кўмган оламни,
Изғиринда жунжикиб
Ўлтирибмиз айвонда.
Оёғимизда этик,
Эскигина чопонда.
Қачон келади баҳор*...* (У.Азим, Бойчечак)

Яна бир ҳолат. *Келдингми?* деганда сўроқ оттенкаси гапнинг ўзида мавжуд. У *-ми* юкламаси ёрдамида юзага келган. Сўроқ (?) белгиси мана шу фикрни ёзувда тасдиқлаш учун қўйилмоқда, холос. *Келдинг* ҳам сўроқ оҳанги билан талаффуз этилса, сўроқ маъносини беради. Аммо уни ёзувда ифодалаш учун албатта *Келдинг?* тарзида ёзилиши ва бунда сўроқ (?) белгиси ишлатилиши шарт. Демак, бу ўринда ушбу тиниш белгиси эмоционал-экспрессивликнинг ёзма нутқда ифодаланишига хизмат қилмоқда ва у стилистик мазмунга эга. *Келдингми?* ва *Келдинг?* сўз-гапидаги сўроқ белгисининг стилистик фарқи мана шунда.

Сўроқ гапларнинг семантик-стилистик жиҳатдан иккига – соф сўроқ ва риторик сўроқ гапларга ажратилиши улар учун бирдай хизмат қиладиган сўроқ белгисининг вазифасини ҳам аниқлаштиради. Биринчисида оддий ишоравий юмушни бажарадиган белги, иккинчисида стилистик вазифа адо этувчи бошқа тил бирликлари комплексида экспрессивликнинг ёзувда ифодаланишида асосий восита бўлиб ҳизмат қилади.

Сўроқ ва ундов белгилари муносабати.

Сўроқ (?) ва ундов (!) белгилари ҳам худди нуқта сингари гапнинг тугалланганлигига ишора қилади. Бу уларнинг нуқта бажарадиган ишни ҳам ўз зиммасига олган иккиламчи вазифасидир. Бундай ҳолатларда нуқта сўроқ ва ундов белгилари билан синонимик вазиятдами? Йўқ, албатта! Уларга бир пайтнинг ўзида нуқтанинг вазифаси – гапнинг тугалланганлигига ишора қилиш вазифаси юклатилаяпти, холос! Демак, бундай ҳолатда сўроқ ва ундов белгилари стилистик вазифани адо этаяпти, дейиш тўғри эмас.

Тиниш белгилари инсон ҳис-туйғуларини ёзма матнда бериш воситаси ҳамдир. Аммо инсон ҳис-туйғуларининг хилма-хиллиги ва ҳар бир кишида ўзига хос тарзда кечишидан бу ифодалаш турли даражада бўлади. Уларни тўлалигича акс эттиришнинг имконияти бўлмайди. Шу маънода *Тавба!.. Одам ҳам шу даражада разил бўладими?* гапида қўлланилаётган ундов ва сўроқ белгилари стилистик мазмунга эга. Агар улар матндан олиб ташланса, ундаги ҳайратланиш, ажабланиш, нафратланиш, афсуланиш каби оттенкалар йўқолади.

Сўроқ ва ундов белгилари муносабатида икки ҳолат кузатилди. Бириничиси, уларнинг бири ўрнида иккинчисининг қўлланиши. Бундай пайтда

ниҳоятда нозик стилистик фарқларни кузатиш мумкин бўлади.

Мана бу мисолга эътиборимизни қаратайлик:

Аммо иккинчи ёғочни кўчириш жуда қийин бўлди.

– Айтмоқчи, арра ***бор-ку?*** *– деди Маҳмуд* (П.Қодиров, Юлдузли тунлар).

Мана шу гапда сўроқ белгиси ўрнида ундов белгисини ишлатиш мумкинми? Албатта мумкин! Масалан: *– Айтмоқчи, арра* ***бор-ку!*** *– деди Маҳмуд* (П.Қодиров, Юлдузли тунлар) тарзида. Фақат уларда содир бўладиган стилистик фарқларни англаб етсак бўлди.

Матнда *арра бор-ку* гапи қисқарувга юз тутган. Фикр ифодасининг сўзловчи ва тингловчига аён бўлган давоми бор. *Арра бор* нинг ортидан *ундан фойдаланиш керак* деган гап келади. Аммо у яширинган ва унинг ифодасини *арра бор* ўз зиммасига олмоқда. Айни пайтда, ифодада субъективлик бор. Бу субъективликнинг юзага чиқишида сўроқ ва ундов белгисининг вазифаси алоҳида тарзда намоён бўлади: *арра бор-ку* дан сўнг сўроқ қўйилса, *ундан фойдаланмайдими,* агар ундов қўйилса, *ундан фойдаланиш керак* деган фикр келиб чиқади. Шу маънода, экспрессивлик нуқтаи назаридан сўроқ белгиси қўйилган гапнинг стилистик мавқеи баландроқ бўлади. Бинобарин, бу ўринда сўроқ белгиси ўзида муайян стилистик юк ташийди. Бундан бу икки белгининг ҳар бирига юкланган стилистик вазифа уларни алмаштириб қўллашга имкон бермайди, деган хулоса келиб чиқади.

Иккинчи бир ҳолат – уларнинг **?!** тарзида ёнма-ён қўлланиши. Инсон нутқида ифодаланадиган ҳис-ҳаяжоннинг кучли-кучсизлиги ва юқори-пастлигини оғзаки нутқда ифодалаш ҳам, пайқаш ҳам қийин кечмайди. Аммо унинг ёзувда ифодаланиши бир қадар қийинчиликлар туғдиришини риторик сўроқ гаплар мисолида таҳлил қиламиз. Айтайлик, ҳис-ҳаяжон шу даражада кучли бўлиши мумкинки, биргина сўроқ белгиси уни ифодалашнинг уддасидан чиқа олмай қолади. Ана шундай пайтда унга ундов белгиси ёрдамга келади:

О.Ёқубовнинг “Улуғбек хазинаси” романидан:

– Эй, парвардигор! Бу қайсарликдан энди не фойда? Бу куфр китоблар алҳол кимга керак?! ().

Али Қушчи гўё юрагига биров ниш ургандай қалтираб кетди.

–Не дединғиз, биродари азиз? Куфр китоблар?! Бу... бу қабиҳ сўзни айтмоққа қандай юзингиз чидади, мавлоно Муҳиддин?!

П.Қодировнинг “Юлдузли тунлар” романидан:

Хонзода бегим ўкириб йиғлаб юборди:

– Не қилай?! Бошқа нажот йўқ! Йўқ!!!

Мансур бахши Хадича бегимни зинапоядан юқорига - Сардоба бўйига олиб чиқди.

– Мени алдай олмайсен! Кўрсат!

– Мен сизни алдаганим йўқ? Ўзим алдандим! Менинг паймонам тўлгани рост экан. Мени ўғлим алдаб кетди! Музаффар мирзони деб мен нималар қилмаган эдим! Оқибати шу бўлди! Мени бу қийноқларга ўғлим ташлаб кетди! Ўғлим!!!

– Сени бу ерларга олиб келмай онанг ўлсин, болам! Сени асраб қололмаган онагинанг ўлсин!!!

Кутилмаганда хаёлига келган бу ўйдан Бобур шундай даҳшатга тушдики, бутун кучини тўплаб, ўрнидан сапчиб турди:

– Қосимбек қани??!

Матнларга эътибор берилса, ҳис-ҳаяжон ифодаси бир гапдан иккинчисига ўсиб борган. Бинобарин, тиниш белгилари ҳам аввал биттадан, кейинги гапда иккита ёки учтадан қўйиб борилган. Сўроқ ва ундов белгиларининг бу тарзда қўлланиши уларга стилистик тиниш белгилар сифатида қарашга имкон беради.

Resume. Intonation in the process of oral speech can be partially expressed in written speech using punctuation marks. Even for this partial expression, the punctuation mark must go beyond its orbit and take on an additional task: at the stylistic level of text analysis, these aspects, as well as questions of expressive syntax and the author’s individuality, must be illuminated. Therefore, the study of punctuation does not remain within the framework of semantic-grammatical studies. This article talks about the semantic and stylistic features of punctuation marks in the Uzbek language.

Резюме. Интонации в процессе устной речи могут быть частично выражены в письменной речи с помощью знаков препинания. Даже для этого парциального выражения знак препинания должен выйти за пределы своей орбиты и взять на себя дополнительную задачу: на стилистическом уровне анализа текста должны быть освещены эти аспекты, а также вопросы экспрессивного синтаксиса и индивидуальности автора. Поэтому изучение пунктуации не остается в рамках семантико-грамматических исследований. В данной статье говорится о семантико-стилистических особенностях знаков препинания в узбекском языке.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ДИСФЕМИК БИРЛИКЛАРНИНГ ПОЭТИК ИМКОНИЯТЛАРИ

Ёдгоров Ҳамид,
Гулистон давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти

Дисфемизация тил бирликларининг прагматик маъноси бўлиб, у эвефмизацияга зид туради. Бунинг сабаби – дисфемизация ҳодисасининг баъзан ижтимоий, баъзан эса индивидуал стереотиплар билан боғлиниши. Дисфемизация лексемаларнинг нутқий қўлланиш дифференциациясини ҳам келтириб чиқаради. Бу эса, ўз навбатида, контекстуал маънодошлик қаторининг бойишини ҳам таъминлайди. Матн, боғлиқ қуршов ва нутқий вазият маънодошлик қатори муваққат аъзоларининг шу қатордаги ўрнини белгиловчи ижтимоий омилларни мустаҳкамловчи воситадир. Дисфемик бирликлар муайян миллатнинг яшаш тарзи, этник тараққиёти, тарихий даври билан боғлиқ равишда тил ва нутқда шаклланган бирликлар ҳисобланади.Дисфемизмларнинг эвфемизм билан ўхшаш томони шундаки, денотатга маълум коннотатив мазмун юклайди, тил сатҳида синонимик қаторни ташкил этади, эвфемизм билан бирдек қадимий жараён ҳамда нутқий ҳодиса сифатида қаралади.

Эвфемизмнинг акси ҳисобланган дисфемизм ҳодисаси ҳам қадимдан мавжуд бўлган бўлса-да, эвфемизмдан фарқли ўлароқ, нисбатан кам ўрганилган. Бунинг сабабини эса, маданий мулоқот меъёрларидан излаш муҳим. Чунки улар бадиий адабиётда, маданий мулоқот муҳитида одоб нуқтаи назаридан берилиши мумкин бўлмаган бирлик сифатида қаралган[1].

Одатда тилшуносликка оид луғатларда дисфемизм хусусида алоҳида тўхталинмай, унга эвфемизм бўлимида йўл-йўлакай изоҳ берилиб кетилади. Бунга мисол сифатида В.Н.Ярцева таҳрири остида чоп этилган "Лингвистический энциклопедический словарь"ни олиш мумкин. Унда эвфемизм хусусида сўз кетганда йўл-йўлакай "услубий ва эмоционал бетараф сўзни нисбатан кўпол, ноқулай сўз билан алмаштириш" дея таърифланади[2].

Дисфема – денотатга субъектив муносабатнинг манфий томонга кетиши билан боғлиқ прагматик ҳодиса. Бу, албатта, унга адабий тилда ўрин йўқ дейишга асос бўла олмайди. Дисфемик маъноли бирликлардан тингловчида воқелик ёки шахс ҳақида кучайтирилган салбий таассурот қолдириш учун фойдаланилади, бироқ бу ҳолат уни шу жиҳатдан ўрганишга, таҳлил ва талқин эти шга, қолаверса, тасниф этишга асос йўқлигини, мақсад номаълум эканлигини, эҳтиёж сезилмаслигини кўрсатмайди.

Муаммо шундаки, ҳақиқатан ҳам, дисфемизм мутлақ алоҳида бирликлар тизими эмас, бундай бирликларнинг дисфемик қиймати нутқий, у эвфемизм билан бир системада, шу билан бирга, унга қарама-қарши – зид восита сифатида қаралади[3].

Маълумки, бугунги ўзбек адабий тили қатъий меъёрга солиниб, қулай кўринишга келтирилган мезонлар асосида иш кўради. Гап бадиий асар тили ҳақида борганда бу мезонларни четлаб ўтиш ҳоллари кўзга ташланади. Ижодкор кечинмаларининг асл ҳолида моддийлаштирилиши шуни тақозо этади. Бу ҳақда Озов Шарафиддиновнинг "Оламнинг қалби" номли китобида шундай дейилади: "Бундай шеърият ҳамиша шоирнинг ноёб тили били боғлиқ. Бу тил нафақат шоирнинг она тилидир, балки шоирнинг шахсий тили ҳамдир"[4].

Ҳалима Худойбердиева ижодини кузатар эканмиз, дисфемик бирликлардан ҳам бадиий матнни шакллантиришда унумли фойдаланганлигини кўрамиз[5]. **"Неники кўрдим кеча..."** шеърига эътиборни қаратамиз:

Ожиз, гўллигинг кўрдим,
Бир-бирин ***ғажиб,*** *еган*
Ножинс ***қуллигинг*** *кўрдим,*
Негаям кўрдим, нега?!

Одатда ***ғажимоқ*** лексемаси кўпинча мушук, ит ва, умуман, ҳайвонларга нисбатан ишлатилади.Мазкур лексемадан бошқа ижодкорлар ҳам стилистик фигура сифатида фойдаланганлигини қуйидаги мисоллар тасдиқлайди: Кўчада ётган суякни қайси ит ғажимайди! (А.Қаҳҳор. Оғриқ тишлар). Агар мазкур термин одамга нисбатан ишлатилса, асосан салбий маъно ташишга хиз-

[1] Гулямова Ш. Ўзбек тилида эвфемизм ва дисфемизм. Ўқув-услубий қўлланма. –Тошкент, 2013. – Б. 28-30.

[2] Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 26.

[3] Гулямова. Кўрсатилган асар. – Б. 28-30.

[4] Шарафиддинов О. Оламнинг қалби. – Тошкент: Маънавият, 2014. – Б. 220.

[5] Худойбердиева Ҳ. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2020.

мат қилади: Қўйиб берса, ҳозир улар бир-бирини ғажиб ташлашга тайёр эдилар, аммо чўтир кишининг амирона вазмин овози уларни босиб қўйди (Ҳ.Турсунқулов. Ҳаётим қиссаси).

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати” (М.,1981) да “ғажимоқ” феълига шундай изоҳ берилган: Суяк, қаттиқ нон ва шу кабиларни кемириб емоқ, мужимоқ (кўпинча ит, мушук, йиртқич ҳайвонлар ҳақида). Шоира халқимизнинг кечаги (яқин ўтмишдаги) аянчли кунини образли тасвирлар экан, унинг ўз ҳақ-ҳуқуқи масаласида ожиз эканлигини, ўз тақдирини ўзи белгилашда тарқоқ эканлигини, шу билан бирга, гўллигини, соддалигини аянч билан тасвирлайди. Шундай пайтда бир миллат бўла туриб, бир-бирини сотган, бир-бирига хиёнат қилган кимсалардан, бирининг гўштини иккинчиси ғажиган одамлардан нафратланади. Шоира бундай кўринишни қуллик билан тенглайди, бундай манзарани кўрганлигидан, гувоҳи бўлганлигидан, ***“неники кеча кўрганлигидан”*** афсусланади.

Маълумки, ***“ғажимоқ”*** феъли семемасида ***“емоқ”*** семаси мавжуд.

Шундай бўлса-да, шоира икки лексемани ёнма-ён қўллайди. ***“Емоқ”*** қа нисбатан ***“ғажимоқ”*** да маъно кучли ифодаланади. Шоира “ғажимоқ”-ни қўллаш билан ўз поэтик ниятига эришган, чунки ғажиш одамийликка хос хислат эмас.

Ижодкор мисраларда “***кўрмоқ”*** феълини такрор-такрор қўллаш билан бундай аянчли манзарани кўриш қанчалар азоб эканлигини китобхон руҳиятига сингдиришга ҳаракат қилмоқда. Токи бундай иллатлар одамийликка ёт эканлигини улар билишсин.

Мазкур шеърнинг кейинги бир парчаси шундай бошланади:

Гўр*имда ҳам куяр ой*
Совурилиб *ётарман.*
Кўрганларим унутмай
Қовурилиб *ётарман*.

Мана индивидуаллик, мана маҳорат, мана ўзига хос ёндашув...Ҳалима Худойбердиева асарларини кўздан кечирар эканмиз, ижодкорнинг новаторлигига гувоҳ бўламиз. Ҳар қандай ёқимли нарса, ёқимли сўз одамга ёқади, кайфият бағишлайди. Лекин акси бўлса-чи? Одатда ҳар қандай одамга *қабристон, мозористон, гўристон* деган сўзлар хуш келавермайди. Бу жойни эвфемик ифодалаш ана шундай ***совуқ*** тушунчани анчайин юмшатади. Лекин ижодкор бу сафар ундай қилмайди, нарсани ўз оти билан айтиб, **гўр** сўзини очиқ қўллайди. Бу билан лирик қаҳрамоннинг ўша пайтдаги руҳий ҳолатини, ички кечинмасини бор бўйи билан кўрсатишга интилади. Воқеликни силлиқ, юмшоқ кўрсатиш ижодкорнинг руҳий ҳолатини тўлиқ ифодалай олмаслигини ҳис қилади.

Гарчи ***совурилмоқ, қовурилмоқ*** лексемалари кўчма маънода ишлатилган бўлса-да, у шахснинг кечинмалари билан боғлиқ. Ҳар икки лексема кўчма маънода салбий маъно ташишга хизмат қилади. Ҳар қандай беҳудага сарфланган вақт, пул, ишга нисбатан *совурмоқ* лексемаси ишлатилади. Халқимизда “ўз ёғига ўзи қовурилмоқ” деган ибора бор. Инсон учун қовурилиш- оғир азоб. Ички кечинмаларни бундан ортиқ ифодалашнинг имкони йўқ. Шундай экан, шоира мазкур сўзларни бадиий матнга маҳорат билан олиб кирган ва поэтик индивидуаллигини намойиш қилган.

Ҳалима Худойбердиева шеърларининг поэтик тилини ўрганар эканмиз, адабиётшунос Д.Қуроновнинг “Адабиётшуносликка кириш” китобидаги қуйидаги жумлалар диққатимизни тортади: “Ёзувчи умумхалқ тилидан фойдаланар экан, умумодатланган нормадан оғади(яъни тил унсурларини одатдагидан ўзга шакл, маъно, тартиб, муносабат ва шу кабиларда қўллайди) ва шу “оғиш”дан маълум бадиий-эстетик мақсадни кўзда тутади. Бу хил оғишлар тилнинг турли сатҳларида – фонетик, лексик, морфологик, семантик, синтактик сатҳларда кузатилиши мумкин”[1]. Шоира шеърларида ҳам юқорида санаб ўтилган оғишлар натижасида тилнинг поэтиклигига эришилади. 1990 йилда ёзилган **“Биз ўтармиз. Эслар ул, қиз”** шеъридан парча келтирамиз:

О, она Шарқ, она Шарқ – сен,
Бугун ***фитна, қонга*** *ғарқсен.*
Меросхўрларим ***манқурт*** *деб,*
Мозийдаги билим ***йиғлар***

Шоира мазкур шеърида вульгаризмлардан, диалектизмлардан, архаик грамматик воситалардан унумли фойдаланади.Маълумки, ***фитна, қон тўкиш, манқурт*** каби бирликлар совуқ тушунчаларни ташийди. 1990 йиллардаги айрим Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги ўзаро қон тўкишлар, жанжалли воқеалар ижодкорга тинчлик бермайди. Фитна бор жойда қон тўкилади, фитна бор жойда ёвузлик ҳукмронбўлади, фитна бор жойда оға инисига ғаним бўлади. Шоира бундан ташвиш тортади, сўнгсиз саволларига жавоб излайди.Дунёнинг дунё бўлишига улкан ҳиссаларини қўшган мозийдаги туркий алломалар “меросхўрларим манқурт” деб йиғлаётганларини катта афсус билан ёзади.Ваҳоланки, ***“манқурт”*** термини ўзлигини билмайдиган, ўтмиши йўқ, итоаткор кишига нисбатан ишлатилади.Фақат ўзлигини билмайдиган қавмларгина бир-бирига тош отиши мумкинлигини бадиий маҳорат билан матнга олиб киради.

[1] Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 122.

Шоира юқоридаги шеърнинг учинчи ва тўртинчи мисраларда туркий қавмлар ўртасидаги низолардан жабр тортган ўзбек ва қирғизларнинг аҳволини тасвирлашда дисфемик бирликлардан ҳам фойдаланади. Бундай фожиали, ачинарли ҳолатни ўз оти билан айтишни маъқул топади ва бадиий матнга ***шўрлик ўзбек, шўрлик қирғиз, ўлим йиғлар*** каби дисфемизмларни олиб киради:

Биз ўтармиз.Эслар ул, қиз,
Бул асрдан қолгай шул из.
***Шўрлик** ўзбек. **Шўрлик** қирғиз.*
*Қоқ ўртада **ўлим йиғлар.***

Мустақиллик берган неъматлар чексиз. Уларни санаб адоғига етиш қийин. Лекин ўтган феодал жамиятида, собиқ Шўролар даврида ҳар бир ижодкор ўзидан нималар ўтганини ўзи яхши билади. Ҳалима Худойбердиева 1991 йил апрель ойида Абдулла Ориповга бағишлаб, **“Шоир номи”** номли шеърини ёзади. Мазкур шеърдан парча келтирамиз:

*Қодирийнинг **қонларини** обдон **ичиб** тўйдилар,*
*Ҳануз билмам мен Усмонни **отдиларми, сўйдилар,***
*Насимийнинг **терисини шилиб, кўзин ўйдилар,***
Энди билдим, нечун сенинг кўзинг кулмас, оғажон,
Кўзларингда “халқим” деган сезим кулмас, оғажон.

Ўтмишда халқимизнинг етук фарзандлари, олиму фузалолари қандай яшаганликлари, қандай ижод қилганликлари, эрк деганнинг қули бўлганликларини очиқ намоён қилиш учун, китобхонга бор бўйи билан кўрсатиш учун, тарихни тўғри ёритиш учун шоира матнга **қонини ичмоқ,отмоқ, сўймоқ, терисини шилмоқ, кўзини ўймоқ** каби ёқимсиз бирликларни олиб киради. Бундай бирликлар ўрнида силлиқ, юмшоқ, мулойим эшитиладиган бирликларни қўллаш мумкин эди, бироқ бундай ёндашув тарихий ҳақиқатни бу даражада ёритмаган бўларди. Китобхон шеърни ўқир экан, ўтмишнинг жирканч саҳифалари унинг кўз ўнгида намоён бўлади, халқимизнинг аянчли тарихини чуқур англаб етади, адолат ва ҳақиқат йўлида адашмайди.

Шу ўринда поляк ёзувчиси Ян Парандовскийнинг қуйидаги гапларини эслашни маъқул топамиз: “Дарҳақиқат, ёзувчининг ёзувчилиги у танлайдиган бадиий воситаларда намоён бўлади-бу воситалар ёзувчи кўрсатмоқчи бўлган таассуротларни имкон қадар кенг ва теран қўзғатмоғи ёхуд чиқармоғи мумкин бўлсин”[1].

Халқ тили мисоли бир булоқ эканлиги маълум. Лекин бу булоқдан ҳамма ижодкор ҳам бирдек сув ича олмайди. Шоирада сўз танлаш иқтидори шунчалар кучлики, бу сўзлардан даъват, чақирув, ундаш ҳидлари уфуриб туради. Шеърий матндаги ҳар бир сўз одамнинг руҳиятига таъсир қилади, нимагадир ундайди, ўйлантиради, огоҳликка, инсофга, бирдамликка чорлайди. Қўлланаётган ҳар бир сўз одамга масъулият юклайди, гўё сенинг ҳаракатингга, фаолиятингга, ўтмишингга баҳо бераётгандай жаранглайди. Унинг шеърларида ватанпарварлик, халқпарварлик, миллатпарварлик, одамийлик, эзгулик, садоқат улуғланади.

Хулоса қилиб айтганда, шоира Ҳалима Худойбердиева ўз ижодида дисфемик бирликлардан бадиий восита сифатида унумли фойдаланган. Бундай бирликлар воқелик, шахс ёки нарса ҳақида ёрқин тасаввур уйғотиш, шунингдек, ўқувчида кучли таассурот қолдириш ҳамда ўзининг муносабатини очиқ намоён қилиш мақсадининг амалга ошишига имкон яратган.

Resume. This article shows the poetic possibilities of dysphemic units in expressing the nationalism of the artistic work, the expressiveness and expressiveness of the language of the work, and the individuality of the characters' speech. It is thought that the presence of such units in the language is a huge opportunity for the writer and for the artistic image. At the same time, the fact that dysphemisms have great possibilities in terms of stylistic coloring is highlighted on the basis of examples.

The role of dysphemisms is incomparable in revealing the image of the heroes of the work, in presenting it naturally in front of the eyes of the reader. Since the possibilities of imagery and expressiveness of such language units are mainly manifested in artistic texts, it is important to study the participation of language tools in these texts in stylistic and linguopoetic aspects.

Резюме. В данной статье рассматриваются поэтические возможности дисфемических единиц в выражении народости художественного произведения, образности, выразительности языка произведения, индивидуальности речи героев. Подчёркивается важность наличия таких единиц в языке как огромные возможности как для писателя, так и для художественного изображения.

Роль дисфемизмов в раскрытии образа героев, в его естественном проявлении перед глазами читателя велика. Возможности образности и выразительности таких единиц языка проявляются в основном в художественных текстах, что отмечает важность исследования языковых средств в текстах в стилистическом и лингвопоэтическом аспектах.

[1] Парандовский Ян. Алхимия слова. – Варшава, 1951. С.13.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

IDIOMALARNING VAZIFAVIY XUSUSIYATLARI: PRAGMATIK VAZIFA

Begmatova Gulchexra Xolmurotovna,
Termiz davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

XX asrda falsafiy oqim kashfiyoti sifatida pragmalingvistika sohasining vujudga kelishi tilshunoslikning amaliy ahamiyatini oshirdi. Tilshunoslikni antroposentrik tadqiqi natijasida markazda inson omili turgan pragmalingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika kabi bir qator yo'nalishlar kashf qilindi, o'rganila boshlandi. Xususan, pragmalingvistika til va nutq birliklarini ma'lum nutqiy vaziyatlarda o'rinli qo'llash maqsadida tushunildi. Pragmatika harakat va vaziyat uyg'unligi bo'lsa, pragmalingvistika so'z- harakat-vaziyat uchligini taqozo qiladi. Bu uchlikni idiomatik hodisaga nisbatan qo'llash esa idiomalarning nutqiy, vaziyatli harakatni yuzaga keltiradi va til birliklarining muayyan vaziyatda qo'llanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

"Pragmatika" grekcha "pragma" so'zidan olingan bo'lib, "bajarilgan, bajarilayotgan, bajarilishi zarur bo'lgan ish" hamda "pragmatiko" esa "ishga qobiliyati bor, ishchan, ishbilarmon" kabi ma'nolarni ifodalaydi[1]. Turli til birliklarining nutqdagi "faolligi", "ishchanligi" ularning pragmatikligini belgilaydi. Bundan tashqari, pragmatiklik kommunikativ niyat va strategiyaga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Pragmalingvistikaning asosiy mavzulardan biri bu nutqiy akt nazariyasi bo'lib, J. Ostin, J. Syorl kabi bir qator taqdiqotchilar tomonidan o'rganilgan, tahlilga tortilgan konsepsiya hisoblanadi. Ushbu maqolamizda Ostin konsepsiyasi asosidagi nutqiy akt jarayoni va idiomatik birliklarning pragmatik vazifasini ochiqlashga harakat qilamiz. Xotirada saqlanadigan va kerakli vaqtda faollashadigan idiomalarning avtomatik ishlatilishi muloqot jarayonini osonlashtiradi. Har bir tilda turli xil kommunikativ ma'nolarni ifodalovchi ko'plab shakllar mavjud: salomlashish, kechirim so'rash, rahmat, tabriklash, rad etish, rozilik, iltimos va boshqalar. Ular so'zlovchi tomonidan kommunikativ va ijodiy rolni, ya'ni suhbatdoshga qaratilgan har xil turdagi kommunikativ niyatlarni ifodalaydilar. Ba'zi birliklar dominant ma'noga ega bo'lsa, boshqalarga ikkinchi darajali, qo'shimcha, yordamchi, pragmatik rol beriladi va shuning uchun ularni pragmatik idiomalar deb atash mumkin[2]. Ko'pincha pragmatik idiomalar pragmatik kontekstda namoyon bo'ladi. Pragmatika muammolari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar: V.N. Komissarov, A.D. Shvaytser, A. Noybert, N.O. Levkovskoy, E.S. Aznaurova, E. Paducheva, L.S. Barxudarov, G.P. Grays, I.P. Susov, V.V. Bogdanov, V.I. Zabotkina, S.A. Suxix ishlarida o'rganilgan[3]. Nutqiy akt nazariyasi ingliz mantiqshunosi, faylasufi J. Ostin tadqiqotlarida lisoniy faoliyatning ko'p vazifaviyligiga va uning insonning hayot kechirish shaklidan ayri emasligini ochiqladi.

Tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda - gap) asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladi. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir[4]. Leksik, semantik, grammatik ma'nodan tashqari birliklarning pragmatik ma'noga ega ekanligini ko'rsatadi. Olim taklif qilgan tasnif besh guruhdan iborat bo'lib, bu guruhlanish illokutiv fe'llarga asoslanadi. Pragmatika sohasidagi izlanishlar til birligining pragmatik tarkibiga oid savollarga javob beradi, xususan pragmatik tarkib quyidagicha aniqlanishi mumkin: pragmatik tarkib- frazeologik birlikning illokutiv kuchini amalga oshirishini, ya'ni frazeologik birlikni qabul qiluvchining bevosita his-tuyg'ulari va xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatishi natijasida esa xabar yetkaziluvchida pragmatik munosabat shakllanishida namoyon bo'ladi

Hamkasblarining turli yondashuvlarni o'rganish orqali tadqiqotchi A. Langlotz idiomatik konstruksiyalarni o'ziga xos shakliy, semantik, pragmatik va

[1] Матвеева Г.Г., Ленец А. В., Петров Е.И. Основы прагмалингвистики. – Москва: Флинта-Наука, 2014; Ҳакимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик. – Тошкент: 2020. – С. 8.

[2] Ермоленко Л.В., Барвина Н.А. Прагматические идиомы как инструмент коммуникации. http://www.rusnauka.com/ESPR_2006/Philologia/7_ermolenko%20ljudmila%20.doc.htm.

[3] Лепухова Н.И. Прагматические отношения и перевод. https://cyberleninka.ru/article/n/pragmaticheskie-otnosheniya-i-perevod?ysclid=ldmokmjbom548728994.

[4] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – S.78.

sotsiolingvistik xususiyatlarga ega bo‘lgan kompleks ramzlar sifatida tasvirlash mumkinligini yozadi[1]. Pragmatik vaziyatda idioma o‘zining ma’no qirralari bilan nutqqa kirib boradi va o‘zbek tilida idiomalarning aksariyat qismi xususiyat va vaziyatlarni ifodalash vositasi sifatida qo‘llaniladi. Muloqotda “*Saksonga saboq, to‘qsonga tovoq beradi*” deb kayvoni, o‘z ishiga puxta insonlarga nisbatan qo‘llaniladigan idioma Ostin konsepsiyasiga ko‘ra illokutiv aktning behabitiv turiga mos keladi. Ispan tili idiomalarini tadqiq etgan olim M. V. Kutyeva “Прагматические особенности испанских соматических идиом” maqolasida “Gastar un riñón” idiomasi so‘zma-so‘z tarjima qilinib, “ buyrak sarflash” mazmuni berishini, vaziyatda esa “katta mablag‘ sarflash” deb qabul qilinishini keltiradi. Ispan milliy xoslangan idiomalarida inson icki a’zosi bo‘lmish buyrak bilan bog‘liq idiomalar boylik, botirlik, markazni anglatuvchi nutqiy vaziyatlarga moslashib qo‘llanishini misollar orqali dalillaydi[2]. Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir tilning milliy o‘ziga xosligi bevosita idiomalarning nutq vaziyati bilan ham bog‘liq.

Pragmalingvistika fanida Ostin konsepsiyasida illokutiv aktlar beshta guruhga tasnif etilgan, jamoada inson o‘zini tutishi, jamiyatning boshqa vakillari xatti- harakatiga munosabat bildirish behabitivlar orqali ifodalanadi. Tilimizda idiomalarning aksariyat qismi salbiy xususiyat va vaziyatlarni ifodalash uchun nutq vaziyatida qo‘llaniladi. Masalan, *“tovusning oyog‘ini ko‘rmoq”, “qo‘li atala ichgan”* idiomalari jamiyatda o‘zining xulq-atvori bilan noqulay vaziyatga tushadigan shaxslarni tavsiflash uchun ishlatilishi nutq jonliligini yanada oshiradi. Nutq adresati bilan bog‘liq ravishda lingvistik pragmatika quyidagi masalalarni o‘rganadi.

1. Nutq interpretatsiyasi. Bunga ko‘ra, kontekst bilan bog‘liq hodisalar, pragmatik vaziyat va presuppozitsiya, shuningdek, so‘zlovchining ongli ravishda muloqot qonun-qoidalaridan cheklanishi kabi masalalarni pragmatika o‘rganadi.

2. Perlokutiv akt tushunchasi tinglovchining his-tuyg‘ulariga ta’sir etuvchi kommunikativ akt sifatida pragmatika masalalari qatoriga kiritiladi[3]. Nutqiy akt nazariyasi birliklarning perlokutiv akt, ya’ni nutqiy ta’sir etish akti bilan ham ifodalashini Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi misolida ko‘rishimiz mumkin. Unsin vafotidan keyin Nodirmohbegimning “*dargohingizni yelkamning chuquri ko‘rsin*”[4] tarzidagi dodhohga qilgan murojaati nutqi qaratilgan shaxsga pushaymonlik keltirish va nutqiy ta’sir ko‘rsatish akti sifatida keltirsak o‘rinli bo‘ladi. Bunday misol Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshomda” asarida quyidagi parchani talil qilish orqali ochiqlanadi:

Ko‘pkari oxirigacha yonboshlab yotdim. Uzangi yo‘ldoshlarim bir marta-da uloq ololmadi. Ko‘pkaridan qo‘lini burunlariga tiqib qaytdi. Shunda, uzangi yo‘ldoshlarimga yuz soldim.

– Endi qaysi yuz bilan elga ro‘para bo‘lamiz?– dedim. – Yigirmaday chavandoz-a! Olganimiz bor-yo‘g‘i bitta serka bo‘lsa! Shuniyam tilab oldik!

Chavandozlar boshi egik bo‘ldi. Bilmadik, deya yelka qisdi.

– Yaxshisi, bunday qilamiz. Yo‘lda oyoq ilamiz. Qishloqqa qorong‘ilatib-qorong‘ilatib kirib boramiz. Binoyimi?

– Binoyi, binoyi, – dedi chavandozlar.

Qishloqqa bir adir qoldi. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom)

“Qo‘lini burniga tiqmoq”, “oyoq ilmoq” parchadagi pragmatik idioma sifatida tahlilga tortilsa, 1- idioma “hech vaqosiz qolish” mazmunida, 2- birlik esa “dam olish” semasida nutqiy aktning perlokutiv turini amalga oshirgan. Bu haqda M. Hakimov “kommunikativ niyat aktining mohiyatida so‘zlovchi nimanidir nazarda tutib, perlokutiv aktni amalga oshiradi. Bu buyruq, iltimos, ogohlantirish yoki mensimalik akti bo‘lishi va perlokutiv akt so‘zlovchi tinglovchini muayyan harakatlarni bajarishga majbur qiladi, uning his- tuyg‘ulariga, fikriga, harakatlariga ta’sir etadi”[5] degan fikrni keltiradi. Chavandozlarga ko‘pkaridan yengilish vaziyatini yumshatish uchun yo‘lda “oyoq ilish” taklif etilmoqda, qishloqqa kech kirganda kirish ma’qulligi so‘zlovchi tomonidan tinglovchilarga ta’kidlanishi oqibatida bu harakat mexanizmi tasdiqlatilishi pragmatik vaziyatni yuzaga keltirgan.

Yuqoridagi misollar idiomalarning nafaqat milliy xoslangan, xalq o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatuvchi birlik, balki nutqiy akt davomida illokutiv, perlokutiv akt vositasi ham ekanligini ko‘rsatadi. Inson o‘z tafakkuri mahsuli bo‘lgan fikrni nutq orqali turli vaziyatlarda qo‘llar ekan, bunda idiomatik birliklarning o‘rni juda katta.Nutqimizning turli pragmatik vaziyatlariga moslashgan maqol, hikmatli so‘z va idiomalari milliy tilimizning ajralmas qismi sifatida keying avlodga yetkazilshida hali ham xalq og‘zaki nutqida foydalanilayotgan va qisman manbalarga ko‘chirilmagan birliklarini elektron vositalar orqali asrab qolish nafaqat lingvist mutaxassislar, balki barcha ziyolilarning dolzarb vazifalaridir. Nutqda pragmatik idiomalardan foydalanish darajasiga ko‘ra, nutq ja-

[1] Чернобай С.Е. Определение идиомы в современной фразеологии. https://cyberleninka.ru/article/n/opredelenie-idiomy-v-sovremennoy-frazeologii.

[2] Кутьева М.В. Прагматические особенности испанских соматических идиом // Вестник РУДН, серия Лингвистика, 2010, № 2. – С. 45.

[3] Хакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 176.

[4] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-dahshat-hikoya

[5] Хакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 168.

moasidagi muloqot madaniyati darajasini baholash mumkin[1].

Bugungi kunda o‘z tillarini saqlashga, rivojlantirishga urg‘u berayotgan barcha til vakillarida bu masala deyarli hal etilgan. Turli xalqlarga xos bo‘lgan idiomalarni faqat yodlab qolish va kerakli vaziyatlarda o‘rinli qo‘llash nutqiy layoqat va qobiliyat sifatida e’tirof etiladi. Idiomatik birliklarni boshqa birliklardan ajralib turgan xususiyatlarini maktabgacha ta’lim, o‘rta umumiy ta’lim, oliy va undan keyingi ta’lim bosqichlarida sifatli tushuntirish va o‘rgatish ilmiy va ijtimoiy muhim vazifadir. Bu borada o‘zbek tilida idiomalarni milliy nomlash masalasini ham ko‘rib chiqsak, xoslangan birliklarga milliy terminologiya asosida yondashgan bo‘lamiz.

Resume: This article explains with examples the comments of the author-researcher about the pragmatic function, which is one of the functions of phraseological units, which is one of the important and interesting, currently relevant issues in the field of phraseology. It is argued that the pragmatic task increases the practical significance of phraseological units, improves the process of a speech act, and leads to the disclosure of a communicative intention.

Резюме. В данной статье на примерах поясняются замечания автора-исследователя о прагматической функции, являющейся одной из функций фразеологизмов, что является одним из важных и интересных, актуальных в настоящее время вопросов в области фразеологии. Утверждается, что прагматическая задача повышает практическую значимость фразеологизмов, совершенствует процесс речевого акта, ведет к раскрытию коммуникативного замысла.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ДИНИЙ МАТНЛАРНИНГ ТУРКОЛОГИЯДА ЎРГАНИЛИШИ

Амонтурдиева Шоира Равшановна,
Термиз давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Туркий халқларнинг кенг шарқий ҳудудларда қадим-қадим даврлардан буён яшаб, ўзларидан муносиб маданий из қолдириб келганлигини жуда кўплаб тарихий манбалар ҳам тасдиқ этади. Хитой манбалари, машҳур “Ўғизнома”, Урхон-Энасой ёзувлари, Култегин битиклари бунга ишончли гувоҳдир.

Тили, қарашлари, урф-одат ва анъалари бир бўлган туркий халқларни, шубҳасиз, муқаддас ислом дини ҳам бирлаштириб турган. Ислом дини ёйилиб бошлагач, туркийлар ҳам мазкур динга эътиқод қилиб, амалларини бажаришган. Муқаддас Қуръон ва ҳадисларни ўрганишган, уларда буюрилганларни ўз ҳаётларига тадбиқ қилишган.

Айтиш керакки, диннинг инсон онгу тафаккури, қарашлари, кишилик жамиятига таъсири катта ҳисобланади. Шу боис давлат бошқаруви ва бошқа масалаларда ўрни билан диний тушунчалар ва ваъзлардан фойдаланилган, диний вазифадаги амалдорлар билан маслаҳатлашилган. Айни вақтда ҳам мусулмон давлатларида диний уламолар ва дин вакиллари фаолият олиб боришади. Юқорида таъкидлаганимиздек, дин инсон онгу тафаккурига таъсир қилувчи қудратли куч ҳисоланади. Буни яхши англаган совет ҳукумати жамиият аъзоларига *“дин афюндир”* ғоясини сингдиришган.

Диний матнларнинг ўрганилиши, табиий равишда, тилга боғлиқ. Демак, яна бир томондан динлар тарихи суянадиган илм тури – бу фило-

[1] Ермоленко Л.В., Барвина Н.А. Прагматические идиомы как инструмент коммуникации. http://www.rusnauka.com/ESPR_2006/Philologia/7_ermolenko%20ljudmila%20.doc.htm.

логиядир. Бундан ташқари мифология (ривоят ва афсоналар), этнология, археология, санъат тарихи, фольклор ва шунга ўхшаш бир қанча илм турлари борки, улардан ҳам динлар тарихи изланишларида бевосита фойдаланилади.[1]

Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит турк” асарида теологик тушунчаларга берилган мукаммал изоҳлар туркий тилшуносликда мавзу доирасида олиб борилган кузатишларнинг ғоятда қадимий эканлигини тасдиқлайди. XX асрнинг 60 йилларида Н.Баскаков томонидан мусулмон оламида амалда бўлган тилларда, жумладан туркий тилларда яна бир услуб - диний услубнинг мавжудлиги ҳақида фикр билдирилган[2].

Диний матнлар тили ва услубини ўрганиш қадимдан тилшуносларни қизиқтириб келган бўлса-да, мустабид шўролар тузуми даврида собиқ СССР ҳудудида, жумладан, Ўзбекистонда ҳам диннинг тақиқлангани боис, бу йўналишда кузатишлар олиб боришнинг амалда имкони бўлмади. Фақат қўлга киритилган тарихий мустақиллигимизгина диний эътиқодимиз ва қадриятларимизнинг тикланишига, бу соҳада буюк аждодларимиздан мерос қолган бебаҳо асарларни чуқур ва атрофлича ўрганишимизга ҳамда улардан миллий мафкурамизнинг давр талабларига мос тамойилларини ишлаб чиқишда фойдаланишга йўл очилди.[3]

Ана шу имконият сабаб бугунги кунда дин ва тил муносабати замонавий тилшуносликнинг долзарб масалаларидан бирига айланиб бормоқда. Буни тадқиқодчи М. Галиева ҳам “Ҳозирги кунда тил, маданият ва дин ўртасидаги яқин муносабатларнинг англаниши, диний-маънавий қадриятларнинг шаклланиши, маданий ва диний идентификация муаммоларининг долзарблиги, халқаро ва конфессиялараро диний алоқаларнинг ривожланиши янги фанлараро лингвистик йўналиш – теолингвистика, яъни тил ва дин оралиғида вужудга келган ва тилда акс этган диний билим тузилмаларни ифодаловчи лисоний бирликларни тадқиқ қилувчи фаннинг вужудга келишини тақозо этди”[4] каби фикрлари асосида алоҳида таъкидлайди.

Сўнгги йилларда туркологияда дин ва филология муаммоларига бағишланган салмоқли изланишлар амалга оширилиб келинмоқда. Уларда, асосан, Қуръони каримни ўрганиш етакчилик қилади. Н.Суяргулов, А.Серикбаев, Р.Шаряфетдиновлар томонидан Қуръоннинг туркий тиллардаги таржималари ва услуби[5], қозоқ адабиётида Қуръон анъанаси[6], Қуръони каримдаги Юсуф алайҳиссалом қиссаси ва Кул Галининг “Қиссаи Юсуф” асарида сюжет масалалари[7] ўрганилган. Шунингдек, З.Яхьяева томонидан қумиқ тили диний лексикаси ва фразеологияси ҳам монографик планда ўрганилган[8] бўлса, З.Хафизова ва Г.Абдуллиналар бошқирд тилидаги диний ва мифологик лексик бирликларни тадқиқ қилганлар.[9]

Қардош тиллар тилшунослигида ҳам ДМлар тадқиқот объекти бўлган. Масалан, А.М.Миннегалиева “Татар диний-дидактик адабиёти тили: ислом юриспруденцияси трактати “Мухтасар ал-Қудури” материали асосида” номли номзодлик диссертациясини ҳимоя қилган. “Турли маданиятлар, масалан, туркий ва мусулмон маданияти уйғунлигига, араб графикасида ёзилган ва меъёрлари ишланмаган қадимги татар тилига, бир неча марта алмашган ва тарихи ҳамда адабиётидан ажралишига сабаб бўлган алфавитига асосланган татар диний-дидактик адабиёти тилини ўрганиш қизиқарли ва айни пайтда, мураккаб илмий жараёндир” – деб ёзади у. Диссертацияда ана шу мураккаб ишга қўл урилиб, татар диний адабиёти тили семантик-стилистик аспектда ўрганилган.

Муаллифнинг ўзи таъкидлаганидек, халқ тарихи яширинган, ҳаётнинг маънавий жиҳати учун хизмат қиладиган диний-дидактик услубнинг инсон ўз-ўзини англашидек энг сирли ва муҳим жиҳатларини очиб беришга ҳаракат қилинган[10].

---

[1] Очилдиев А. Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2013. – Б. 15.

[2] Баскаков Н.А. Структурные и функциональные стилистические модификации в современных тюркских языках// Развитие стилистических систем литературных языков народов СССР. – Ашхабад, 1968. – С. 57.

[3] Амантурдиева Ш. Ўзбекча диний матнларнинг функционал-стилистик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа (PhD)доктори…дисс. – Самарқанд, 2020. – Б. 64.

[4] Галиева М. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши: Филол. фан. д-ри (DSc) ....дисс .автореф. – Фарғона, 2019. – Б. 5.

[5] Суяргулов Н.А. Особенности языка и стиля башкирская перевода Корана: Автореф.дисс.....канд.филол.наук. – Уфа, 2004.

[6] Серикбаева А. С. Кораническая традиция в казахской литературе: Автореф.дисс.....канд.филол.наук. – Москва, 2001.

[7] Шаряфетдинов Р.Х. Трансформация кораического сюжета об Иосифе Прекрасном в поэме Кул Гали «Кысса-и Йусуф»: «Сказание об Йусуфе»: Автореф.дисс.....канд.филол. наук. 2009 //www.cyberleninka.ru.

[8] Яхьяева З.Б. Религиозная лексика и фразеология кумыкского языка: Автореф.дисс.....канд.филол.наук // https://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-i-frazeologiya-kumykskogo-yazyka.

[9] Хафизова З.Р., Абдуллина Г.Р. Религиозная и мифологическая лексики в башкирском языке: к вопросу разграничения / Сборник международной научно-практической конференции «Современные проблемы тюркологии: язык - литература - культура». – Москва, 2016. – С. 313–316.

[10] Миннегалиева А.М. Язык татарской религиозно-дидактической литературы: на материале трактата по исламской юриспруденции “Мухтасар ал-Кудури”: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Казань, 2007.

М.Саттарова, Р.Нурмухаметова, Ю.Елезароваларнинг “Диний семантикали татар фразеологизмлари” мақоласида ҳам мавзумизга оид фикрлар билдирилган. Татар тилида мавжуд бўлган диний мазмундаги ФБларнинг этномаданий хусусиятлари ва лингвокультурологик аҳамиятини кўрсатиб беришга, уларни семантик тавсифлашга ва тематик таснифлашга ҳаракат қилинган. “Араб-форс тиллари ўзлашмалари орасида диний лексика сезиларли қисмини ташкил этади ва тематик, семантик ҳамда функционал жиҳатдан катта қизиқиш уйғотади”, дейилади мақолада. Атоқли отлар (топонимлар, антропонимлар, муқаддас жойлар, пайғамбарларнинг исмлари) эса диний фразеологизмлар юзага келишида муҳим манба бўлиб ҳисобланади. Мақола якунида тилнинг фразеологик таркиби миллий, унинг яратилиш манбаи эса халқ нутқи, деган муҳим хулоса баён этилади[1].

Туркий халқларнинг маданияти, қарашлари, қадрият ва урф-одатлари билан бирга уларнинг эътиқоди ҳам бир бўлганлиги сабабли туркологияда дин ва тил масаласига доир тадқиқотлар салмоғи юқори. Ана шундай иўлар қаторига З.Б.Яхьяеванинг “Қўмиқ тилининг диний лексикаси ва фразеологияси”[2] мавзусидаги номзодлик иши, Х.Т.Курбановнинг “Чечен тилининг диний лексикаси”[3] мавзусидаги номзодлик иши, Т.И.Викторовнанинг “Коммуникатив-прагматик ва категориял матн асосларида диний услубнинг жанрга тизимлаштириш”[4] номли докторлик диссертацияси ҳамда “Муаммони қўйишда жанр аспектидаги диний-функционал услуб”[5] номли тадқиқоти, З.Р. Хафизованинг “Бошқирд тилининг диний лексикасини маъновий таснифи”[6] каби ишлар фикримизни исбот этади.

Туркиялик олимлар Заҳиде Буюкаталай, Муҳаммед Гокмен, Сибел Йилдирим, Гурсел Дурсунлар томонидан диний соҳа вакиллари ва ўқитувчиларга хос овоз билан боғлиқ патологиялар ўрганилган. Ишда диний воизлар ҳам ўқитувчилар сингари фаолиятларида овоз муҳим саналадиган касб эгалари сифатида эътироф этилади.[7]

А.У.Богдалова ҳам диний лексикография йўналишида “Ислом терминологиясининг қисқача туркча-русча луғати” ва амалий машқлар тўпламини[8] яратди. Унда турк тилидаги диний луғатларнинг хозирги ҳолати, луғатдаги сўзларнинг шарий ва истилоҳий маъноларининг берилиши, диний матнлар билан ишлаш кўникмаси каби масалалар акс этган. Мазкур манба ҳар икки тилдан фойдаланувчилар учун диний тушунчаларнинг маъносини ўзлаштириб, уларни нутқ жараёнида тўғри қўллашга ёрдам беради.

Айтиш керакки, диний мавзудаги тадқиқотлар нафақат туркологларни, балки жаҳон тилшунослиги вакилларини ҳам қизиқтириб келган. Хусусан, ўзга дин вакилларида кучли қизиқиш уйғотаётган Қуръонга оид лексик бирликларни ўрганиш масаласи (В.Д. Ушаков[9] – Қуръон фразеологияси; М.О. Суслова[10] – испан ва француз тилларида Муҳаммад рамзи концепт сифатида; В. Жайворонок [11] – Аллоҳ лексемаси украин фразеологияси ва украин бадиий адабиётида) мусулмон давлатларида етарли даражада ўрганилган деб бўлмайди. Шу каби тадқиқотлар сифатида араб тили материали асосида бажарилган Л.К. Байрамова, (1999), Л.Л. Григорьева (2009), Т.В.Кондратюк (2007-2008), В.С. Рыбалкин (2002; 2012)[12] ларнинг ишлари ҳам мавжудлигини айтган ҳолда, туркий тилларда диний лексиканинг ўрганилишига кам эътибор берилганлигини таъкидлаш лозим (З.Б. Яхьяева, М.Р. Саттарова, Р.Р.

[1] http://www.dissercat.com/content/yazyk-tatarskoi-religi ozno-didakticheskoi-litera tu ry-na-materiale-traktata-po-islamskoi-yuri#ixzz5b5P QjVGg

[2] http://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-i-frazeologiya-kumykskogo-azyka#ixzz5jLiCg9rY

[3] http://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-v-chechenskom-yazyke#ixzz5jLo2EwoC

[4] http://hdl.handle.net/10995/38999

[5] http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/38999/1/urgu1550_d.pdf

[6] https://www.openrepository.ru/article?id=675824

[7] Zahide Cilek Bűyűkatalay, Muhammed Fatih Gökman, Sibel Yildirim and Gűrsel Dursun.Voice Disorders in Islamic Religious Officials: Is It Any Different Than Those Of Teachers, Another Well-Known Professional Voice Users?// www.sciencedirect.com. //doi.org/10.1016//j.jvoice.2019.02.001.

[8] Богдалова А.У. Краткий турецко-русский словарь исламской терминологии и сборник практических упражнений. – Казанский университет, 2014.

[9] Ушаков В.Д. Фразеология Корана (Опыт сопоставления фразеоречений Корана и арабского классического языка). – М.: Восточная литература. РАН. 1996. – 204 с.

[10] Суслова М.О. Репрезентація концептосимволу Мухаммед у європейському концептуальному просторі (на матеріалі іспанської та французької лінгвокультур) // Проблеми семантики, прагматики та когнітивної лінгвістики. Випуск 20. – К., 2011. – S. 468-477.

[11] Жайворонок В. Знаки української етнокультури. Київ: Вид-во «Довіра», 2006. (Jayvoronok V. Znakı ukrayinskoyi etnokulturı. – Kıyıv: Vıd-vo „Dovira”, 2006.

[12] Байрамова Л. К. Фразеологическая судьба библеизмов и коранизмов // Восток-Запад: доклады 2-й Междунар. науч. конференции (24-26 августа 1999 г.). Вып. 2. – Наб. Челны: Изд-во института управления, 1999; Григорьева Л. Л. Фразеологическая репрезентация религиозного мира человека (на материале русского, английского и арабского языков). Автореферат дис… к. филол. н.: – Казань, 2009; Кондратюк Т.В. Лінгвістичний аналіз та специфіка перекладу фразеології Корану // Українська орієнталістика: Зб. наук. праць викл. та студ. Ін-ту схід. мов Київ. нац. лінгв. ун-ту «Києво-Могилянська академія» / Голов. ред. І.В.Срібняк. – В. 2-3 – Київ , 2007-2008; Коран. Дослідження, переклад (фрагмент), коментарі В.С.Рибалкіна. – Київ: Стилос, 2002. – 271 с. (Рец.: Книжковий огляд. – №9(45), вересень 2002. – С. 24-27).

Закиров, Н.Г. Мингазова, Р.Т. Юзмухаметов, И.Л. Покровская[1] ва б.).

Шу ўринда айтиш лозимки, бошқа дин вакилларида кучли қизиқиш уйғотаётган Қуръонга оид лексик бирликларни ўрганиш масаласи (В.Д. Ушаков[2] – Қуръон фразеологияси; М.О. Суслова[3] 12 – испан ва француз тилларида Муҳаммад рамзи концепт сифатида; В. Жайворонок[4] – Аллоҳ лексемаси украин фразеологияси ва украин бадиий адабиѐтида) мусулмон давлатларида етарли даражада ўрганилган деб бўлмайди. Шу каби тадқиқотлар сифатида араб тили материали асосида бажарилган Л.К. Байрамова, (1999), Л.Л. Григорьева (2009), Т.В. Кондратюк (2007-2008), В.С. Рыбалкин (2002; 2012)[5] ларнинг ишлари ҳам мавжудлигини айтган ҳолда, туркий тилларда диний лексиканинг ўрганилишига нисбатан кам эътибор берилганлигини кўрсатади (З.Б. Яхьяева, М.Р. Саттарова, Р.Р. Закиров, Н.Г. Мингазова, Р.Т. Юзмухаметов, И.Л. Покровская[6] ва б.).

Демакки, бу йўналишда туркологияда муҳим тадқиқотлар амалга оширилган. Аммо ўрганилиши лозим бўлган жиҳатлар ҳам мавжуд бўлиб, айни вақтда турколог тилшунослар доимий ҳаракатда.

Resume: This article is based on the study of religious texts and Turkic studies, a problem that worries me, and a linguistic aspect that must be taken into account.

Резюме: Данная статья посвящена изучению религиозных текстов в тюркологии, существующим проблемам, языковым аспектам, на которые следует обратить внимание.

[1] Яхьяева З.Б.. Религиозная лексика и фразеология кумыкского язык: дисс. ... к. ф. н.: - Дагестан. гос. ун-т].- Махачкала, 2010. – 155 с.; Саттарова М. Р. Сакральная лексика современного татарского языка (на материале толкового словаря) [Электронный ресурс] // Современные проблемы науки и образования. 2014; No 6. Закиров Р.Р., Мингазова Н.Г., Юзмухаметов Р.Т. Фразеология Корана (углубленное изучение истории и культуры ислама): практикум. Казань: Магариф, 2008. – 367 с.; Закиров. Р.Р. Способы передачи фразеологии Корана в переводах на русский язык. – Казань: ИД «МеДДоК», 2020. – 88 с. Doç. Dr. İrina POKROVSKAYA Турецкая фразеология и паремиология коранического происхождения как фрагмент языковой картины мира KARADENİZ (Black Sea - Черное Море) Yıl 5 Sayı 17. – С. 69-77.

[2] Ушаков В.Д. Фразеология Корана (Опыт сопоставления фразеоречений Корана и арабского классического языка).– М.: Восточная литература. РАН. 1996. – 204 с.

[3] Суслова М.О. Репрезентація концептосимволу Мухаммед у європейському концептуальному просторі (на матеріалі іспанської та французької лінгвокультур) // Проблеми семантики, прагматики та когнітивної лінгвістики. Випуск 20. – К., 2011. – S. 468-477.

[4] Жайворонок В. Знаки української етнокультури. Київ: Вид-во «Довіра», 2006. (Jayvoronok V. Znakı ukrayinskoyi etnokulturı. – Kıyıv: Vıd-vo „Dovira", 2006.

[5] Байрамова Л. К. Фразеологическая судьба библеизмов и коранизмов // Восток-Запад: доклады 2-й Междунар. науч. конференции (24-26 августа 1999 г.). Вып. 2. – Наб. Челны: Изд-во института управления, 1999; Григорьева Л. Л. Фразеологическая репрезентация религиозного мира человека (на материале русского, английского и арабского языков). Автореферат дис… к. филол. н.: 10.02.20. – Казань, 2009; Кондратюк Т.В. Лінгвістичний аналіз та специфіка перекладу фразеології Корану // Українська орієнталістика: Зб. наук. праць викл. та студ. Ін-ту схід. мов Київ. нац. лінгв. ун-ту «Києво-Могилянська академія» / Голов. ред. І.В.Срібняк. – В. 2-3. – Київ, 2007-2008; Коран. Дослідження, переклад (фрагмент), коментарі В.С.Рибалкіна. – Київ: Стилос, 2002. – 271 с. (Рец.: Книжковий огляд. – №9(45), вересень 2002. – С. 24-27).

[6] Яхьяева З.Б.. Религиозная лексика и фразеология кумыкского язык: дисс. ... к. ф. н.: 10.02.02. Дагестан. гос. ун-т].- Махачкала, 2010. – 155 с. Саттарова М. Р. Сакральная лексика современного татарского языка (на материале толкового словаря) [Электронный ресурс] // Современные проблемы науки и образования. 2014. No 6. Закиров Р.Р., Мингазова Н.Г., Юзмухаметов Р.Т. Фразеология Корана (углубленное изучение истории и культуры ислама): практикум. Казань: Магариф, 2008. 367 с.; Закиров. Р.Р. Способы передачи фразеологии Корана в переводах на русский язык. – Казань: ИД «МеДДоК», 2020. – 88 с. Doç. Dr. İrina POKROVSKAYA Турецкая фразеология и паремиология коранического происхождения как фрагмент языковой картины мира KARADENİZ (Black Sea - Черное Море) Yıl 5 Sayı 17. – С. 69-77.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDA ASSOTSIATIV MAYDON VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axmedova Nargiza Shixnazarovna,
Oriental universiteti Sharq tillar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Olamning lisoniy manzarasi tahlilida insonning tashqi olam haqidagi tasavvuri va uning tilda aks etishi masalasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Olamning tilda aks etishida assotsiativ tafakkurning o‘rni, til birliklarining assotsiativ aloqasi, shu aloqaga ko‘ra ma'lum guruhlarga birikuvi, gapni yoki matnni hosil qilishdagi o‘rni assotsiativ yondashuvning ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Tilni o‘rganishga assotsiativ yondashuv, assotsiativ tahlil metodlari til materiallarini uning egasidan alohida o‘rganishga yo‘l qo‘ymaydi. Assotsiativ tahlil asosida muayyan til egalarining voqelikni idrok etishi, kognitiv bilimi, lisoniy qobiliyati, lisoniy xotirasi imkoniyatlari, leksik birliklari zahirasi o‘rganiladi. Assotsiativ tahlil muayyan turtki so‘z asosida aniqlangan assotsiativ tajriba ma'lumotlariga tayanadi.

Assotsiativ tajriba natijasida turtki so‘zning assotsiativ maydoni shakllantirilib, u til birliklarining assotsiativ aloqasini aks ettiradi. Assotsiativ maydon“struktur jihatdan leksikografik xususiyatga ega bo‘lgan, mohiyatan inson ongida aks etgan muayyan voqelik, uning hamrohlari obrazining verbal ifodasi, u haqdagi tasavvuri, bilimlarini namoyish etuvchi tilning o‘zaro assotsiativ bog‘langan semantik va grammatik munosabatdagi birliklari yig‘indisidir”. [1]

Assotsiativ maydon o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib, shaxsning ruhiyati, dunyoqarashi, qiziqishlari, olam haqidagi bilimlari bilan bog‘liq holda hayotiy tajribasi oshgan sari turtki so‘zga berilgan reaksiyalari turli xil bo‘lishi mumkin.

Rus tilshunosi Y.N.Karaulov assotsiativ maydonga insonning nafaqat verbal xotirasi, bilimlari, balki tildagi semantik va grammatik munosabatlar, shuningdek, ongdagi obrazlar, motivlar va u yoki bu madaniyat vakillari bahosining yig‘indisidir, deb ta'rif beradi. [2]

Assotsiativ maydon yakka shaxs yoki ko‘p sonli til egalari ustida assotsiativ tajriba o‘tkazish va olingan natijalarni umumlashtirish asosida ham hosil qilinadi. Yakka shaxsda o‘tkazilgan assotsiativ tajriba materiallari asosida individual assotsiativ maydon yuzaga keladi. Ammo ko‘p sonli sinaluvchilarda assotsiativ tajriba o‘tkazish orqali shakllantiriladigan assotsiativ maydon jamoaviy xarakterga ega bo‘ladi[3]. O‘zbek tilshunosligida assotsiativ maydon va u haqdagi qarashlar bilan D.Lutfullayeva, N.Hoshimova, B.Tojiboyev, H.Ortiqova kabi tilshunoslar ishlari orqali tanishish mumkin[4].

Assotsiativ maydon birliklari til egalarining turtki so‘z bilan bog‘liq tasavvurlari, bilimi, hayotiy qarashlari, tajribasi, qiziqishlarini ifoda etadi. U turtki so‘zning mohiyatini ochib beruvchi butunlik vazifasini bajarib, til birliklarida davr o‘tishi bilan yuzaga kelgan ma'noviy o‘zgarishlarni ochib bera oladi.

Ma'lumki, assotsiativ maydonda stimul so‘z vazifasini bajargan har bir birlikning semantik strukturasi, derivatsion, uslubiy xususiyatlari ochib beriladi. Assotsiativ maydon xususiyatlarini aniqlashda tavsiflash, tasniflash, assotsiativ tajriba usuli kabilardan foydalaniladi.

Biz ushbu maqolada assotsiativ maydon va uning birliklari tahlilini Navro‘z stimul so‘zi asosida aniqlangan maydon misolida ko‘rib chiqamiz.

Navro‘z xalqimizning qadimiy milliy bayrami bo‘lib, ushbu kun kecha bilan kunduzning tenglashgan paytidir. O‘zbek tilida Navro‘z turtki so‘ziga ishora qiluvchi leksik, paremiologik, sintaktik vositalar mavjud bo‘lib, ular o‘zbek muloqot jarayonida faol qo‘llanadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da Navro‘z so‘ziga quyidagicha izoh berilgan: “Navro‘z forscha - yangi kun, shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni, mart oyining 21-kuniga to‘g‘ri keladi[5].

“O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da navro‘z leksemasi tojik tilida “yangi” ma'nosini anglatadigan “nav” sifati bilan “kun” ma'nosini anglatadigan “ro‘z” otidan tuzilganini, “yangi yil boshlanadigan 21-mart

[1] Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – Б. 58.

[2] Караулов Ю.Н. Русский ассоциативный словарь. Кн.1, ч. 1. – М. – С. 6.

[3] Тожибоев Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: Филол.фан.бўйича (PhD) фалс. докт.дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 46.

[4] Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017; Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўй. фалс. фан. докт. дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Тожибоев Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: Филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. – Тошкент, 2020; Ортиқова Ҳ. Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи: Филол.фан. бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. – Тошкент, 2022.

[5] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 8.

kuni” ma’nosini anglatuvchi so‘z ekanligi aytib o‘tiladi[1].

N.Mirzayevning “O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati”da Navro‘z shamsiy yil hisobida yangi yilning boshlanish kuni ekanligi, u martning 21-22 kunlariga to‘g‘ri kelishi kabilar keltirib o‘tiladi[2].

Vatan tushunchasi til egalari lisoniy zaxirasida yuqoridagi ma’nolarni ifodalagan holda assotsiativ tarzda gavdalanadigan, millat bilan bog‘liq tarzda qadimdan mavjud bo‘lgan, xalq tomonidan e’zozlanadigan, qadriyat darajasida ulug‘lanadigan, turmush darajasiga singib ketgan birlikdir.

Navro‘z leksemasi assotsiativ maydoniga quyidagilar kiradi: *o‘zbek xalq milliy bayramlaridan biri, 21-mart kunida nishonlanadi, sayil, 21-mart, o‘yinlar, bayram, bahor, bahor bayrami, yangilanish bayrami, momolar, bolalar, sumalak, kurash, ko‘pkari, uloq, ko‘katlar, ko‘k somsa, tog‘ lola sayli, bayram, xursandchilik, sumalak, halim, qizlar, atlas, tabiatning uyg‘onishi, adras, kiyimlar, jamalak, do‘ppi, sayillar, ko‘katlar, tengkunlik, lolalar, tog‘lar, uyg‘onish, shodiyona, o‘yin-kulgu, atlas ko‘ylak, karnay-surnay, gullagan daraxtlar, yoqimli havo, dorboz, masxarabozlar, kursdoshlarim, universitetdagi turli tadbirlar, Mehrjon, birinchi prezidentimiz Islom Karimov, milliy liboslarimiz, milliy taomlarimiz, har yili bahorda kun va tunning teng kunligi munosabati bilan 21-martda nishonlanadi, bahor fasli, quyoshli kunlar, mahalla, lapar, kuy-qo‘shiq, san’atkorlar, oliyjanoblik, mehr-saxovat, tayyorgarlik, liboslar, issiq, o‘yin, arqon tortish, raqs, raqqosalar, raqqos, dorboz, har kuning Navro‘z o‘lsin, soch o‘rish* va boshqalar.

Navro‘z leksemasi assotsiativ maydonining yuqori chastotali birliklari quyidagilardan iborat bo‘lib, ular maydonning yadro qismidan o‘rin oladi: *o‘zbek xalq milliy bayramlaridan biri, 21-mart kunida nishonlanadi, sayil, 21-mart, o‘yinlar, bayram, bahor, bahor bayrami, yangilanish bayrami, momolar, bolalar, sumalak, kurash, ko‘pkari, uloq, ko‘katlar, ko‘k somsa, tog‘ lola sayli, bayram, xursandchilik, sumalak, halim, qizlar, atlas, adras, kiyimlar, jamalak, do‘ppilar, uloq, momolar, sayillar, ko‘katlar, lolalar, tog‘lar, uyg‘nish, bayram, shodiyona, o‘yin-kulgu, atlas ko‘ylak, sumalak, ko‘k somsalar, karnay-surnay, gullagan daraxtlar, yoqimli havo, dorboz, masxarabozlar, kursdoshlarim, universitetdagi turli tadbirlar va boshqalar.*

Quyidagi javob reaksiyalari assotsiativ maydonning chekka qismidan o‘rin oladi*: birinchi prezidentimiz Islom Karimov, milliy liboslarimiz, milliy taomlarimiz, har yili bahorda kun va tunning teng kunligi munosabati bilan 21-martda nishonlanadi, bahor fasli, quyoshli kunlar, mahalla, lapar, kuy-qo‘shiq, san’atkorlar, tayyorgarlik, liboslar, issiq, o‘yin, arqon tortish, raqs, raqqosalar, raqqos* va boshqalar.

Assotsiativ maydondan so‘z, so‘z birikmasi va gap shaklidagi javob reaksiyalari o‘rin olgan.

Assotsiativ maydonda *Navro‘z* leksemasi quyidagi birliklar bilan paradigmatik munosabatga kirishadi:

1) sinonimik munosabat: *yangi kun, 21-mart, yangilanish bayrami;*

2) partonimik munosabat: maydondan Navro‘z so‘zi bilan qism-butun munosabatiga kirishadigan *sumalak, kurash, ko‘pkari, uloq, ko‘katlar, ko‘k somsa* kabi birliklar ham o‘rin olgan;

3) giponimik munosabat: Navro‘z so‘zi maydondagi bayram so‘zi bilan tur-jins munosabatiga kirishadi.

Assotsiativ maydon birliklarining grammatik-struktur belgilari:

Navro‘z leksemasi assotsiativ maydonida *turtki so‘z + assotsiativ birlik* munosabatida quyidagi aloqa-bog‘lanish turlari kuzatiladi:

Tobe aloqa usullari: a) boshqaruv usuli *Navro‘z* turtki so‘zi bilan assotsiativ bog‘langan javob reaksiyalarining o‘zaro sintagmatik munosabatida kuzatiladi, ya’ni: *arqon tortish, bayramga tayyorgarlik;*

b) moslashuv usuli: *bahor bayrami, tabiatning uyg‘onishi;*

c) bitishuv usulida: *yangilanish bayrami, ko‘k somsa, lola sayli, atlas ko‘ylak, gullagan daraxtlar, yoqimli havo, quyoshli kunlar.*

Assotsiativ maydonda struktur jihatdan quyidagi tuzilishli birliklar o‘rin olgan:

sodda so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: *sumalak, halim, qizlar, atlas, adras, kiyimlar, jamalak, do‘ppilar, momolar, sayillar, kurash, ko‘katlar, lolalar, tog‘lar, uyg‘onish, shodiyona, sumalak, ko‘pkari, uloq* kabilar;

qo‘shma so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: *tengkunlik, oliyjanoblik* kabilar;

juft so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: *karnay-surnay, kuy-qo‘shiq, o‘yin-kulgu, mehr-saxovat* kabilar;

birikma shaklidagi assotsiatsiyalar: *yangilanish bayrami, atlas ko‘ylak, gullagan daraxtlar, quyoshli kunlar* kabilar;

gap shaklidagi assotsiatsiyalar: *21-mart kunida nishonlanadi, har yili bahorda kun va tunning teng kunligi munosabati bilan 21-martda nishonlanadi, har kuning Navro‘z o‘lsin* kabilar.

Assotsiativ maydondan o‘ziga xos konnotativ birliklar o‘rin olgan bo‘lib, ularning ayrimlari *navro‘z* leksemasi bilan bevosita bog‘liq barqaror birliklar – maqollar hisoblanadi: *Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas, Mizondan so‘ng yoz bo‘lmas; har kuning Navro‘z o‘lsin.*

Navro‘z leksemasining assotsiativ maydonidan o‘rin olgan *kurash, ko‘pkari, uloq, arqon tortish, soch*

[1] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: университет, 2009. – Б. 147.

[2] Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 57.

o‘rish kabi birliklar milliy-madaniy xususiyatga egaligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Leksemaning assotsiativ ma’nosi leksik ma’no kabi so‘z orqali reallashadi, biroq leksik ma’no leksemada o‘z ifodasini topsa, assotsiativ ma’no til egalari lisoniy ongida muayyan leksik birlik bilan bog‘liq tarzda shakllanadi. Assotsiativ ma’no leksemaning nafaqat semantik jihati, grammatik shakli, intonatsion xususiyati, so‘z yasalish strukturasi, uslubiy, dialektal belgisi kabi lingvistik omillar, balki ekstralingvistik omillar asosida ham hosil bo‘ladi[1].

Demak, Navro‘z turtki so‘zi assotsiativ maydoni bir nechta sath birliklari yordamida voqelanadi. Leksik birliklar mavzu jihatdan turli xil ekanligi bilan boshqalaridan farqlanadi. Maydondan o‘rin olgan sintaktik birliklar, maqollar o‘zbek xalqi muloqot jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi, yozma adabiyot, og‘zaki so‘zlashuv uslubida milliy-madaniy xususiyatga ega bo‘lgan bunday birliklar faol ishlatilishi bilan xarakterlanadi.

Navro‘z turtki so‘zi asosida aniqlangan assotsiativ maydonda maydonga mansub birliklar sinonimik, uyadoshlik, tur-jins asosida paradigmatik munosabatga kirishadi. Assotsiativ maydonni grammatik-struktur belgilari va pragmatik xususiyatlari asosida o‘zaro bir tizimga uyushadigan birliklar tashkil etadi.

Rezyume: This article analyzes the description of the associative field in the Uzbek language, scientific views on it, units of the field; the ratio between the central and peripheral units of the field; lexical, semantic and syntactic features of the field. On the basis of associative experience, the formation of syntactic compounds through associative units is analyzed.

Резюме: В данной статье анализируются описание ассоциативного поля в узбекском языке, научные взгляды на него, единицы поля; соотношение между центральной и периферийной единицами поля; лексические, семантические и синтаксические особенности поля. На основе ассоциативного опыта анализируется образование синтаксических соединений через ассоциативные единицы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHAXSLARARO MULOQOT VA XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASINING TURLI YONDASHUVLAR KESIMIDAGI TALQINI

Adamboeva Nafisa Qodirberganovna,
Termiz davlat pedagogika instituti xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi, erkin tadqiqotchi

Muloqotning muvaffaqiyati ko‘plab omillar orqali jumladan, xushmuomalali muloqot qoidalariga rioya qilish bilan belgilanadi. M.A.Kormilitsinaning fikriga ko‘ra, “xushmuomalalik kategoriyasi muloqot paytida o‘zaro ta’sir uyg‘unligini saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi”[2]. Bizning hayotimizda xushmuomalalik kategoriyasi juda katta ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, olimlar tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan ushbu kategoriyaning yagona ta’rifi hali taklif qilinmagan. Xususan, xushmuomalalik kategoriyasini turli aspektlar nuqtai nazaridan talqinini quyidagicha izohlash mumkin:

Xushmuomalalik axloqiy kategoriya sifatida V. A. Kondrashov tomonidan “inson shaxsining axloqiy sifati, uning xatti-harakatlari va boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatini insonparvarlik qadriyatlari nuqtai nazaridan tavsiflovchi, boshqa odamlar uchun eng yuqori qadriyat sifatida tan olinishi”[3] deb ta’riflaydi.

Shunga o‘xshash fikrni V. V. Kobzeva ham qo‘llab-quvvatlaydi, u “xushmuomalalik insonlar-

[1] Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – Б. 25.

[2] Кормилицына, М.А. / Категория вежливости в оценочных речевых жанрах / М.А. Кормилицына, Г.Р. Шамьенова // Жанры речи. – Саратов: Колледж, 1999. – С. 257. (266-С)

[3] Кондрашов, В.А. / Этика / В.А. Кондрашов. – Ростов н/Д.: Феникс, 1999. – С.32 (130 с.)

ni hurmat qilish kundalik xatti-harakatlar normasi bo‘lgan shaxsning axloqiy sifati” [1]deb ta’riflaydi. V. I. Karasik yuqoridagi ta’rifga yondashgan holda, bu ta’rifga biroz aniqlik kiritadi. Shunga ko‘ra, hurmat “nima” ekanligini va xushmuomalalik “qanday” ekanligini aytib, hurmat tushunchasi qanday hollarda namoyon bo‘lishining tashqi tabiati haqida fikr yuritadi[2].

T.V.Larina “ ziddiyatsiz muloqotga erishish va sherikning umidlarini qondirishga qaratilgan” strategiyalar tizimi sifatida xushmuomalalikni belgilashni taklif qiladi[3]. E.Yu.Shoyenberg xushmuomalalik tushunchasini nutq aktiga kamaytiradi, bu ma’lum nutq vositalarini tanlash bilan tavsiflanadi [4].

Tilshunos T.V.Larina to‘g‘ri ta’kidlaganidek, xushmuomalalik, jamiyatning ijtimoiy-madaniy tashkil etilishi va shaxslararo munosabatlar, ularning kommunikativ ongi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisa[5]dir, shuning uchun bu kategoriyani faqat fanlararo darajada va madaniyatlararo ko‘rib chiqish olimlar tomonidan tavsiya qilingan. R.Vatts xushmuomalalik tushunchasini ta’riflash gidra bilan kurashishga o‘xshaydi, u juda ko‘p qirrali[6], deb bejiz aytmagan. Yuqorida keltirilgan olimlarning fikridan xushmuomalalik kategoriyasini quyidagi jadvalda keltirilgan yondashuvlar orqali tahlil qilamiz. Lekin ishimizning yangiligi sifatida xushmuomalalik kategoriyasini aksiolingvistik yondashuv orqali tahlil qilishni maqsad qilganmiz.

Xushmuomalalik kategoriyasi



Axloqiy va etik yondashuv. Xushmuomalalik murakkab hodisa bo‘lib, axloq va etika tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. Axloq deganda “axloq haqidagi falsafiy ta’limotni, etika esa insonning xulq-atvori qoidalari”ni tushunamiz[7].

“Xushmuomalalik zarurati – bu boshqa odamga o‘z maqsadlariga erishish vositasi sifatida emas, balki maqsad sifatida munosabatda bo‘lish uchun axloqiy talablarning aniqlanishi, bu talablarga chinakam insoniy timsollarning shakllarini beradi”[8]. Shu nuqtai nazardan, “xushmuomalalik” tushunchasi tizimiga hurmat va ehtirom, xushmuomalalik va nazokat, xulq-atvor madaniyati kabi komponentlar kiradi, ularning aloqa jarayoniga ta’siri odob-ahloq qoidalari bilan tartibga solinadi. Xushmuomalalikning bu kabi komponentlari hodisaning mazmuniga, ichki tomoniga tegishli bo‘lgan hurmat va xulq-atvor madaniyati kabi tarkibiy qismlarni qayd etadilar. Shu bilan birga, hurmat, nazokat va odob-axloq qoidalari xushmuomalalikning protsessual yoki tashqi ko‘rinishini belgilaydi[9]. Turli mamlakatlarning lingvomadaniy an’analarida xushmuomalalik kategoriyasi turli yo‘llar bilan belgilanadi, ammo barcha ta’riflar xushmuomalalikni falsafiy tushunishga asoslanadi. Shunga asoslanib, faylasuf V.A. Kondrashovaning talqiniga ko‘ra, “xushmuomalalik – bu inson shaxsiyatining axloqiy sifati bo‘lib, u boshqa odamlarga nisbatan uning xulq-atvori va munosabatini insoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan tavsiflaydi, shaxsni boshqa odamlar uchun eng yuqori qadriyati sifatida namoyon bo‘ladi”[10].

Har qanday xushmuomalali insondan boshqalarning vaqtini, kuchini tejashi, aniqroq qilib aytganda, o‘zini kuttirmaslik, so‘zida turish qobiliyati talab etiladi. “U haqiqatni yoki o‘z e’tiqodini buzmasdan, boshqalarni ko‘proq tinglay olishi ham kerak. Odamlarda xushmuomalalikni shakllantirish qiyin vazifadir. Bu, birinchi navbatda, nafaqat rasmiy xulq-atvor qoidalari va odob-axloq qoidalarini bilishni nazarda tutadi, garchi bu juda muhim bo‘lsa-da, lekin shaxsning ma’naviy dunyosini yaxshilashga, boshqa odamlarga hamdard bo‘lish qobiliyatiga tayanadi”[11].

Shuni aytishimiz o‘rinliki, asrlar davomida xushmuomalalikka katta ahamiyat berilgani bejiz emas. XIX asrda yashagan odob-axloq qoidalari ustida tadqiqot olib borilgan tadqiqotchi olimlar shunday yozadilar:

[1] Кобзева, В.В. Этикет в вопросах и ответах. – Москва: Гранд, 2003. – С.23 (288 с).

[2] Карасик, В.И. Язык социального статуса. – Москва: Высшая школа, 1991. – С.114 (388 с.)

[3] Ларина, Т.В.Категория вежливости и стиль коммуникации. (Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций). – М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. – С. 86 (507 с.)

[4] Шенберг, Е.Ю. К проблеме определения категории вежливости в лингвистике// Вестник Челябинского государственного университета, 2013. – No 14. – С. 126-130

[5] Ларина, Т.В.Категория вежливости и стиль коммуникации. (Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций). – М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. – С. 86 (507 с.)

[6] Watts, R. J. Key Topics in Sociolinguistics. Politeness. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – p. 5.

[7] Ширяев, Е.Н., Л.К. Граудина. Культура русской речи. – Москва: Норма, 2006. – С. 285.

[8] Кондрашов, В.А. Этика. – Ростов н/Д.: Феникс, 1999. – С. 32.

[9] Попов, А.С. / Вежливость как категория морали / редакционно-издательский отдел Новосибирского университета, 2010. – С. 60.

[10] Кондрашов В.А. Этика. Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. – С. 32.

[11] Кондрашов, В.А. / Этика / В.А. Кондрашов. – Ростов н/Д.: Феникс, 1999. – С. 34.

“Xushmuomalalik o‘zining tashqi ko‘rinishi orqali boshqalarga, ayniqsa, yuqori tabaqa vakillariga berilishi kerak bo‘lgan muayyan e’tibordir”[1].

Nutq etikasi deganda “axloqiy me’yorlar, milliy va madaniy an’analarga asoslangan to‘g‘ri nutq xatti-harakati qoidalari tushuniladi. Og‘zaki nutq etikasi muvaffaqiyatli og‘zaki nutq muloqot shartlariga rioya qilishdan boshlanadi: qabul qiluvchiga xayrixoh munosabatda bo‘lish, suhbatga qiziqish ko‘rsatish, suhbatdoshning dunyoga munosabatini “tushunish”, o‘z fikrini samimiy ifodalash, hamdardlik bilan e’tibor berishdan iborat. Bu qabul qiluvchining bilim dunyosiga e’tibor qaratib, o‘z fikrlarini aniq shaklda ifodalashni belgilaydi”[2].

Xushmuomalalik ham ko‘pincha odob-axloq qoidalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu “jamiyatning madaniy qadriyatlarini odob-axloq qoidalarida aks ettiradi. Turli nutq jamoalariga xos bo‘lgan xulq-atvor ustuvorliklari ta’kidlangan”[3].

V. V. Kobzevaning talqiniga ko‘ra, “odob-axloq qoidalari va normalari rasmiylashtiriladi va insonni axloqiy ko‘rsatmalar talab qilganidek, yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg‘onni tanlashga majburlamaydi. Odob-axloq qoidalari asosan umuminsoniy madaniyat, xushmuomalalik, sertakalluflik do‘stlik talablarini belgilaydi, lekin ayni paytda ular insonlarning yoshi, maqomi, gender farqlari iyerarxiyasini tartibga soladi”[4].

Yuqoridagi misollardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, turli madaniyatlarda xushmuomalali munosabatni ifodalashning verbal va noverbal vositalarini o‘rganadigan madaniyatlararo muloqot nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilmasa, “xushmuomalalik” tushunchasini o‘rganish to‘liq bo‘lmaydi.

Lingvistik yondashuv. Tildagi antropotsentrik tamoyil so‘zlovchilarning lingvistik ongida aks etadigan yoki nutqiy aktida so‘zlovchining mavjudligini aks ettiruvchi keng ko‘lamli lingvistik hodisalarni o‘rganish bilan bog‘liq. Tilshunoslikdagi kognitiv-pragmatik yo‘nalish tildagi inson omilining mohiyatini yoritib, lingvistik shaxsni o‘rganishda yangi, muhim istiqbollarni ochadi va uning til tuzilmalarida aks etishiga e’tibor qaratadi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda lingvistik shaxs ma’lum konvensiyalar va qoidalarga muvofiq passiv idrok etuvchi til sifatida emas, balki uning subyekti va yaratuvchisi sifatida qaraladi. Shunday qilib, antropotsentrik lingvistik paradigma ilmiy qiziqishlar tilning faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlarini, so‘zlovchining aniq maqsadlariga muvofiq til birliklaridan foydalanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Muloqotda aks etadigan lingvistik paradigmalar o‘z o‘rnida xushmuomalalik va odobli xatti harakat ya’ni etikada o‘z aksini topadi.

X. Spenser nutq vositalari va xatti-harakatlar taktikasini tanlashga ta’sir qiluvchi quyidagi omillarni ajratishni: 1) muallif o‘z-o‘zini identifikatsiya qilish bilan bog‘laydigan “shaxs”, ya’ni o‘zini guruh a’zosi deb bilish va boshqalar bilan munosabatlarda shakllanadigan g‘oyani; 2) insonlarning muloqot jarayonida hisobga oladigan ijtimoiy huquq va majburiyatlarini; 3) muloqot qiluvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan yoki amalga oshirilmaydigan muloqot maqsadlarini taklif qildi[5].

Muloqot maqsadlariga keladigan bo‘lsak, V.I Karasik ularning har qanday holatda ham mavjudligini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda, olim xushmuomalali xatti-harakatlarning maqsadini belgilaydi ya’ni “suhbatdoshni unga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lishga ishontirish va buning evaziga yaxshi munosabat qabul qilishi mumkinligi”ni o‘z tadqiqotlarida isbotlagan.

Madaniy yondashuv. Xushmuomalalik tushunchasi nafaqat axloqiy va lingvistik, balki madaniy kategoriya hamdir. Madaniyat, G. Xofstedening so‘zlariga ko‘ra, ijtimoiy o‘yinning yozilmagan qoidalaridan iborat[6].

T. V. Larinaning talqini ko‘ra, “biz madaniyatlararo jamiyatda duch keladigan kommunikativ xatti-harakatlarning milliy xususiyatlari millatning kuchli mustahkamlangan an’anaviy jamoaviy xususiyatlarini ifodalaydi, bu o‘zaro ta’sir jarayonida boshqa kommunikativ strategiyalar va muloqot vositalaridan (verbal yoki noverbal) foydalanishni tanlash va afzal ko‘rishda namoyon bo‘ladi. Natijada milliy muloqot uslubi yoki kommunikativ etnostil yaratiladi”[7].

“Milliy muloqot uslubi ijtimoiy-madaniy munosabatlar, madaniy qadriyatlar, muayyan madaniyatga xos me’yor va an’analar, milliy odob-axloq tizimining xususiyatlari ta’sirida shakllanadi. Milliy muloqot uslubini shakllantiruvchi eng muhim omil bu madaniyatdir”[8].

X. Spenser turli madaniyat vakillarining til vositalaridan foydalanishidagi farqni quyidagi sabablarga bilan izohlaydi: 1) matn normalarini idrok etishda-

[1] Юрьев, Владимирский / Правила вежливости и светского этикета. По изданию “Правила светской жизни и этикета. Хороший тон” /1889 г. – Москва: Белый город, 2007. – С. 42.

[2] Ширяев, Е.НЯ, Л.К. Граудина // Культура русской речи / – Москва: Норма, 2006. –С.15.

[3] Карасик, В.И. / Язык социального статуса / – М.: Высшая школа, 1991. – С. 116.

[4] Кобзева, В.В. / Этикет в вопросах и ответах /– Москва: Гранд, 2003. – С. 116.

[5] Spencer-Oatey, Helen / Culturally speaking: Culture, Communication and Politeness Theory / – New York: Continuum International Publishing Group, 2008. – P.27.

[6] Hofstede, G. / Culture and organizations: Software of the mind / – London: McGraw-Hill, 1991. – C.4.

[7] Ларина, Т.В. / Категория вежливости и стиль коммуникации. (Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций) / Т.В. Ларина. – М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. – С.86.

[8] Yuqoridagi manba. – С. 84.

gi katta farq. (misol uchun, o‘zbeklar va inglizliklar o‘rtasidagi biznes uchrashuvlari misolini keltiradi, ular muloqot oxirida vaziyatni turlicha baholaydilar); 2) ijtimoiy-pragmatik tamoyillar; 3) pragmalingvistik odatlar (strategiya va til vositalarini tanlash va ularni vaziyatda qo‘llash); 4) asosiy madaniy qadriyatlarning farqi[1].

E. Xoll madaniyatlarning kommunikativ modelini taklif qildi, ular quyidagi axborot tizimlari bilan tavsiflanadi: 1) muloqot; 2) insonlarning ijtimoiy tashkiloti; 3) yashash sharoitlarini ta’minlash; 4) genderni jamiyatdagi roli; 5) samoga bo‘lgan

munosabat; 6) vaqt haqidagi tasavvurlar; 7) o‘qitish; 8) o‘yin; 9) o‘z guruhini himoya qila olish qobiliyati; 10) moddiy resurslardan foydalanish.

Vaqt bilan bog‘liq holda, E. Xoll barcha madaniyatlarni odamlar odatda bir vaqtning o‘zida faqat bitta ishni bajarishga (monoxron) e’tibor qaratadigan madaniyatlarga va bir vaqtning o‘zida bir nechta ishlarni qilishga moyil bo‘lganlar (polixron) ajratdi[2].

Madaniyatlar tipologiyasini taqdim etishga katta hissa qo‘shgan yana bir kulturolog G.Xofsteded to‘rtta madaniy parametrni ta’kidlaydigan parametrik modelini, madaniyatlararo muloqotda odamlarning kommunikativ xulq-atvorini ajratdi. Bularga quyidagilar kiradi: kuch masofasi, kollektivizm, individualizm, noaniqlik kutish, ayollik/erkaklik, uzoq muddatli/qisqa muddatli vaqtga yo‘naltirish, indulgensiyani cheklash[3].

Rahbariyat vakillari o‘rtasidagi masofasi jamoaning pastki va yuqori a’zolarini ajratib turadi. Rahbariyat vakillari o‘rtasidagi masofasi katta bo‘lgan mamlakatlarda qo‘l ostidagilar biror narsa qilishni buyurishni kutishadi.Bunday madaniyatlarda xodimlar va rahbarlar o‘rtasida kuchli hissiy aloqa mavjud. Bo‘ysunuvchi hokimiyatga qarshi chiqishga haqli emas. Individualizm/kollektivizm parametrini G.Xofstede milliy madaniyatlarning ikkinchi global o‘lchovi sifatida ajratib ko‘rsatadi. Olim o‘zining parametrik modelining uchinchi madaniy o‘lchovini “erkaklik/ayollik” deb belgilagan. Uning tasnifining bu jihati mutlaq kategoriya sifatida erkaklar va ayollar o‘rtasidagi biologik farqlar bilan bog‘liq emasligini, balki ularning har bir jamiyat uchun odatiy ijtimoiy rollarni bajarishi bilan bog‘liqligini tavsiflaydi.

Olimning beshinchi parametri qisqa muddat va uzoq muddat bilan bog‘liq ijtimoiy yo‘nalish deb baholaydi. Bu parametrda uzoq muddatga yo‘naltirilgan jamiyatlar uchun quyidagi qadriyatlar: qat’iyatlilik, tejamkorlik, munosabatlarning maqom ierarxiyasi, uyat hissi mavjudligini belgilash xarakterlidir. So‘nggi parametrda inson o‘zini o‘zi sevish yoki cheklash bilan bog‘liq. O‘z-o‘zini yoqtirish darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatda hayotdan zavqlanish va zavq olish bilan bog‘liq bo‘lgan insonning asosiy va tabiiy ehtiyojlari juda erkin qondiriladi. Cheklov - ehtiyojlarni qondirish qat’iy ijtimoiy me’yorlarni joriy etish orqali nazorat qilinadigan va boshqariladigan jamiyatga xosdir[4]. Shundan xulosa qilish mumkinki, xushmuomalalik jamiyatning madaniy turiga bevosita bog‘liqdir.

Aksiolingvistik yondashuv. Tildagi aksiologiya (ya’ni aksiolingvistika) fanning yangi sohasi bo‘lib, uning mavzusi til va nutqda qadriyatlar va baholarni ifodalash usullari hisoblanadi. Aksiolingvistika bo‘yicha mutaxassislarning ta’kidlashicha, baholash va qiymat “hozirda inson va jamiyat mavjudligining asosiy belgilari sifatida tan olinadi, lekin ularning birligi va ayni paytda tilda o‘zgaruvchan ifodalanishida hali ma’lum bo‘lmaganlar qatorida qoladi”[5]. Qiymat tushunchasi sohaga oid, baholash esa nutq subyektining qadriyat munosabatining namoyon bo‘lishi deb tushuniladi. “Qiymatni baholashda asosiy narsa obyektning qiymatga bo‘lgan munosabati emas, balki baholash obyektining me’yoriy idealga, standartga, modelga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi to‘g‘risidagi qadriyatlarni o‘z ichiga oladi”[6]. Shunga qaramay, aksiololingvistika qiymat va bahoning birligiga qiziqish bilan tavsiflanadi, buning natijasida nutq mavzusining aksiologik “sozlanishi” ta’minlanadi.

Aksiologiyada baho tushunchasini lingvistik jihatdan o‘rganilishi fan oldiga aksiolingvistik birliklarni aniqlash va tahlil qilish zaruriyatini qo‘ydi. Zero nutqda baho hodisasi orqali narsa-predmetlar tanlanadi, tahlil qilinadi. Leksemalar esa konnotativ ma’nolarida baho semasini ifodalaydi. “Baho semantik kategoriya sifatida semasiologik va onomasiologik tahlil etiladi. Bunday tahlil etishda bahoning semantik elementlari e’tiborga olinadi”[7]. Nutqda ishlatiladigan xushmuomalalik birliklarga aksiolingvistik jihatdan yondashuvda baho va qadriyat tushunchalariga alohida yondashilmaydi. Chunki ular birini taqozo etuvchi birliklardir. Baho orqali tanlangan narsa-predmat, voqelik ijobiy yoki salbiy baholangach, qadriyatga aylanadi. Bu jarayonda so‘zlovchining ya’ni nutq egasining til bilish imkoniyatlari doirasida tilda voqelanadi. Misol uchun, o‘zbek adibi Tog‘ay Murodning *“Ot kishnagan*

[1] Spencer-Oatey, Helen / Culturally speaking: Culture, Communication and Politeness Theory / – New York: Continuum International Publishing Group, 2008. – P. 29.

[2] Hofstede, G. / Culture and organizations: Software of the mind /– London: McGraw-Hill, 1991. – P.61.

[3] Yuqoridagi manba. – P. 59.

[4] Гойхмана О. Я. Русский язык и культура речи под ред. Москва: Инфра-М. – 2009. – С.204.

[5] Лингвистика и аксиология: этносемиометрия ценностных смыслов. – М.: Тезаурус, 2011. – С. 4.

[6] Гибатова Г.Ф. Аксиология в языке // Вестник Оренбургского государственного университета. 2011. No2. – С. 130.

[7] Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 22.

oqshom” qissasidagi jumlada nutqda ifodalanadigan xushmuomalalik birliklarini ijobiy baholangan qadriyat misolida kuzatishimiz mumkin. ”*Xush ko‘rdik, xush ko‘rdik, dedi .- Xushvaqt bo‘l, qassob, xushvaqt bo‘l, - dedi sovchilar. –Qani ilohi omin, shu uyda katta- katta to‘ylar bo‘lsin, olloh – akbar! - Olloh – akbar! Ayganingiz kelsin!*[1]

Jumlada keltirilgan “*xush ko‘rdik, xush ko‘rdik”* til birligi o‘zbek madaniyatida uyiga mehmon kelganida ishlatiladi va ushbu birlik orqali mehmonga bo‘lgan izzat-ikrom va unga nisbatan iltifot ko‘rsatish ma’nolari tushuniladi. Bu esa voqelikga ijobiy bahoni beradi. Nutqda bunday ishlatiladigan leksemali so‘zlar o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan qadriyatlar deb qaraladi. Yana bir o‘zbek adibi Shukur Xolmirzayev qalamiga mansub *“Qil ko‘prik”* romanidan olingan jumlada xushmuomalalik bilan ishlatiladigan nutq birliklari salbiy baholanganligini quyidagi misol orqali ko‘rishimiz mumkin: *“–Salom berdik, – dedi Qurbon. Biroq shu zahoti qizning o‘zini tahqirlagandek do‘q qilgani esiga tushdi. “Alik olmasang, olma”, deganday qilib, eshikchani itara boshladi”*[2]. Ushbu parchada keltirilgan *“Salom berdik”* nutq birligi pichingtarzida ifodalangan. Bu birlikda salbiy munosabat aks etmoqda, sababi bu birlik xato ifodalanyapti, uning to‘liq varianti *“Assalomu alaykum”,* so‘zlovchi so‘z tuzilishini qisqartirib buzib ishlatish orqali o‘zining salbiy munosabatini ko‘rsatmoqda. Aynan bu tarzada ifodalash salbiy bahoga misol bo‘la oladi. Qadriyatlar me’yorlarda o‘z aksini topadi: qadriyat munosabatining lingvistik ifodasi ko‘pincha aniq yoki nazarda tutilgan “bo‘lishi kerak”, “yaxshi (yomon, befarq), bu va boshqa” shakllari bo‘lgan bayonotlar bilan belgilanadi. Baholovchi iboralarga marosimlar, qoidalar, odatlar kiradi. Udumlar, nasihat va ogohlantirishlarning baholovchi xususiyati yaqqol ko‘rinadi.

Resume. In this article, the category of politeness in speech is analyzed from various aspects. That is, it is thought that the category of politeness is an important concept that acts as an important factor in the maturation of a person.

Резюме: В данной статье категория вежливости в речи анализируется с разных сторон, то есть считается, что категория вежливости является важным понятием, выступающим важным фактором взросления человека.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ФАНДА *ТЕРМИН* ВА *НОМЕНКЛАТУРА* ТУШУНЧАСИ

Мукумов Махмуд Худайбердиевич,
Термиз давлат педагогика институти хорижий тиллар назарияси ва методикаси кафедраси катта ўқитувчиси

Ўзбек тили терминшунослик соҳасининг ҳозирги даражаси, илмий қиймати бевосита рус ҳамда бошқа халқлар терминшуносларининг ишлари билан чамбарчас боғлиқ. Шу жиҳатдан қараганда, Н.А.Баскаков, Л.А.Булаховский, Г.О.Винокур, В.В.Виноградов, А.А.Реформатский, Д.С.Лотте, С.А.Чаплигин, Т.Л.Кандалаки, В.П.Даниленко каби ўнлаб терминшунос олимларнинг ишлари ўзбек терминшунослигининг қарор топишига ўзининг катта ҳиссасини қўшди.

Туркий халқлар тилшуносларининг, жумладан, М.Ш.Гасимов, Б.У.Орузбаева, Р.А.Уреканова, Ф.С. Фасеев каби олимларнинг ишлари ҳам терминологиямиз ривожига ўз улушини қўшди.

Ўзбек тилшунослигининг, жумладан, унинг терминологиясининг назарий масалари ўлкамизда ҳам ўтган асрнинг бошларидан ўрганила бошланди. Ўтган асрнинг 20-30 йилларида қатор илмий анжуманларнинг бўлиб ўтганлиги ва уларда янги терминлар ясаш масалалари кўтариб чиқилганлиги терминшунослигимизнинг дастлабки қадамлари эди.

Ўзбек тили терминшунослигининг ривожланиши ҳақида гап кетар экан, биринчи навбатда С.И-

[1] Tog’ay Murod.Ot kishnagan oqshom: Qissalar. /”Asr oshgan asarlar” turkumi. – Toshkent: Sharq, 2006. – B.5.

[2] Холмирзаев, Шукур.Қил кўприк: Роман. – Тошкент, 1984.– Б. 28.

броҳимов[1] ҳамда У.Турсуновларнинг[2] ишларини эслатиш лозим бўлади.

Ўзбек тилининг замонавий терминологик системаларини тадқиқ қилиш, айниқса, ўтган асрнинг 50-йилларидан кейин сезиларли даражада кўзга кўрина бошлади. И.Расулов, Ҳ.Жамолхонов, Н.Ҳотамов, Л.Решетова, Ж.Дўстмуҳамедов, Д.Бозорова, Н.Маматов, Н.Қосимов, Э.Шоаҳмедов, Қ.Сапаев, А.Мадвалиев, А.Қосимов кабиларнинг ишлари шулар жумласидандир. Айниқса, Р.Дониёровнинг она тилимиз техник терминларини тадқиқ қилишга бағишланган докторлик диссертацияси ўзбек терминшунослигининг ривожига катта ҳисса бўлиб қўшилди.

Аммо шуни таъкилаш керакки, ҳозирги замон ўзбек тилшунослигида *термин*, *терминология*, *номенклатура* тушунчаларининг маъноларини ҳамда улар ўртасидаги фарқларни ажратиш энг муҳим муаммолардан бири бўлиб ҳисобланади. Тилшунос терминологларнинг бу муаммо устида қилган ишлари кенг доирани қамраб олса ҳам, бу тушунчаларнинг келиб чиқиши, яъни этимологиясини аниқлашда яхлит фикрга келиша олган эмас.

“Термин” сўзи лотин тилидаги **“terminus”** сўзидан келиб чиқиб, илк даврда чегара, чек(ланганлик) маъноларини билдирган[3]. Аммо бу сўзнинг келиб чиқиши ҳозирги даврдаги термин тушунчасини тўла ифодаламайди. Чунки термин маълум маънога эга бўлиб, бошқа лексик бирликлар билан семантик жиҳатдан алоқада бўлади ва бир яхлит терминология системасини ташкил қилади.

Бошқа Ғарбий Европа тиллари материалларида олиб борилган илмий тадқиқотларда **“terminus”**нинг **–** чегара маъносидан ташқари, бошқа маъноларни англатиши ҳақида бир неча фикрлар маълум қилинган. Масалан, бу лексик бирлик француз тилида **“terme” –** сўз, ундан сўнг эса ҳозирги даврда тушунилаётган “термин” тушунчасини ифодалайди. Инглиз тилида эса **“term”** сўзи тўғридан-тўғри “термин” сўзининг маъносини англатади. Рус тилида эса “термин” сўзи 18-аср ўрталари ва 19-аср бошларида муомалага киритилган ва қандайдир сўз, ибора ёки ном маъносида тушунилган[4].

Терминологиянинг ажралмас қисми бўлган *номенклатура* тушунчаси ўз функцияси жиҳатидан “термин”ларга жуда ўхшаб кетади. Натижада бу иккала тушунчаларни фарқлашда бир қанча чалкашликларга йўл қўйилиши мумкин. Шу сабабдан ҳам биз қуйида “номенклатура” сўзининг келиб чиқиши, луғавий маъноси ва “термин”лардан фарқлари ҳақида фикр юритамиз.

“Номенклатура” сўзи лотин тилидан келиб чиққан бўлиб, “номларни ёзиш, аташ” деган маънони беради. Тилшунос А.Д.Хаютиннинг таъкидлашича, “номенклатура” сўзи таниқли ботаник К.Линней томонидан ишлатилган ва унга ўсимликлар классификациясини яратишда хизмат қилган[5].

“Номенклатура” атамалар, номлар системасининг маъносини берса-да, кейинги пайтда бу сўз маълум бир фан ёки нарсаларга тегишли бўлган тушунчаларни ифодалайди. Ана шу жиҳатдан баъзи бир тилларда “терминология” ва “номенклатура” тушунчалари айнан бир нарса деб тушунилади. Бизнинг фикримизча, бундай тушунилиш асосли эмас, чунки юқорида келтирилган фикрларга асосан терминология жинс тушунчалари системасини ифодалайди. “Номенклатура” сўзи эса алоҳида объектлар–*предметлар* ёки *тур* тушунчасини ифодалайди.

Демак, “термин” номенклатурага нисбатан кенг тушунча бўлиб, махсус сўз маъносини, “номенклатура” эса терминга нисбатан тор маънони англатиб, бирон бир умумий терминологик система ичидаги махсус атамаларни ифодалайди. Терминология эса термин ва номенклатуралар ҳақидаги фан ёки таълимотдир.

Тилшунослик фанида терминология масаласи жуда кўп ишланган соҳа бўлишига қарамасдан, тадқиқотчилар томонидан терминларнинг таснифи аниқ берилмаган.

Тилшунос Г.О.Винокур терминга шундай таъриф беради: “термин қандайдир алоҳида сўзлар бўлмай, балки махсус вазифага хосланган сўзлардир. Бундай сўзларнинг терминологик вазифаси аташдан иборатдир”[6]. Н.А.Баскаков “термин” тушунчасига Г.О.Винокур таърифига нисбатан мукаммалроқ қоида яратади: “термин назарда тутилган тушунчага айнан мос, барқарор бир маъноли ва терминология доирасида бошқа терминлар билан ўзаро муносабатдош сўз ёки сўз бирикмаси бўлиб, шу терминология таркибида уйғунлаштирилган ҳолда қўлланилиши билан характерланади”[7].

---

[1] Иброҳимов С.Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. – Тошкент, 1959.

[2] Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.

[3] Словарь иностранных слов под ред. И.В.Лехина и проф. Ф.Н.Петрова. – М., 1949; Ср.также А.А.Реформатский. Введение в языкознание. – М., 1955. – С. 80.

[4] Яновский Н. Новый словотолкователь. ч. Ш. – СИБ, 1806. – С.828.

[5] Хаютин А.Д. “Термин”, “Терминология”, “номенклатура” (Этимологические заметки) // Вопросы романо-германского и общего языкознания. – Самарканд, 1968. – С. 62.

[6] Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды Московского Института истории, философии, литературы. – М., 1939. Т.5. – С. 3.

[7] Баскаков Н.А. Современное состояние терминологии в языках народов СССР // Вопросы терминологии. Изд-во АН СССР. – М., 1961. – С. 57.

Баъзи терминшунос олимлар терминларда эмоционаллик, экспрессивлик ва кўп маънолилик (полисемантизм) хусусиятлари бўлмаслигини таъкидлайдилар[1]. Аксинча, Л.В.Тюрина[2] француз ва рус денгизчилик терминларини тадқиқ қилиб, терминларда нафақат кўпмаънолик, экспрессивлик ва эмоционаллик хусусиятлари бўлибгина қолмай, ҳатто терминлар метафорик кўчма маъноларга ҳам эга эканлигини ёрқин мисолларда исботлайди.

Ўзбек тилшуносларининг тадқиқотларида эса терминлар фан, техника, санъат ва шу каби соҳаларга оид бўлган тушунчаларни ифодалайдиган тил бирликлари сифатида талқин қилинади[3].

Ўзбек тилида мавжуд луғатлар ва дарсликларда ҳам бир-бирига ўхшаш таърифлар берилган бўлиб, баъзи бирларида терминларнинг битта тушунчани ифода этиши, барқарорлик хусусиятига эга эканлиги қайд этилса, яна бошқаларида эса терминлар сўз ёки турғун бирикмаларнинг махсус типи ҳисобланиб, махсус илмий тушунчаларни англатиши ҳақида фикр юритилади. Ҳолбуки, ўзбек луғатчилиги тарихида соҳавий атамаларга мурожаатлар учрайдики, бу борада аждодларимизда лексема ва атамани, терминни фарқлашга доир лисоний малака мавжуд бўлганлигини алоҳида қайд этиш лозим.

Жумладан, луғатшунос олим М.Қошғарийнинг “Девону луғатит турк” асарида қатор атамалар учрайди. Характерлиси шундаки, асардаги айрим терминлар, гарчи кўп бўлмасада, баъзи фонетик ўзгаришлар билан ҳозир ҳам ишлатилиб келинмоқда: *оқіш* – ўқиш, *уқуш* – ўқиш, англаш, *кілқ* – қилиқ, характер кабилар.

Биз ўз кузатишларимизда терминлик ёки терминлик даражасида эмасликни фарқлаш учун уларни қуйидаги гуруҳларга бўламиз: 1) аслий терминлар, 2) нисбий терминлар (терминоидлар). Аслий ва нисбий терминлар ўртасидаги фарқ, бизнинг назаримизда, шу билан фарқланадики, аслий терминлар бадиий адабиётда, сўзлашув нутқида, илмий адабиётларда ҳам ўз функцияси жиҳатидан юксак даражада терминлашган бўлади.

Нисбий терминлар эса паст даражада терминлашган бўлади, чунки маълум бир тушунча ёки ҳодисани ифодалашда тўлиқ термин даражасига бориб етмайди. Шуни таъкидлаш керакки, нисбий терминлар ифода планида аслий терминлардан жуда катта фарқ қилмайди, яъни улар маълум контексда термин даражасида қўлланилган бўлиши ҳам мумкин ва аксинча, баъзиларида оддий лексик бирлик сифатида қўлланилган бўлиши ҳам мумкин.

Илмий матннинг лексик таркибидаги асосий қисмини номенлар ёки номенклатура шакллари ташкил этади. Терминлар ва номенклатура шаклларининг ўртасидаги тафовутлар ва уларнинг ўзаро таъсири терминшуносликнинг энг долзарб муаммоси бўлиб қолмоқда. Номенклатура ва терминология ўртасидаги асосий фарқлардан бири – номенлар. Номенлар кўпинча терминологик луғатларда учрамаслиги билан ажралиб туради ёки жуда чекланган миқдорда луғатларда учрайди[4].

Номенклатура тушунчага тегишли бўлишига қарамасдан унинг ҳисоби номаълум. Терминология эса миқдор, сон жиҳатидан аниқликка эгадир. Аслини олганда, улар тушунчалар системасини оғзаки тарзда ифодалайди. Номенклатура ва терминларнинг хусусиятларига кўра, улар маълумотларни узатилишининг аниқлиги ва баъзи семантик тизимларга кириш борасида ўзаро ўхшашлигига қарамай, улар хабарни шакллантиришда турлича ишлатилади. Термин муайян фаннинг терминологик соҳасига кирганда ўзининг тўлақонли фаолиятини бошлайди ва ўша соҳани тарк этганда ўзининг маъносини ортиқ ривожлантиришга қодир бўлмайди. П. Флоренскийнинг сўзларига кўра, термин – “ҳаракатсиз ҳаракатчанлик”[5]. Шубҳасиз, ушбу таъриф терминнинг моҳиятини жуда аниқ тарзда очиб берган.

Бироқ, ҳатто бу масалада ҳам фикрлар якдиллиги мавжуд эмас. Айрим тадқиқотчилар лексик маъно ва тасаввурларнинг мавжудлигини рад этишади, бошқалари эса термин лексик тушунчага эга эканлигини тан олади. Айни пайтда терминнинг элликтадан ортиқ таърифи мавжуд[6]. Бу терминология назариясининг, терминларни таснифлашнинг ноаниқлиги, уларнинг фарқланиш критериялари ва “термин” тушунчасининг аниқланиш чегараси каби масалаларининг лингвистик асослари етарли даражада ишланмаганлигидан далолат

[1] Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М., 1958. – С. 23; Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1960. – С. 85.

[2] Тюрина Л.В. Опыт сопоставительного семантического анализа французских и русских морских терминов // Вопросы филологии. Изд-во ЛГУ, 1978. вып.УП. – С.178–185.

[3] Ўзбек Совет энциклопедияси. – Тошкент, II том, 1978. – Б. 66; Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тоошкент, 1985. – Б. 88; Қурбонов О. Ўзбек тили ғаллачилик терминлари. Номзодлик диссертацияси. – Тошкент, 1974. – Б. 130.

[4] Миньяр-Белоручева А.П. О сходстве и различии терминов и номенклатурных образований // Вестник Чувашского университета. 2014. № 4.

[5] Флоренский П.А. Имена: сочинения. – М.: ЭКСМО-Пресс; - Харьков: Фолио, 1998. – С. 208.

[6] Миньяр-Белоручева А.П. О сходстве и различии терминов и номенклатурных образований // Вестник Чувашского университета. 2014. № 4.

беради. О.С. Ахманова терминларни “махсус тушунчаларни аниқ ифодалаш учун ишлатиладиган сўзлар ёки иборалар” деб ҳисоблайди[1]. Терминларнинг тизимли ҳолатини таъкидлаган ҳолда, Д.С. Лотте ёзишича, “ҳар бир термин кўриб чиқилаётган терминологик тизимда ўзининг муайян жойига эга, бу ушбу тушунча тизимининг бутун тушунча тизимига боғлиқ”[2]. Бинобарин, терминлар маълум бир фан тушунчалари тизими билан боғлиқ, улардан ташқарида улар мавжуд эмас. Ички шакли ва тасвирларидан маҳрум бўлиб, рамзга яқинлашиб, термин кучли “фикрлаш воситаси”га айланади[3]. Бу шубҳасиз барча терминларга, айниқса илмий ва техник терминларга хосдир, аммо тарихий терминология хусусиятларини тўлиқ акс эттирмайди. Табиий ёки махсус яратилган тарихий терминлар тасвир ва коннотацияларда фарқ қилади. Ҳар бир тарихий тушунча ортида воқеалар занжири жойлаштирилган ва улар ассоциатив-метафорик алоқаларга эга. Тарихий терминлар ноаниқ ва кўп қиррали бирликдир.

Номенклатура ва термин бир хил тушунча эмас. Номенклатура фақат термин билан бирга мавжуд бўлиши мумкин. Маълумки, биринчи марта XIX асрнинг охирида, термин ва номенклатура ясалишини фарқлаш масаласи мантиқшунос У.Хьюэлл томонидан кўтарилди. Аммо хорижий терминшуносликда термин ва номен тушунчалари ҳали ҳам ажратилмаган[4]. Термин ва номен тушунчаларини фарқлаш масаласи рус мутахассислари Г.О.Винокур ва А.А. Реформатскийлар эътиборини жалб қилган ва улар учун тилшуносликдаги устувор вазифа бўлди. Г.О.Винокурнинг фикрича, номенклатура дейилганда, “мутлақо мавҳум ва шартли белгилар тизими” тушунилиши кераклигини таъкидлаб[5], бу рамзлар орқали нималарни англаш кераклигини кўрсатмади, аммо уларнинг предмет ва нарсаларни ифодалаш учун “назарий фикрлар эҳтиёжларига тўғридан-тўғри муносабат”да бўлмаган ҳолда кераклигини таъкидлади[6].

Номенклатура ва терминларнинг хусусиятларига кўра, улар маълумотларни узатилишининг аниқлиги ва баъзи семантик тизимларга кириш борасида ўзаро яқинликка эгалигига қарамай, улар хабарни шакллантиришда турлича ишлатилади.

О.С. Ахманова, номенклатурани “ушбу илмий соҳада ишлатиладиган махсус терминлар тўплами; мавжуд фаннинг одатий объектларининг номлари (терминологиясидан фарқли равишда, шу жумладан мавҳум тушунчалар ва тоифалар)” деб таъриф берар экан[7], маълумот узатишдаги аниқлик номенклатура ва термин ўртасидаги умумийлик эканлигини таъкид ўтади.

Хулоса қилиб айтганда, юқорида келтирилган турли илмий манбалардаги мазкур масалага тааллуқли маълумотлар таҳлилидан келиб чиққан ҳолда, лингвистик адабиётда келтирилган терминларнинг барча таърифларини инобатга олиб ва уларни умумлаштириб, биз ўз ишимиз доираси учун қуйидагича таърифни берамиз: “Термин – структураси жиҳатидан турғун сўз ёки сўз бирикмаси бўлиб, семантикаси жиҳатидан аниқ ва барқарор, маълум бир тушунчани қатъий ифодаловчи лексик-семантик бирликдир”. Демак, *термин*, *терминология* ва *номенклатура* тушунчалари бир-биридан фарқланади.

Номенклатура терминологияга нисбатан янги категория ҳисобланади. Ҳар қандай соҳа номенклатураси шу соҳага оид барча тур номларини ўзида мужассам этади.

Дарҳақиқат, ҳозирги замон тилшунослигида термин тушунчасига берилган таърифлар хилма-хилдир. Бунинг сабаблари эса ҳозиргача терминнинг яхлит бир таърифи йўқлигидир.

Resume: According to the characteristics of the nomenclature and terms, they are used differently when forming a message, despite the fact that they have similarities in the accuracy of data transmission and access to some semantic systems.

Резюме: Согласно характеристикам номенклатуры и терминов, они по-разному используются при формировании сообщения, несмотря на то, что имеют сходство по точности передачи данных и доступу к некоторым семантическим системам.

[1] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: КомКнига, 2005. – С. 474.
[2] Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии в СССР. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 24.
[3] Кудрявский Д.Н. Введение в языкознание. Юрьев: (Дерпт) [скл. изд. у авт.], 1913. – С. 43.
[4] Мельников Г.П. Основы терминоведения. М.: Изд-во Ун-та дружбы народов, 1991. – С. 13.
[5] Винокур Т.Г. Об изучении функциональных стилей русского языка советской эпохи // Развитие функциональных стилей современного русского языка. – М.: Наука, 1968. – С. 8.
[6] Винокур Т.Г. Об изучении функциональных стилей русского языка советской эпохи // Развитие функциональных стилей современного русского языка. – М.: Наука, 1968. – С. 8.
[7] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: КомКнига, 2005. – С. 270.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FRAZEOLOGIZM TILLARARO TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Nazarova Ziyoda Kattayevna,
Termiz davlat Universiteti Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Tillarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganishda frazeologik birliklarning ham alohida o'rni bor. Frazeologiya uzoq yillar davomida tilshunoslikning leksikologiya sohasi tarkibiy qismi sifatida o'rganilib, uning xususiyatlari leksikologik sath doirasida belgilanib kelindi. Frazeologik birliklarni tadqiq etish tilshunos olimlarni qadimdan qiziqtirib kelgan. XIX asrgacha iboralar lug'atshunoslik tarkibida o'rganilib, bunda frazeologizmlarning faqat ma'nolari va etimologiyasi bayon etilgan. Bugungi kun tilshunosligida esa frazeologik birliklar va ularning ifodalanishi masalasidagi tadqiqotlar mavzu ko'lami jihatidan ancha kengaydi.

Jahonning yirik tilshunoslik ilmiy tadqiqot institutlarida, xususan, Germaniya, Amerika, Polsha, Rossiya, Ukraina, Fransiya kabi ko'plab mamalakatlarda, shuningdek, yurtimizda ham bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot ishlarida frazeologik birliklarning semantik, lingvomadaniy, kognitiv xususiyatlari, frazeologik birliklarning shakl va ma'no munosabati, somatik frazeologizmlar, frazeologizmlarning boshqa leksik birliklar bilan munosabati, ularning uslubiyatiga doir masalalarga katta e'tibor qaratilmoqda.

Tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida o'tgan XX asrning 40-yillarida vujudga kelgan frazeologiya nazariyasining rivojida Sh.Balli, Y.D.Polivanov, L.A.Bulaxovskiy, V.V.Vinogradovlarning, turkiyshunoslikda S.K.Kenesbayev, S.N.Muratov kabi tilshunoslarning alohida xizmatlari bor.

O'zbek frazeologiyasining nazariy masalalari bo'yicha dastlab Y.D.Polivanov, keyinchalik Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, Abdimurod Mamatov, Abdug'afur Mamatov, A.Isayev, A.Rafiyev, Q.Hakimov, Sh.Usmonova, K.Bozorboyev, B.Jo'rayeva, Sh.Abdullayev, Sh.Almamatova, M.Vafoyeva, G.Qurbonova, G.Allamberganova, H.Hamidov, Sh.G'aniyeva va boshqa qator tilshunoslarning ilmiy ishlari muhim hisoblanadi[1]. Keltirilgan tadqiqotlarda frazeologizmlarning o'rganilayotgan til sathida vujudga kelishi, o'ziga xos xususiyatlari borasida nazariy ma'lumotlar, ilmiy xulosalar berilgan.

Tilshunoslar frazeologik birliklarni tilning lug'at tarkibiga, frazeologiyani esa leksikologiya tarkibiga kiritib, so'zga nisbatan muqobil birlik sifatida e'tirof etadi. So'z ham frazeologizm ham lug'aviy birlik hisoblanib, tilning lug'at boyligini tashkil etadi. Frazeologik birliklar erkin so'z birikmalardan aynan ma'nolariga ko'ra farqlanadi, shuning uchun ham ularni semantik hodisa deb e'tirof etiladi[2]. Tilshunos olimlarning fikrlariga ko'ra iboralarni qayta ishlash, uning so'zga, so'z birikmasiga va gapga munosabatini aniqlash frazeologizmlar tadqiqining muhim xususiyati his-

[1] Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1976; Рафиев А. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг структурал-функционал хусусиятлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1982; Маматов А.Э Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционалуслубий хусусиятлари: Филол. фанл. докт. ... .дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Ҳакимов Қ.М. Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанликлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанл. докт.... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Усманова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Абдуллаев Ш.Д. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол. фанл. номз.. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006; Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол. фанл. номз.. ... дисс.автореф. – Самарқанд, 2001; Алмаматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Qurbonova G. Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy- lisoniy xususiyatlari, filol.fan. falsafa dok. – Toshkent, 2019; Allamberganova G. I.Yusupov asarlarida frazeologizmlarning uslubiy qo'llanilishi, filol.fan. falsafa dok. – Nukus, 2019; Hamidov H. Turk tilida frazeologizmlarning yuzaga kelishi, ma'no va Grammatik xususiyatlari, filol.fan. falsafa dok. –Toshkent 2018; Adashulloyeva G. Tojik va o'zbek tillarida shaxs xususiyatini ifodalovchi frazeologizmlarning qiyosiy- tipologik tahlili. filol.fan. falsafa dok. – Samarqand, 2018; Ganiyeva Sh. O'zbek frazeologizmlari strukturasi filol.fan. falsafa dok. – Farg'ona, 2017.

[2] Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019. – Б. 266.

oblanadi. Bu borada B.Yo‘ldoshevning tadqi-qotlari diqqatga sazovordir[1]. Frazeologik birliklar ikki yoki undan ortiq so‘zdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga yoki gapga teng, so‘zga muqobil bo‘lgan, ko‘chma ma’no anglatuvchi, barqaror lug‘aviy birliklar sifatida leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalariga ko‘ra tilning boshqa birliklaridan ajralib turadi. Frazeologizmlar leksika bilan birgalikda tilning lug‘aviy boyligini tashkil etadi[2]. Iboraning eng muhim xususiyatlaridan biri uning madaniy belgi ifodalashi bo‘lib, shu jihatdan lingvomadaniyatshunoslikning obyekti hisoblanadi. Tilni madaniy tushunchalar bilan bog‘lab o‘rganish esa bugungi kun zamonaviy tilshunosligida faol usullardandir. Shularni inobatga olgan holda frazeologizmlarning tadqiqi tilshunoslik uchun ko‘p jihatdan muhim.

Iboralarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda somatik frazeologik birliklar ko ‘plab qiziqishlarga sabab bo‘lgan. Chunki, somatik frazeologizmlarda har bir xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, hayotiy tajribalari, milliy madaniyati, qadriyatlari, ma’naviyati, urf-odatlari va an’analari o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Somatizm grekcha “soma” so‘zdan olingan bo‘lib, - “tana” ma’nosini anglatadi. Inson tana a’zolari vositasida hosil bo‘lgan iboralar somatik iboralar bo‘lib, har bir millat vakilining xos dunyoqarashi va madaniy bilimlarini o‘zida ifoda etadi. Xalqning milliyligini o‘zida namoyon etish borasida marosimlarning o‘rni muhimdir. Somatik iboralar marosimlar tarkibida ham kelib, o‘zi ifodalanayotgan til egasining urf-odatlari va e’tiqodlarini ifodalaydi. Misol uchun, o‘zbek xalqining nikoh to‘yi bilan bog‘liq unashtirish odatini ifodalaydigan iboralar tarkibida somatik so‘zlar faol qatnashadi. Birgina *“bosh”* leksemasi bilan bog‘liq ko‘plab urf-odatlarni ifodalaydigan frazeologizmlarni keltirishimiz mumkin: *boshlarini qovushtirmoq, boshlarini biriktirmoq, boshlarini qo‘shmoq, boshini ikkita qilmoq, bir yostiqqa bosh qoymoq, boshini bog‘lamoq va h.k.*

Juda ko‘p dunyo tillarining leksikologik sathida somatik iboralar keng tarqalgani uchun mazkur guruhga mansub frazeologizmlar keng ko‘lamda tadqiq etilgan.

Bu boradagi ilk izlanishlarga eston tili frazeologizmlarni o‘rgangan olim F.Vakk tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni keltirish o‘rinli. U somatik frazeologizmlar haqida fikr yuritar ekan, bunday frazeologizmlarni 1) faqat odamlarni tasvirlaydigan; 2) odamlar va hayvonlarni tasvirlaydigan; 3) faqat hayvonlarni tasvirlaydigan iboralar kabi uch guruhga ajratgan. F.Vakk tomonidan tuzulgan mazkur guruhlash keyinchalik boshqa ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ma’qullangan.

Keying yillarda turk tilshunosligida ham somatik frazeologizmlarni o‘rganish borasida turli ishlar amalga oshirilgan. Bu borada, H.Hamidovning turk tilidagi frazeologik birliklar tadqiqotini ta’kidlash o‘rinli[3]. Tadqiqotchi turk tilidagi iboralarning o‘rganilishi borasida to‘xtalar ekan, Turkiyada o‘tgan asrning 70-yillaridan keyin olib borilgan ilmiy tadqiqotlar frazeologiyaga oid ba’zi masalalarnigina qamray olganligini hamda turk tili frazeologiyasining butun bir ilmiy konsepsiyasi hozirgi vaqtgacha yaratilmaganligini, tildagi turg‘un birikmalarning lingvistik mohiyatini aniqlash, ularni boshqa turg‘un so‘z birikmalari va tilning umumiy tizmida tutgan o‘rnini belgilash bugungi turk tilini tadqiq etishning muhim masalaridan ekanligini ta’kidlab o‘tadi[4]. Ko‘rinib turibdiki, tilning frazeologik sathini tadqiq etish masalasi barcha tillarda dolzarblikka ega. Buni Xitoy tili misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Xitoy tilida somatik frazeo-logizmlarning kelib chiqishi va ularning semantikasini o‘rgangan T.Akimovning tadqiqoti fikrimizni isbotlaydi. Tadqiqotchi xitoy tilidagi somatik frazeologizmlarning semantik ma’no ko‘lami keng hamda o‘rganilishi muhim tarmoq ekanligini ta’kidlaydi[5]. Somatik frazeologizmlar o‘zbek tilshunosligida ham har tomonlama o‘rganildi, ko‘plab tadqiqotlarning mavzusi bo‘ldi. Misol uchun, Abdug‘afur Mamatov o‘zbek frazeologiyasi uchun eng dolzarb muammolardan frazeologik shakllanish masalalarini tadqiq etish bilan shug‘ullandi va shu mavzuga oid *“qo‘l”* somatizmi asosida shakllangan frazemalar va ularning lug‘atlarda ifodalanishi” (1997) mavzusida doktorlik ishini himoya qildi[6]. Bu esa o‘zbek frazeologiyasining ilmiy doirasini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. A.Mamatov va B.Boltayevalarning tadqiqot ishlarida *“afti sovuq”, “bag‘ri tosh”, “bag‘ri qon”, “yuragi qon”, “boshi g‘ovlamoq”, “boshi ishlaydi”, “boshida yong‘oq chaqmoq”, “bosh tortmoq”, “bosh-qosh bo‘lmoq”, “bosh egmoq”, “bosh qashigani qo‘l tegmaydi”, “boshi oqqan tomonga”, “bir yoqadan bosh chiqarmoq”, “ko‘zi tushmoq”, “ko‘zini bo‘yamoq”, “ko‘z tegmoq”, “ko‘zi ochiq”, “ko‘z tikmoq”, “beliga tepmoq”, “beliga solmoq”, “yuziga solmoq”, “beti ochilib ketdi”, “beti chidaydi”, “beti chidamaydi”, “beti shuvut bo‘ldi”* kabi ko‘plab somatik iboralar keltirilgan bo‘lib[7], o‘zbek tilin-

[1] Yo‘ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1998.

[2] Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019. – Б. 266.

[3] Xomidov H. Turk tilida frazeologizmlarning yuzaga kelishi, ma’no va Grammatik xususiyatlari. – Тошкент, 2018.

[4] Xomidov H. Turk tilida frazeologizmlarning yuzaga kelishi, ma’no va Grammatik xususiyatlari: Filol.falsafa fan doktori. diss. – Toshkent, 2018. – B. 16.

[5] Akimov T. Xitoy tilida somatik frazeologizmlar: kelib chiqishi va semantikasi: Filol.falsafa fan doktori. diss. – Toshkent, 2022.

[6] Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. ДДА. – Тошкент, 2000. – Б. 50.

[7] Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. – Т. 2018. – Б. 23.

ing bu boradagi imkoniyatlari nihoyatda keng ekanligi ko‘rsatib berilgan.

1998-yilda Sh.Usmonova tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida “O‘zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar” mavzusida nomzodlik ishi yaratildi. Mazkur dissertatsiya oxiriga o‘zbekcha-turkcha muqobil somatik frazeologizmlar lug‘ati ilova qilingan. Ishning dastlabki bobida o‘zbek va turk tillarida birikmaga teng somatik frazeologizmlar (*bosh og‘rig‘i, ko‘z bilan qosh orasida, ko‘zini olib qochmoq, bosh irg‘itmoq, qo‘l ostida* kabilar) funksional-semantik jihatdan tahlil qilingan. Uning ikkinchi bobida esa o‘zbek va turk tillarida gapga teng somatik frazeologizmlar (*boshimiz osmonga yetdi, bosh omon bo‘lsa do‘ppi topiladi* kabilar) semantik va grammatik jihatdan yoritilgan[1].

Tadqiqotchi A.Isayevning tadqiqotida esa, o‘zbek tilida somatik frazeologizmlarning *“ko‘z”, “og‘iz”, “qo‘l”, “yurak”* komponentlari eng mahsuldor hisoblanishi ta’kidlanadi.

Umuman olganda, somatik iboralar tadqiqi bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlarni sharhlash, tahlil qilish va munosabat bildirish mazkur sohada yangi izlanishlarni olib borayotgan tilshunoslar uchun katta yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun qaysi tilda yaratilganligidan qat’iy nazar, frazeologizmlar borasida yaratilgan har qanday ish, olib borilgan tadqiqot tilshunoslik uchun muhimdir.

Resume. This article discusses an important part of lexicology - phraseology and its unit, the study of somatic phraseologisms. The study of phraseologisms in world languages, in particular, somatic expressions, scientists who conducted research in this field and their research were analyzed. In particular, the study of somatic expressions in Uzbek linguistics is also discussed, and relations to the researches created are reported.

Резюме. В данной статье рассматривается важная часть лексикологии - фразеология и ее подразделение, изучение соматических фразеологизмов. Анализируются изучение фразеологизмов в языках мира, в частности, соматических выражений, ученых, которые проводили исследования в этой области и их исследования. В частности, также обсуждается изучение соматических выражений в узбекском языкознании и сообщается об отношении к созданным исследованиям.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ШЕЪРИЙ МАТНДА ДИАЛЕКТИЗМЛАР

Тўйчиева Зулайҳо,
Гулистон давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси ўқитувчиси

Бугунги кунда ўзбек тилшунослигида бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқига бўлган эътибор кучайди. Лингвопоэтик ёндашувнинг такомиллашуви бадиий матнни ташкил қилувчи тил бирликларининг функционал имкониятларини чуқур тадқиқ қилиш этишни шарт қилиб қўймоқда. Ижодкорнинг бадиий матнни шакллантиришдаги мақсади фавқулодда долзарб экан, у, албатта, бу мақсадни намоён қилишда мавжуд тил бирликларининг бадиий ниятига хизмат қилувчи бебаҳо воситага айланишини кўзлайди. Шу маънода айтиш мумкинки, тил бирликларининг турли нутқ кўринишлари ва сатҳларидаги функционал-стилистик, лингвопоэтик хусусиятларини тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.

Шундай экан, адабий тилнинг бадиий мукаммалликка, миллий характерлар яратишдаги ўзига хосликка эришишида сўз санъаткорларининг машаққатли хизматларини алоҳида таъкидлаш лозим.

Жаҳон тилшунослигида матн лингвистикаси, жумладан, унинг олий босқичи бўлган лингвопоэтик тадқиқотлар замонавий таҳлил методларига таянилган ҳолда олиб борилмоқда. Унинг сти-

[1] Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар. НДА. – Т., 1998. – Б. 20.

листика ва адабиётшунослик соҳалари билан муштарак жиҳатлари чуқур ўрганилмоқда. Чунки у фонетик, лексик ва грамматик сатҳлардаги бирликларга бадиий адабиёт тили ва ижодкор индивидуал услуби шаклланишининг асосий воситаси деб қарайди ҳамда уларнинг энг намунавий ва характерли жиҳатларини таҳлил қилади. Аммо бадиий тасвир воситаларининг матнда воқеланиши, хусусан, лингвопоэтик хусусиятларини атрофлича тадқиқ этиш долзарб муаммолигича турибди.

Мустақиллик йилларида ўзбек тилшунослигида бадиий матн тадқиқига бағишланган бир неча ўнлаб илмий ишлар амалга оширилди. Бундай тадқиқотларда инсон бадиий-эстетик олами тил ва нутқ диалектикаси, тил ва услуб позициясида туриб таҳлил этилганлиги ўзбек тилининг ниҳоятда бой тасвирий воситаларини янада ёрқинроқ англашимиз ва ўзлаштиришимизга шароит яратади. Шу маънода Ўзбекистон халқ шоири Ҳалима Худойбердиева ижоди намуналарини лингвопоэтик нуқтаи назардан таҳлил этиш мисолида поэтик индивидуалликнинг бадиий мушоҳада жараёнига кўрсатадиган таъсири ва она тилимизни бойитиш йўлларини тадқиқ этиш ҳамда бу бетакрор шоирнинг халқимиз бадиий-эстетик тафаккуриривожига қўшган муносиб ҳиссасини аниқлаш имконини беради[1].

Бадиий матндаги поэтик актуаллашув лексик воситаларда ҳам ўзига хос тарзда кечади ва айни пайтда лексиканинг поэтик актуаллашуви жуда кенг кузатилади. Бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлилида, айниқса, сўз алоҳида ўрин тутади.

Демак, сўз қўллашнинг санъат даражасида ёки санъат даражасида эмаслигини баҳолаш учун, аввало, сўз, унинг маъноси ва бу маънонинг тузилишини аниқ тасаввур этиш лозим. Албатта, сўзнинг қўлланиши билан боғлиқ ҳолда юзага чиқадиган қўшимча маъно нозикликлари, мазмун ўзгачаликлари турли тасвир усуллари ва воситалари орқали реаллашиши мумкин. Аммо таъкидлаш жоизки, бундай қўшимча маъно нозикликлари аксар ҳолларда, аввало, сўз маъно қурилишининг ўзида имконият сифатида мавжуд бўлади, улар сўз маъно қурилиши таркибида илгаридан қайд этилган бўлади, умуман, бадиий маъно улар асосида юзага келади.

Бадиий матнни лингвопоэтик таҳлил қилиш жараёнида ёзувчининг тилдан фойдаланиш маҳоратини намоён этадиган, эмоционал-экспрессив ифода семалари реаллашган лексик бирликларни аниқлаш ва улар адибнинг бадиий-эстетик мақсадига қай даражада хизмат қилганига эътибор-ни қаратиш керак. Чунки бадиий матнда сўздаги коннотатив маъно муҳим, бу коннотатив маънони ҳаракатга келтириш, унга асосланган ҳолда яхлит бадиий мазмунга хизмат қиладиган оригинал бадиий маъноларни юзага келтириш ёзувчининг маҳоратига боғлиқ.

Шуни ҳам алоҳида таъкидламоқ керакки, коннотация бадиият учун хизмат қилишга “ихтисослашган ҳодиса”, коннотатив маъноли сўз бадиий ифода учун ҳамиша тайёр турган сўздир[2].

Мутахассислар коннотациянинг икки турини, яъни ингерент ва адгерент коннотацияларни фарқлайдилар. Сўзнинг семантик структурасига кирадиган (*тулки* сўзидаги каби) коннотация ингерент, бу структурага кирмайдиган, фақат нутқий контекстда пайдо бўладиган коннотация эса адгерент коннотация сифатида талқин этилади, ана шунга асосланиб, тадқиқотчилар бадиий матнда нутқий (адгерент) коннотациянинг ўрнига алоҳида баҳо берадилар[3].

Коннотатив маъно адгерент ёки ингерент кўринишда бўлмасин, биринчи навбатда, бадиий маъно тўкинлигига хизмат қилмоғи лозим.

Бадиий матнда поэтик актуаллашув нуқтаи назаридан шевага хос сўзлар гуруҳи, шунингдек, шевага хос талаффуз ва морфологик шакллар ҳам диққатга сазовор. Улар ҳудудий мансублик, маҳаллий колоритни алоҳида таъкидлашга хизмат қилади. Қуйидаги шеърий парчада ***чеча*** лексемасининг поэтик актуаллашишини кўриш мумкин:

Мендан сўраманг, чеча,
“Борми кўнгли қўрғон, мард?”
Неники кўрдим кеча
Бугун унутмоғим шарт.
(Неники кўрдим кеча...)

Кўринадики, шоира ўз шевасини керагича яхши билади. *Чеча* сўзи учинчи мисрадаги *кеча* сўзи билан қофияланиб келмоқда. Шеърнинг қофияланиши қуйидагича: а-б-а-б. Маълумки, адабий тилдаги *ўғил* лексемаси қипчоқ лаҳжасида *ул* тарзида ифодаланади. Шоира шевага хос бу тил бирлигини бадиий матнга олиб кириб, вазн талабини, ихчамликни, қулайликни таъминлашга эришган. Қолаверса, ўқувчи адабий тилдаги ***янга*** термини шевада ***чеча*** эканлигини англаб, маънавий озуқа олади.

Шоира тинчлик, хотиржамлик, яхши қўшничилик тарафдори. Афсуски, учинчи қўл аралашуви сабабли ўтган асрнинг 90-йилларида икки қондош эл бир-бирига ёв, ғаним бўлган кунлар. Шоира

[1] Худойбердиева Ҳалима. Танланган асарлар. –Тошкент, 2020. – Б. 43.

[2] Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА.2009. 32-б.

[3] .Қиличев Э., Қиличев Б. Коннотатив маъно ва унинг ифодаланиши// ЎТА.-Т.,2006.-№ 6. –Б.71.

бундан озор чекади, қайғуга ботади. Ўз кечинмаларини, ташвишларини ўтмиш аждодлар номидан қоғозга туширади. Дунё цивилизациясига улкан ҳисса қўшган билим эгалари, авлод-аждодлар бундан афсусланади, фитна туфайли қон тўкилишидан азият чекади, “меросхўрлар” нинг бу қилмишларини манқуртлик деб баҳолайдилар. Шеърни ўқир экансиз, сергак тортасиз, мушоҳадага ботасиз, оқиллик билан иш кўрилмаганлигидан ўзингизни айбдор ҳис қиласиз.

Мазкур шеърни кузатар эканмиз, унда диалектал сўзларнинг қўлланиши, муаллифнинг қаҳрамон нутқини типиклаштириш борасида шева материалларидан фойдаланиш маҳорати ёрқин кўзга ташланади:

Биз ўтармиз.Эслар ***ул****, қиз,*
Бул асрдан қолгай шул из.
Шўрлик ўзбек. Шўрлик қирғиз.
Қоқ ўртада ўлим йиғлар.
(“Биз ўтармиз.Эслар ул, қиз”)

Маълумки, қипчоқ лаҳжасида ***ўғил*** лексемаси ***ул*** тарзида талаффуз қилинади. Нафақат қипчоқ лаҳжасида бошқа туркий тилларнинг кўпчилигида мазкур термин ***ул*** шаклида талаффуз қилинади. Шоира шеърий вазн, қулайлик назаридан шу сўзни матнга олиб кирган ва буни қойилмақом уддалаган. Шу билан бирга, ***ул*** сўзи кейинги мисрадаги ***бул, шул*** олмошлари билан қофиядош бўлиб, шеърнинг ниҳоятда оҳангдор, ўқимишли, таъсирли, равон бўлишлигини таъминлаган.

Юқорида таъкидланганидек, сўзлардаги морфологик ўзгачаликлар ҳам бадиий матнни шакллантиришда муайян қиймат касб этади. Маълумки, шеваларда адабий тилдаги -нинг қаратқич шакли -им шаклида талаффуз қилиниши бор нарса, буни олмошлар мисолида ойдин кўриш мумкин:

Маним *кўнглим тугунчадир,*
Гул ғунчаси кулгунчадир.
Маним *кўнмас юраккинам,*
Тақдирига кўнгунчадир.
(“Халқона оҳангларда”)

Кўриниб турганидай, ***маним*** сўзи ***кўнглим*** сўзи билан оҳангдорликни таъминлаб, халқона оҳангларни эслатувчи бир ажойиб шеърий асарнинг шаклланишига бадиийлик бағишлаб турибди.

Маълумки, бадиий матндаги ҳар бир диалектал бирлик муайян стилистик мақсадларга хизмат қилади. Бу вазифа бадиий матн талабига кўра, холис, услубий, бадиий-эстетик (лингвопоэтик) ҳамда бадиий-тарихий бўлиши мумкин. Маҳаллий, ҳудудий хусусият, маҳаллий халққа яқинлик диалектизмларга бадиий тилнинг халқчиллигини таъминловчи услубий восита бўлиш имконини беради.

Шоирнинг тилда соддалик, жўялилик, халқчилликка интилиши содда сўзлашув нутқининг, жумладан, диалектал хусусиятларнинг бадиий матнга киришига йўл очади. Табиат манзаралари ва маҳаллий хусусиятларни реал тасвирлашга, муаллифнинг халқчил тилда ёзишга интилиши, мураккаб поэтик сўз ва иборалар ўрнига содда тил элементларини ишлатишга мойиллиги маҳаллий тил воситаларидан фойдаланиш истагини туғдиради ва муайян шева ва лаҳжага хос хусусиятларни қўллаш тарзида намоён бўлади[1]. Шу ўринда шоиранинг ***“Нарвон”*** шеърига юзланамиз:

Чит кийсамда , сўрамадим зар,
Ҳавасларга бўлдим кўру кар.
Жужуқларим *юксалмаса гар,*
Армон бўлиб кетаётирман…

Мазкур парчада “болаларим” сўзи ўрнида ***“жужуқларим”***нинг ишлатилиши лирик қаҳрамоннинг қайси шева вакили эканлигини кўрсатишдан ташқари, шеърий матннинг таъсирчанлигини, табиийлигини, ишонарлилигини , образлилигини таъминлашга ҳам хизмат қилмоқда.

Шоиранинг ижодини кузатар эканмиз, унда ***эна, момо, ул, чеча, кўкай, тек тур(жим тур), менам (мен ҳам), жужуқ (бола), жезда (почча)*** каби шевага хос сўз ва бирикмалардан услубий восита сифатида фойдаланганлигининг гувоҳи бўламиз. Бундай сўзлар шеъриятда фикр юритилаётган воқеа, объект ёки ҳодисанинг маҳаллий ҳолатини, хусусиятини ҳаққоний тасвирлаш билан бирга, бадиий нутққа эмоционаллик, экспрессивлик бағишлайди, тасвирланаётган воқеа-ҳодисаларнинг реаллигини, табиийлигини, ишончлилигини таъминлайди, персонажлар нутқининг лисоний жиҳатдан оригинал бўлишига хизмат қилади. Хассос шоира Ҳалима Худойбердиеванинг шеърлари китобхонни бедорликка чақиради, “ухлаган” виждонимизни уйғотади, лоқайдлик балосидан халос этади. Ижодкор халқ шеваларини шунчалар чуқур ўзлаштирганки, улардан шеърий иморатни қад кўтаришда унумли, ўринли ва моҳирона фойдаланганлигининг гувоҳи бўламиз.

Хулоса қилиб айтганда, ўзбек тилшунослигида лингвопоэтика соҳасида бажарилган ушбу тадқиқотлар бадиий асар эстетик қимматини ўрганишда, соҳага тегишли бўлган қатор муаммоларнинг ечимида катта аҳамиятга эга. Мазкур тадқиқотларнинг ҳар бири лингвопоэтиканинг алоҳида фан тури сифатида шаклланганлиги-

[1] Ҳусаинова Ф. Шеърият тилида диалектизмлар / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Тўплам. 3-сон. – Тошкент, 2009. – Б. 75-77.

дан, тил эстетикаси билан шуғулланиш масаласи аста-секинлик билан филологик тадқиқотларнинг таркибий қисмига айланганлигидан далолат беради. Б.А.Лариннинг: “Эртадир кечдир, менимча, жуда тез орада тил эстетикаси алоҳида фан сифатида тан олинади”[1], – деган фикрларининг тасдиғи бўлиб хизмат қилади.

Resume. This article shows the poetic possibilities of dialectal words in expressing the nationalism of the artistic work, the expressiveness and expressiveness of the language of the work, and the individuality of the characters' speech. It is thought that the existence of such words in the language is a huge opportunity for the writer and for the artistic image. At the same time, the fact that dialectal words have great possibilities in terms of stylistic coloring is highlighted on the basis of examples. Since the language's pictorial and expressive capabilities are mainly manifested in artistic texts, it is important to study the participation of language tools in these texts in stylistic and linguopoetic aspects.

Резюме. В данной статье рассматриваются поэтические возможности диалектных слов в выражении народости художественного произведения, образности, выразительности языка произведения, индивидуальности речи героев. Подчёркивается важность наличия таких единиц в языке как огромные возможности и для писателя, и для художественного изображения. Возможности образности и выразительности таких единиц языка проявляются в основном в художественных текстах, что отмечает важность исследования языковых средств в текстах в стилистическом и лингвопоэтическом аспектах.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MILLIY MENTALLIK SOHIBINING KOGNITIV IMKONIYATLARI

Jo‘rayev Nabi Narziyevich,
Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi

“XXI asrda tilshunoslikning tilni shunchaki aloqa quroli va tafakkur natijasi sifatida emas, millatning madaniy ochqichi sifatida tadqiq etadigan sohalari yuzaga keldi”[2]. Binobarin, inson tafakkuri imkoniyatlarini tekshiruvchi bu kabi tadqiqotlar sirasida, bizningcha, o‘tmish ajdodlarimiz mental imkoniyatlarining tilda aks etgan belgilarini o‘rganuvchi izlanishlar ham jonlantirilishi lozim.“Til – bu millat, til –bu xalq, til – bu tarix, til – bu madaniyat demak. Umuman olganda til – butun olam va undagi boriki mavjudotlardir”[3]. Chunki, butun bir millatning o‘tmish tarixi va buguni, boy ma’naviy va madaniy merosi uning ona tilida o‘z ifodasini topadi.

Tilni ruhiy va ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganish, ushbu hodisaning lingvistik tasvirning o‘ziga xos xususyatlarini tadqiq qilishga, aqliy tasavvurlarni tahlil qilishga yo‘l ochib beradigan kognitiv imkoniyatlarning tamoyillarini ishlab chiqishga yordam beradi. Til birliklarining ma’nolari majmui tilning semantik makonini tashkil qiladi.Tushuncha – tafakkur birligi, ma’no – tilning semantik makonining birligi hisoblanadi. Tushuncha va ma’no bir xil darajada kognitiv xususiyatga ega hodisalardir. Til hodisalarini tahlil qilishda kognitiv yondashuvning mohiyati ravshanlashadi, kognitiv lingvistikaning oldingilardan ajralib turadigan tamoyillari ishlab chiqiladi. Lingvistik hodisalarni tahlil qilishda tilshunoslar insonning ruhiy xususiyatlarini va uning atrofdagi olamga munosabatini hisobga olib, tegishli ilmiy xulosalar chiqaradilar. Kognitiv tilshunoslikning yaratilgan umumiy tamoyillariga asoslanib, uning usullari ishlab chiqiladi, tushunchalarni o‘rganish uchun mo‘ljallangan kognitiv-kommunikativ usul doirasida ularni ifodalovchi lisoniy birliklar yordamida tushunchalar, kategoriyalar, nutqni tahlil qilish usullari qo‘llaniladi.

Til va madaniyatning o‘zaro munosabati, ta’si-

[1] Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1974. – С. 28

[2] Saidova M., Qo’ziyev U. Lingvokulturologiya. – Namangan, 2017. – B. 127, 5.

[3] Роҳаталиев А. Эркин Воҳидов шеъриятининг лексик-семантик хусусиятлари / Монография. – Тошкент: Arjumand Media, 2021. – Б. 101, 7.

ri to‘plangan bilimlar orqali inson ongida namoyon bo‘lishi sababli har qanday lingvomadaniy izlanishlar bir vaqtning o‘zida kognitiv tadqiqot ham sanaladi. Lingvomadaniy va aqliy-kognitiv ma’lumotlarni o‘z mazmunida birlashtirgan lingvomadaniy tushunchalarning *integrativ* mohiyati inson tushunchalarini o‘rganishda ma’lum darajada kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlarni aniqlab olishning imkonini beradi. Zotan, har bir millatning mental xususiyatlarini namoyon etuvchi eng ishonchli va ilmiy jihatdan isbotlangan dalil milliy tildir. Til orqali milliy mentallik sohiblarining lingvokognitiv va lingvomadaniy imkoniyatlari in’ikos topadi. Darhaqiqat, til – inson tafakkuri, ichki olamining tilmochi sanaladi, mo‘jizaviy fikrlarning ochqichi hisoblanadi.

Muayyan xalqning tili va folklori, bir tomondan, til egasining umumiy madaniy, ijtimoiy ahamiyatli hayotini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi, dunyoqarashini tarbiyalaydi, shakllantiradi. Umuminsoniy qadriyatlar, milliy-madaniy tushunchalar, olamga munosabatning milliy stereotiplashgan shakli til orqali olam tasviriga ko‘chadi. Til olamni bilish, anglash kognitiv qurilmaning *odam+olam* munosabatlarini baholash va xulosalashning mukammal usuli, u – odamlarning dunyo haqidagi tasavvur va e’tiqodlarining yorqin ifodachisidir. *Mental qurilma* esa u yoki bu xalq bosib o‘tgan tarixiy-evolyutsion yo‘lni kuzatish va uni milliy madaniyatning bir qismi sifatida aniqlash imkonini beradi, negaki til – tarixiy tajribaga oid bilimlarni o‘zida aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa sanaladi.

O‘tgan asrning 70-yillarida vujudga kelgan kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslik maydonida mustahkam o‘rin egalladi. Kognitiv lingvistikaning shakllanishi til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi lingvistik tadqiqotlarni faollashtirdi va atrofimizdagi dunyoni lingvistik talqin qilishning etnik-madaniy xususiyatlarini, shaxsning shaxsiy va ijtimoiy tomonlari: tilni bilish, nutq aloqasi va inson xatti-harakatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlarning usullarini ko‘rsatib berdi. Umuman olganda, kognitiv tilshunoslikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi yangi lingvistik paradigmaning rivojlanish istiqbolini belgilab berdi. Bu sohada amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari orasida, ayniqsa rus tilshunoslarining izlanishlari natijasi diqqatga sazovordir. Buni Ye.S.Kubryakovaning: “olimlarni doimiy bezovta qilib, o‘ziga chorlab kelgan til va tafakkur, tilning asosiy vazifalari, tilda insonning roli va tilning inson uchun ahamiyati”[1] kabi fikrlari ham tasdiqlaydi. Olima insonning butun hayoti til bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlab, u insonning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish tajribasini aks ettirishi va aynan shunday tajriba tilda obyektivlashtirilgan bo‘lib, o‘zining yaxlitligida dunyoning lingvistik manzarasini tashkil qilishini yozadi[2].

Insonning kognitiv faoliyati – bu inson hayoti davomida to‘plagan bilimlari, tasavvurlari va ongu tafakkuri orqali ma’lum bir aniq tushunchaga, qarorga olib keladigan aqliy faoliyat hisoblanadi. Forobiy ta’kidlaganidek, “Inson o‘zining aql-zakovati bilan olamdagi boshqa tirik mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Undagi aql-zakovat *(aqliy zakovat)* borliqning turli-tuman ko‘rinishlari aksidir. Inson o‘zidagi o‘sha aql-zakovat yordamida avval yerda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning sabablarini, so‘ng esa osmon jismlarining sir-u asrorini biladi. Aqlli bo‘lishni faqat aqliy tarbiya, bilimdonlik bilangina chegaralab bo‘lmaydi. Aqllilik insonning butun faoliyati – uning bilimi, axloqi, odobi, harakati, qiladigan ishlari majmuasi bilan o‘lchanadi, ya’ni aqllilik barcha fazilatlarning bir butun, yaxlit holda muvofiqligidir”[3].

Mazkur tushunchalar dunyo haqidagi ma’lumotlarni to‘plash, bilish orqali mushohada yuritish, fikrlash jarayonlarini obyektivlashtirish hamda ularni turli lingvistik vositalar shaklida aks ettirishda mukammallashadi. Bunda aqliy tasavvurlar, kelajak maqsadlar, shaxsning kognitiv fikrlashi jarayonlari va kognitiv qobiliyatlari tadqiqotlar predmeti bo‘lib xizmat qiladi. Aql va tafakkur insonning dunyoviy bilimlarini ro‘yobga chiqarishga imkon yaratadi. Kognitiv tadqiqot til va inson orasidagi munosabatga asosan amalga oshiriladi. Chunki olamning lisoniy manzarasining tasviri uning tilda aks etishi bilan izohlanadi. Shu jarayonda kognitiv yondashuv uchun turli fanlarning (masalan: tarix, madaniyat, lingvomadaniyat, psixologiya, falsafa va boshqalar) ishtiroki ta’minlanadi. Milliy mentallik sohibining ongi va tafakkuri, bilimi va tasavvuri, dunyoviy qarashlari kognitiv imkoniyatlardan sermazmun natija chiqara olishiga, erishishiga yo‘l ochib beradi. Aql, did va tasavvur inson tafakkurining izchil belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bularning barchasi bilish bilan bog‘liq jarayonlar mahsuli sifatida axborotni o‘zlashtirish va qayta ishlash, anglash, ularni o‘zida saqlay olish hamda foydali idrok etishda ko‘rinadi.

Shu o‘rinda kognitiv lingvistikaning asosiy vazifalarini ham oydilashtirish lozim bo‘ladi. Ularni quyidagicha belgilash mumkin:

- tilning olamni bilish va anglashdagi ahamiyatini aniqlash;

- dunyo manzarasini tushunish va kognitiv tuzilmalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish;

[1] Кубрякова Е.С. Язык и знание. Роль языка в познании мира. – М., 2004. – С. 11.

[2] Кубрякова Е.С. Ko‘rsatilganmanba. – B. 11.

[3] Aminov M., Hasanov F. Buyuk ajdodlarimiz. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – B. 208.

- umuminsoniy tushunchalar tizimini tavsiflash, dunyo manzarasini o‘rganish, uning shakllanishi va mavjudligini aqliy jarayonlarda aks ettira olish (bunda ma’no birliklari bilan ishlash, “tushuncha” atamasini anglash lozimligi deb qaraladi). O‘zbek tilshunosligida insonning ruhiy, falsafiy, madaniy, kognitiv (aqliy) qobiliyatlarini lingvomadaniy jihatdan yanada chuqur bilishga bo‘lgan tadqiqotlar hamda izlanishlar yangi bir bosqichga chiqdi. Kognitiv (aqliy) qobiliyatlar deganda – odamga shaxs bo‘lish imkoniyatini beradigan ongning vazifa bajarishi tushuniladi. Bularga insonning aqliy-mantiqiy fikrlashi, tushunishi, o‘rganishi va falsafiy-mantiqiy xulosalar chiqarishi kiradi.

“Etnosning moddiy-ma’naviy tamaddunida aks etgan milliy ong, tarixiy tajriba, dunyoqarash, tafakkur, milliy mental xoslanishni namoyon etuvchi birliklarning lingvomadaniy tadqiqi doirasida izlanishlar yetarli darajada amalga oshirilmadi”[1]. Biz mazkur ishimizda aynan mana shu sohadagi masalalar doirasidagi dolzarb jihatlarga qaratilgan xulosalarga ega bo‘lish uchun ilmiy tadqiqot yechimlarini topishga harakat qilamiz. Zero, “Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tilining tarixi xalqimizning ko‘p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g‘alabalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar[2]. Tadqiqotchilik, ixtiro va kashfiyotchilik, milliy mentallik sohibining kognitiv imkoniyatlari, uning aqliy tafakkuri orqali o‘y, fikr, qarashlari hamda tushunchalarida aks etadi.

Badiiy matnlarning lingvokognitiv va lingvomadaniy tahlili juda ko‘p yillar davomida tilshunoslarning diqqat-e’tiborini o‘ziga tortdi. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar natijasida badiiy matnlarni tahlil qilishga turli xil yondashuvlar yuzaga keldi. Tadqiqotchilarning badiiy matn va uning tuzilmalarini chuqurroq anglash istagi voqea-hodisalarni o‘ziga xos tushunish, inson va uning tafakkuri bilan bog‘liq hodisalarni ochib berish, milliy til, milliy madaniyat, milliy urf-odatlarning ifodalanishini lingvokognitiv, lingvomadaniy tahlil qilish asoslarini yaratishga bo‘lgan ilmiy ishlarida namoyon bo‘ldi.

Badiiy matnlarning zamonaviy tahlilini amalga oshirishda lingvomadaniy tushunchalarning asar matnida o‘z ilmiy-nazariy tasdig‘ini topish-topmasligini tekshirish muhim. Bunday lingvomadaniy tushunchalar esa lingvo-mental shakllanishlarni talqin qilishda kognitiv yondashuvlar – *til, ong, madaniyat* munosabatlarining to‘liq va yetarli darajada yoritilishiga imkon yaratadi.

Badiiy matn tadqiqi borasidagi kognitiv yondashuvni Alisher Navoiy ijodi misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Zotan Navoiy asarlarining tadqiqi shoir yashagan davrning o‘zidayoq boshlab yuborilgan. Bu tadqiqotlar, izlanishlar va xulosalar haligacha oxiriga yetgani yo‘q. Chunki, Alisher Navoiy g‘azallari va dostonlari, bu asarlarning tili va uslubi, badiiy mahorati, kognitiv va lingvomadaniy imkoniyatlari ummonday cheksizdir. Har bir so‘z, ifoda, falsafiy va mantiqiy fikr, o‘y hamda qarashlarida yangi bir olam, yangi bir kashfiyotlar, g‘oya va ixtirolar dunyoga keladi. Darhaqiqat, Jamol Kamol ta’biri bilan aytganda, “Shu ma’noda Navoiy ijodi buyuk bir ko‘zgudirkim, har kimsa unga ko‘z solib, unda ko‘zi ilg‘agancha ko‘rar, u bir xazinadirkim, har kishi unga qo‘l cho‘zib, undan qurbi yetganicha olar…Navoiyning har bitta bayti zamirida bir, uch, besh yoki o‘nlab ma’no va mazmunlar yashirin, inchunin, ularning izohi uchun bir, uch yoki o‘nlab talqinlar tug‘ilishi muqarrar. Ularning qirralari, chizgilari, tovlanishlari, ramz-u ishoralari behisob. Bir yo‘la qamrab olib bo‘lmaydi. Dunyoni bir yo‘la qamrab olib bo‘lmaydi. Dunyoni bir qarashda qamrab yoki bitta talqinga sig‘dirib bo‘lmaganidek…Lekin Navoiy dunyoqarashining bosh ustuni bor. U shoir dunyosini, uning osmondek azamat gumbazini boshida tikka ko‘tarib turadi”[3].

Ye.E.Bertels o‘zining “Navoiy” monografiyasida, A.Valixonov “G‘azal nafosati” kitobida, R.Ibrahimova “O‘zbek adabiyotida ilmiy fantastika janri” asarida, O.Madayev “Navoiy dahosi va zamonamiz kashfiyoti” maqolasida Navoiy dahosiga atroflicha chizgi beradilar. Alisher Navoiy yashagan davr muhitida inson ongi va tafakkuri mahsulida hali dunyoga kelmagan, yaratilmagan, ammo kelajakda ixtiro hamda kashfiyotlar bilan bog‘liq “yaratilishi mumkin tuyulgan sehrli, samaralari–ajoyibotlar haqidagi fikrlar buyuk shoir va mutafakkirning shaxsiy orzulari o‘laroq gavdalanadi”[4].

“Bu jihatdan XV asrning daho shoiri Alisher Navoiy o‘tmish ustozlarning munosib davomchisi sifatida ma’rifat maydonida gavdalanadi. Farhod tilidan *“Topilmas mushkuli men qilmagan hal”* deganda, Alisher Navoiy ilm, fan, badiiy ijod sohasida o‘z yechimini topmagan muammo yo‘q ekanini ta’kidlagandek ko‘rinadi”[5], - deydi Omonilla Madayev.

[1] Жумаева З.Ш. Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокултурологик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. диссертацияси автореферати. – Жиззах, 2021. – Б. 58, 5.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.

[3] Алишер Навоий ғазаллар. Шарҳлар. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 167; JamolKamol. “Қизил, сориғ, яшил ...”ғазали. – Б. 137-138, - Б. 137-138. www.ziyouz.com kutubxonasi.

[4] Ibrohimova R. Dahoning buyuk orzulari. Ziyouz.uz.

[5] Мадаев О. Навоий даҳоси ва замонамиз кашфиётлари // Жаҳон адабиёти. 2014 йил, №2. – Б. 208, 53.

Alisher Navoiy asarlari, unda tasvirlangan davr va voqealar, qahramonlar hayoti bilan bog‘liq badiiy tasvirlar tilshunoslikning kognitiv tahlilida ularning semantikasi (kognitiv ma’noda) madaniy va tarixiy jihatdan zamon ruhi bilan bog‘liq holda xotira birligi, aqliy leksika, inson ruhiyatida aks etgan dunyoning butun manzarasi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

“Hazrat Navoiy ijodlarini muhtasham bir qasrga qiyoslasak, barchamiz uning yonidagina aylanib yuribmiz, xolos. Modomiki, bepoyon tafakkur sarhadlarini fath eta olgan she’riyat sohibqironining oltin merosi millat ruhini, tafakkurini tarbiyalar ekan, u zot ijodini qomusiy ravishda tadqiq va tahlil etish, bu jarayonda, ayniqsa, yoshlarda rag‘bat uyg‘ota olish bugungi kunning eng asoiy vazifalaridan biri bo‘lib qolaveradi”[1], - deydi yozuvchi-jurnalist I. Abdiyev.

Alisher Navoiy asarlari badiiy matnlarida “aql”, “zakovat”, “ilm” konseptlarining verballashuvi badiiy lavhalarda yorqin kuzatiladi. Shoirning aql-u zakovati, idroki, ilmiy tafakkuri, falsafiy fikr va tasavvurlari hayratlanarli jihatlari bilan kishini o‘ziga jalb etadi.

“Konsept – mental tushuncha bo‘lib, uni o‘rganishga kognitiv va lingvomadaniy jihatdan yondashish mumkin. Kognitiv jihatdan yondashuvda tushunchaning inson tafakkuri bilan chambarchasligi asosiy o‘rinni egallasa, lingvomadaniy yondashuvda konseptning madaniyat bilan bog‘liq jihatlari kuzatiladi”[2]. O‘zbek tilidagi madaniyat tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lgan va inson tafakkuri hamda dunyoqarashida o‘zining aksini topgan konseptlardan biri *ilm, bilim* konseptidir.

Har bir kishi o‘z mentaliteti, tili va madaniyati, dunyoqarashi, zamon ruhidan kelib chiqib unga ta’rif beradi, tahlil qiladi.

Ilm – biror narsaning haqiqatini anglab yetish, mulohaza yuritish, idrok qilishdir. Ilm – o‘qish-o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishilgan muvaffaqiyatli bilim; ko‘nikma, ma’lumot degani. Bilim esa arab tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, ilm kalimasining tarjimasi hisoblanadi. *Bilim* konsepti esa *donolik* tushunchasi bilan sinonimdir. Faqat qaysidir sohadan xabardorlik emas, balki haqiqat haqidagi bilimlarning amaliyotda isbotlangan natijasi, uning inson ongida to‘g‘ri aks etishi, chuqur bilimli bo‘lish, biror narsani ilmiy-nazariy jihatdan mukammal anglash, falsafiy va mantiqiy fikr yurita olish hamda amaliy, hayotiy ma’nolarni anglatadi.

“Hayrat ul-abror” dostoninig maqolotlarida insonning komillikka erishuvi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy omillar ham keng tarzda qalamga olingan. Masalan, XI maqolot ilm masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, sarlavhasidayoq ilm so‘zining arab yozuvidagi har bir harfi sharhlanadi: *“ayn”i – quyosh, “lom”i – oy, “mim”i – kunduz.* Bundan ko‘rinadiki, Alisher Navoiy ilmning har bir harfini yorug‘lik taratadigan jismlarga o‘xshatib, shundan kelib chiqib, ilmning o‘zini jaholatni-qorong‘ulikni yorituvchi ulug‘ vosita deb talqin qiladi. Bas shunday ekan, ilmni egallagan inson-jaholatga qarshi ma’rifatni tarqatuvchi va o‘zi unga amal qiluvchi deb biladi:

Ko‘ngli bo‘lib maskanu ma’voyi ilm,
Qatra kibi paykari daryoyi ilm.
Ibriyu, yunoniyu, suryoni ham,
Hindi agar so‘rsa, bilib oni ham.
Ko‘ngli uyin ilm etibon bir jahon,
Qatrada ul na’vki daryo nihon.
Mushkuli aflok bo‘lub bejadal
Bu Ali fikrati olinda hal”[3]*.* Ilm haqidagi fikr va mulohazalarimizni yanada chuqurroq, mukammalroq darajadagi xulosalar orqali davom ettirish mumkin. “Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur[4]. Hatto, Qur’onning ilk oyatlaridayoq ilm to‘g‘risidagi fikrlarda “O‘qing, o‘qing” deb ilmu ma’rifatga urg‘u beriladi. Qur’onda olti mingdan ortiq oyatlar bo‘lib, ulardan mingdan ko‘prog‘i ilmning asoslari haqida bahs yuritadi. Alloh Qur’onda: “Alloh sizdan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko‘tarur, deydi”[5] (Mujodara surasi, 11-oyat).

Aql – mantiqiy tafakkur orqali butun olamni tushunishimiz, his qilishimiz. Falsafiy g‘oyalarda aql ijodiy kognitiv faoliyat sifatida belgilanadi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda shaxsning barcha yutuqlari va aqliy qobiliyatlari kompetentligi rivojlanishining o‘lchovlari ilmiy-tadqiqotlar jarayonlarida o‘rganilmoqda. Har bir davr kishilari o‘zlarining ilg‘or g‘oyalari, ilmiy salohiyati, aql-zakovati hamda ilmiy tushunchalari bilan boshqa shaxslarga nisbatan ajralib turadi. *Aql, zakovat, ilm* konseptlarining verballashuvi bilim tuzilmalarini obyektivlashtirish bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladigan kognitiv tilsunoslikning o‘rganish predmetiga aylangan tafakkur va tilning o‘zaro ta’siri keng qamrovli rivojlanish istiqbollarini ochadigan dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Insonning ongida yashaydigan va doimiy rivojlanib, lisoniy shaklga ega bo‘lgan tafakkuri ko‘p qirrali tuzilma bo‘lib, uning kognitiv faoliyati haqida yangi tasavvurlar berib boradi.

[1] Абдиев И. Ҳазрат Навоийнинг ҳайратомуз ихтиролари / “Маърифат саодати” газетаси, 2018 йил, 5-сон.

[2] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.

[3] Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar (saylanma). – Toshkent, 2002. – Б. 317, 97.

[4] Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. 2-tab’i, sana 1336 h./1917 m. – Toshkent: Par.Sots.revolyuts, 1917.

[5] Qur’oni Karim. Mujodara surasi, 11-oyat.

Aql, zakovat, ilm konseptlarining semantik tahlili ushbu tushunchalarni yana ham oydinlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot obyektimizda aynan “Aql”, “zakovat”, “ilm” konseptlari semantik sohasining tahlili bo‘lganligi uchun shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy fanning antropotsentrik masalalarga murojaati ijtimoiy – ruhiy, etnolingvistik ko‘rinishdagi juda ko‘plab savollarni tug‘diradi. *Aql, zakovat, ilm* va shunga o‘xshash konsept hamda tushunchalarning tipologik tahlilini o‘tkazar ekanmiz, bevosita ushbu tushunchalarni lug‘aviy ma’nolar bilan chog‘ishtirish, taqqoslash orqali amalga oshirishni ma’qul topdik. Chunki, bunday tahliliy tadqiqotlarning diqqat markazida inson faoliyati, uning aql-u zakovati, idroki, ilmiy tafakkuri, falsafiy fikr va tasavvurlari atrofida sodir bo‘layotgan jarayonlarni bilish asosiy o‘rin egallaydi. Bu kabi tushunchalarning ma’no-mazmunini ro‘yobga chiqarish uchun “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga murojaat qilsak yanada oydinlashadi. *Aql* [arabcha – es, hush] 1. Inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyati; fikrlash qobiliyati. *Jonzotlar ichida birgina odamzotga aql ato etib, yuragiga diyonatni joylabdi* (N. Norqobilov, To‘qnashuv). *Aqldan ozmoq*. *1*. Fikrlash qobiliyatini yo‘qotmoq, es-hushidan ayrilmoq. *Birinchi qadah chanqoqni bosish uchun, ikkinchisi – xursandchilik, uchinchisi – kayf qilib huzurlanish, to‘rtinchisi esa, aqldan ozish uchun ichiladi.* (Gazetadan) 2. Fikrlash qobiliyatining amali; fahm, idrok, zehn. *Aqling bilan ko‘r, ko‘z aldaydi.* Maqol. *Qaysi vazirim aqli ziyrak, donishmandligini bildirsa, xazinamdan o‘n tillo va bosh-oyoq sarpo beraman*.(Luqmoni hakim)

Aql bovar qilmaslik, aqlga sig‘maslik. Tasavvurga sig‘maslik, aqlga sig‘maslik.Tasavvurga sig‘maslik, tasavvur eta olmaslik. *Nurali aql bovar qilmaydigan hikoyasini bazo‘r tamomladi*.(Gazetadan)

Aql tish.(tish.)Aql o‘rgatmoq.Pand-nasihat, o‘git, yo‘l-yo‘riq tarzidagi fikr-mulohaza aytmoq. *Birov qoqilganda, aql o‘rgatuvchilar, taftishchilar ko‘payadi.* (S. Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi)

3. Mulohaza maslahat tarzidagi fikr. *Ko‘pdan ko‘p aql chiqar. Maqol. Endi mening aqlim shukim, o‘shal kandidatingiz tomoniga o‘tganlarni qo‘lga olish uchun Nurmat akamning hovlisiga chaqirib, bir oz ziyofatcha bilan ko‘ngillarini topib, shoyad qo‘lga olib qolamiz.*(Hamza, Burungi saylovlar)

*Aqlan*kam qo‘ll. 1. Aqliy jihatdan.*Asadbek, faqat jismonan emas, aqlan ham oqsoq bo‘lganlar valdiraganida jim o‘tirolmasdi.* T.Malik. “Shaytanat”

2. *Aql bilan.*Madaniyatli inson har qanday qiyin sharoitda ham o‘zini yo‘qotmaydi, aqlan yo‘l topib, mushkulini oson qilishga intiladi.Gazetadan.

Aqliy. Aql-idrok faoliyatiga oid fikr yuritish bilan bog‘liq. Aqliy mehnat. *O‘limigacha bemor aqliy qobiliyatini to‘liq saqlab qolgandi.*Gazetadan.

Aqllashmoq. Fikrlashmoq, muhokama qilmoq, maslahatlashmoq.Yotig‘i bilan aytish, adashdim, o‘zi nima gap? O‘rtaga tashlang! Aqllashaylik. (S.Ahmad, Hukm). Sizlar aqllashib, qayerda G‘anibop kelin borligini bilib, ro‘yxat qilinglar. (S.Ahmad, Yulduz)

Aqlli. 1. Aqli raso; miyali, Aqlli bola, Aqlli yigit. *Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz do‘stini.* Maqol. *Muallim o‘rta yashar, aqlli, yoshlarga mehribon kishi edi.* (Oybek.“Nur qidirib”). *Aqlli kishilarning sadag‘asi ketsang arziydi.* (A.Qodiriy, O‘tgan kunlar)

2. Aql bilan vujudga kelgan; fahm-farosatdan, bilimdonlikdan dalolat beradigan. Aqlli tadbir.*Aqlli ish. Uning (Davlatyorining) ba’zan lo‘nda va aqlli gaplarini eshitganda, Elmurod huzur qilardi*. (P. Tursun, O‘qituvchi)

3. Ziyrak, fahmli, hushyor (hayvon va qushlar haqida). Aqlli it. *Davraga e’lonchi chqib: - Hov, yaxshilar, hozir biz sizlarga nomerlarni: aqlli otlar o‘yinini… ko‘rsatamiz,* - dedi. *Aqllilik.* Aql bilan ish tutish, aqlli xatti-harakat; *Sukut saqlash hamma vaqt ham aqlliligimizdan darak beravermaydi.* (Mirmuhsin, Umid).

Aql-hush, aqlu hush. Es-hush, fahm, idrok farosat. *Elmurod xayol ichida asta-sekin odimlar ekan gapirdi: - “O‘zining aqli-hushi joyidami? Ko‘rinishidan yomonga o‘xshamaydi - a o‘zi!?*(P. Tursun, O‘qituvchi)[1]. Insonning olamga nisbatan tushunchalari, dunyoni mukammal bilishi, eng avvalo, o‘z-o‘zini bilishi, uning aql – zakovati va tafakkuri orqali aniq mazmun ifodalashi bilan o‘lchanadi. Shunday ekan, *aql, zakovat, ilm* so‘zlarini solishtirganda, asosiy ma’nosidan boshlab, ularning semantik tuzilmalarining o‘zaro bog‘liqligini ham hisobga olib tahlil qilishimiz lozim bo‘ladi.

Aql inson tanasining yuqori qismida joylashgan bosh – miya orqali boshqariladi. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining *“uchinchi hayrat”* yani (XX bobi)da bu to‘g‘risida juda mukammal fikrni ilgari suradi: Yaratgan butun olamni yaratishdan bosh maqsadi odam ekan, insonga go‘zal shakl-shamoyil, undanda muhimi, boshqa barcha maxluqotdan uni ajratib turuvchi aql-idrok bilan yaratgani aql-donishlarni hayratlanishiga (“Hayrat ul-abror” asari nomi shunga ishora) sabab oily mo‘jizalardan deb baholaydi. Olloh inson ong-tafakkurining qobig‘i bo‘lgan bosh va miyani insonning oliy joyi, tanasining eng yuqorisiga joylashtirdi, deydi. Mutafakkir inson tanasini bir yirik shaharga qiyoslaydi va shaharni boshqarish markazi, qarorgohi tananing eng oily nuqtasida joylashgan bosh, unda joylashgan miyadir,deydi. Inson miyasida har xil fikrlar parishon, yani sochiq tarzda bo‘ladi. Inson bu fikrlar-

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси. – Б. 107, 126, 127.

ni jamlab, to‘g‘ri xulosa qilishi uchun, tanasida va boshida jo bo‘lgan shunday vositalar borki, ular ham bir mo‘jizadir, deb, sezgi organlarini ta’riflaydi”[1].

Ta’kidlash kerakki, diniy ta’limot va qarashlarda ham xususan, “Islomda aql Alloh taolo tomonidan insonga berilgan eng ulug‘ ne’matlardan biri hisoblanadi. Aql insonni boshqa hayvonlardan ajratib turadi va ular ustidan sultonlik qilishga yordam beradi. Qur’on barcha ishlarda aqlni ishlatishga chaqiradi, aqlni ishlatmaganlarni qattiq tanqid qiladi. Qur’onda aqlga taalluqli so‘zlar 50 marta ishlatilgan. “Aql egalari” so‘zi esa 10 martadan ko‘proq ishlatilgan. Shuning o‘zi ham Qur’on aqlga katta e’tibor berganining dalilidir. Qur’on aqlning ulkan ne’mat ekanini bayon qiladi: “Bunda albatta, aql ishlatuvchi qavmlar uchun oyat-belgilar bordir”, “Aqlni ishlatmaysizmi?” va hokazo (Ra’d surasi, 4-oyat, Baqara surasi, 76-oyat)”[2].

Alisher Navoiy ilmi, aql-u idroki, zakovati haqiqatdan ham mo‘jizaviy va hayratlanarlidir. “Navoiy o‘z asarlarida arqomi mantuq – *“gapiruvchi” ya’ni ratsional sonlar”; “kosmosga oid o‘nlab ma’lumotlar”, “suturlob(astronomik asbob) haqidagi fikrlar”, “Farhodning temir odamlarga duch kelish lavhasi”, “Jomi Jamshid mo‘jizasi”, “qizil, yashil, sariq ranglarga e’tibor”, “Farhod va Shirin”dagi g‘aroyib tasvirlar”, “Sab’ai sayyor”dagi eskalatorlar”, “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandarning suv ostiga shisha idishda tushgani”*[3] aks ettirilgan badiiy tasvirlarda shoirning ixtiro va kashfiyotlar to‘g‘risidagi orzulari ishonchli ifodalangan. Shoir zamonida ixtiro va kashfiyotlar qilish, texnik yaratish elementlari bo‘lmaganligini tarix to‘liq tasdiqlaydi. Bu faqat xalqning o‘tmish orzusi bo‘lib qolgan. Ana shu orzu va xayollarni, kelajak haqidagi tasavvurlarni, mamlakatning obod bo‘lib rivojlanishi hamda taraqqiyoti to‘g‘risidagi teran g‘oyalarni Alisher Navoiy o‘zining asarlarida, dostonlarida ifodalay olgan. Bu ixtiro va kashfiyotlarga o‘zining aql-idroki, zakovati, boy bilimi va tushunchalari orqali ilmiy izoh bera olgan qobiliyat egasidir.

“Aql” tushunchasi ilmiy jihatdan mukammal qolipga tushirilgan, ilmiy ta’rifi yo‘q, chunki bugungi zamonaviy psixologiyada bu faqat-faqat odamga, insonga tegishli tushunchadir. Aqlning mavjudligi odamlarni hayvonlar va boshqa jonzotlardan, o‘simliklardan ajratib turadi. Aql – aqliy faoliyatning eng yuqori darajadagi turi, oqilona va ijodiy fikr yuritish qobiliyati bo‘lib, u o‘rganishni, to‘plangan bilimlarni o‘zlashtirishni hamda hayotiy qarash va tajribalarning rivojlantirilishini ta’minlaydi. Ba’zi hollarda “aql” konsepti kishilarning muloqoti, so‘zlashuvi orqali amalga oshiriladi. Bunda antonimik juftliklarning tarkibiy qismlari orqali solishtirilganda mazmun hosil bo‘ladi. Masalan: “aqlli” (oqil, dono, zukko) –“aqlsiz” (ahmoq). *Aql* tushunchasining lingvokognitiv modelini *aql – aqliy organ, bosh, aql-ong, aql-ustoz, aql-shoir yoki yozuvchi, aql-tadqiqotchi, olim, aql-qo‘mondon, aql-do‘st yoki dushman* va hokazo tarzda belgilash mumkin. Aql bilan inson aqliy tushunish yoki aqliy ishlab chiqarish operatsiyalarida faoliyat ko‘rsatadi. Xullas, insonning olamga nisbatan tushunchalari, dunyoni mukammal bilishi uning aql-zakovati va tafakkuri mahsuli sifatida badiiy tasvirlar tahlilida madaniy va tarixiy jihatdan zamon ruhi bilan bog‘liq holda dunyoning butun manzarasi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Alisher Navoiy ilmi, aql-u idroki, zakovati haqiqatdan ham mo‘jizaviy va hayratlanarlidir. “Navoiy o‘z asarlarida arqomi mantuq – *“gapiruvchi” ya’ni ratsional sonlar”; “kosmosga oid o‘nlab ma’lumotlar”, “suturlob(astronomik asbob) haqidagi fikrlar”, “Farhodning temir odamlarga duch kelish lavhasi”, “Jomi Jamshid mo‘jizasi”, “qizil, yashil, sariq ranglarga e’tibor”, “Farhod va Shirin”dagi g‘aroyib tasvirlar”, “Sab’ai sayyor”dagi eskalatorlar”, “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandarning suv ostiga shisha idishda tushgani”*[4] aks ettirilgan badiiy tasvirlarda shoirning ixtiro va kashfiyotlar to‘g‘risidagi orzulari ishonchli ifodalangan. Shoir zamonida ixtiro va kashfiyotlar qilish, texnik yaratish elementlari bo‘lmaganligini tarix to‘liq tasdiqlaydi. Bu faqat xalqning o‘tmish orzusi bo‘lib qolgan. Ana shu orzu va xayollarni, kelajak haqidagi tasavvurlarni, mamlakatning obod bo‘lib rivojlanishi hamda taraqqiyoti to‘g‘risidagi teran g‘oyalarni Alisher Navoiy o‘zining asarlarida, dostonlarida ifodalay olgan. Bu ixtiro va kashfiyotlarga o‘zining aql-idroki, zakovati, boy bilimi va tushunchalari orqali ilmiy izoh bera olgan qobiliyat egasidir.

Resume: In this article, the study of language as a mental and social phenomenon, the study of the specific features of the linguistic image of this phenomenon, helps to develop the principles of cognitive capabilities that open the way to the analysis of mental images, the set of meanings of language units defines the semantic space of the language. Its organization, concept is a unit of thought, meaning is considered a unit of

[1] Норов Т, Ерназаров Ф. Алишер Навоий онтологик фалсафасида – билиш назариясига оид қарашлар. Ўтмишга назар. №2 (2022). – Тошкент, 2022.

[2] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ақойид илми ва унга боғлиқ масалалар. Манба: islom.uz.

[3] Мадаев О. Навоий даҳоси ва замонамиз кашфиётлари // Жаҳон адабиёти журнали. 2014-йил, феврал, 2-сон. – Б. 53, 56. www.ziyouz.com.kutubxonasi.

[4] Мадаев О. Навоий даҳоси ва замонамиз кашфиётлари // Жаҳон адабиёти журнали. 2014-йил, феврал, 2-сон. – Б. 53, 56.www.ziyouz.com.kutubxonasi.

the semantic space of language, concept and meaning are equally cognitive phenomena. The fact that cognitive linguistics, which emerged in the 70s of the last century, has taken a strong place in the field of modern linguistics, the formation of cognitive linguistics started a new stage in the study of the relationship between language and thinking, and the cognitive approach to the study of artistic texts can be seen in the example of Alisher Navoi's work. in the course of the publication, opinions were expressed that the verbalization of the concepts of "intelligence", "intelligence", "science" in the artistic texts of his works are vividly expressed in the artistic pictures.

Резюме: В данной статье изучение языка как психического и социального явления, изучение особенностей языкового образа этого явления, разработка принципов познавательных возможностей, открывающих путь к анализу мыслительных образов, совокупность значений языковых единиц, языковая организация семантического пространства, концепт есть единица мысли, значение считается единицей семантического пространства языка, концепт и значение суть явления одной и той же познавательной природы. Тот факт, что когнитивная лингвистика, возникшая в 70-х годах прошлого века, заняла прочное место в области современного языкознания, становление когнитивной лингвистики положило начало новому этапу в изучении взаимосвязи языка и мышления, когнитивный подход к изучению художественных текстов можно увидеть на примере творчества Алишера Навои. В ходе публикации высказывались мнения о том, что вербализация понятий "интеллект", "интеллект", "наука" в художественном тексты его произведений ярко выражены в художественных картинах.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FE'LNING LUG'AVIY SHAKLLARIDA DARAJALANISH HODISASINING NAMOYON BO'LISHI

Kasimova Muqaddas Bekpo'latovna,
Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Fe'l turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ko'plab izlanishlar uchun tadqiq manbayi bo'lgan hodisalardan biridir. O'zbek tilshunosligida bu masala tadqiqi bilan A.G'ulomov, A.Hojiyev, H.Ne'matov, M.Mirtojiyev, J.Muxtorov, S.Sultonsaidova, M.A'lamova, Q.Holiqov, B.Bahriddinova va boshqalar tomonidan maxsus tadqiq qilingan[1]. Fe'lning nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, harakat tarzi va lug'aviy shakllik mohiyatiga ham ega bo'lgan tur kabi to'rt lug'aviy shakli mavjud. Bu lug'aviy shakllarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va paradigmaga birlashuvchi bir necha shakllarga ega. Fe'lning nutqda voqelanish xususiyatlariga ko'ra ko'rsatilgan to'rt lug'aviy shakl bir xil mavqega ega emas, albatta. Nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik va harakat tarzi shakllari fe'l uchun doimiy, barqaror, turkumiy, tasnifiy belgi sifatida nutqda qanday vazifa va faoliyatda voqelanishidan qat'i nazar yuzaga chiqadi va fe'l tarkibida bo'ladi. Tur kategoriyasiga esa fe'lning nopredikativ shakllari deb qaraladi, ya'ni ular fe'l gapda fe'l-kesimdan boshqa vazifalarda kelgandagina voqelanadi. Shuning uchun ba'zi tasniflarda, jumladan, H.Ne'matov tomonidan berilgan fe'l shakllarining tasnifida fe'l turlari fe'lning boshqa tasniflovchi lug'aviy shakllaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan farqlanadi[2]. Tilshunos olima B.Bahriddinova fe'l haqida fikr yuritar ekan, akademik I.I.Meshchaninovning dunyoning barcha tillarida fe'l gap tarkibida u yoki bu bo'lak vazifasida kelishi uchun ma'lum bir shaklni qabul qiladi. Qizig'i shundaki, fe'lni gap tarkibiga olib kiruvchi bunday shakllarning har biri o'zining

[1] Ҳожиев А. Феъл. Мас.мух. Ш.Ш.Шоабдурахмонов. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 192; Баҳриддинова Б. Феъл луғавий шакллари тизими. Тур категорияси: Филол. фан. номз. дисс. – Қарши, 2002. – Б. 25.

[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: Фан, 1989. –С. 53-54 с.

turli atamalariga ega. Masalan, **harakat nomi** - rus tilida fe'lning noaniq shakli – "infinitiv", Yevropa tillarida "gerundiy", arabcha "masdar", **sifatdosh** - ruscha "prichastie", yevropacha "partitsip", arabcha "ismi foil" yoki "ismi maf'ul", **ravishdosh -** ruscha "деепричастие", yevropacha "adverbiyum", **sof fe'l** - ruscha "fe'lning tuslangan shakli", yevropacha "verbum finitum", arabcha "fe'l" kabi atamalar bilan yuritiladi[1]. degan fikriga qo'shilgan holda yuqoridagi to'rt turdagi shakllar tizimi (o'zbek tilida) o'zining maxsus atamasiga ega emasligini qayd etadi. Rus tilshunosligida bu sira fe'lning funksional formalari degan noaniq atama bilan birlashtiriladi va o'zbek tilshunosligiga ham bu xalqa asosida kirib keladi. Atamaning noaniqligi va kategoriyaning nomi bo'la olmasligi haqida ko'pgina tilshunoslar fikr bildirganlar. Ammo bu kategoriya uchun umumiy bir leksemali qulay atamani kamdan-kam tadqiqotchilar taklif etganlar. Jumladan, I.I.Smirnitskiy[2] bu tizim uchun "категория репрезентации" atamasini qo'llaydi. Turkiyshunoslikda ham bu atama H.Ne'matov tomonidan ma'qul variant sifatida e'tirof etildi[3]. O'zbek tilshunosligida mazkur kategoriyani nomlash masalasi atoqli tilshunos olim B.Mengliyev tomonidan taklif etildi[4]. Tilshunos olim bu kategoriyani "fe'lning o'zgalovchi kategoriyasi" deb nomladi. Ammo bu atamaning ham qulay va noqulay tomonlari bor. Qulayligi shundaki, u bir so'zdan iborat bo'lib, fe'lning boshqa turkum so'zlariga yaqinlashishiga ishora qiladi. Noqulayligi esa fe'lni o'zgalash, ya'ni fe'lni fe'ldan uzoqlashtirish ma'nosining anglashilib turishidadir. Harakat nomi, ravishdosh, sifatdosh va tuslangan fe'llar yaxlit bir turkumga birlashadigan fe'lning turli shakllari bo'lganligi sababli, masalan, harakat nomi yoki sifatdoshni "fe'ldan o'zgalandi" deb aytib bo'lmaydi. Bu shakllarning barchasi fe'l turkumi doirasida qoladi, ya'ni boshqa turkum so'zlariga o'tmaydi - o'**zgalanmaydi**. Shu bois o'zgalovchi atamasini ham qo'llash fanda unchalik o'zini oqlamaydi,[5] deb ta'kidlab o'tadi tadqiqotchi B.Bahriddinova. Umuman olganda hozirgi kunda ham tilshunosligimizda fe'l so'z turkumi yoxud so'z turkumlari masalasida chigal bahstalab masalalar borligini alohida qayd qilib o'tishimiz lozim.

O'zbek tilshunosligida fe'l so'z turkumining mohir tadqiqotchilari: A.G'ulomov va A.Hojiyevlar o'z tadqiqotlarida fe'llarni turli tomonlama tahlil qilganlar. Xususan, o'zbek tilining mohir tadqiqotchisi A.G'ulomov va boshqa tadqiqotchilarimiz fe'l haqida fikr yuritar ekan, quyidagicha fikr yuritganligini ko'rishimiz mumkin: "Fe'llar o'ziga xos murakkab grammatik kategoriyalar tizimiga ega bo'lgan so'z turkumi hisoblanadi. Xususiy ma'nolari bilan o'zaro bir-biridan farqlanuvchi, bir umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi fe'l shakllari tizimi harakat anglatuvchi so'zlarning grammatik kategoriyalarini hosil qiladi. Faqat fe'l so'z turkumiga xos bo'lgan grammatik shakllar sistemasi fe'lning grammatik kategoriyalarini tashkil etadi. Fe'l so'z turkumiga oid bo'lgan har qanday so'z gapda kesim yoki nokesimlik vazifasida kelishidan qat'i nazar, ma'lum bir grammatik kategoriyalarning birida bo'lishi shart. Fe'lning grammatik kategoriyalariga nisbat, mayl, zamon, shaxs-son va bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyalari kiradi.[6]

Hozirgi o'zbek tilida fe'llar anglatgan qator ma'nolariga ko'ra turli mazmuniy guruhlarga bo'linganligiga guvoh bo'lamiz. Darsliklarimizda fe'llar anglatgan ma'nolariga ko'ra quyidagicha guruhlanadi[7]:

Harakat fe'llari
Nutq fe'llari
Holat fe'llari
Natijali faoliyat fe'llari
Tafakkur fe'llari
Munosabat fe'llari

Ushbu fe'l guruhlari darsliklarimizda quyidagicha bayon qilinganligini ko'rishimiz mumkin:

"Harakat fe'li jonli va jonsiz predmetga xos harakatni ifodalaydi. Ular yurish, ta'sir etish, zarb berish kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Qo'l, oyoq, yuz, og'iz, gavda bilan bog'liq harakatda harakatlanuvchi obyekt yaqqol ko'rinib turadi. Oyoq bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'llar: *yurmoq*, *kezmoq*, *yo'rg'alamoq*, *pildiramoq*, *lapanglamoq*, *gandiraklamoq*, *do'konglamoq*, *tentiramoq*, *tepkilamoq*, *tepmoq*, *toptamoq*, *depsinmoq*, *tisarilmoq*; qo'l bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'l: *urmoq*, *solmoq*, *ushlamoq*, *silamoq*, *tirnamoq*, *shapaloqlamoq*, *chimchilamoq*, *uqalamoq*, *qitiqlamoq*, *changallamoq*, *mushtlamoq*, *chertmoq*, *hovuchlamoq*, *chapak chalmoq*, *paxsa qilmoq*;

Yuz, gavda, og'iz, lab, quloq, burun va h. bilan bog'liq harakat ham mavjud.

Nutq fe'llari insonning gapirish faoliyati bilan bog'liq harakatlarni ifodalaydi: *gapirmoq*, *so'zlamoq*, *aytmoq*, *demoq*, *bidirlamoq*, *to'ng'illamoq*, *g'o'ldi-*

[1] Баҳриддинова Б. Феъл луғавий шакллари тизими. тур категорияси: Филол. фан. номз. дисс. – Қарши, 2002. – Б. 58.

[2] Смирницкий А.И. Морфология английского языка. – М.: Изд. лит. по иностр. Яз., 1959. – 440 с

[3] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Тошкент: Изд. Фан, 1989. – 191с.

[4] Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фан. номз ... дисс. – Бухоро, 1995. – 144 б.

[5] Баҳриддинова Б. Феъл луғавий шакллари тизими. тур категорияси: Филол. фан. номз. дисс. – Қарши, 2002. – Б. 58.

[6] Ғуломов А.Ғ. Феъл. – Тошкент, 1954; Мадраҳимов И. Ҳозирги ўзбек адабий тили. морфология. – Фарғона, 2008; Зикриллаев Ғ. Феълнинг шахс, сон ва ҳурмат категориялари системаси. – Тошкент, 1990.

[7] Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 295-296.

ramoq, *vaysamoq*, *vaqillamoq*, *javramoq*, *bobillamoq*, *javob bermoq*, *vag‘illamoq* kabi.

Holat fe’llari. Inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holat turli xususiyatga ega. Holatni to‘rtga bo‘lish mumkin:

a) ichki holat (ruhiy kechinmalar bilan bog‘liq): *eslamoq, unutmoq, yodlamoq, tubanlashmoq*;

b) tashqi holat (ichki holatning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq): *xafa bo‘lmoq, shodlanmoq, esankiramoq, dovdiramoq, g‘azablanmoq*;

d) jismoniy holat (inson tanasi bilan bog‘liq): *holsizlanmoq, kuymoq, kuchlanmoq, zaiflashmoq*;

e) ijtimoiy holat (jamiyat bilan bog‘liq): *boyimoq, kambag‘allashmoq, ko‘tarilmoq, urilmoq, quvg‘in bo‘lmoq*.

Natijali faoliyat fe’llari tizimi *yasamoq, qurmoq, bunyod etmoq, hosil bo‘lmoq, chizmoq, yozmoq, barpo qilmoq, arralamoq, parchalamoq, sayqal bermoq, randalamoq, sindirmoq, yemoq, o‘chirmoq* kabi birliklarni o‘z ichiga oladi.

Tafakkur fe’llari sirasiga insonning fikrlash qobiliyati bilan bog‘liq *o‘ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq, o‘yga botmoq, ko‘z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq* kabilar kiradi.

Munosabat fe’llari qatori *erkalamoq, suymoq, yaxshi ko‘rmoq, parvona bo‘lmoq, rahmi kelmoq, xushomad qilmoq, yon bosmoq, maftun bo‘lmoq, e’zozlamoq* kabi ijobiy xarakterdagi munosabat fe’llari, *beti qursin, xudo olsin, qorasi o‘chsin, baloga giriftor bo‘lsin, juvonmarg bo‘lgur* kabi salbiy xarakterdagi munosabat fe’llaridan tashkil topadi”[1].

Boshqa so‘z turkumlarida bo‘lgani kabi fe’llarda ham darajalanish hodisasi mavjudligini alohida ta’kidlash lozim**.** Fe’llarda darajalanish hodisasini tilshunos olima M.Otaboyeva rus tilshunosi I.A.Isayeva fe’llardagi gradual semantikani fe’llarning leksik-semantik va so‘z shakllantirish darajasida namoyon bo‘lishi misolida tadqiq etdi. Muallifning ta’kidlashicha, fe’llarning gradual semantikasi qo‘shimcha vosita – graduatorlardan (affikslar, qo‘shimcha gradatsion ma’nolar) foydalanish orqali yuzaga chiqadi va rus tilidagi **vzoyti – prevzoyti** so‘zini misol qilib keltiradi**.** Bu biz o‘rganayotgan graduonimiyadan ko‘ra ko‘proq gradatsiyaga yaqinroq va nutqdagi darajalanishni o‘zida aks ettiradi,[2] deb ta’kidlab o‘tadi.

Fe’llar ma’no ko‘lamiga ko‘ra darajalanishdan tashqari kategoriyalari orasida ham o‘zaro muayyan bir belgisining ortiq-kamligi bilan ham farqlanishi mumkin. Graduonimiyaga oid izlanishlar olib borgan o‘zbek tilshunoslari orasida grammatik kategoriyalarda darajalanish to‘g‘risida faqatgina O.Bozorovning tadqiqotida morfologik sathda darajalanish qismida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, unda fe’l kategoriyalarida ham darajalanish mavjudligi izohlab beriladi[3]. Quyida kategoriyalarda darajalanishni tahlil etib chiqamiz. Dastavval nisbat kategoriyasida graduonimiya qay holatda namoyon bo‘lishini tadqiqotchilarning fikrlariga asoslangan holda bayon etamiz.

Nisbat kategoriyasi harakatning subyekt, ya’ni bajaruvchiga munosabatini, harakatning subyekt va obyektga munosabatini ko‘rsatadi.

Nisbat kategoriyasi fe’lning bo‘sh subyekt valentligini to‘ldirib, muayyanlashtirib nutqqa moslaydi. Harakatning subyekt va obyektga munosabatini ko‘rsatishiga ko‘ra, nisbat kategoriyasining bir necha turi farqlanadi. Hozirgi o‘zbek tilida fe’lning aniq (bosh) nisbat, o‘zlik nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbati va majhul nisbati ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, har bir nisbat shakli maxsus yasovchi qo‘shimchalar yordamida yasaladi. Nisbat kategoriyasida darajalanishni O.Bozorov nisbat turlari orasida o‘zaro turli tamoyillarga ko‘ra, ya’ni harakatning bajarilishidagi fe’l nisbatlarining ishtirokini hisobga olgan holda namoyon etadi. “Unga ko‘ra nisbat ketegoriyalari orasida quyidagicha darajalanishni kuzatish mumkin: a) subyektning harakatni bajarish mavqeyiga ko‘ra: *aniq/o‘zlik–birgalik–orttirma–majhul; b)* harakat bajarilishida o‘zga shaxslar miqdorining oshib borishi: *o‘zlik–orttirma–birgalik*; v) harakat bajarilishida o‘zga shaxslarning ta’siriga uchrash darajasi: *mo‘tadil (aniq, o‘zlik, majhul) –tenglik yoki hamkorlik (birgalik) – tobelik (orttirma;* g) harakat aniqligining kamayib (uzoqlashib) borishi: *aniq – o‘zlik – birgalik – orttirma – majhullik”*[4].

Yuqoridagi darajalanishni faqat nisbatning turlariaro kuzatish mumkin. Agar ularni xuddi shu darajalangan nisbat qo‘shimchasini olgan fe’l leksema bilan ifodalaganda, u yerda o‘zaro ma’noviy munosabatlarni farqlash imkoni mavjud bo‘lmaydi. Masalan, subyektning harakatni bajarish mavqeyiga ko‘ra: *aniq/o‘zlik – birgalik – orttirma –majhul* darajalanish qatorini *qilmoq yoki bajarmoq* fe’li misolida ko‘rib chiqaylik: *qilmoq - qilishmoq - qildirmoq - qilinmoq* yoki *bajarmoq - bajarishmoq - bajartirmoq - bajarilmoq.* Hosil qilingan qatorlardan shuni tushunish mumkinki, ega tomonidan bajariladigan harakatning mavqeyi ortib, harakatni bajarish (ega tomonidan) bajarilishga (o‘zgalar tomonidan) o‘tib ketyapti. Nisbat qo‘shimchasini olib, uni bu darajalanish qatoriga qo‘yib ko‘rilgan fe’llar orasida esa darajalanish sezilmaydi. Demak, nisbat darajalari o‘zi subyektning

[1] Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 296.

[2] Отабоева М.Р. Ўзбек ва инглиз тилларида феъллар градуонимияси: Филол. фан. фалс.докт. ... дисс. – Андижон, 2022. – Б. 16.

[3] Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 183.

[4] Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 184.

harakatni bajarishiga ko‘ra o‘zaro darajalanadi, biroq bu qatorga nisbat qo‘shimchalarini olgan fe’llar joylashtirilsa, darajalanish kuzatilmaydi.

Fe’lning asosiy belgilaridan hisoblangan bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasida darajalanish mavjud. Fe’llarning bo‘lishli va bo‘lishsizlik shakllari orasida ham tutashuvlar mavjud bo‘lib, oraliq ma’nolarni ifodalagan muayyan shakllari bilan birgalikda darajalanish qatorini yasash mumkin. Binar oppozitsiyasiga qo‘yilgan *o‘qigan* va *o‘qimagan* so‘zlar orasida qo‘shimchalar yordamida ma’noning pasayib borish holati bilan darajalanish qatori tuziladi: *o‘qigan – o‘qigan bo‘lsa kerak – o‘qigandir – o‘qigan ko‘rinmaydi – o‘qimagan ko‘rinadi – o‘qigan emas – o‘qigani yo‘q – aslo o‘qigani yo‘q.* Albatta, ushbu zanjirda harakatning bajarilishidan to bajarilmaganligiga qadar ma’noviy pasayishlar mavjud. Bunda bir o‘zak asosida modal ma’nolarning kuchayishi bilan darajalanish qatori hosil qilingan. Bu darajalanish qatoridagi a’zolarining o‘rniga aynan shu ma’noni ifodalovchi fe’llar mavjud emas, chunki o‘zbek tilida modallik ma’nolarini faqat qo‘shimchalar orqali ifodalash mumkin. Bo‘lishli va bo‘lishsizlik shakllarini antonim hisoblash yoki ularning bo‘lishsiz shaklini darajalanish qatoriga kiritish xato bo‘ladi.Ushbu fikrlar asosida o‘zbek tilidagi bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyalari orasida darajalanish mavjud emas, degan xulosaga kelish mumkin.

Resume. In the article, the author describes four lexical forms of the verb, such as relation, participle-infinitive, mode of action and type, which also contains the essence of the lexical form, their characteristics, as well as several forms combined in a paradigm., based on the opinions of linguists, considered in detail gradual semantics of verbs, features of their occurrence in speech.

Резюме. В статье автор описывает четыре лексические формы глагола, такие как отношение, причастие-инфинитив, способ действия и тип, в котором также содержится сущность лексической формы, их характеристики, а также несколько форм, объединяющихся в парадигме. На основе мнений языковедов, подробно рассмотрена градуальная семантика глаголов, особенности их встречаемости в речи.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDA JARGONLARNING STRUKTUR VA SEMANTIK TAHLILI

Rahimova Zebiniso Shomansur qizi,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Til ijtimoiy hodisa bo‘lganligi sababli davr va avlod almashinuvi sabab bugun ma’lum mazmun anglatgan so‘zlar ertaga boshqa mazmun anglatishi mumkin. Yoki iste’mol doirasidan butunlay chiqib ketishi ham mumkin.

Rus tilshunos olimi V.V. Vinogradov ta’kidlaganidek: “Til muttasil ravishda yangi g‘oyalar, tushunchalar bilan boyib, takomillashib borgani sari avvaldan tilda mavjud bo‘lgan tashqi qobiq (nutq tovushlari yig‘indisi) yangicha ma’no va mazmunga ega bo‘lib boradi”[1].

Leksema – so‘zning ma’no tuzilishi murakkab va rang-barangdir. O‘zbek tili leksik sathini sistema ichida sistema tamoyili asosida o‘rganish so‘zning bizga ma’lum bo‘lmagan yangi qirralarini ochib berishda, leksik sathning til sistemasida turgan o‘rnini belgilashda, so‘z va predmet (denotativ ma’no), so‘z va tushuncha (signifikativ ma’no) hamda ma’no va ma’no (struktural ma’no) o‘rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi muqarrardir[2].

Bugungi o‘zbek tilshunosligida jargon sifatida o‘rganilayotgan birliklarni struktur, semantik va leksik-semantik jihatdan tasniflash uning lingvistik mohiyatini oydinlashtirishda muhimdir.

[1] Виноградов В.В. Русский язык. – Москва: Просвещение. – С. 17.

[2] Собиров А. Ўзбек тили лексикасининг систем-структур таҳлили. Монография. –Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 55.

Jargon *“to‘g‘ri”* hayotga qarshi chiqadi. Jargon nutq sur’atini oshirishga intiladi, buning uchun qisqartmalar, qisqartirilgan so‘zlar, abbreviaturalar, chet el so‘zlari va hokazolar ishlatiladi. Argo va jargonlar iste’mol doirasi chegaralangan leksikaga kirsa ham o‘zbek tilini boyitishda ularning ahamiyati juda muhim. Tilda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga qarab, jargon ham o‘zgarib boradi. Yangi kasblar paydo bo‘lishi, yangi ro‘zg‘or predmetlari yaratilishi, odamlar turlicha hordiq chiqarishlari va shunga yarasha turli xilda guruhlarga birlashishlari kabilar muloqot jarayonining o‘ziga xos jihatlarini yaratadi. Bu jarayon jargonlarning yangilanishiga, ko‘payishiga sabab bo‘ladi[1].

Jargonlarning tuzilish turlari. O‘zbek tilida mavjud va jargon deb qaraladigan birliklarning manbai ikkitadir: 1) o‘z qatlamga mansub jargonlar; 2) o‘zlashma qatlamga mansub jargonlar. O‘z qatlamga doir jargonlarga adabiy tildagi so‘zlarni maxsuslashtirish orqali hosil qilingan jargonlar kiradi. Ular boshqalardan ajralib turish, ekspressivlik, aloqa vositasi sifatida vujudga keladi. Shuningdek, yana shunday bir xil jargonlar borki, ular maxsus yasalish yo‘li bilan hosil qilingan. Bunday jargonlarning adabiy tilda o‘xshashi bo‘lmaydi. Bu jargonlardan foydalanishdan asosiy maqsad maqsadning sir tutilishi va guruh a’zolarining o‘zaro tanib olishdir. Bu kabi jargonlarga quyidagilar kiradi: yakan, hasut, hamka va boshqalar.

O‘zlashma qatlamga mansub jargonlar o‘zi olinayotgan tilda ham jargon vazifasidagi jargonlar bo‘lishi mumkin. Masalan, shobla rus tilida jargon vazifasini o‘taydi va jinoiy to‘da ma’nosini ifodalash uchun ishlatiladi. Shuxer jargoni qrim tiliga oid jargon bo‘lib jinoyat bo‘lgan joydan tezda jo‘nab ketish uchun ishlatiluvchi so‘z.

Yana bir xil o‘zlashma jargonlar borki, ularning o‘zbek tilidagi ma’nosi boshqa so‘zga teng kelsa ham, ma’noni maxsuslashtirish yo‘li bilan o‘zbek tili uchun jargon vazifasida qo‘llaniladi. Masalan, *strelka* so‘zi rus tilidan o‘zbek tiliga ko‘rsatkich ma’nosida tarjima qilinadi. Biroq strelka so‘zi o‘zbek tilida yoshlar jargoni sifatida uchrashuv ma’nosida ishlatiladi. *Kusok* so‘zi bo‘lak ma’nosida tarjima qilinsa-da, ming so‘m pul ma’nosini anglatuvchi jargon sifatida qo‘llaniladi. *Parasha* so‘zi o‘zbek tiliga axlat solinadigan chelak deb tarjima qilinadi, maxbuslar jargon sifatida mish-mish gap ma’nosini anglatadi. *Pili surot* birikmasi sirot ko‘prigi tarjimasiga ega bo‘lsa ham, talabalar jargoni sifatida imtixon ma’nosini bildiradi. *Ne’mati jannat* birikmasi aslida jannat ne’mati ma’nosini bildiradi, biroq din peshvolari nutqida yor, mahbuba ma’nolarini beruvchi jargon sifatida qo‘llaniladi.

Jargonlar ham boshqa til birliklari singari muayyan qonuniyatning mahsuli, hosilasi sifatida yuzaga kelgan. O‘zbek tilidagi biz o‘rgangan va tahlil qilgan jargonlar yasalish xususiyatiga ega emas. Jargonlarning struktur tahlili amalga oshirilar ekan, uning tuzilish jihatdan turlarini ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Tuzilishiga ko‘ra tilning boshqa leksemalari singari jargonlar ham sodda va qo‘shma, murakkab turlarga bo‘linadi.

Sodda jargonlar tarixan bo‘linmas bo‘lib, ular bir o‘zakdan iborat tub lug‘aviy birliklardir. Sodda jargonlar fe’l, ot, sifat va son turkumidagi so‘zlar bilan ifodalanadi.

Fe’l turkumiga oid jargonlar: *yaxlamoq, sindirmoq, uxlatmoq, muzlatmoq, yedirmoq, cho‘ktirmoq, makillamoq, ayag‘lashmoq* va boshqalar.

Sifat turkumi bilan ifodalangan jargonlar*: qizil, quruq, novcha, ko‘k, oq* va boshqalar.

Ot turkumi bilan ifodalangan jargonlar: *g‘isht, giyoh, tanka, olqindi, loy, shapka, qaychi, mo‘ysafid, bedana, buqa, qo‘y, momaqaymoq, soqqa, maymun, quloq, qiyqim, akula, jigar, kukun, tish, latta, tuz, limon, sayohatchi, tulki, yostiq, kobra, xanjar, kosmonavt, echki, askar, turshak, ot,* va boshqalar.

Son turkumi bilan ifodalangan jargonlar: *ellik olti.*

Kompozitsion usul bilan yasalgan jargonlar. O‘zbek tilida “kompozitsiya yo‘li bilan so‘z yasash kompozitalar – qo‘shma so‘zlar yaratish bo‘lib, bunda ikki (yo undan ortiq) so‘zning qo‘shilishi yangi leksik birlik – leksemani hosil qiladi. So‘z yasashning bu tipi ham o‘zbek tilidagi aktiv yo‘llardandir”[2]. Bu holat nutqiy birliklar hisoblangan jargonning yasalishida ham faol qo‘llanib, qo‘shma jargonlarning yasalishida asos bo‘ladi. O‘zbek tilida barcha leksemalar singari jargonlar ham o‘ziga xos lug‘aviy tuzilishga ega bo‘lib, ular o‘z va o‘zlashgan qatlamga xos bo‘lgan qo‘shma so‘zlardan tashkil topgan.

Tarixan ikki va undan ortiq o‘zak (lug‘aviy morfema) larning shakliy va mazmuniy butunlikka aylanishi natijasida yuzaga kelgan jargonlar qo‘shma jargonlar deyiladi. Bizning hisob-kitoblarimizga qaraganda, hozirgi o‘zbek tilidagi jargonlarning deyarli yarimi qo‘shma jargonlardir. Qo‘shma jargonlarni ham qo‘shma so‘z shaklidagi jargonlar va so‘z birikmasi shaklidagi jargonlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Qo‘shma jargonlar tarkibi turli xil birikuv qoliplari orqali ifodalanadi. Qo‘shma so‘z shaklidagi jargonlarni quyidagicha tasnif qilishni lozim topdik:

Ot+fe’l qolipidagi jargonlar: *kalla tashlamoq, bulbuligo‘yo kelmoq, mehmon qilmoq, arra qilmoq, nota topshirmoq, hafa qilmoq* va boshqalar.

[1] Ахмедова М. Х. Арго, жаргон, сленгларнинг таснифи. Вестник КГУ им. Бердаха. № 4 (49) 2020. – Б. 92-94.

[2] Ўзбек тили грамматикаси . I жилд. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 32-33.

Fe'l+fe'l qolipidagi jargonlar: *o'tlab qo'ymoq, yirtib tashlamoq, buzib tashlamoq, yeb qo'ymoq* va boshqalar.

So'z birikmasi shaklidagi jargonlar ham faol bo'lib, turli so'z turkumlari birikuvidan hosil bo'lishi mumkin. Ulardan quyidagilarni ko'rib o'tamiz:

Ot+fe'l qolipidagi jargonlar: *yelkasini silamoq, bog'ida sayramoq, zamburga chaqtirmoq, bedanani sayratmoq, bedanani o'tlatmoq, shavaqqu aylang, mehmonga kuzatmoq, sallasini olib kelmoq, sochini olmoq* va boshqalar.

Sifat+ot qolipidagi jargonlar: xolis xizmatkor, rutbai oliy, yaponcha massaj,

Ot+ot qolipidagi jargonlar: *choy puli, huzuri muborak, pili surot, yigitning bahosi, shahdi aysh, belning chandig'i, ne'mati jannat, tog'amning o'g'li* va boshqalar.

Son+ot qolipidagi jargonlar: *To'rt paxsa* (bu jarayonda paxsa so'zi faqat sonlar bilan birikadi)

Murakkab turdagi jargonlarga ibora shakldagi jargonlarni kiritamiz. Ular birgalikda bitta mazmun kasb etadi. Masalan, *qulog'iga lag'mon ilmoq, devorni ushlatib ketmoq, dumini bosib olmoq* va shu kabilar.

Ba'zi hollarda bu jargon iboralar oddiy ibora sifatida og'zaki so'zlashuvda barchaning nutqida birdek ishlatiladi. Bu ularning ishlatilish doirasi kengayganini bildiradi. Shuning uchun ularning maxfiylik va ijtimoiy guruhga xoslik xususiyati susaygan.

To'plangan materiallarning asosida quyidagi xulosalarga kelindi, o'zbek tilidagi jargonlar tarkibida o'zbekcha, ruscha qisman arabcha va forscha so'z-komponentlar ham ishtirok etadi. Ular aynan yoki birikma holida qo'llanadi.

Tilshunoslikda semantik maydon haqidagi fikrlar V.Gumboltning "tilning ichki formasi" haqidagi qarashlari negizida o'tgan asr boshlarida vujudga kelgan[1].

Ma'lum bir arxisema (umumiy sema) asosida birlashuvchi so'z va iboralar majmuiga semantik yoki tushuncha maydoni deyiladi[2].

Nutq jarayonida qo'llanuvchi jargonlar ham turli ma'no kasb etishga ixtisoslashadi. Xususan,

Salbiy ma'no bildiruvchi jargonlar: *latta, turshak, sayohatchi, g'isht, lox, titi, harip, uxlatmoq, mehmonga kuzatmoq, yelkasini silamoq, hafa qilmoq, olqindi, sochini olmoq* va boshqalar.

Ijobiy ma'no bildiruvchi jargonlar: *dodasi, jigar, ot, tanka, momaqaymoq, buqa, tuz* va shu kabilar.

Harakatini ifodalovchi jargonlar: *atamri, zamri, shabash, atanda, shuxer, muzlatmoq, mehmonga kuzatmoq, shumon* va boshqalar.

Holatni ifodalovchi jargonlar: *yeb qo'ymoq, jon ilmoq, uxlamoq, uxlatmoq, makkillamoq* va boshqalar.

Shaxsni ifodalovchi jargonlar: *keruxa (sherik, maxbuslar nutqida qo'llaniladi), kapsanchi, xalat, jigar, ded, galstuk, fazan, dux, sayohatchi, salyaga, tuz, ment, urkagan (tajribali o'g'ri), xit, archa, otarkas, qaychi, deshevka, harif, quloq, turshak* va boshqalar.

Joyni ifodalovchi jargonlar: *qaynonamning uyi, xata (qamoqxona)*

Maxfiylikni ifodalovchi jargonlar: *atamri, zamri, shabash, atanda, shuxer*.

Hosil bo'lishida ishtirok etgan leksemalar nimani atab kelishiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lib tahlil qilamiz:

1. Hayvon nomlari orqali hosil bo'lgan jargonlar ikki xil ma'noda qo'llanadi.

a) hayvon nomlari orqali shaxs ma'nosi ifodalangan jargonlar: *ayiq, tulki, olmaxon, sigir, buqa, straus, qo'y, kalamush* va shu kabilar.

b) hayvon nomlari orqali narsa-predmet ma'nosi ifodalangan jargonlar: *maymun, bedana, akula, krokodil* va shu kabilar.

2. Inson a'zolari nomi orqali hosil bo'lgan jargonlar: *bo'yni uzun, quloq, sochini olmoq, tish, jigar* va shu kabilar.

3. Meva nomlari orqali hosil bo'lgan jargonlar: *limon, mandarin.*

4. Rang bildiruvchi so'zlar orqali hosil bo'lgan jargonlar: *qizili, oqi, ko'ki.*

Jargonni ifodalagan so'zdan ba'zan qanday ma'no aks etayotganligini bilib olish qiyin bo'lmaydi, ma'no ko'chishi to'g'risida biroz ma'lumotga ega bo'lish yetarli. Biroq ba'zi jargonlar borki ularning adabiy tilda varianti uchramaydi. Ular, asosan, maxfiylik maqsadida hosil qilinadigan jargonlardir.

Xususiy sotsiolingvistika o'rganadigan obyektlardan yana biri jamiyatning ayrim ijtimoiy qatlamlariga xos *"kasbiy til"*dir. Bu til odatda jargon va argo xarakterida bo'lib, ular otarchilar, chayqovchilar, qimorbozlar va talabalar nutqiga xoslangan bo'ladi. Ular umumxalq tilidagi ayrim so'zlarga okkozional tus berish orqali "ixtiro qilinadi". Bunday jargon va argolar o'z sinonimik paradigmasiga ham ega bo'lib, ma'lum bir tushuncha bir necha so'zlar yordamida ifodalanishi mumkin. Masalan, "aroq" ma'nosida *oqi, oq bola, oq suv, oq salla, oq qo'y, oppoq to'ra, oq sanam, bo'yni uzun, novcha, obizamzam, mo'ysafid, oqsoqol, dori, besh karra sakkiz, qittak-qittak, yuz-yuz* va b.; pul ma'nosida *mullajiring, ashula, soqqa, loy, yakan, qo'qon, qizili,ko'ki, ko'kqashqasi, ohang, do'ppi, qurug'i* va b. Ularning ayrimlari metonimiya usulida hosil qilinadi: otarchilar jargonida maktab-maorif so-

[1] Уфимцева А.А. Опыт изучения лексики как системы: на материале английского языка. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 288 с.

[2] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Б. 166, 87.

hasi xizmatchilari galstuk, tibbiyot xodimlari xalat, revizor (taftishchi)lar qaychi deyilishi kabi[1].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, jargonlarning eng birlamchi xususiyatlaridan biri ma'no ko'chishi orqali hosil bo'lishidir.

Leksik ma'noning taraqqiyot yo'llari asosiy uchta:

1. Metafora
2. Metonomiya
3. Sinekdoxa

Ma'no o'z-o'zidan taraqqiy etmasdan, balki bu jarayonga ruhiyat, tafakkur, sezgi a'zolarining faol ishtiroki talab qilinadi. Toki predmet va buyumlar, voqea-hodisalar to'g'risidagi tasavvurlar yaxlit obraz holida shakl toparkan, bu borada predmetlar olamidagi o'zaro farqli belgilarni ajrata olish layoqati kelgusida til sohibining ma'no ko'chishlaridan qaror topgan hosila nomlarni kashf etishiga zamin yaratadi[2].

Quyida jargonlarda kuzatiluvchi metafora, metonimiya va sinekdoxa kabi ma'no ko'chish turlarini ko'rib o'tamiz.

Ma'no ko'chishining metafora usuli bilan hosil bo'lgan jargonlar: *ayiq, g'isht, sigir, archa, turshak, kalamush, mandarin, quloq* va shu kabilar.

Ma'no ko'chishining metonimiya usuli bilan hosil bo'lgan jargonlar: *xalat, galstuk, qaychi* va shu kabilar.

Ma'no ko'chishining sinekdoxa usuli bilan hosil bo'lgan jargonlar: *jigar.*

Ma'no ko'chishi murakkab jarayon bo'lib, bir qarashda uni anglab yetish qiyin. Nutqda boshqa so'zlar qurshovidagina ko'chma ma'noning turini aniqlash mumkin bo'ladi.

Jargonlar leksik-semantik xususiyatiga ko'ra sinonimik, omonimik, giponimik, graduonimik munosabatga ham kirishadi.

Sinonimiya munosabatidagi jargonlar:

1. *Yakan, bashli, loy, qurug'i* – pul so'zini ifodalaydi.
2. *Ko'ki, ko'kat, baks, limon* – dollar (AQSh pul birligi) ni ifodalaydi.
3. *Mandra, hamka, mura* – non so'zini ifodalaydi.
4. *Oqi, novcha, mo'ysafid, bo'yni uzun* – aroq so'zini ifodalaydi.
5. *Yigitning bahosi, mejdunarodniy* – 3 bahoni ifodalaydi.
6. *Shayka, shobla* – to'da ma'nosini ifodalaydi.
7. *Quloq, deshevka* – gap tashuvchi ma'nosida qo'llanadi.
8. *Sayohatchi, olqindi* – yomon yo'lda yuruvchi ayol ma'nosida qo'llanadi.
9. *Giyoh, kukun, lebed* – geroin ma'nosida qo'llanadi.
10. *Bedana, nagan* – to'pponcha ma'nosida qo'llanadi.

Omonim munosabatidagi jargonlar:

1. *Qizil* jargoni otarchi va sozandalar nutqida 10 so'mlik pulni ifodalagan.

Qizil jargoni ichuvchilar nutqida vino so'zi ma'nosida qo'llanadi.

2. *Tanka* jargoni talabalar nutqida talabani qo'llab-quvvatlovchi shaxs ma'nosida qo'llanadi.

Tanka jargoni yoshlar nutqida qaddi-qomati qo'pol, dag'al bo'lgan ayolga nisbatan ishlatiladi.

Giponimik (jins munosabati) munosabatdagi jargonlar:

Erkaklar uchun qo'llanuvchi jargonlar: *ayiq, ment, tog'amning o'g'li, dux, fazan* va shu kabilar.

Ayollar uchun qo'llanuvchi jargonlar: *momaqaymoq, olqindi, sayohatchi, qushcha* va shu kabilar.

Graduonimik munosabatdagi jargonlar:

Xarbiy xizmatchilar jargon sifatida qaraladigan quyidagi jargonlarni pog'onaviy munosabatga kirishgan jargonlar deya olamiz.

Dux	*Salyaga*	*Fazan*	*Ded*
Yangi kelgan askar	Bir-ikki oy xizmat qilgan askar	Xizmatning yarmini o'tagan askar	Xizmatdan qaytishi yaqinlashgan askar

Jargonlar lingvistik jihatdan chuqur o'rganilsagina ularning struktur, semantik va leksik-semantik tasniflarini mukammallashtirish mumkin bo'ladi. Biz tadqiqotimizni hozirda mavjud va jargon deb qaralayotgan birliklar ustida olib bordik.

Resume: In the article, the structural, semantic and lexical-semantic analysis of the jargon existing in the Uzbek language was carried out. Proved by examples. Conclusions were given.

Резюме: В статье проведен структурно-семантический и лексико-семантический анализ жаргона, существующего в узбекском языке. Доказано примерами. Выводы были даны.

[1] Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. –Тошкент, 2019. – Б. 67.
[2] Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya. –Toshkent: Firdavs-shoh, 2021. – B. 122.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAQIQI (bosh, yurak, qo'l, quloq somatizmlari misolida)

Bozorov Hamid Xo'shmurodovich,
Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedarasi o'qituvchisi

Tilning leksik tizimini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ba'zi so'zlar o'zlarining bog'lanishlarida cheklangan. Shu bilan birga, belgilangan hodisalarning tabiati nuqtayi nazaridan bunday cheklovlar uchun tushuncha topish qiyin, ular ushbu tilga xos bo'lgan qonunlarga bog'liq[1]. Mana shunday bo'shliqlarni to'ldirish uchun har bir xalqning tarixiy va madaniy yashash tarzi bilan bog'liq frazeologizmlari yuzaga chiqadi. Frazeologizmlar faqatgina tushuntirilishi qiyin bo'lgan leksik birliklar o'rnida qo'llanib qolmaydi. Unda, Sh.Usmonovaning ta'biri bilan aytganda, "Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbai sanaladi. Frazeologizmlarda ma'lum xalqning miflari, udumlari, urf-odatlari, ma'naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo'ladi"[2], shuningdek, millatning ma'naviy-qadriyatiy manzarasiga tegishli belgilar[3]ni o'zida ifoda etadi. Xalq hayotining muhim xususiyatlarini ta'sirli qilib yetkazish, tushunilishini osonlashtirish uchun vujudga kelgan birliklar frazeologizmlar atrofida to'plandi va yangi tilshunoslik fanining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Shu bilan birgalikda, frazeologizmlardan foydalanish obrazlilik va takrordan "qochish" uchun muhim ahamiyatga ega. Aynan shu jihatlar frazeologizmlarning yangi qirralarini tadqiq etishga qaratildi.

FBlar mazmuniga ko'ra obraz, hodisa, holat, xarakter, xulq-atvor, munosabat, maqollar – axloq, odob-axloq haqidagi o'ziga xos hukm, ko'rsatma, saboqlarni ifodalaydi[4]. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, "frazeologizmlar – millatning olamni anglashdagi o'ziga xos tamoyili, sog'lom fikri, axloqiy qonuniyatlarining qisqa va lo'nda obrazli ifodasi"[5]dir. Bu jarayon yozma manbalar va og'zaki ijod namunalarida saqlanishi va keyingi avlodlarga yetib kelishini inobatga olsak, xalq og'zaki ijodi namunalarida frazeologizmlarning "yashashi" tabiiy. Ayniqsa, xalq ertaklari tilida frazeologik birliklarning qo'llanishi ko'pchilikni tashkil etadi. Sababi, "har bir xalq vakili o'z fikrini obrazli yoki his-hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida barqaror so'z birikmalari yaratishda o'ziga yaqin yoki tanish narsa va hodisalar nomlaridan foydalanishga harakat qiladi"[6]. O'zbek xalq ertaklarining obrazlar nutqida ham xalqimizning ko'p asrlik milliy va madaniy tajribasi frazeologizmlarda o'z ifodasini topadi, desak xato bo'lmaydi.

O'zbek xalq ertaklari tilidagi frazeologizmlarning, asosan, iboralarning juda ko'pchiligi xalqning ijtimoiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan inson tana a'zolari, muhim narsa-predmet va voqea-hodisalarga asoslangan tushunchalar orqali vujudga kelgan. O'zbek xalq ertaklarida qo'llangan inson tana a'zolari bilan bog'liq frazeologizmlar tilshunosligimizda tadqiq etilmaganligi ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbek xalq ertaklarida uchraydigan frazeologizmlarning komponentlarida ko'p uchrovchi ma'noviy guruhlari ichida inson tana a'zolari bilan bog'liq somatik FB talaygina. Bu jahon tilshunosligida somatik frazeologizmlar deb yuritiladi. Ko'pgina xalqlarda inson tana a'zolari bilan aloqador frazeologizmlar mavjud bo'lsa-da, bu iboralar o'sha xalq uchun alohida ma'no kasb etadi. Bunday holatni rus tilshunosi G.Denisova: "Bir tildan boshqa tilga ma'nosi mos keladigan somatik frazeologik birlikning yo'qligi tadqiqot davomida aniqlandi"[7] – deb ta'kidlaydi. Bu esa inson ta'na a'zolari bilan bog'liq frazeologizmlarning ifodalanishi har bir xalqning

[1] Горская С.А. Лексика. Фразеология. Лексикография. – Гродно: ГрГУ, 2009. – С 56.

[2] Usmonova Sh. Lingvokulturologiya (Darslik) – Toshkent, 2019. – B 91.

[3] Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o'zbek tili (leksokologiya). – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2021. – B. 271.

[4] Фам Тхи Тхань Ха. Сопоставительный анализ соматических фразеологизмов английского и вьетнамского языков. Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Казань, 2005. – С.10.

[5] Maxmaraimova Sh.T. Ko'rsatilgan manba. – B. 271.

[6] Usmonova Sh. Ko'rsatilgan manba. – 91.

[7] Денисова Г. Соматические фразеологические единицы эрзянского и немецкого языков (сопоставительный анализ). Автореф. дисс. на соиск. учен. степени канд. филол. наук. . – Саранск. 2003. – С.14.

o‘ziga xos dunyoqarashini ko‘rsatib beradi, degan xulosani beradi.

Tarixiy jihatdan madaniyatning somatik kodi real va ma’naviy olamning tuzilishini aks ettiradi va uning idrokini o‘z tanasiga va tana a’zolarining funksiyalariga anatomik yo‘naltirilganligi bilan shakllantiradi[1]. Jumladan, o‘zbek xalqi vakillari nutqida ham ***og‘iz, ko‘z, quloq, oyoq, qo‘l, yurak, jigar, oyoq, tish, til*** leksemalari atrofidagi FBlar anchagina.

O‘zbek tilshunosligida A.Isayev, O.Nazarov, Sh.Usmonova, Sh.Nazirova, H.Alimovalar tomonidan somatik frazeologizmlarni o‘rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlari o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning lingvistik va ontologik tabiatini o‘rganishga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi[2].

Somatik frazeologizmlar o‘zbek xalq ertaklarining ta’sir kuchini, obrazlilik darajasini oshirishga va milliy-madaniy o‘ziga xosligini ko‘rsatish, shuningdek, ushbu leksemalar bilan bog‘liq iboralarning qo‘llanishi ertak qahramonlarining xarakter-xususiyatlarini ochib berish uchun ham xizmat qiladi.

Shunda bular hammasi «Susambil, qaydasan?» deb, boshidan o‘tganlarini gaplashib, hasratlashib ketaveribdilar... (“Susambil”, 10-b.). *Ota-bola yig‘lab ko‘rishibdilar. Shundan so‘ng er-xotin boshidan o‘tgan barcha voqealarni bir-birlariga aytib beribdilar* (“Sirli tush”, 131-b.). *Qiz boshidan kechirgan hamma voqeani kampirga birma-bir aytib beribdi* (“Podachi qiz”, 21-b.).

Yuqoridagi misollarda **“bosh”** so‘zi bilan bog‘liq iboralarga e’tibor qaratsak. Dastlabki misolda ertak qahramonlarining bo‘lgan voqea-hodisani va ko‘pchilik nutqida galma-gal, “o‘z hayotida ko‘rganligi, his qilganligi”[3]ni aytib o‘tishlari kabi ma’no ifodalansa, ikkinchi misolda ishtirokchilar soni ikki kishi va ikkisi ham so‘zlashishda ishtirok ertayotganligini, uchinchi misolda esa bir obraz tilidan aytilgan voqea-hodisani ikkinchi shaxs tinglayotganligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu misollarda *“bosh”* leksemasining xalqimiz ongida doimiy ravishda eng oliy a’zolardan biri ekanligi hamda voqea-hodisalarni **“saqlovchi”** va **“uzatuvchi”** sifatida qaralganligi, natijada, *“boshdan o‘tkazmoq”* iborasi so‘zlovchi nutqining ta’sirchanligini hamda so‘z tejashning muhim omili ekanligini guvohi bo‘lamiz. Bosh bilan bog‘liq ertaklarning ko‘pchiligida *“boshdan o‘tkazmoq”* iborasi g‘am-alam va azob-uqubatli hayot bilan bog‘liq voqea-hodisalarni so‘zlab berishga qaratilganligi bilan e’tiborlidir.

O‘zbek xalqi lisoniy ongida farzandli bo‘lish – oliy baxt, barcha narsadan ustun. Quyidagi misolda *“bosh olib kelmoq”* iborasi bilan bog‘liq ba’zi ma’no noziklliklari aynan farzandsiz ertak qahramonlarini butunlay o‘z yurtidan ketishiga sabab bo‘ladi: “...*So‘ngra ikkisi befarzand bo‘lib dunyoda yurgandan ko‘ra, davlat va izzat-ikromdan kechib, bosh olib ketishni ortiqroq ko‘ribdi* (“Tohir va Zuhra”, 45-b.). Ushbu misolda farzandli bo‘lish va uni tarbiyalash borasidagi maqsad yotadi. Ushbu ibora mazmunida *“butunlay ketmoq”* ma’nosi turadi. Ko‘rinib turibdiki, *“bosh”* so‘zi insonning butunligi asosini tashkil etuvchi bir qism bo‘lsada, insonni boshqaruvchi muhim figura ekanligi iboraning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Frazeologizmlar vositasida yaratilgan olamning lisoniy manzarasini tahlilida uning antroposentrik xususiyatini ta’kidlash joiz. Olamning antroposentrik manzarasi frazeologizmlar yo‘nalishining insonga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Bunda inson barcha narsaning o‘lchovi sifatida ishtirok etadi[4]. “Bosh” va “oyoq” leksik-semantik jihatdan yonma-yon qo‘yilganda zidlik ma’nosini ifodalaydi, ammo xalqimiz lisoniy ongida *“bosh-oyoq”, “boshdan oyoq”* iborasi ham mavjudki, unda *“butunlay”, “butun (umumiy)”* degan ma’no munosabatini vujudga keltiradi. Xalqimizga xos bo‘lgan to‘y-tomosha, yaxshi xizmat, xurasndchilikka sabab va umuman, xursandchilik kunlarida yaqinlariga yoki xabar yetkazuvchilarga **“bosh-oyoq sarpo”** berish udumi mavjud bo‘lib, bugungi kunda “to‘n (ayol kishi bo‘lsa mato va ro‘mol yopish)” ko‘rinishida o‘zbek lingvomadaniyatida yashab kelmoqda.

...Keyin boboga bosh-oyoq sarpolar berib, undan bir dona tuxum gavharini so‘radi (“Rustamzod va Sherzod”, 140-b.), *Podsho har ikkala kampirga bosh-oyoq sarpo beribdi* (“Podachining qizi”, 25-b.).

Ushbu misollarda “boshdan oyoq” frazemasi *“butun”* ma’nosini ifodalab, rag‘batlantirish uchun boshqa so‘zlarning qo‘llanishiga zarurat yo‘qligini ko‘rsatib turibdi.

Ko‘pgina frazeologik birikmalar o‘z tuzilishini nisbatan erkin qayta tartibga solish imkonini beradi. Bunday qayta ro‘yxatga olish indivudial emas, balki ijtimoiy ongli (odatiy) xarakterga ega[5]. Jukovning ushbu fikriga asoslanib, iboralarning qayta ma’no anglata olish, vaziyatdan kelib chiqib, ba’zi m’ano noziklliklarini yuzaga chiqara olish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘ramiz. Bu holatni, o‘zbek xalq ertaklarida ko‘p qo‘llanuvchi, *“bosh”* so‘zi bilan bog‘liq iboralar

[1] Богус З.А. Сомлтизмы в разносистемных языках: семантико-словообразовательный и лингвокультурологический аспекты: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Майкоп, 2006. – С.7.

[2] Havola quyidagi manbadan olindi: Рашидова У.М. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида). Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. автореферати. – Самарқанд, 2018. – Б. 11.

[3] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи. 1978. – Б. 47.

[4] Usmonova Sh. Ko‘rsatilgan manba. – B. 79.

[5] Жуков В. П. Русская фразеология: Учеб. пособие для филол. спец. вузов. – М: Высш. шк., 1986. – С 15.

fonida ruhiy holat bilan bog‘liq *“oniy yoki davomiy o‘y-xayoldan o‘tkazish”* kabi mazmunni ifodalay olishini, obrazning psixologik holatini ochib berishda muhim vazifa bajarishini tahlil qilib o‘tamiz. “*Qiz esa qaysi biriga nima deyishni bilmay boshi qotib qolibdi”* (“Malikayi Gulozor”, 71-b.), *“Cholning boshi qotib, o‘gilllarini yoniga chaqirib, ularga qarab shunday debdi:..* (“Non qudrati”, 279-b.), *“Baytalning tuqqanini boqib, katta qilib, bozorga olib borib, sotib pulini jamlab uylantiray desam, ko‘rib turibsizlar, har yili uni kimdir o‘g‘irlab ketadi. Shunga judayam boshim qotib hayron bolib qoldim, - debdi* (“Non qudrati”, 280-b.),*”Qo‘y, bolam, savollaring bilan boshimni qotirma, meni yig‘imdan qoldirma, sening savollaring menga ma’lum”* (“Uchar gilam”, 89-b.), “– *Hoy yigit, bo‘lmag‘ur narsalar bilan boshingni qotirib nima qilasan, mendan mol-dunyo so‘rasang-chi* (“Uchar gilam”, 89-b.).

Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, birinchi misolda “*qisqa muddat o‘ylab, bir qarorga kelish”*, ikkinchi misolda *“uzoq muddat o‘ylab, bir qarorga kelish”,* uchinchi misolda *“uzoq o‘ylab ham bir fikrga kela olmaslik”*[1], to‘rtinchi misolda *“o‘ylashga harakat qilmaslik”,* beshinchi misolda esa *“tavakkal xulosa chiqarish”* kabi mazmunni ifodalab kelgan.

O‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan narsalar haqidagi tushunchalarni o‘z vujudida his qilish xalq ma’naviy olami va madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq. Aynan shunday jarayonlarni ifodalashda **“yurak”** so‘zi bilan bog‘liq frazeologizmlarning o‘rni katta. Yurak umumturkiy so‘z bo‘lib, uning paradigmasida fe’l (yuragi g‘ashlanmoq, yuragi qinidan chiqmoq), sifat (yuragi qon, yuragi qora, yuragi bezovta) va ot iboralar (yurak o‘ynashi, yurak g‘ashi, yurak betlash) shakllangan. Bu birliklar ichida fe’l iboralar nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladi[2]. Yurak so‘zining umumturkiy so‘z ekanligini inobatga olsak, ushbu so‘z orqali shakllangan iboralar xalq og‘zaki ijodining qadimgi janri bo‘lgan ertaklarida o‘z ifodasini topishi tabiiy.

Yo‘lda ketayotib: “Qachon Susambilga yetamiz?!” deb yuraklari jig‘illab, goho-goho eshakdan: “Yana bir gapirib bering. Susambil qanday joy o‘zi?!” deb so‘rashar ekan (“Susambil”, 11-b.). Ushbu misolda berilgan *“yuragi shig‘illamoq”* iborasi “O‘zbek tilining izohli frazeologizmlar” lug‘atida *“yuragi shig‘ etmoq”*, *“yuragi shuv etmoq”* tarzida berilgan va *“bir lahza ich-ichidan qo‘rqish aralash hayajonlanmoq”*[3] izohi keltirilgan. Misolda ko‘rinib turibdiki, qo‘rquv aralash hayajonlanish bilan birgalikda xursandchilik, orzu, maqsad kabi ma’nolar ham o‘z ifodasini topgan.

Bu gapni eshitish bilan qirq kulolning yuragi shuv etib ketibdi (“Jonon piyola”, 146-b.). Ushbu misolda esa faqat qo‘rquv aralash hayajonlanish borligini ko‘rishimiz mumkin. Quyidagi misolda esa qo‘rquv aralash hayajonlanishning yuqori darajasini o‘z ifodasini topgan.: *Shunda ho‘kizning yuragi shuvillab ketibdi. U qo‘rqib og‘zidagi o‘tini yerga tashlab, sheriklarini chaqiribdi* (“Susambil”, 12-b.).

Tilimizda shunday frazeologizmlar mavjudki, bugungi kunda ham xalqimiz nutqida keng qo‘llaniladi. Bu frazeologizmlardan biri *“yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq”* iborasi. Uning izohi *“bezovta bo‘lib qolmoq”*[4] mazmunini ifodalab, quyidagi misolda qo‘rquv ma’nosi ham ushbu iboraning mazmuniga singdirilishi natijasida ertak jarayonini aniq tasavvur qilishga imkon beradi. Bunda ibora qo‘llangan gapdan so‘ng kelgan gap fikrimizni izohlash vazifasini o‘taydi. “*Muqbil toshotar shartni bajarib, sakkizta yo‘lbarsni yetaklab kelayotir”, deb hammaning yuragiga g‘ulg‘ula tushibdi. Odamlar uni ko‘rishlari bilan to‘s-to‘s bo‘lib qocha boshlabdilar.* (“Muqbil toshotar”, 63-b.).

Quyidagi misolda esa “yurak” somatizmi bilan bog‘liq frazeologizmning ruhiy jarayonga va his-tuyg‘u (sevgi ma’nosidagi)ga aloqadorligini kuzatamiz.

Zuhra dardida yurak-bag‘ri ezilib yurgan Tohir sahar vaqtida Zuhra yotgan uy tagiga yetib kelibdi (“Tohir va Zuhra”, 56-b.).

Ushbu misolda o‘zbek xalqiga xos “sevgi-muhabbatning ulug‘alanishi”ning milliy-mental xususiyatlarini ifodalanishini ko‘rishimiz mumkin.

Qiz atrofga qarab turib, birdan o‘z uyining tomini ko‘rib qolibdi. Yuragi orziqib yig‘lab yuboribdi (“Zumrad va Qimmat”, 247-b.).

Yuqoridagi misolda *“yuragi orziqmoq”* iborasi orqali Zumrad ruhiyatida kampirning uyidagi hayotidan mamnunlik, shu bilan birgalikda, ong bilan emas, balki yurak bilan o‘z uyini (garchi o‘z uyida begonadek bo‘lsa ham), otasini sog‘inganligi kabi ma’nolarni, shuningdek, tekst yordamida “sog‘inch”ning o‘zbek xalqi madaniyatiga xos mazmunni anglashimiz mumkin. *“Yuragi orziqmoq”* iborasi “O‘zbek tilining izohli frazeologizmlar lug‘ati”da o‘rin olmagan. Ushbu iboraning asosini *“qattiq istamoq”, “erishish niyati bilan yonmoq”, “yurakdan istamoq”* kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Inson tana a’zolari ichida qo‘l inson harakatning asosiy qismlaridan birini tashkil etib, qadimdan ota-bobolarimiz nutqida frazeologizmlarning komponentiga o‘tgan. Bugungi kunda ham **qo‘l** somatizmi bilan bog‘liq iboralar qo‘llanib, nutqimizni ta’sirli qilish bilan bir qatorda turli ma’no nozikliklarini ham yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib kelmoqda.

[1] Раҳматуллаев Ш. Ko‘rsatilgan manba. – B. 53.
[2] Рашидова У.М. Ko‘rsatilgan manba. – B. 15.
[3] Раҳматуллаев Ш. Ko‘rsatilgan manba. – B. 275.
[4] Раҳматуллаев Ш. Ko‘rsatilgan manba. – B. 269.

Sh.Rahmatullayevning frazeologik lug‘atida qo‘l komponentli 70 ga yaqin iboraning ma’nosi izohlangan. Ularning ayrimlari insonning idrok etishi bilan bog‘liq bo‘lib, uning ruhiy olami va his-tuyg‘ularini ifodalaydigan iboralar sirasiga kirsa, ba’zilari milliy dunyoqarash ma’yorlariga borib taqaladi[1].

Quyidagi misolda “qo‘lga tushmoq” iborasining *“biror nojo‘ya ish bilan tutqun qilmoq”* ma’nosi emas, balki – *sa* morfemasi yordamida *“maqsad”, “maqsadga erishish asnosida jazo bermoq”* kabi ma’nolar yuzaga kelgan.

Agar qo‘limga tushsa, o‘ldirib, shu tokning tagiga ko‘maman, deb qasd qildim... (“Uch og‘a-ini botirlar”, 164-b.).

Quyidagi misolda esa *“qo‘lga kiritmoq”* iborasi *“ixtiyoriga o‘tkazmoq”, “egallamoq”*[2] ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, *-a+siz* morfemalar yordamida rejani amalga oshirish uchun maslahat ma’nosini matn orqali anglashimiz mumkin.*Oqbilak oyimning huzuriga kiring. Shu bilan uni qo‘lga kiritasiz...* (“Qilich botir”, 171-b.).

“Qo‘ldan ketmoq” iborasi yuqoridagi misollarda keltirilgan iboralarning zidi bo‘lib, “afsuslanish” ma’nosini, ertak tilidagi misolda esa qahramoniga hamdardlik bildirish holatini ko‘rsatib beradi.

“Bu nima sir? Attang, Oqbilak oyim qo‘ldan ketibdi-da! - deb qayg‘uribdi. (“Qilich botir”, 171-b.).

Ko‘pgina frazeologik birliklar eksprissivlik bilan ajralib turadi[3]. Mana shunday eksprissivlikni ko‘proq ko‘rsatib bera oladigan frazeologizmlar orasida **quloq** somatzmi bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar ahamiyatlidir.

“Quloq” semantik maydoni konstituentlarining kognitiv, struktural-semantik, kommunikativ-pragmatik, lingvokulturologik va lingvostilistik nuqtayi nazardan”[4] o‘ziga xos jihatlarini iboralarda ham aks ettiradi.

Shamolning esishiga qarab, hidni bilish mumkin, - debdi Miyovjon ularga, - lekin buning uchun qorin och bo‘lmog‘i, quloq ding turmog‘i kerak (“Baroqvoy, Miyovjon va Xo‘rozvoy”, 5-b.). Ushbu misolda *“qulog‘i ding”* birikmasi ibora sifatida emas, balki hayvonga xos “*hid olish”, “hushyor bo‘lish”* ma’nosini ifodalab kelgan. Aynan ushbu birlik insonga nisbatan qo‘llanilib, ibora shaklini olgan va *“biror narsa ta’sirida hushyor tortib, eshitishga shaylanmoq”*[5] mazmunini bildirib keladi. Ushbu birli “O‘zbek tilining izohli frazeologizmlar lug‘ati”da berilmagan.

Yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmang (“Uch og‘a-ini botirlar”, 16-b.).

Misolda ota nasihatini *“quloq orqali tafakkur qilib, ongda saqlash”* ma’nosi ifodalanib, adresant tomonidan adresatga etkazilishida bosiqlik va o‘zbek otalariga xos mehr bilan xalqimizga xos nasihati lingvomadaniy tomondan o‘ziga xoslikni yuzaga chiqaradi.

Quyidagi misolda so‘zlash uchun shaylanish, suhbatdoshini diqqatini jamlash hamda tinglash, shuningdek, e’tiborli bo‘lishga chorlash ma’nosi ifodalangan: *Quloq sol, pahlavonim...* (“Quyosh yerining pahlavoni”, 135-b.).

Ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan maxluqlar - balo-yu balogardonlar emish (“Non qudrati”, 282-b.).

Yuqoridagi misolda*“ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan”* iborasida eksprissivlik kuchli bo‘lib, butunlay noma’lum narsa, joy[6], shuningdek, voqea-hodisa va shu kabilarning ilk marta kuzatilishi mumkinligini ko‘rsatib keladi. Insonning ilk tasavvurga ega bo‘lishida quloq va ko‘zning ahamiyati katta. Yuqoridagi misolda **“ko‘z”** hamda **“quloq”** so‘zlarining bir ibora taribida ishtirok etishi hali kuzatilmagan, tasavvurga sig‘dirish qiyin bo‘lgan hodisalar haqidagi fikrni izohlash uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq ertaklarida inson tana a’zolari bilan o‘zaro komponent tarzda ifodalanadigan FBlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Frazeologiyaning asosi hisoblanmish “frazemalar so‘zlardan farqli holda reallikdagi muayyan voqea-hodisani faqat ifodalash, nomlash uchun emas, shu bilan birga, unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi[7]. Bunday frazemalar o‘zbek xalqining madaniy maydonida turli pragmatik munosabatlar asosida ma’noviy jihatdan o‘ziga xoslikni yuzaga chiqaradi. Somatik frazeologizmlar xalqning lisoniy manzarasida asrlar davomida shakllanib, lingvomadaniy xususiyatlarni o‘zida saqlab keladi. Mana shunday xususiyatlarni o‘zida jamlab, keyingi avlodlarga yetkazib berish hamda asrlar osha o‘zbek xalqi lisoniy ongida yashashida xalq ertaklarining o‘rni katta.

[1] Рашидова У.М. Ko‘rsatilgan manba. – B. 14.
[2] Раҳматуллаев Ш. Ko‘rsatilgan manba. – B. 296.
[3] Жуков В. П. Ko‘rsatilgan manba. – С 10.
[4] Kazakbayeva D., Qodirov S. Ingliz va O‘zbek tillarida “quloq” semantik maydoni konstituentlari tipologiyasi / “Science and Education” Scientific Journal. April 2021 / Volume 2 Issue 4. http://www.openscience.uz.
[5] https://uz.wiktionary.org/wiki/
[6] https://uz.wiktionary.org/wiki/
[7] Б.Йўлдошев. Фразеологик услубият асослари. - Самарқанд: СамДУ нашри. 1998. – Б. 200.

Resume. This article is devoted to the lexico-semantic and linguoculturological analysis of phraseological units with a somatic component found in the language of Uzbek folk tales. The article discusses the role of the phraseological fund in fairy tales, the level of its effectiveness, as well as its role in revealing the character traits of fairy tale characters. The components head, heart, hand, ear are taken as the basis of somatic phraseology, often found in the language of Uzbek folk tales.

Резюме. Данная статья посвящена лексико-семантическому и лингвокультурологическому анализу фразеологизмов с соматическим компонентом, встречающихся в языке узбекских народных сказок. В статье рассматривается роль фразеологического фонда в сказках, уровень его эффективности, а также его роль в раскрытии черт характера сказочных персонажей. Компоненты голова, сердце, рука, ухо взяты за основу соматической фразеологии, часто встречающейся в языке узбекских народных сказок.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

РУС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ ИНВЕСТИЦИЯ ВА КРЕДИТ ТЕРМИНЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ-ТИПОЛОГИК ТАҲЛИЛИГА ДОИР МУЛОҲАЗАЛАР

Комилова Мукаррам Қобилжоновна,
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси

Мустақиллигимиз шарофати билан мамлакатимизда аждодларимиз қолдирган бой маданий меросга меҳр-муҳаббат билан ёндашиш, шунингдек, тилга бўлган эътибор, ўзбек тилининг қўлланилиш доираси кенгайди. Бу борада ўзбек тилининг имкониятларини янада кенгайтириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084 сонли "мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони, 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850 сонли "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармонлари амалда ўз тасдиғини топмоқда.

Кейинги йилларда иқтисодий соҳада олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳотлар фанда бир қанча илмий соҳада янгича тадқиқотлар олиб борилаётганлиги барчага маълум. Бу жиҳатдан туризм соҳасининг жадал суръатларда ривожланиб бориши ва бошқа соҳаларга инвестициялар жалб этилиши, ҳамкорлик доиралари кенгайишига туртки бўлди. Бироқ, ушбу соҳалар терминологияси қиёсий аспектда тадқиқ этилган эмас. Шу маънода, рус ва ўзбек тиллари инвестиция ва кредит терминларини қиёсий-чоғиштирма аспектда лексикографик нуқтаи назардан ёритиб бериш муҳим масалалардан биридир.

Айни вақтда илм-фан такомиллашуви, ҳамкорлик алоқалари натижасида бир қанча янги терминларнинг кириб келиши, ўзбек тилининг соҳа фаолияти бўйича бошқа тиллар билан алоқаси тил тадқиқотчиларига янгидан-янги тадқиқотлар олиб боришни талаб этмоқда.

Ўзбекистонда инвестиция ва кредит терминологияси махсус тадқиқ қилинмаганлиги боис инвестиция ва кредит терминлари таҳлили ўзбек тилининг қўлланилиш доирасини кенгайтиришга хизмат қилади. Тараққиёт тамойилларига асосланган ҳолда "энг аввало, она тилимизнинг қўлланиш доирасини кенгайтириш, унинг тарихий илдизларини чуқур ўрганиш ва илмий асосда ҳар томонлама ривожлантириш бугунги кунда ўта долзарб масалага айланмоқда"[1]. Бунда Ўзбекистонда инвестиция ва кредит терминларининг чоғиштирма таҳлили асосида икки миллат дунёқараши, терминларнинг ўзига хослиги, кўплаб халқаро терминларни ўзбек тилида бериш имкониятларини кўрсатиш

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 13 майдаги ПФ-4797 Фармони // Халқ сўзи, 2016 йил, 17 май.

муҳим аҳамият касб этади. Бу эса мавзунинг долзарблигидан далолат беради.

Хорижий тиллар ҳамда рус тилшунослигида умумий ва хусусий терминология бўйича қуйидаги олимлар бир қатор тадқиқотлар олиб борганлигини кўришимиз мумкин: Jamal Mohamed Giaber, M.T.Cabre, В.В.Антимирова, В.И.Гатаулина, Е.А.Колесникова, И.С.Кулакова, Д.С.Салмина, Н.Н.Лантюхова, О.В.Загоровская, Т.А. Литвинова, Л.Н.Уткина ва б. Ўзбек тилининг терминологик тизимлари М.Э.Умархўжаев, Ҳ.Дадабоев, Т.Урунов, А.Қосимов, К.Хуррамов, К.Сапаев, А.Мадвалиев, И.Юлдашев, Н.Усмонов, З.Мираҳмедова, Н.Маматов, М.Саидова, Г.Ғуломов, И.Х.Садикова, С.Х.Нурматова, О.Турсунова, П.П.Нишонов, О.С.Ахмедов, Д.Х.Кадирбекова, Ҳ.В.Мирзахмедова ва С.Т.Мустафаевалар тадқиқотларида ўз аксини топган.

Шундай қилиб, тадқиқотимизда рус ва ўзбек тиллари инвестиция ва кредит терминлари илк бор қиёсий-чоғиштирма аспектда ўрганилиб, уларнинг тиллараро мазмуний мутаносиблик ва номутаносиблиги исботланади; таҳлилга тортилган терминлар терминография талаблари: аниқлик, мантиқан изчиллик, тизимлилик, адабий тил меъёрларига мослиги, оммабоплик нуқтаи назаридан тавсифланади; инвестиция-кредит терминларининг тиллараро лексик-семантик хусусиятлари, мазкур соҳа терминларини унификациялаш, уйғунлаштириш ва янги изоҳларини ишлаб чиқиш бўйича услубий ёндашувлар такомиллаштирилади.

Маълумки, *термин* лотинча “*terminus” – чегара, чегара белгиси, чек* маъноларини англатувчи сўздан олинган[1]. В.Н.Шевчук терминга қуйидагича таърифни беради: “Термин – бу сўз бўлиб, ўрта асрларда “аниқлаш”, “ифодалаш” деган маъноларни билдирган, қадимий француз тилида мавжуд бўлган “terme” лексемаси “сўз” деган маънони ифодалаган”[2] А.А.Реформатский таърифича, термин сўз ҳисобланиб, улар ўзининг алоҳида ва махсус белгилари билан чегараланади, терминлар фан, техника, иқтисод, сиёсат ва дипломатия соҳаларидаги бир маъноли, аниқ сўзлардир[3]. В.П.Даниленконинг кузатишича, “Терминлар - луғат таркибининг бир қисми ҳисобланиб, фан ва соҳалар предметининг аниқловчисидир”[4]. Турли тиллар терминларининг ўзаро қиёсий таҳлили тил ўзига хосликлари, структураси, миллий менталитет ҳамда анъанавийликка асосланишини таъкидлаш жоиз.

Терминологиянинг ривожланиши ва бойиши йўллари турли хил бўлиб, булар бошқа тиллардан сўз олиш, янги сўз ясаш кабилардир. Терминлар умумхалқ тилининг бойиб бориши учун хизмат қилиб, терминологик лексика умумхалқ тили лексикасининг ажралмас қисми сифатида ривожланишда бўлиб, маълум бир соҳа ёки фан юқори даражада тараққий этганда ўша тилда терминологя вужудга келади.

Рус ва ўзбек тиллари инвестиция ва кредит терминологиясини рус ва ўзбек тилларида қиёсий-чоғиштириб тадқиқ қилиш бугунги кунда халқаро ҳамкорлик алоқаларининг ривожланиши билан ташқи иқтисодий фаолият иштирокчиларига муайян даражада енгиллик яратилишига олиб келиши билан алоҳида долзарблик касб этмоқда. Терминологик бирликлар лингвистик хусусиятларига хос етакчи тамойилларни тилшунослик, таржимашунослик назарияси нуқтаи назаридан ишлаб чиқиш, терминларининг лексик-семантик, функционал-структуравий, коннотатив ва денотатив хусусиятларини очиб бериш мазкур соҳага доир билимларнинг яна-да, чуқурлашуви, талабаларда ҳам иқтисодий, ҳам лингвистик билимларнинг кенг кўламда таркиб топишида алоҳида аҳамият касб этади.

Resume: The article is devoted to a comparative typological analysis of the terms investment and credit, which have not been studied in a comparative aspect, on the importance of comparison in the lexicographic coverage of the terms investment and credit in Russian and Uzbek. The article also includes a number of works of foreign and Russian scientists of linguistics on general and special terminology such as V. V. Antimirova, V. I. Gataulina, E. A. Kolesnikova, I. S. Kulakov, D. S. Salmina, N N. Lantyukhova, O. V. Zagorovskaya, T. A. Litvinova, and L.N. Utkina.

Резюме: Статья посвящена сравнительно-типологическому анализу терминов инвестиция и кредит, которые не изучены в сравнительном аспекте, о важности сопоставления в лексикографическом освещении терминов инвестиция и кредит на русском и узбекском языках. В статье также включены ряд работ зарубежных и русских учёных языкознания по общей и специальной т ерминологии таких как В. В. Антимирова, В. И. Гатаулина, Е. А. Колесникова, И. С. Кулакова, Д. С. Салмина, Н. Н. Лантюхова, О. В. Загоровская, Т. А. Литвинова и Л.Н. Уткина**.**

[1] Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – М., 1998.
[2] Шевчук В.Н. Производные военные термины в английском языке. – М., 1983.
[3] Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики.– М., 1968.
[4] Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М., 1977.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ "ЖАННАТМАКОН" ХОНГА МУНОСАБАТИ

Баҳодир Карим,
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети профессори, филология фанлари доктори

Дунёқарашлари ўзаро яқин шахсиятлар, адабий сиймоларнинг маънавият майдони – маърифат гулшанида бир-бирларини ғойибона топишлари ва ўзаро суҳбатлар қуриши нисбатан осон кечади. Тўғрироғи, барча замонларда тарихда ўтган улуғларга ҳавас, уларга эргашиш, уларни ибрат қилиб кўрсатиш замон адибларининг шуурини эгалайди. Тафаккур қуввати етса, улар яшаган муҳит, мозий манзараларини сўз воситасида тирилтиради: умрбоқий бадиий-тарихий асарлар ёзади, қаҳрамонлари тилларда достон бўлади.

Амирий шахсиятига қизиқиш, унга ўзгача бир эҳтиром ва эъзоз Абдулла Қодирий ботиний шуридан ҳам ўрин олган эди. Бунга адиб асарларини ўқиш асносида амин бўлиш мумкин. Назаримда, "Ўткан кунлар" романидаги бир эпизодни кўпчилик шунчаки оддий воқеалар қаторида ўқиб ўтади, холос. Ҳолбуки, романнинг бошланиш қисмида Зиё шоҳичининг уйида меҳмон бўлган Отабек Шамай таассуротларини сўзлаб беради. Ўз юртининг ҳам шундай тараққий этган ҳолда кўришни истайди. Аммо ўз элига қайтиб кўрадики, Шамайда ўйлаганлари, ошиққанлари "ширин бир хаёл" бўлиб чиқади. Отабек айтади: "Бу ерда сўзимни эшиткучи биров ҳам бўлмади, бўлсалар ҳам: "Сенинг орзунгни шу хонлар эшитадими, шу беклар ижро қиладими?" деб мени маъюс қилдилар. Илгарироқ мен уларнинг гапига бовар қилмай юрсам, сўнгғидан тўғри сўзни айтканларини билдим. Дарҳақиқат, мозористонда "ҳаййя алал-фалаҳ" хитобини ким эшитар эди". Тўғриси, қабристонда нажотга чорловчи муаззиннинг овозини биров эшитмайди.

Кейинги саҳифада Отабек сўзлаган сафар хотираларининг қисқа муҳокамаси бошланади. "Мажлис Отабекнинг Шамай таассуротини мароқ билан эшиткан, шу кунгача ҳеч кимдан эшитилмаган унинг фикрларига ажабланган эди. Истиқбол қайғуси тушига ҳам кирмаган бу Туркистон оталари Отабекнинг даруни дилдан чиқариб айтган гапларидан ҳиссасиз қолмадилар:

- Амири Умархондек одил пошшо бўлса, - деди қутидор, - биз ҳам ўрисдан ошиб кетар эдик.

Зиё шоҳичи:

- Бизнинг бу ҳолга тушишимиз ўз феъли хўйимиз-дан.

Акрам ҳожи:

- Тўғри.

Ҳомид ҳам бошқалардан қолишмас учун: "Худо кофирнинг дунёсини берган", деб қўйди.

- Манимча, ўриснинг биздан юқоридалиғи унинг иттифоқидан бўлса керак, - деди Отабек, - аммо бизнинг кундан-кунга орқаға кетишимизга ўзора низоимиз сабаб бўлмоқда...", деб Қўқон хонлигида бўлиб ўтган ўзаро низолар тарихидан сўзлайди[1]. Орада Отабек хуфтон намозига таҳорат олиш учун ташқари чиқади. Шунда мажлис аҳли унга ҳавас қилганини баён этиб, мақтовлар ёғдиради. Агар хон кўтариш улар қўлида бўлганида, албатта, Отабекни хон кўтариш ниятлари борлигини сўзлашади. "Амири Умархондек одил пошшо бўлса, биз ҳам ўрисдан ошиб кетар эдик" – бу таъбир нафақат Мирзакарим қутидор ёки аҳли мажлиснинг нияти, балки Абдулла Қодирий ҳам ўзаро қирпичоқ – парокандаликка учраган эл-юрт учун шундай адолатли бир раҳбар бўлишини орзу қилган бўлиши эҳтмолдан узоқ эмас.

Абдулла Қодирий тасвирлаган яқин "хон замонлари"даги аҳволни ўрганишда тарихчи олимларининг китобларини ўқиб ўргангани маълум гап. Шу билан бирга ўша тарихий воқеа-ҳодисалар тафсилоти унга бир аср юзини кўриб вафот этган отаси - Қодир бобо ва унга замондош кексаларнинг эслашлари орқали ҳам етиб келган. Дарвоқе, адиб ўзининг "1819 йил ёдгори" ҳикоясида бу хусусда маълумотлар беради. "Умархон ва Маъдалихон даврларига оид" манбаларни тўплаб юрган адибни 116 ёшли Аҳмад американчи исмли бир чолнинг ҳузурига боради. Соғлик-саломатлик сўровидан сўнг савол берилади:

"-Хонлардан кимларни кўриб-кечирдингиз?

-Хонлардан... хонлардан Маъдалихон, Шералихон, Худоёрхон, Маллахонларни кўрдим". Адиб ўзи учун қизиқ саволга келади:

[1] Абдулла Қодирий. Романлар.Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 18-19.

“Сиз “жаннатмакон”ни кўрмадингизми?

- Йўқ, мен кўрмадим. Мадалихоннинг 1256 ҳижрий ёки 1834 йил мелодий йилда Бухоро амири Насрулло томонидан ўлдирилганлиги менга маълум”[1].

Абдулла Қодирий “жаннатмакон”га изоҳ зарурлигини сезади. Ёки адиб ўзининг тажоҳили орифона бир санъаткорлик усули билан ўқувчига ҳали тириклик замонидаёқ “жаннатмакон” рутбасига эришган ким эканини билдириш учун атай шундай йўл тутади, чамаси. “Жаннатмакон”ни ҳошияга олиб:“Эскилар Умархонни “жаннатмакон” лақабида яхши танийдилар (Муал.)”, деган изоҳни ёзади. “Бу жаннатмакон асринда уламою талаба ва аҳли илмлар ривож бўлуб, шоирият мўътабар экан”[2]. Ўша мўътабар шахсиятлар тўғрисида Фазлий Намангоний “Мажмуаи шоирон” деган махсус шеърий тўплам тузгани маълум. 20-йилларида ижод қилган жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд Амирийни “шарқ турк шеъринининг иккинчи олтун даври бошлиғи” деб атагани, унинг бир мухаммасини дунёга машҳур америкали адиб Эдгар Понинг “Қарға” номли поэмасининг шакл ва мазмуни билан қиёслагани бежиз эмас[3]. Амир Умархоннинг бунёдкорлик ишлари, уни “жаннатмакон” деб улуғланиши, ўз вақтида “амир ул-муслимин”-мусулмонлар амири унвонини олгани бир қатор тарих китобларида зикр қилинади[4].

Қодирийшунослар адибнинг “Меҳробдан чаён” романи таркибида келган “Амир Умархоннинг канизи” номли кичик бир тарихий фаслни яхши билади[5]. Айнан шу номда адиб роман ёзиш учун манбалар ҳам тўплаган эди. Бир неча марта сафарларга чиққан. Шундай манба тўплаш учун Қўқонга борганларида унга шоир Ғайратий ҳам йўлдош бўлади. Биргалашиб қўқонли бир китобфурушга учрашади. У кимса китоблар билан бирга Абдулла Қодирийга иккита кўҳна расм кўрсатади. Ғайратий хотирлашича, расмлардан бири Худоёрхоннинг ўғли Ўрмонбек, иккинчиси Андижон ҳокимининг бир нечта кишилар билан тушган расмлари эди. Хотиранавис давом этади: “Абдулла акам расмларга қараб ўтириб нималарнидир ёзиб олдилар.

Мен Абдулла акамнинг Умархон давридан роман ёзмоқчиликларини билардим. Шунинг учун меҳмондорчиликдан чиққан, у кишидан “сиз-ку, Умархон даврини ёзмоқчисиз... Умархондан қарийиб эллик йил кейин яшаган Ўрмонбек ва Андижон ҳокимларининг расми сизга нечун керак”, деб сўрадим. Абдулла акам: “Расмлардан ўша давр кишилари, уларнинг аҳволи руҳияси, қиёфаси, кийим-кечаги тўғрисида бирмунча тасаввур олиш мумкин...” деб жавоб бердилар”[6]. Адибнинг бадиий тасвирига хос бу реалистик тамойил, яъни ёзмоқчи бўлган ҳар бир нарса, предмет, дов-дарахт ва инсонни синчиклаб ўрганиши ўз асарига манбалар тўплаш жараёнида шаклланиб борганини англатади.

Аслида истеъдодли ижодкор ўзига ишончи – бу ҳам улкан маънавий хазина саналади. Айнан ўзига бўлган қатъий ишонч туфайли адиб мухлислари орасида “Амир Умархоннинг канизи” романининг ёзилгани ёки қўлёзманинг йўқотилгани ҳақида гаплар юради. Нисбатан аниқ гапни Ҳабибулла Қодирий “Отам ҳақида” китобида келади: “Муаллиф асарни ёзиш учун режалар тузган, материал-маълумотлар тўплаган, уларни фикран маълум бир тартибга солган. Дадамнинг шундай деганлари ёдимда:

“Романга керакли материаллар етарли бўлиб қолди. Энди, Тошкент Шарқ кутубхонасида Умархоннинг укаси ёзган, ўша давр тарихига оид нодир бир қўлёзма бор экан, шу китобни ҳам бирор ой ўтириб ўқиб чиқсам ва Бухорога бир бориб келсам, бас. Уй-рўзғор ишларидан хотиржам бўлиб олиб, бир қиш қаттиқ ўтирсам, романни ёзиб битираман....” Афсуски, дадам ниятларига эриша олмадилар. Ҳатто романга тўплаган материаллари ҳам сақланиб қолмади”[7]. Бу улуғ ниятларга тўла гапни Абдулла Қодирий 1937 йили айтади. Таассуфки, унинг бир қиш хотиржам ўтириши учун имкони бўлмади. Ҳибсга олинди, қатағон қилинди. Унинг уйидан минглаб саҳифа қўлёзмалар, манбалар олиб кетилди, бедарак йўқолди. Режадаги роман адиб мухлислари учун ширин хотирагина бўлиб қолди. Айрим ҳолатларда олимларимиз Абдулла Қодирийнинг шу ниятлаган романининг шон-шуҳрати хусусида сўзлаб қолишади. “Тўғриси, ҳали майдонга келмаган асарларнинг шуҳратидан башорат бериш ортиқча иш. Биринчидан аслнинг, бадиий матннинг ўзи йўқ. Иккинчидан, “ҳозирга қадар ҳеч бир эстетик назария келажакда санъаткорнинг фикри қайси йўналишдан бориши ва унинг ижодий фаолиятининг чек-чегараси қаерда эканини аниқлаб берган эмас” (Л.Шестов фикри)”[8]. Биз ҳам шундай буюк бир асарнинг бунёд

[1] Абдулла Қодирий. Диёри бакр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 410-411.

[2] Ибрат. Фарғона тарихи. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 290.

[3] Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б. 84-90.

[4] Қаранг: Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик. – Тошкент: Akademnashr, 2010.

[5] Абдулла Қодирий. Рўмонлар.Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 383-386.

[6] Ҳабибулла Қодирий. Отам ҳақида. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 199.

[7] Ҳабибулла Қодирий. Отам ҳақида. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 197.

[8] Баҳодир Карим. “Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур”. Тошкент. “Akademnashr”. 2014 йил. 225-бет.

бўлишига минг бора тарафдормиз. Аммо ҳозирча афсусдан ўзга чора йўқ...

Абдулла Қодирийнинг тарихий шахсларга, хонлару мингбошиларга холис муносабати ҳар икки романида, хусусан, “Меҳробдан чаён”даги Худоёрхон образи тасвирида аниқ кўринади. Ёзувчи ҳар қандай шарт-шароитда ҳам ўзи учун юксак инсонийлик мезони бўлган имони ва виждонига қарши қалам сурган эмас. Шу эътибордан унинг Амир Умархон тўғрисида ёзмоққа ниятлаган романида ҳам тарих ҳақиқатию ўз қаламига хиёнат қилмас эди, эҳтимол. Зотан, адибнинг Амир Умархон босиб ўтган покиза ҳаёт йўлига, адабий шахсиятига эҳтироми юқорида берилган бир қанча қурама далиллар билан ҳам мухтасар бир фикр айтишга имкон беради.

Resume: This article focuses on the artistic skills of A. Qadiri. Attention is paid to the issue of respect for Amiri’s personality in the work of the writer.

Резюме: Данная статья посвящена художественным способностям А. Кадири. Уделено внимание проблеме уважения личности Амири в творчестве писателя.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ЧЎЛПОН ШЕЪРИЯТИДА ИЖРОВИЙ ВА ПЕРСОНАЖЛИ ЛИРИКА

Юлдашев Нормат,
Термиз давлат университети доценти, филология фанлари номзоди

XX аср бошлари ўзбек шеърияти мундарижасида янгиланиш даври бошланди. Бу жараён, албатта, давр тақозаси эди. Янги адабиёт яратиш даъвоси билан майдонга чиққан жадид зиёлилари, ёзувчилари матбуот саҳифаларида бу соҳада туркум мақолалар эълон қилишди. Адабий жараёнга жадид адабиёти ҳавосидан нафас олиб кирган Абдулҳамид Чўлпон “Адабиёт надир” мақоласида “Агарда баёз ва бемаъни бир-икки дона китоблар ила қолсак маҳфу инқироз бўлурмиз” деб ёзади. “Муҳтарам ёзғувчиларимизга” мақоласида эса “Ҳали бизга кўп тиётр ва рўмон китоблари ёзмоқ керакдурким, бу қарз бир ҳовуч зиёли ёшларимиз ва аҳли қаламимиз устларига тушадир”, деб ёзади.

Давр ижтимоий-сиёсий воқеаларга тўла эди. Миллий тараққиёт учун янги адабиёт яратиш ҳаётий заруратга айланди. Жамиятда шахснинг мақоми ўзгариб шахсийлаша борди. Асрлар давомида шеъриятда анъана бўлиб келган девон адабиёти даврнинг долғали жараёнларини ифодалашга ожизлик қилди. Лирик қаҳрамон анъанавий “биз”дан “мен”ликка томон сиилжий бошлади. Шубҳасиз, шеърнинг лирик субъекти ва объекти, лирик кечинма сатҳларида ўзгариш бошланди. Мумтоз адабиётимиздаги ёр, ошиқ, рақиб образлари янгича мазмун-мундарижа касб этди. Сиддиқий Ажзий, К. Камий, Тавалло, Ҳамза, А. Авлоний каби шоирлар ижодидаги анъанавий образлар билан боғлиқ тавсифий лирика ўрнига Ватан, миллат дарди билан боғлиқ мазмун ифода этилди.

Адабиётшунос Д. Қуронов “Шеъриятимиздаги поэтик янгиланишнинг бир қиррасига доир айрим қайдлар” мақоласида “Ўтган аср тонгидан бошланган ўзгаришлар миллий шеъриятимизни шу даражада янгиладики ҳозир унга нисбатан янги ўзбек шеърияти атамасини бемалол қўллаймиз, шу билан бирга унинг мумтоз шеъриятдан фарқли эканини таъкидлаймиз”[1],-деб ёзади. Дарҳақиқат, XX аср бошларига келиб лириканинг бошқа турлар билан синтезлашув жараёни тезлашди. Хусусан, драматургия ва прозанинг ривожланиши лирикага таъсир кўрсатди. Яъни, “шеърият кўнгил мулкидан туриб, ўз эътиборини воқеликка қаратди”. Шеъриятда драматик ва эпик унсурлар кўлами кенгайди. Айниқса аср бошларидаги ижтимоий-сиёсий талотўплар, 1916 йилги миллий-озодлик ҳаракатлари, мардикорчилик воқеалари акс этган шеърларда лирик субъект ва лирик кечин-

[1] Қуронов Д. Мутолаа ва идрок иашқлари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 193-194.

ма объекти фақат шоир эмас, ўзга шахс тилидан баён қилинди.

Адабиётшуносликда лирикада муаллиф ва лирик нутқ субъектини ажратиш муаммоси XX аср бошларида ўрганила бошланди. Шеъриятда лирик қаҳрамон образининг субъектив ташкиллашишини ишлаб чиққан Б. О. Корман тўртта субъектив шаклнинг мавжудлигини асослаб берган. Улар шоирнинг ўзи, лирик кечинма эгаси, лирик қаҳрамон, рол қаҳрамони. Ҳозирги вақтда Корман таснифи кўплаб тадқиқотчилар учун назарий асос бўлиб хизмат қилди.

Шеъриятда субъектив кечинманинг ташкилланишидаги энг муҳим кўринишларидан бири ижровий лирикадир. Ижровий лирика термини дастлаб Н. Я. Берковский томонидан "ўзганинг ўз лирикаси" тарзида киритилган. Ижровий лирикада муаллиф лирик қаҳрамон билан бирикади. Ижровий лирикани "назмдаги саҳна" деб ҳам аташ мумкин. Унинг асосий белгилари ижтимоий ва кундалик мавзулар, макон ва замонда чекланганлик, қаҳрамонларнинг мавжудлиги, кичик ҳажмга эгалиги.

Маълумки, "Лириканинг асосий образи – лирик қаҳрамон (у лирик субъект деб ҳам юритилади). Кўпинча лирик қаҳрамон деганда шоирнинг ўзи тушуниладики, бу у қадар тўғри эмас. Зеро, шоир ўзининг кечинмаларини тасвирлаши ҳам, гўё ўзганинг руҳига эврилган ҳолда "ўзга шахс" кечинмаларини тасвирлаши мумкин ҳам бўлади"[1]. Рус адабиётшунослигида бундай шеърларга нисбатан "ролевая лирика" – ижровий лирика ифодаси қўлланилади. Ижровий лирика қаҳрамони икки хил вазифани бажаради. Бир томондан у лирик кечинма субъекти, иккинчи томондан лирик кечинма объектидир.[2] Ижровий лириканинг илк намуналари халқ қўшиқларида учрайди. XX аср бошларида Ҳамзанинг "Миллий ашулалар учун миллий шеърлар" китобига кирган "Салом айтинг", "Соғиниб", "Бир шарманда тилидан", "Ўзбек хотини тилидан", "Бир қўрқоқ "масъул ишчи"нинг тилидан", "Бир эшон ҳазратлари айталар экан" шеърларида лирик кечинма ўзга шахс тилидан изҳор қилинади. Чўлпоннинг "Мен ва бошқалар", "Шарқ қизи", "Қиз қўшиғи", "Хизматчи бола қўшиғи" шеърлари ижровий лирика намуналаридир.

Жадид шоирлари ижровий лирикага оид шеърларининг кўпчилигида шеър мавзусидан сўнг қавс ичида "тилидан", "оғзидан" сўзларини бериш орқали лирик каҳрамон ким эканлигини англатишга ҳаракат қилишган. Чўлпоннинг "Мен ва бошқалар" шеърида шоирнинг ўзи "ўзбек қизи оғзидан" изоҳини келтирган. Шеърнинг изоҳидан англашиниб турибдики, унинг лирик қаҳрамони шоир эмас ўзга шахс-ўзбек қизи:

Кулган бошқалардир, йиғлаган менман,
Ўйнаган бошқалар, инграган менман.
Эрк эртакларин эшитган бошқа,
Қуллик қўшиғини тинглаган менман...

"Шеърнинг лирик субъекти, унда ифода этилаётган аламли ўй-ҳисларнинг эгаси – эрксиз ўзбек қизи. Гарчи лирик изҳор "мен" тилидан берилаётган эса-да, бунда шоирнинг "мен"и йўқ, шоир эрксиз ўзбек қизига эврилган, унинг "роли"ни ижро этаётир".[3] Бу ўринда лирик кечинма субъекти – ўзбек қизи билан лирик "мен" бир фокусда бирлашади. Муддао эрксиз, ҳуқуқсиз ўзбек қизининг аянчли қисматига муносабат билдириш. Шеърда шоир қаршилантириш усулини қўллаб поэтик мақсадни янада ойдинлаштиради:

Менда-да қанот бор, лекин боғланган...
Боғ йўқдир, шох йўқдир, қалин девор бор.
Сўзлари садафдек, товуши найдек
Куйим бор...уни-да деворлар тинглар. [4]

Чўлпоннинг ижровий лирикага мансуб шеърларининг аксарияти эрксиз, ҳуқуқсиз Шарқ аёллари тақдири билан боғлиқ. Шоирнинг "Қиз қўшиғи", "Шарқ қизи" шеърларида ҳам ушбу ҳолатни кузатиш мумкин. "Қиз қўшиғи" шеърида лирик кечинма қора кунлар бошига тушган қиз тилидан изҳор қилинади. Таъкидлаш жоизки, Шарқ аёллари тақдири Чўлпон ижодидаги асосий мавзулардан. Бунда ҳам лирик кечинма объекти билан лирик "мен" – шоир бир бутунликни ҳосил қилади. Чунки лирик кечинма эгаси билан лирик "мен" – шоирни айнан ҳам айри ҳам тасаввур қилиб бўлмайди. "Улар ажралмас қўшилмасликдир" (Д. Қуронов). "Қиз қўшиғида ҳам айни шу ҳолат мавжуд:

Ўксук кўнгил қуши
Тушди қафасга,
Сира етолмайдир
Эркин қафасга
Қора кунлар тушди менинг бошимга.[5]

Шеърнинг қолган бандлари ҳам шу шаклда давом этади. Ҳар бир банд охиридаги ўзбек қизи бошига тушган қора кунлар, ёмон кунлар, оғир кунлар, қийин кунлар, қонли кунлар, ўтли кунлар, ёрсиз кунлар сифатлашларининг такрорланиши мавжуд ижтимоий муҳит манзараларини ифодалайди. Шеърнинг айнан шоир тилидан эмас ўзга шахс тилидан ифода этилиши ижодкорнинг ғоя-

[1] Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Навоий университети, 2018. – Б. 252.

[2] Корман Б.О. Избранные труды по теории и истории литературы. – Ижевск: изд-во Удм. ун-та, 1992. – С. 177.

[3] Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърияти. – Тошкент: Adib, 2012. – Б. 253.

[4] Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. I жилд. – Тошкент: Академнашр, 2016. – Б. 73.

[5] Чўлпон. Ўша манба. – Б. 163.

вий эстетик мақсадини ёритишга, шеър таъсирчанлигини оширишга хизмат қилган.

Ижровий лириканинг моҳияти шундаки, муаллиф унда ўз номидан эмас, балки ҳар хил қаҳрамонлар тилидан гапиради. Фикримизнинг исботи сифатида шоирнинг “Нил қизи” шеърига эътиборни қаратамиз:

Гўзал Нил бўйидан
“Фаллоҳ” қизиман.
Эҳромлар йўлида
Карвон изиман...
Севганим қул бўлиб
Сотилиб кетди;
Мингларча қулларга
Қотилиб кетди...
Нилнинг баракаси
Дунёга татир;
“Фаллоҳ”нинг бахтини
Кимлар уйғотур?[1]

Кўриниб турибдики, лирик субект одатдаги шеърлардек муаллиф эмас, балки “ўзга шахс” яъни бахт нелигинни англай олмай сарсон бўлган фаллоҳ қизи. Чўлпон “Нил қизи” образи орқали жуда каатта бадиий маъно ва умумлашма акс эттирмоқдаки бу муаллиф бадиий ниятини амалга оширишда восита бўлиб хизмат қилмоқда.

Лирикада шеърнинг субъектив шаклланиши яъни шеърдаги ҳис-кечинма шахсига кўра кечинма объекти нуқтаи назаридан фарқланувчи “тавсифий лириканинг ўзига хос хусусиятларини ифодалайдиган яна бир тури “персонажли” лирикадир”[2].

Персонажли лирика ўз мазмун моҳиятига кўра ижровий ва автопсихологик лирика турларининг умумий хусусиятлари билан уйғун мужассамлашган, чунки унда лирик кечинма муаллифга яқин бўлган “мен” тилидан, ҳам “бегона” шахс тилидан ифода этилади. Лирик асарларни таҳлил қилишда ушбу атамадан фойдаланиш имконияти ҳақида рус адабиётшуноси Г.Н.Поспелов ўзининг “Лирика среди литературных родов” китобида алоҳида тўхталган. Сюжет элементларига эга бўлган шеърлар одатда кўп кишилик характерига эга бўлиб, уларда тасвирланган шахслар кўпинча бир-бири билан муносабатлар орқали характерланади.[3] Унда лирик кечинма ҳам лирик “мен” ҳам ўзга бир шахс тилидан ифодаланади. Умуман олганда, бундай шеърларда эпик ва драматик хусусиятлар акс этиб туради, чунки бу каби шеърларда персонажга алоҳида эътибор берилади. Персонаж (лот. persona – шахс, театр маскаси) – бадиий адабиётдаги инсон образи, адабий асардаги воқеа иштирокчиси, ҳис-кечинма ва нутқ субъекти[4]. Яъни биз ўрганаётган шеърда шоир билан бир қаторда бегона шахс кечинмалари ҳам ифодаланади. У ҳам ўз ҳиссий-фикрий қийматига эга бўлади. “Персонажли лирика субъектив шакллантирилишига кўра фарқланувчи лирика кўринишларидан бири, лирик кечинма ҳам лирик қаҳрамон, ҳам ўзга бир шахс тилидан ифодаланувчи шеър. Яъни, бундай шеърда лирик қаҳрамон билан бир қаторда персонаж (ўзга бир шахс)нинг иштироки ҳам кўзда тутилади. Персонажли лириканинг илдизлари халқ оғзаки ижоди ва мумтоз адабиётга бориб тақалади, уларда персонажли лириканинг куртаклари мавжуд. Жумладан, мумтоз адабиётимиздаги кўплаб шеърларда ёр, ағёр каби персонажлар иштирок этади. Бироқ, масалан, ёр образи мавжуд шеърларнинг барини ҳам персонажли лирика намунаси дейиш тўғри эмас, уларнинг аксариятида ёр тавсифланади, холос. Персонажли лирикага мансуб этиш учун эса ўзга шахс шеър субъектларидан бирига айланиши, унинг тилидан ифода этилган лирик кечинма (ўй-фикр, ҳис-туйғу) мустақил ғоявий-бадиий қиммат касб этиши, бошқача айтсак, шеър диалогиклик (полифониклик) хусусиятига эга бўлиши тақозо этилади.”[5]

Чўлпоннинг “Чиммат қўшиғи”, “Кампирнинг тўйчиси”, “Хаёли”, “Чечак”, “Дамлар”, “Баҳорда”, “Келинчак”, “Қилқиз мафтунлари”, “Кўзлар тўғрисида”, “Дўст ва душман” каби шеърлари персонажли лирикага мансуб.

Чўлпоннинг “Чиммат қўшиғи” шеърини персонажли лириканинг нодир намунаси сифатида кўрсатиш мумкин. Шеърдаги лирик персонаж – ўзбек аёлининг ўй-ҳислари лирик қаҳрамон ўй-ҳисларига уйқашгина эмас, балки тўлақонли ғоявий-эстетик қимматга ҳам эга, чунки шеърда эстетик мушоҳада объектига иккита нигоҳ билан қаралади, лирик субъект иккиланган:

Чимматимни кўтариб кўрди хушторим,
Дедим: “Тирикликда шудир мозорим!”.

Аёлнинг паранжи-ю чимматлар ичидаги ўй фикрлари ифодаси шоир томонидан жуда маънодор бадиийлаштирилган. Шеър 1927-йилдаги “Ҳужум” ҳаракатига бағишлаб ёзилган. Чўлпон ҳам паранжи-ю чимматларни ташланишидан мамнун бўлган. Бу фикрларини ўзга шахс – ўзбек аёли томонидан ифода этади. Шеър охирида эса ўз фикрлари ечимини қуйидагича баён этади:

[1] Чўлпон. Ўша манба. – Б. 292.

[2] Поспелов Г.Н. Лирика среди литературных родов. – М.: Изд. Московского университета, 1976. – С. 150.

[3] Поспелов Г.Н. Лирика среди литературных родов. – М.: Издателъство Московского университета, 1976. – С. 151.

[4] Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 93.

[5] Қуронов Д. ва бошқалар. Ўша китоб. – Б. 93.

Чимматимни ирғитай, ушла, хушторим!
Паранжини қўшиб ташла, озодсан ёрим![1]

“ХХ аср ўзбек шеърияти персонажли лирика-нинг гўзал намуналарини берди. Унда лирик кечинма эгаси сифатида гоҳ тарихий шахс, гоҳ замондош инсон, гоҳи хаёлий бир мавжудот, гоҳи эса кундан кун кўриб юрганимиз бирор нарса ёки ҳодиса, баъзан ҳатто руҳ....хуллас, лирик персонажлар галереяси ғоят кенгки, шу масаланинг ўзиёқ кўламли тадқиқотларга манба бўла олади”[2]. Маълумки, персонажли лириканинг генезиси халқ лапарлари, айтишувлар, мумтоз адабиётдаги савол-жавоб санъатлари билан генетик алоқаси бор. Чунки персонажли лирика лирика билан драманинг синтезлашган кўринишидир. Ана шундай синтезлашув жараёнини қуйидаги шеърда ҳам кузатиш мумкин. Чўлпоннинг “Тонг” шеърида лирик қаҳрамон билан бирга булбул, чўзанак, деҳқон, Шарқ лирик кечинма субъекти сифатида иштирок этади:

“Сайра, - дедим, - қайғу чеккан ай булбул,
Кўнглингдаги қайғу ҳасратларингни.
Булбул деди: “Тонг отсинда ерни
Ясантирсин маним мапъшуқам Гул!”
“Эй чўзанак, - дедим, - жонсиз ётма,
Қанотчангни визиллатиб учгил –
Учиб гулзорларга бориб тушгил!”.
Деди: “_Ғофил, тонг отгунча шошма!”.
Дедим: “Ялқов деҳқон, олиб кетаман,
Юр далага қўш ҳўкизни ҳайдаб!”
Ётган ердан деҳқон бошини чайқаб
Деди: “Ҳеч ким бормас, олдин тонгдан!”.
“Уйғон, - дедим, - тўлғон, - дедим, - ай Шарқ,
Занжирларингни узиш вақти келди.
Эрк олишга “вақт”лаган боди,
Шунинг учун тўлқинланди кўб халқ...
Шарқ дедиким: “Сен ўргат бизга,
Биз ўргандик уни кечмишлардан.
Елкадаги оғир занжирлардан:
“Тўлғон!” – деган буйруқ бўлди бизга... [3]

Юқорида келтирилган беш бандда ҳам лирик кечинма персонажлар мулоқоти асосида ташкилланган. Савол-жавоб тарзидаги “деди”, “дедим” тўлиқсиз феълларининг ҳар бандда такрорланиши лирик кечинмада драматизм унсурларининг мавжудлигини кўрсатади. Агар шеърнинг сарлавҳасига эътибор қилинса шоир бежизга “тонг”га урғу бераётгани йўқ. Табиатни ҳам жамиятни ҳам уйғонишга чорлаш шоирнинг асосий мақсади. Бу ўринда лирик кечинма субъекти сифатида қатнашаётган лирик персонажлар шеър давомида битта фокусда бирлашиб маълум бир бадиий-эстетик вазифани бажаради. Шоир мумтоз шеъриятимиздаги интоқ санъатини маҳорат билан қўллаб лирик персонажларнинг нутқи орқали мавжуд ижтимоий муҳит мазараларини ифодалайди. Шеърнинг хулоса қимсида ижодкорнинг асл нияти аёнлашади, тонг отса уйғониш, қўзғолиш, тўлғониш бошланади.

Ўн икки банддан иборат шеърнинг дастлабки олти бандида лирик кечинма пенсонажлар нутқи орқали берилади, бунда драматизм унсурлари кўпроқ, еттинчи банддан охирига қадар лирик кечинма лирик қаҳрамон томонидан ифодаланади.

Чўлпоннинг “Хаёли” шеъри персонажли лириканинг нодир намуналаридан. Унда лирик кечинма субъекти лирик қаҳрамон ва малак. Шеърнинг 1920 йилда ёзилганига эътибор қаратилса, шоир бу йилларда тушкунлик, умидсизлик кайфиятида бўлган. Эрк ва озодлик ҳақидаги орзулари саробга айланиб, инқилоблардан ҳафсаласи пир бўлган лирик “мен” кўнглида “ҳеч тузалмас, оғир яра бор”лигини ҳис этиб хаёлга берилиши жараёнидаги ҳолатлар лирик кечинма асосини ташкил этади:

Қулоғимга “ол бахт” деб эшитилган
Азонларни шайтоний деб ўйладим;
Шунинг учун бахт берган малакка
Турли туман афсоналар сўзладим...
Сочларини ўйнаб туриб эшитди
Ва дедиким: “Афсоналар беҳуда!”
Бул сўзлари қулоғимга етишди:
“Оқдим, - деди, - қонли, зардобли сувда...”
“Оқ-оқ, - деди афсоналар султони, -
Сенинг тахтинг, бахтинг унда кутадир;
Ул зардобли, қонли сувлар остида
Қора кийган жонинг жилва этадир”.[4]

Биринчи бандда лирик кечинма субъекти лирик “мен”, иккинчи бандда ҳам лирик қаҳрамон ҳам ўзга шахс, учинчи бандда фақат афсоналар султони тилидан хаёлий тарзда изҳор этилади.

Абдулҳамид Чўлпон ХХ аср бошларида яратган ижровий ва персонажли лирикага мансуб ижод намуналари билан миллий шеъриятимиз мундарижасини шакл ва мазмун жиҳатдан янгилаб, лирик кечинма сатҳини янада кенгайтирди. Бу билан лириканинг наср ва драма билан синтезлашиш жараёнини бошлаб берди. Бундан ташқари шоир ижодида лириканинг медитатив, автопсихологик, воқеабанд, публицистик йўналишлари борки, бу мавзулар алоҳида илмий тадқиқотлар учун манба бўла олади.

[1] Чўлпон. Ўша манба. – Б. 256.
[2] Қуронов Д. Мутолаа ва идрок иашқлари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 202.
[3] Чўлпон. Ўша манба. – Б. 47-48.
[4] Чўлпон. Ўша манба. – Б. 49.

Resume: The article examines the subjective organization of lyrics in the poetry of Abdulkhamid Chulpan. Poems related to role and character lyrics in the poet's work are also analyzed.

Резюме: В статье исследуется субъективная организация лирики в поэзии Абдулхамида Чулпана. Также анализируются стихотворения, относящиеся к ролевой и персонажной лирике в творчестве поэта.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"ДЕВОНИ КОМИЛ"НИНГ ТОШКЕНТ ЛИТОГРАФИК НАШРИ

Нуриддинов Шаҳобиддин Бабаярович,
Қарши давлат университети адабиётшунослик кафедраси доценти в.б., филология фанлари доктори

Кўп асрлик ўзбек мумтоз шеъриятининг забардаст вакили Комил Хоразмий девонининг мамлакатимиз қўлёзма фондлари ва адабиёт муҳиблари шахсий кутубхоналарида сақланаётган ўнлаб нусхалари маълум. Хусусан, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти Қўлёзмалар фондида Комил девонининг 1949, 1025, 922/III, 1119/IV, шунингдек, Ҳамид Сулаймон фондида 1035/IV рақамлари остида сақланаётган нусхалари фикримизни далиллайди. Бундан ташқари, асосий фонддаги "Мухаммасоти Комил"(1135/I), Ҳамид Сулаймон фондидаги "Ғазалиёти Комил" (1568), "Ашъори Комил" (1569/VI) тўпламлари ҳамда кўплаб баёзларда турли жанрларда яратилган шеърлари киритилгани шоир лирик меросининг кенг тарқалганини кўрсатади. Буни шоир девонининг уч марта тошбосма усулида нашр этилгани ҳам исботлайди.

Девоннинг Хивада амалга оширилган дастлабки икки нашри шоир ҳаётлик даври чоп этилган. Биринчиси 1880 йилда 200 саҳифада(кейинги ўринларда *биринчи тошбосма*), иккинчиси 1895 йилда 230 саҳифада (кейинги ўринларда *иккинчи тошбосма*) нашр қилинган. Ҳар икки нашр ҳам ҳажман катта бўлишига қарамай, Комил лирик меросини тўла қамраб олмаган. Ҳар ҳолда девон нашрлари устида олиб борилган ўрганишларимиз шундай хулоса чиқаришга асос бўлади. Учинчи нашр эса шоир вафотидан кейин 1910 йилда (ҳижрий 1327) Тошкентда Яковлев литографиясида чоп этилган(Ушбу манба кейинги ўринларда *Тошкент нусхаси* деб юритилади). Ҳажми 112 саҳифа. Сарвароқда берилган қуйидаги изоҳ нашрнинг ноширлари ва котиби тўғрисида тўлиқ маълумот беради: "Алҳамдулиллаҳи вал-минҳуки, бу китоби зебоу бу аруси раъно, аъни девони мавлоно Комил Хоразмий ба иҳтимоми ва шарокати Саййид Камолхон бин Мақсудхўжа эшон ва қори Абдулраҳмонхўжа бин Маҳмудхўжа Бухорий ва ба қалами Сирожиддин махдум дар шаҳри Тошканд орастау пироста шуд"[1]. Англашиладики, девон нашри адабиёт муҳиблари томонидан нашрга тайёрланган. Котиби ўз даврининг машҳур шоири ва хаттоти Сидқий Хондайлиқий (Сирожиддин Сидқий). Девоннинг Тошкент нусхаси аввалги нашрлардан ўзининг нисбатан тўлиқлиги, қўлёзма манбалардан кенг истифода этилгани, бежирим ҳуснихати ҳамда нашр сифати билан ажралиб туради. Нашрдан 126 та ғазал(шундан, 7 форсий), 6 та маснавий, 11 та таърих, 3 та қасида, 11 та рубоий, 24 та мухаммас(учтаси форсий), 6 та мусаддас, Тошкентга бағишланган қасида ва биттадан мусамман, мустазод ҳамда баҳри тавил ўрин олган. Шеърлар 4781 мисрани ташкил этади.

Нашрда нафақат ҳар бир саҳифа алоҳида рақамланган, балки саҳифалар остига пойгирлар ҳам қўйиб борилган. Шеърлар матни икки устун шаклида, шунингдек, ҳошияда ҳам тартиб билан кўчирилган. Асосий ҳамда ҳошиядаги матнлар алоҳида ва умумий рамкага олинган.

Мазкур нашр матни тадқиқи ҳамда унинг аввалги нашрлар ва қўлёзма манбалар билан қиёсий ўрганиш натижасида бир қатор матний тафо-

[1] Девони Мавлоно Комил маа таворихи шоҳони Хоразм. Тошбосма. ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди, Инв. №237. –Б.1.

вутлар аниқланди. Қуйида уларнинг айримлари хусусида тўхталамиз.

Тошбосма матнига оид тафовутларни икки хил таснифлаш мумкин:

1. Қисқартиришлар. 2. Ўзгартиришлар.

Қисқартиришларнинг аксарияти ғазаллар матнига хос. Хусусан, “Эрмас” радифли ғазалнинг 7-байти Тошкент нусхаси ва иккинчи тошбосма нашрда қисқартирилган:

منینگ دیک یوز اولار چون بیر نگاه قهرناکینگ دین
سنگا کیم آیتا آلغای غمزنگ اوق قاشینگ کمان ایرماس

Ушбу байт девон қўлёзмалари ва 1975 йилда жорий имлода чоп этилган (Кейинги ўринларда *жорий нашр*) нашрда мавжуд[1].

Шунингдек, “Не хуш бўлғай баҳор айёми гулшан ичра субҳу шом” деб бошланувчи ғазалнинг 8-байти қўлёзмаларда мавжуд бўлгани ҳолда, Хоразм тошбосмалари ва Тошкент нусхасида учрамайди:

من اول گل یوزلی فتان کوزلی نینگ سودایسیدورمن
منگه نافع ایماس گل یاغی بیرله روغن بادام

Девондаги “Орзу” радифли ғазал қўлёзмалар манбалар ва жорий нашрда 11 байтли. Тошкент нусхасида эса унинг еттинчи ва тўққизинчи байтлари қисқартирилган:

زلف پرچینی دین آیرو کونگلوم ایلار ناله لار
کیم کوروب دور بیر قوشی کیم ایلاگای دام آرزو...
کبر نخوت قیلما بول آنداق ملایم خوی کیم
تا سنی قیلسون همیشه خاص ایله آم آرزو

Бу каби қисқартиришлар бошқа жанрдаги шеърларда ҳам кузатилади. Шоир девонидан ўрин олган ягона мусамман 7 банддан иборат бўлиб, Тошкент нусхасида унинг 3-банди тушириб қолдирилган.

Бизнингча, шеърлар матнидаги бу каби қисқартиришлар тошбосма нашри учун асос бўлган манбанинг нуқсонли экани билан боғлиқ. Акс ҳолда, кўплаб қўлёзма манбалар ва тошбосмалар учун асос бўлган матнларни кўчирган салоҳиятли хаттотнинг матнга бу каби муносабатда бўлиши эҳтимолдан йироқ.

Тошбосма матнига хос тафовутларнинг яна бири ўзгартиришлар бўлиб, уларни қуйидагича гуруҳлаш мумкин: 1) байтларнинг ўрин алмашиши; 2) мисралар таҳрири; 3) сўзлар таҳрири.

Тошкент нусхасидан ўрин олган бир қатор ғазалларда байтларнинг ўрни ўзгарган. Хусусан, “Айлама” радифли ғазалнинг 4-5 байтлари тошбосма матнида қуйидагича:

حضورینکدا خندان اتیب دشمنیم
ایشیکدا کوزومنی پراب ایلاما
چو کیلدینک قاشیمغه کیتارمین دیبان
[2] یانا عمر یانکلیغ شتاب ایلاما

Ушбу байтлар иккинчи тошбосма ва 922, 1025, 1035 рақамли қўлёзмаларда:

چو کیلدینک قاشیمغه کیتارمین دیبان
یانا عمر یانکلیغ شتاب ایلاما
حضورینکدا خندان اتیب دشمنیم
ادکیشیا ىنموزوک باړپ املایا

тарзида келади.

Ёки “Билмиш, билдим” радифли ғазалнинг 2-3 байтларида ҳам шу каби ўзгаришни кузатиш мумкин. Тошкент нусхасида:

آز اولوب صبرو شیکیییم غم هجرانیدین
رنخ و محنت مینکا بسیار ایدی بلمیش بیلدیم
سوردی بوکیم سوروبان لطف ایله جانبخش کلام
[3] جسم زاریمني که بیمار ایدی بیلمیش بیلدیم

Девон қўлёзмалари ва Хоразм тошбосмаларида:

سوردی بوکیم سوروبان لطف ایله جانبخش کلام
جسم زاریمني که بیمار ایدی بیلمیش بیلدیم
آز اولوب صبرو شیکیییم غم هجرانیدین
رنخ و محنت مینکا بسیار ایدی بلمیش بیلدیم

Жорий нашрда ҳам худди шу тартиб сақланган. Ғазалларда байтларнинг бу каби ўрин алмашиши яна бир қанча ўринларда кузатилади. Жумладан, “Не ҳаз” радифли ғазалнинг 6-7 байтлари, “Базм” радифли ғазалнинг 2-3 байтлари ҳам бошқа манбалардан фарқли ўлароқ, Тошкент нусхасида ўзаро ўрни алмаштириб кўчирилган.

Тошкент нусхасида айрим мисраларнинг ҳам таҳрирга учрагани кузатилади. Масалан, нашрдаги “Хос” радифли ғазалнинг 7-байти қуйидагича:

ابلیس شریدین بولوب آزاد دهر ارا
[4] قیلدینگ عبادت امریني اهل سخاغه خاص

Девоннинг қўлёзма нусхаларида эса байт қуйидагича келади:

[1] Комил. Девон. Нашрга тайёрловчилар: А.Ҳайитметов, В.Мўминова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – Б.75.

[2] Девони Мавлоно Комил маа таворихи шоҳони Хоразм. Тошбосма. ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди, Инв. №237. – Б.8.

[3] Девони Мавлоно Комил маа таворихи шоҳони Хоразм. Тошбосма. ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди, Инв. №237. – Б.67.

[4] Девони Мавлоно Комил маа таворихи шоҳони Хоразм. Тошбосма. ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди, Инв. №237. –Б.42.

мисрасидаги “گوش” сўзи матнда тушириб қолдирилган ва кейинчалик мисранинг юқори қисмига котиб томонидан тузатиш сифатида киритилган.

Шоир ғазалларидан бирининг матлаъсида ҳам шу каби тузатиш кузатилади:

قدينگ نخل باغ نزاكت مينگا

[6] قاشينگ شكلى تيغ شهادت مينگا

Биринчи мисрадаги “نخل” сўзининг юқорисида нусха маъносидаги “ن” белгиси қўйилган ва ҳошияда “نخلى” сўзи келтирилган. Бу ўринда котиб сўзнинг форсий изофани қабул қилган ҳолда ҳам, эгалик қўшимчаси билан келган ҳолда ҳам тугал мазмун касб этишига ишора қилган. Дастлабки ҳолатда “Қадинг мен учун назокат боғининг ниҳолидир”, иккинчи ҳолатда эса “Қадинг ниҳоли мен учун назокат боғидир” деган дақиқ маъно англашилади.

Тошкент нусхасида бир сўзнинг ўрнига унга маънодош ёки оҳангдош бўлган сўзнинг қўлланиши кўплаб учрайди. Масалан,

اولكيم ضميرى پاک دور آئنه ديک مدام

[7] يتماس انكا كدورب ارباب كينه لار

Байтидаги ажратиб кўрсатилган сўз 922, 1025, 1949 рақамли қўлёзмалар ва биринчи тошбосмада “софдур”, 1119, 1035, иккинчи тошбосма ва Тошкент нусхасида “покдур” тарзида қўлланган. Ҳар икки сўзнинг қўлланиши ҳам мантиқан тўғри (Бироқ жорий нашрда бу сўз ҳеч қандай луғавий маъно англатмайдиган “совдур” шаклида шаклида табдил қилинган).

Айрим сўз ёки жумлалар эса манбаларда бир неча шаклда келади. Масалан, қуйидаги байтга диққат қиламиз:

كوزونگ خادو ازونگ آهوو مشكين جاللرينگ هندو

[8] قدينگ‌سروُجرامينگ چون تَزرَومقدمينگ ميمون

Ажратиб кўрсатилган сўз 922, 1025, 1949, 1119 ва иккинчи тошбосмада “Кўзунг оҳу, ўзунг жоду”, биринчи тошбосмада “Ўзунг жоду, кўзунг оҳу”, Тошкент нашрида “Кўзунг жоду, ўзунг оҳу” тарзида келади. Бирикмалар ўрнининг ўзгариши инобатга олинса, дастлабки икки ҳолатда мазмун фарқ қилмайди. Мумтоз адабиётда маъшуқанинг оҳуга қиёсланиши, кўзнинг соҳирлик табиатига эга экани сўнгги ҳолат тўғри деган хулосага олиб келади.

Бу каби манбалараро матний вариантлилик мухаммаслар матнида ҳам учрайди. Биргина мисол:

ليكن هواو نفس دين آزاد ايلابان

قيلدينگ عبادت امريني اهل سخاغه خاص

Девоннинг Тошкент нусхаси матни оид сўзлар таҳририни ҳам икки гуруҳга ажратиш мумкин. Биринчидан, ёнма-ён келган сўзларнинг ўрин алмашиши, иккинчидан, бир сўзнинг ўрнига унга маънодош ёки оҳангдош бўлган сўзнинг қўлланиши. Хаттотлик санъатида бир мисрада келган сўзларнинг ўрни алмашганда котиб томонидан ушбу сўзлар устига ج ва م ҳарфлари (م – муқаддам; ج – охир) шаклидаги белгини қўяди ва уларнинг ўрни алмаштириб ўқилишига ишора қилади[1]. Масалан, нашрдаги наът ғазаллардан бирининг 10-байти қуйидагича:

دين اسلام اساسى يوق انگا الچه مؤسّيس

كيمكه وحدت اوقوبان كليماتين ديماسه اشهد [2]

Нашрда “ўқубон” сўзининг тепа қисмида خ, “калимотин” сўзининг юқорисида م қўйилиб, уларнинг тартибига тузатиш киритилган. Бошқа манбаларда “نيتاميلک ناب‌وق‌وا” тарзида тўғри берилган.

Шу каби тузатиш “Ичкали очтим лабингдин бодаи гулфом фам” деб бошланувчи ғазалнинг 5-байтда ҳам кузаатилади:

مضطرب دور جان قوشى بسكيم جسم ايچرا ايلاميش

كلشن كويونگ هواسيدين انگا آرام رم [3]

Бошқа манбаларда ажратиб кўрсатилган сўзлар “جسم ايچرا بسكيم” тарзида тўғри қўлланган. Умуман, ғазалнинг вазн хусусияти ҳам шу тарзда қўллашни тақозо қилади. Бу каби ҳолат ғазаллардан ташқари қасидалар матнида ҳам кузатилади. Саййид Муҳаммад Баҳодирхонга бағишланган қасиданинг бир байти тошбосмада қуйидагича:

طبع فيّاضينگ‌دورور فصاحت كوييا

كيم تكلم چاغى ايللار ظاهر الفاظينگ دُرَرْ [4]

Ажратиб кўрсатилган сўз бошқа манбаларда “ظاهر ايللار” тарзида қўлланган.

Тошбосма матнига оид жиҳатлардан яна бири – котиб томонидан киритилган тузатишлардир.

محافلدا طنبورو قانون اونى

[5] قيليب هر كيچه گوش گردوننى كر

Муҳаммад Раҳимхонга бағишланган масснавий-қасидадан олинган мазкур байтнинг иккинчи

[1] Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Илмий-танқидий матн. Тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент, 1956. –Б.11.

[2] Девони Мавлоно Комил маа таворихи шоҳони Хоразм. Тошбосма. ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди, Инв. №237. – Б.27.

[3] Ўша манба. –Б.65.

[4] Ўша манба. – Б.105.

[5] Ўша манба. – Б.6.

[6] Ўша манба. – Б.5.

[7] Ўша манба. – Б.34.

[8] Ўша манба. – Б.72.

بنده سن واجب ايرور تنگريغه خذمت قيلغونگ
ترک ايتيب نهيني امريغه اطا عت قيلغونگ
نی اسيغ عمرينگ اوتوب سونگرا ندامت قيلغونگ
بار ايتيبدور سينی حق تاکه عبادت قيلغونگ
اونوتوب سين آنی غفلت بيله توتما آرام [1]

Иккинчи тошбосма ва Тошкент нусхасида “бор этибдур”, 1949, 1119 рақамли қўлёзмаларда (Рожий ғазалида ҳам) “ёротибдур”, 922, 1025 рақамли қўлёзмалар ва биринчи тошбосмада “яротибдур”, 1035 рақамли қўлёзмада “ёд этибдур”. Табиийки, бунда иккинчи шаклдаги сўз (*ёротибдур*) тўғри. Аввало, мухаммас учун асос бўлган ғазал матни сақланган. Қолаверса, матндаги тугал мазмун шу сўзни қўллашни тақозо қилади: “Ҳақ таоло сени яратган экан, унга ибодат қил, Уни унутиб ғафлат билан ором тутма”.

Мумтоз асарлар матнидаги турли таҳрирлар бир қарашда кўзга кўринмаслиги мумкин. Бироқ айрим турдаги асарларнинг шаклий хусусияти турли ноўрин “таҳрир”ларни фош этади. Хусусан, мувашшаҳ ғазалларда байтлар ўрнининг ўзгариши ижодкор қўллаган бадиий санъатни йўққа чиқаради. Комил “Нечук шаҳло кўзу не навъ рухсори мусаффодур” деб бошланувчи ғазали 11 байтдан иборат. Ғазал тоқ мисраларининг бош ҳарфларидан “Насриддинжон” исми келиб чиқади. Унда 8-байт қуйидагича:

نثار راهينگ ايلارگا خرام ايتسانگ مقاميم غه
سرشکيم بهری ايچرا دُر بيله گوهرمهيادور [2]

Ушбу ғазал ўрин олган барча манбаларда юқоридаги байт мақтаъдан олдин келган ва мувашшаҳ қонунияти бузилган. Тошкент нусхасида эса мазкур нуқсон кузатилмайди. Бизнингча, бу котибнинг жанр табиатини яхши билгани ҳамда истеъдодли мувашшаҳнавис шоир (Сидқий Хондайлиқийнинг ўзи ҳам ўнлаб мувашшаҳлар яратган) экани билан боғлиқ.

Умуман, бугунга қадар Комил Хоразмий лирик меросининг айрим намуналари турли тўпламларда, “Танланган асарлар”, жорий имлода (қисқартирилган ҳолда) “Девон” кўринишида чоп этилган бўлса-да, шоир ижодининг катта қисми ўқувчиларга номаълумлигича қолмоқда. Бу эса жорий имлода шоир асарларининг мукаммал нашрларини амалга ошириш заруриятини кўрсатади. Бунда шоир девони қўлёзмалари билан бир қаторда Тошкент тошбосма нусхаси ҳам қимматли манба бўлиб хизмат қилади.

Resume. In the article, the texts of the poems from the two lithographs published in Khiva and the manuscript copies of the lithograph published in Tashkent are compared. At the same time, the texts in the Tashkent lithograph of the Divan were compared with the poems from its edition in the current spelling.

Резюме. В статье сравниваются тексты стихов с двух литографий, изданных в Хиве, и рукописных копий литографии, изданных в Ташкенте. При этом тексты ташкентской литографии дивана сопоставлялись со стихами из ее издания в действующей графики.

[1] Ўша манба. – Б.41.
[2] Ўша манба. – Б.33.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ЭРКИН ВОҲИДОВ ИЖОДИДА МАЪНАВИЙ МЕЗОН ҲАМДА ЖАНРИЙ ИНТИЗОМ

Балтаева Замира Шаназаровна,
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети
ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти в.б.

XX аср поэтик идроки шаклланиши ва тараққиётида Эркин Воҳидов адабий мероси салмоқли ўрин тутади. Ўқ илдизлари асрларга туташ адабий анъаналарни умуминсоний қадриятларга пайвандлаган шоир ижоди миллий назм ҳалқасини мунтазам янги тажрибалар билан бойитди. Рангин поэтик ғоя, шакл ва мазмунни муттасил янгилаш майли, бадиий таҳлилда изланиш ҳамда тадқиқот синтези, сўзнинг руҳиятга таъсир қувватини англаш ва тасвирни маромига етказишга интилиш соҳир шеърият табиатини белгилайди. Унинг яшовчанлик омилларини ижодий дунёқараш хосланганлик даражасидан, ижтимоий-тарихий муҳит қувватидан ва бадиий-эстетик эҳтиёж тақозосидан ахтариш мақсадга мувофиқ саналади. Шахс туйғуси реалистик манзарасини қайта тиклаш жараёнида шоир ҳам мумтоз адабиёт, ҳам жаҳон бадиий сўз санъати анъаналаридан самарали фойдаланади. Шоир адабий маҳорати, энг аввало, ҳам бармоқ вазнида, ҳам аруз вазнида ижодий имкониятларни янада кенгайтирганлигида намоён бўлади. Поэтик ғояни ғоят ёрқин ва ҳаққоний ифодалаш, туйғуни моддийлаштириш ҳар бир ижодкор адабий талқинида ўзгачаланади.

Бадиий умумлашма ифода қудратини теран ҳис қиладиган Эркин Воҳидов услубий-шаклий изланишларида ижтимоий-руҳий бутунлик кўзга ташланади. Шеърият дунёсига "тонг нафаси"ни олиб кирган шоир адабий талқини, аввало, ғоявий чизиқлар уйғунлиги ва зиддияти, тасвир ёйиқлиги ва ифода аниқлиги, жанрий ранг-баранглиги ва тематик оригиналлиги билан эътиборни тортади. Шакл ҳиссий тусланиши ва маъно юришлари яхлитлиги аслида муаллиф ижодий дунёқараши табиатини далолатлайди. Мумтоз адабиёт анъаналаридан сув ичган, жаҳон илғор поэтик тажрибасига ҳамоҳанг лирик ифодада ташбеҳ нозик жилолари қабариб кўринади. Унда тасвир ва тасаввураро муносабатли нутқ таҳлил малакасини бошқаради:

Хароб кулба,
Ва бир парча ер,
Атрофига тутилган четан.
Умр бўйи бобом теккан тер
Қилгунича шу ерни ватан[1].

Ифодада бутунлик ва тасвирда аниқлик асосига қурилган "Ватан" шеърида шоир ҳаётий манзарани муайян эстетик марказга йиғади. Ҳар бир тафсилот нисбатан мустақил, айни пайтда, ижодкор фитрати яхлитлигини ҳам таъминлайди. Тўғрироғи, бир-бирини тўлдирувчи воқеабандлик образ қатимида марказлашади. Романтик бўёқдорликдан ҳоли, ҳаётий-мантиқий чизгилар асосига қурилган лавҳада ижтимоий моҳият соддалашади. Ватан ҳисси – киндик қони тўкилган тупроқдан ибтидоланади. Унинг улуғворлиги ва боқийлиги шунда! Муаллиф сўз воситасида манзарани сувратлайди. "Шу ер – ватан" таъкиди таъриф таржимаи ҳолини белгилайдиган асосий омил:

Гапларини эшитдим элас
Бобо дерди неварасига:
-Синиқ кулба эди, сен билмайсан
Шу бинонинг ўрни – мен туғилган жой,
Кўзимга кўп иссиқ кўринар,
Киндик қоним томган, ҳойнаҳой[2].

Абдулла Орипов "Киндик қони тўкилган жой" (1960) шеъридан ибтидо олган мавзу Эркин Воҳидовнинг "Ватан" манзумасида мантиқан давом этади. Иккала адабий талқинни воқеабандлик бирлаштиради. Агар биринчи поэтик лавҳада бобо ва набира мулоқоти ифодани ҳиссий идрок авж пардасига кўтарса, иккинчи шеърий дунёқарашни тасвир миқёси бошқаради. Руҳий оҳангдошлик асосига қурилган муҳокамада қўлланилган бадиий макон ҳам (хароб кулба-синиқ кулба) бир-бирини тўлдиради. "Бобо тупроғидан бино бўлган жой" – Ватан! Уни ҳар қандай хазинага алмаштириб бўлмайди! Соғинч туйғусида шу ҳақиқат яна такрорланади.

Хаёлий тасаввурлар ва ҳаётий тафсилотлар қоришиб кетадиган шоир лирикасида шакл-мазмун-моҳият учлиги баъзан таҳлил қуюқлашувига кенг йўл очади. Маъно сиғимини поэтик идрокда янгилаш ҳамда қайта баҳолаш унинг табиатини далолатлайди. Айнан инсон руҳиятини теранроқ

[1] Воҳидов Э. Шеър дунёси. –Тошкент: Шарқ, 2001. –Б. 75.
[2] Орипов А. Адолат кўзгуси. – Тошкент: Адолат, 2005. – Б. 45.

англаш реалистик тасвир қамровини кенгайтиришни тақозо этади. Жорий ҳолат ифода тежамкорлигини мушоҳада нозиклигига пайвандлаш учун замин ҳозирлайди. Ижод малакасида ўй-хаёл-идрок қуйма романтик кайфият реалистик асосларини тавсифлайди. Аслида шахсият ва шеърият бир-бирига эгизак тушунчалар, дунёқарашдан кўнгилга кўчган идрок сезгисида маслак, эътиқод, мақсад ва аъмол бутунлашади, “Шоир ҳаётининг давоми” (Баҳодир Карим) манзумада маромига етади. Маънавий-ахлоқий ва ижтимоий-руҳий қарашлар ижодкор фитратида оригиналлашади. Аниқроғи, сўз, ижод ҳамда эътиқодни тасвирда марказлаштириш орқали асл туйғу майдонга келади:

Ёруғ дунё бор зиёсин тенг,
Тақсим этган кеча, кундузга.
Нур етмай тун, уни –
Сочди ойга, минглаб юлдузга[1].

Мумтоз шеърият анъаналарига ҳамоҳанг бадиий шакл нафосатини тайин этиш, ҳаётий ақидага сингдирилган мазмунни теранлаштириш ҳамда мушоҳада мантиқий тараққиётига интилиш оҳорли тасвирда маромига етади. Муаллиф услубига хос моҳиятни қаршилантириш йўсини (кеча-кундуз) идрок яхлитлигига замин ҳозирлайди: “ёруғ дунё” ўз ҳиссасига теккан зиёни кеча ва кундузга баробар тақсимлайди, нур қадрига етмаган “тун” уни ой ва юлдузларга сочади, “кундуз” эса “биргина қуёш” яратади.

Чинакам санъат ҳаёт ҳақикатини бутун зиддиятлари билан англаш, ҳиссий идрокда таҳлиллаш, бадиийлик мезонлари ёрдамида қайта баҳолаш, ифодани туйиш ва моҳият инкишофига хизмат қилади. Узлуксиз кечадиган жараёнда ижодкор воқеликни поэтик тадқиқ этиш даражаси ва фалсафий концепцияси ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Эркин Воҳидов лирикаси жорий ўлчамларга мувофиқлиги билан тафовутланади. Шеърий дунёқарашга хос ифода мустақиллиги инсон ҳамда борлиқ муносабатлари мураккаблигини эстетик танловда жилолантиришга замин ҳозирлайди. Туйғуни зиддият ва уйғунликда теранлаштиришга интилиш унинг табиатини белгилайди. Ижод фалсафасини тадрижий йўсинда ривожлантириш, мушоҳада залворини мантиқий урғулаш ҳамда ижтимоий-руҳий талқин қамровини кенгайтириш истаги муаллиф услубий-шаклий изланишлар давомийлигини бошқаради:

Боши эгик, бесўз, беисён
Юрагингда макон тутган қул[2].

Шоир мутелик кайфияти тасвирини сувратлар экан, шафқатсиз ифода ва шартаки ғоя яхлитлигини таъминлайди. “Юрагингда макон тутган қул” – қўрқув ҳисси инсонни абгор қилади. “Боши эгик, бесўз, беисён” туйғу бутун руҳиятни эгаллаб олса-чи? “Қуллар ичра энг бечораси” наҳот заифлик белгиси бўлса? Муаллиф одатий тасдиқ-инкор усули (қўрқув-ирода) ёрдамида муҳим ижтимоий фожеа даражасига кўтарилган иллатни тасвирда далолатлайди. Унда кескинлик, дағаллик ва холислик ифода мантиғини марказлаштиради.

Шеър фалсафаси Шавкат Раҳмон ижодий тамойилига айланаёзган “Ўлдир, ичингдаги хоинни ўлдир!” сатрини ёдга солади. Инсон маънавий дахлсизлиги, эрк туйғусини синдирадиган тушунча тавсифи ҳар бир шоирда ўзгачаланади. “Озодлик шиори” (Ҳ.Олимжон) даражасига кўтарилган шахс руҳияти ҳамиша эркинликка интилади. Аслида мустақиллик ва эътиқод ҳисси бир-бирига ҳамоҳанг! Одамзод шуурини банд этадиган кўникиш сезими ва “қуллик” мантиғи даҳшатли фожеалар ҳосил қилади. Шоир миллат қувват-ҳофизасига ҳукмрон қўрқув сезгисини беришда тугалликка эришади. Жорий ҳолатда ҳар бир сўз, ҳаракатдаги поэтик чизги мушоҳадани мантиқан асослаш учун хизмат қилади. “Инсон юрагида макон тутган қул” – маънавий таназзул ибтидоси! Унда манзарага омухталашган руҳият таҳлили жилоланади. Маъно юки қамрови эстетик муносабат позитивлигини белгилашга имкон яратади.

“Менимча, анъанавийлик ўз ичига кўп тушунчаларни олади. Масалан, ғоявийлик, образлилилк, мантиқий изчиллик, ички мантиқийлик ҳам аънанага киради. Умуман, шеъриятнинг киши калбига яқинлиги, инсон дарди, ҳасрати, қувончи ифодаси экани ҳам анъанавий ҳодиса. Демак, анъанадан кочиб бўлмайди. Шаклдаги, оҳангдаги изланишлар эса ҳамиша мавжуд бўлган. Янги-янги ифода шаклларини излашнинг ўзи ҳам анъана”[3] – ёзади шоир. Иқтибосда бир нечта жиҳат эътиборни тортади: биринчидан, анъана ва янгилик ўртасида жиддий тафовут мавжуд эмас, иккинчидан, шеър – кўнгил ифодаси, учинчидан, чинакам истеъдод ҳар хил поэтик андозаларга тушмайди, тўртинчидан, бадиий изланишлар шакл ва оҳанг кесимида маромига етади.

Руҳий ҳолат ва кайфият ифодасини мусаввирона чизишга мойил Эркин Воҳидов ижоди миллат маданияти, маънавияти ҳамда маърифати тарихида мустаҳкам ўрин эгаллайди. Янгича услубий-шаклий изланишлар давомати, жўшқин ифода услуби, юксак истеъдод даражаси, теран поэтик идрокка таянадиган тасвир йиғиқлиги ва

[1] Кўрсатилган адабиёт. – Б. 90.
[2] Кўрсатилган адабиёт. – Б. 93.
[3] Воҳидов Э. Шоиру шеъру шуур. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 18.

оҳори тўкилмаган фалсафий умумлашмаси билан қарийб олтмиш йилдан буён китобхонлар меҳрига сазовор бўлган соҳир шеъриятда ажиб бир эстетик ҳарорат устувор. Ранг, оҳанг ҳамда мушоҳада омухталашган ижод ўқ илдизлари миллий мумтоз адабий анъана, шарқона тамсил қувват-ҳофизаси ва жаҳон сўз санъати тажрибасига пайвандланади.

Resume. In the article, in the work of E.Vahidov, the renewal reflected in the aesthetic ideal of the leader, who tends to search and analyze the social roots of the soul and individual needs, creates reforms in the form and content, image and ideological system. Striving for creative independence in literary thinking is the author's main aesthetic food. The skill of creating a high artistic generalization, the expressiveness of expression and the richness of allegories define creative individuality.

Резюме. В статье в творчестве Э. Вахидова обновление отражено в эстетическом идеале лидера, который стремится к поиску и анализу социальных корней души и индивидуальных потребностей, создает реформы в форме и содержании, образно-идеологическом система. Стремление к творческой самостоятельности в литературном мышлении - главная эстетическая пища автора. Мастерство создания высокого художественного обобщения, выразительность выражения и богатство аллегорий определяют творческую индивидуальность.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ШЕКСПИР ИЖОДИ ВА МИЛЛИЙ АДАБИЁТ

Намозова Саодат Бахтиёровна,
Қарши давлат университети лингвистика кафедраси ўқитувчиси

Бадиий адабиётнинг тараққиёти ҳам асрлар фонида янада теранлашади. Истеъдод соҳиблари томонидан яратилган ўнлаб асарларнинг бадиий мўъжизакорлиги, бошқа халқлар анъаналарига ҳам ўзининг ижодий таъсирида намоён бўлади. Шунинг учун Вильям Шекспир ижодига қизиқишнинг ортиши бошқа халқлар адабиётида кузатилгани каби, ўзбек бадииятига таъсирида ҳам алоҳида қайд этилган. Адиб асарларининг ўзбек тилига таржима этилиши, унинг моҳиятини англашга бўлган интилиш, буларнинг замирида, табиийки, ижодкорнинг поэтик маҳорати мужассамлашган. Таҳлилий қарашлар шуни кўрсатадики, адиб асарларида илгари сурилган тушунчалар ва талқинлардаги ифодавийликнинг турличалиги, унинг моҳиятини англашга бўлган интилишни кучайтирди. Шекспир ижоди жаҳон бадииятига қай даражада юксак таъсир этган бўлса, ўзбек адабиётига ҳам худди шундай таъсири кўрсатдики, бу эса драматик асарлардаги инсон қисмати, унинг жамият, табиат билан бирликдаги қарашларини юксалтириб келди. Тушунчалар замиридаги талқинлар инсон концепциясига бўлган қарашларни, талқинларни, замирида ҳаёт ва шахс бирлигини англашга бўлган талқиний ўзгаришларни намоён этди. Ўзбек адабиётшунослигида таржимашунослик назариясининг асосчиси буюк мутафаккир Ғайбуллоҳ ас-Салом шундай ёзади: "Ҳар бир ижодкорнинг қисмати, агар у чин шоир, ёзувчи ёки драматург ўлароқ, тақдирини ўз халқининг тақдири билан боғлаган бўлса, ҳеч қачон осон кечмаган. Улар ўз асарларида тарих ва замонасининг чигал масалаларини қаламга олган, Ватан ва халқнинг дил армонларини куйлар эканлар, - муҳит ва атрофдаги баъзи бировлар буқаламун бўлганида (бундай вазиятлар ҳам учраган), - хоҳ Абдулла Қодирий, Чўлпон, Усмон Носир бўлсин, хоҳ Ойбек, Миртемир, Мақсуд Шайхзода, Мирзаколон Исмоилий, Шуҳрат, Тўхтасин Жалол ёки Миркарим Осимни олайлик, адибларимизнинг ижодий фаолияти атрофида тушунмовчиликлар ҳам бўлиб турган. Бундай муносабат, аслида, даврий такрорланиб туришига қараганда, афсуски, тасодифий ҳам бўлмаса

керак”[1]лигини қайд қилган эди. Ана шундай тарихий мураккаб шароитларда ижодкорларнинг таржима билан шуғулланиши, таржима асарлар орқали қалбидаги туғёнларни олиб чиқиш имкониятларидан унумли фойдаланганлигини алоҳида таъкидлайди.

Жаҳон адабиётидаги таржималар ўзбек адабиётидаги ўзига хос ранг-баранглик билан бир қаторда ҳаётдаги зиддиятларни, унинг сабабаларини англаш имконини кенгайтирганлигини ҳам таъкидлаш жоиздир. Ижодкорларнинг бадиий маҳорат сирларини, ҳар қандай воқелик талқиндаги қарама-қаршиликларни теранроқ таржима асарлар орқали ифодалаш йўлларини танлаганлиги ҳам бежиз эмас. Чунки турли халқлар адабиётидан ўрин олган нодир асарларни таржима қилиш, халқимиз маданий ҳаётида ҳам ўзига хос қарашларни шаклланиши учун асос бўлган. “... бадиий таржимачилик иши уларга ҳам моддий, ҳам маънавий, ҳам улкан тарбиявий мадад бўлган. Бунда улар В.Шекспер, Ф.Шиллер, Н.В.Гогол, А.С.Пушкин, М.Ю.Лерментов, Л.Н.Толстой, В.В. Маяковский, М.Горький, А.Исаакян асарларини кўпроқ таржима қилишга юзланишган, даврнинг юксак масалалари, хаста виждони ва муштарак дил изтиробларини рус ёзувчиларининг иродаси билан, уларнинг номидан изҳор этишган. Шу йўсинда жаҳон, рус, мумтоз ва янги давр адабиёти, қардош халқлар адабиётлари улар учун фақат ижодий мактаб эмас, балки катта тарбия, мадад, ибрат ва маҳорат манбаи эди. Улар муайян мавзуда нега, қачон, қандай ёзиш ёки ёзмаслик кераклигини кўрсатувчи бамисоли машъала, жонли тимсол эди”.[2] Асосли таъкидланганидек етук сўз санъаткорларининг асарларини таржимаси орқали, таржимон қалб қаридаги изтиробларини бадиий таржима асарлар орқали талқин этиши ҳам бежиз эмаслигини теранроқ англаймиз.

Шекспир драматик асарларининг моҳиятида инсонни англаш, ҳаёт ва шахс, шахс ва жамият ўртасидаги зиддиятлар асосида янада теранроқ кашф этилган. Барча даврларда ҳам бадиийлик қонуниятига кўра шахс маънавий оламини талқин этишдаги умумийлик тушунчаси, шахс характер қирраларини бадиий талқини билан изоҳланган ва шу жиҳатдан қарашларнинг шаклланишига диққат қилинган.

Шекспир ижодининг ўзбек адабиётидаги ўрни ҳақида сўз юритган адабиётшунос олима шундай ёзади: “Шекспир номи “Туркистон вилоятининг газети”да тилга олинган, “Шўро” газетасида эса унинг асарларидан парчалар Абдулла Тўқай таржимасида берилганлигини қайд этади.[3] Илк таржималар, улардаги ифода шакллари двар адабиётига ҳам ўз таъсирини ўтказганлиги, бу эса адиб ижодига, унинг драматик асарларига бўлган қизиқишни ошишига ҳам имкон яратган. Истеъдодли ижодкор Чўлпон эса П.А.Каншиннинг русча таржимаси асосида “Ҳамлет” трагедиясини ўзбек тилига ўгирган. Ўтган асрнинг 30 йилларидаёқ бундай таржималарнинг шаклланиши драматик асарларга бўлган эҳтиёж туфайли юзага чиқа бошлаган.

А.Саидов қайд қилганидек: “1935 йилда “Ҳамлет” ўзбек саҳнасида Маннон Уйғур томонидан қўйилиб, неча минглаб тамошабинлар қалбида муҳрланган. Мазкур асар биргина уларга эмас, театрнинг барча ижодкорларида ҳам қанчалар чексиз ҳис-ҳаяжонлар уйғотганига бош ролни ижро этган Аброр Ҳидоятовнинг “Ҳамлет” йигирма еттинчи тамошасида саҳнада ҳушидан кетиб, фақат шифохонада ўзига келганлиги ҳам ёрқин мисол бўла олади”.[4]

Бундан англашиладики, Шекспирнинг драматик асарлари саҳна асари сифатида ҳам тамошабинларда жуда катта қизиқиш уйғотган. Ўтган асрнинг қирқинчи йилларигача унинг бир қатор драматик асарлари ўзбек тилига ўгирилган эди. Агар тарихга назар ташлар эканмиз, 1939 йилда Воҳид Зоҳидов “Ҳамлет”ни таржимасига киришган бўлса, 1940 йилда Ғафур Ғулом “Отелло” трагедиясини, 1956 йилда эса “Қирол Лир”ни рус тилидан ўзбек тилига ўгиради. Ўзбек адабиётининг катта дарғаларидан бири Ғафур Ғулом таржима давомида Шекспир анъаналарини сақлашга, асарларидаги фалсафий талқинларни қайта жонлантиришга, энг асосийси ижодкор таржимон сифатида маҳорат билан ўзбек тилига таржима этади. Таржима давомида адибнинг жаҳон адабиётидан озиқланиши, ҳатто кейинги насрий асарларидаги талқинларга ҳам сезиларли таъсир этганлигини қайд қилган. Ғафур Ғулом Шекспир асарларининг таржимасига шу даражада маҳорат билан ёндошадики, бу эса ўз она тилида адиб руҳиятини, асарларининг моҳиятини бера олганлик билан изоҳланади. Шунинг учун ҳам бир қатор ижодкорлар, файласуфлар, таржимонлар Ғафур Ғуломнинг таржимаси ҳақидаги қарашларни қайд этганлигини кузатиш мумкин. “Ғафур Ғулом ўз таржималарида В.Шекспир асарларининг драматик руҳи ва фалсафий моҳиятини усталик ила талқин

[1] Ғайбуллоҳ ас-Салом. Асарлар. Эй умри азиз. 1-китоб. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 129-130.

[2] Ғайбуллоҳ ас-Салом. Асарлар. Эй умри азиз. Биринчи китоб. – Тошкент, Шарқ, 1997. – Б. 130.

[3] Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда.Монография. – Тошкент, Фан, 1978. – Б. 5.

[4] Саидов А. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020. – Б. 412.

этиш билан бир қаторда ўз таржималарида мақол, матал ва қочириқларни аслиятга мумкин қадар ҳамоҳанг тарзда ифода эта олган. У “Қирол Лир”ни ўн уч ҳижоли бармоқ вазнида ўзбекчалаштирган”.[1]

Адабиётшунос Сувон Мелиев таъкидлаганидек: “Инсон табиат ҳодисалари билан ёнма-ён, табат қонунларига бўйсуниб яшайди. Табиат ҳодисалари бадиий асарда тасвирланар экан. муайян мақсадга бўйсиндирилади ва албатта, поэтик вазифа бажаради. Асар бадиий жиҳатдан қанча юксак, ижодкор кўзлаган ғоя қанча теран бўлса, табиий ҳодисалар тасвири шу қадар ёркин ва таъсирдор бўлади. Унинг миқёс кўлами шу қадар улканлашади”.[2]

Шекспирнинг барча асарларидаги образлар тизимига назар ташлар эканмиз, телбаларча ҳаёт кечирувчилар, содда, аммо, айёр кимсалару-, масхарабозларнинг бадиий сиймоси етакчилик қилишини кузатамиз. Адабиётшунос Узоқ Жўрақулов қайд этганидек, “...персонажлар аро муносабатлардаги номутаносибликлар, ҳаракат ва нутқ жараёнидаги мантиқсизликлар, сюжет чизиғида кузатиладиган фавқулодий узилишлар ўқувчида гоҳ ҳайрат, гоҳ тушунмовчилик, гоҳида жиддий эътироз уйғотади. Бу муаммога жаҳон бадиий тафаккур эгалари томонидан турлича талқин бериб келинаётгани ҳам кўпчиликка маълум. Аммо, шунга қарамасдан, буюк драматург ижодининг мазкур жиҳати жаҳон шекспиршунослиги олдида ҳамон жумбоқлигича қолаётганлигини”[3] алоҳида таъкидлаб, адиб асарларидаги поэтик образларнинг ўз олами, ички зиддиятлари теран талқин қилинганлиги ҳам жаҳон адабий-танқидчилари қарашларини турлича шаклланганлигига диққат қилади.

Шекспир ижоди ҳақидаги турфа хил қарашларнинг майдонга келишида ҳам, ижодкорнинг олами ва инсонни англашдаги хилма-хилликлар ҳам асос бўлиб хизмат қилганлигини алоҳида қайд этш лозим. Асрлар давомида турли мулоҳазаларда Шекспир ижоди асосида инсон ва унинг фожиали тақдири мавжудлигига урғу берилган бўлса-да, Л.Н.Толстойнинг “Шекспир ва драма тўғрисида” мақоласида адиб драмаларидаги талқинлар, ундаги образлар оламининг бир ёқламаликлари, талқиндаги руҳий-маънавий оламдаги эврилишлар, қалб диалектикасини асосли ёритилмаганлигини алоҳида қайд этадики, бу эса адиб ижоди ҳақидаги қарашларнинг энг мураккаб жараёнлари ҳақидаги баъзи қарашларни бутунлай инкор этишини ҳам эътироф этиш ўринлидир. Биз адиб ижоди ҳақидаги қарашларни таҳлилий ёндошувларни турлича эканлигини, аммо ўзбек шекспиршунослиги бундай қарашларга жиддий муносабат билдирмаганлигини таъкидламоқчимиз, холос.

Л.Н.Толстойнинг ўз қарашлари, мулоҳазалари борлигини, адиб ижоди ҳақидаги бу тушунчалар ўзбек китобхонини ҳам фикрлашга мажбур қилиши мумкинлигини инкор қилмаган ҳолда, адабиётшунос олим У.Жўрақуловнинг қуйидаги мулоҳазалари билан якун ясамоқчимиз. “Зотан, сўз салтанатининг икки номдор паҳлавони ўртасида кечган бу курашга бефарқ қараш мумкин эмас. Айни пайтда, уларга ҳакамлик қилиш ҳам ўринсиздек… Толстой мақоласини маҳорат билан ўзбекчага ўгириб, унга мухтасар сўзбоши ёзган профессор Озод Шарафиддинов (у кишини оллоҳ ўз раҳматига олган бўлсин) шундай мулоҳазаларни баён қилади: «Толстой мақоласини қабул қилганлар ҳам бор, аммо уни кескин рад этганлар ҳам анчагина. Лекин, қандай бўлмасин, шу пайтга қадар дунёда ҳали бирон киши Толстой мақоласини чуқур далиллар билан, асосли равишда ишонарли қилиб рад этгани йўқ». Домланинг ушбу сўзлари негизида ўжар далиллар ётибди. Далилга таянган ҳақиқатни эса инкор этиш мумкин эмас”.[4]

Турлича қарашларнинг мавжудлигининг объектив ва субъектив сабабалари бўлиши, табиий. Аммо биз қайд қилаётган тушунча, ўзбек шекспиршунослигидаги қарашларнинг ҳам турлича эканлигини таъкидлашдан иборатдир.

Узоқ йиллар давомида таржима асарларнинг асосий қисми иккинчи тилдан таржима қилинган. Таржима жараёнида бадиий асарларнинг ифода шакли, матндаги ҳар бир образ ва иборанинг қандай шаклда воқеликни намоён қилиш жараёнларига диққат қилинишини талаб этади. Етук исеъдод соҳибларининг асарларини таржима қилиш анъанаси ўтган асрнинг ўттизинчи йилларидан бошланган. Бу таржималарда ижодкорнинг бадиий маҳорати билан узвий бирликда унинг қарашларига ҳамоҳангликда ҳам намоён бўлиши билан боғлиқдир. Шу жиҳатдан олиб қаралса, Шекспирнинг асарларини илк ўзбек тилига таржима этган Абдулҳамид Сулоймон ўғлидир. Адиб 1934 йилда “Ҳамлет”ни ўзбек китобхонига таништирди. Кейинчалик бу асарни бир қатор адиблар, ижодкорлар ўзбек тилига қайта таржима қилганлигини ҳам эътироф этиш зарур.

Истеъдодли шоир, носир, таржимон Ғафур Ғулом, Уйғун, Мақсуд Шайхзода, Воҳид Зоҳидов

[1] Саидов А. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020. – Б. 413.

[2] Мели Сувон. Сўзу сўз. “Адабиёт фалсафаси”га чизгилар. – Тошкент: Шарқ, 2020. – Б. 61.

[3] Жўрақулов У. ... Телбага йўқдур қалам // Шарқ юлдузи, 2010. 4-сон. – Б. 48.

[4] Жўрақулов У. ...Телбага йўқдур қалам // Шарқ юлдузи, 2010. 4-сон. –Б. 49.

каби ижодкорлар томонидан Шекспернинг “Отелло”, “Қирол Лир”, “Гамлет”, “Ромео ва Жульетта”, “Юлий Цезарь” каби қатор драматик асарлари ўзбек тилига таржима қилинди. Ана шу жараён кейинчалик ўзбек шекспиршунослигининг тамал тошини майдонга келишига асос бўлди. Ҳаттоки, “Қийиқ қизнинг қуйилиши”, “Ўн иккинчи кеча ёки турфа ҳангомалар”, “Вероналик икки йигит” комедияларининг Туроб Тўла, Ҳамид Ғулом, Уйғун томонидан ўзбек тилига ўгирилиши, ўзбек драматик асарларининг кенгайишига имкон яратди. Чунки таржима асарларнинг майдонга келиши, бир қатор адибларнинг бу жанр тараққиётига улкан ҳисса қўшишига замин тайёрлади. Ижодий анъаналар натижасида Мақсуд Шайхзоданинг “Мирзо Улуғбек” трагедияси, Уйғун ва Иззат Султонларнинг “Алишер Навоий” каби бир қатор драматик асарларни яратилиши билан изоҳлаш мумкин. Жаҳон адабиётининг нодир дурдоналарини таржима этиш жараёни, шундай характердаги асарларнинг янада тараққий этишига ҳам маълум даража асос бўлган. Ўзбек адабиётида вужудга келган драматик асарларнинг маълум бир қисми асосида бу тушунчани асослаш мумкин.

Адабиётшунос Озод Шарафиддинов қайд қилганидек: “Шекспир даҳо санъаткор эди – у ўз асарларида инсониятнинг мангу муаммоларини, жамиятни жамият қилиб турган асосий устунларни яхши илғаб олган ва ҳар бир асарида уларни бетакрор самимият ва фавқулодда маҳорат билан ифодалаб бера олган. Шунинг учун бўлса керакки, Шекспир кўпдан бери ўзбек миллий театрининг “ўз муаллифи”га айланиб қолган – ахир, бironта маҳаллий муаллиф асарлари бу саҳнада Шекспир асарларичалик кўп қўйилган эмас”.[1]

Таъкидланганидек, Шекспир ижодидан қилинган таржималар, бевосита ўзбек адабиётида, бу тур ва жанрнинг тараққиёти учун сезиларли таъсир кўрсата олган. Шекспир ҳаёти, ижодий мероси салкам беш асрки, турлича ёндошувларга асос бўлиб келмоқдаки, аммо адибнинг ҳаёти ҳақидаги қарашлар бизгача жуда кам манба бераоладиган даражадагина етиб келган. Шунинг учун ҳам адиб ҳаёти ва ижоди ҳақидаги қарашлар ҳам турличадир. Аммо ўзбек адабиётига, бевосита драматик асарлар тараққиётига унинг асарларининг таржима этилиши, ўзининг ижодий таъсирини кўрсата олганлигини ҳам таъкидлаш жоиздир.

Адабиётшунос Азим Раҳимов алоҳида қайд қилганидек: “Шоирларимиз Шекспер асарларини таржима қилар эканлар, фақат ўзбек китобхонларини унинг ижоди билан таништиришнигина эмас, аввало буюк санъаткордан ижод сирларини, хусусан, драматургия маҳоратини ўрганишни кўзда тутганликлари шубҳасиздир Мақсуд Шайхзоданинг “Мирзо Улуғбек”, тарихий трагедияси, Уйғун ва Иззат Султонларнинг “Алишер Навоий” драмалари ва бошқа бир қатор асарларининг яратилишида ана шу ўрганишнинг баракали таъсири борлигини инкор этиб бўлмайди”.[2]

Дарҳақиат, адабиётшкнос олим А.Раҳимов асосли таъкидлаганидек, нафақат драмалар билан танишиш, шу билан биргаликда жанр тараққиётида ҳам ўзига хос ўзгаришлар юзага чиққанлигини таъкидлаш жоиздир.

Адабиётшунос олиам Н.Владимирова таржима ҳақида сўз юритганда қуйидаги фикрларни ўртага ташлайди: “Таржима санъати асосида ҳам, ҳар қандай санъатда бўлгани каби, халқ турмуши ва ҳаётини, тарихий тажрибасини мушоҳада қилишда умуминсоний интилиш ётади. Шунинг учун борди-ю биз дунёдаги барча тилларни билсак-да ва бу тилларнинг образли дунёси ҳар биримизга тушунарли бўлса ҳам, таржимага бўлган эҳтиёж сўнмайди”.[3]

“Демак, таржимонда етук филолог олим бўлишдан ташқари, ёзувчи – санъаткорлик қобилияти, муайян халқнинг салоҳияти ва руҳиятини, тилини чуқур биладиган закийлик хислати бўлиши лозим. Ҳар томонлама билимдонлик ва ижодкорлик қўл келади”,[4] – деган қарашларда ҳаётий асослар мавжуд. Йиллар давомида шаклланган таржимачилик анъааси, ҳар қандай давр учун ўзига хос тамойилларни, бадиий эволюцияларни кенгайишига имкон олиб келган. Шунинг учун ҳам, таржимон фақат маълум бир тилни мукаммал билиш билан чегараланмасдан, ўша халқнинг анъаналарини, урф-одатларини, тарихини, бадиий асарлар тараққиётини ҳам англаш, ҳис этиш асосида таржимага мурожаат этиши бежиз эмас. Ана шунда бадиий мукаммал таржималарни юзага келиши учун имкониятлар кенгаяди. Таржимон ҳар қандай асарни бошқа тилдан ота тилига ўгиравермайди, аксинча, таржимоннинг асар танлаш прицилларидаги ўзига хос ҳамоҳанглик, ўз олами ва идроки билан узвийлик каби қарашлардан келиб чиқиши ҳам бежиз эмас. Ҳар бир таржимон ўз руҳиятига ҳамоанг асарларни танлар экан, унинг таржимаси давомида ҳаётий мантиқийликка ҳам асосланади. Шекспир асарларининг таржимала-

[1] Шарафиддинов О. Гамлетнинг қайтиши. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 622.

[2] Рахимов А. Миллий адабиётлар равнақи. Рисола. – Тошкент, Фан, 1981. – Б. 87.

[3] Владимирова Н. Зулфия – таржимон // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. №2. – Б. 61.

[4] Умурова Г. Зулфия ижоди ва рус адабиёти (таржима, танқид, англаш): Филол.фан.ном. автореф. – Самарқанд, 2004. – Б. 4.

рига ҳам бежизга эҳтиёж юзага келмаганлигини таъкидламоқчимиз. Ўша даврнинг кескин ва мураккаб зиддиятларини таржима асарлар асосида бериш имконини топган эди.

Шекспир ижодига қизиқиш ўтган аср бошларида ўзбек ижодкорлари орасида ҳам шаклланиб улгурган эди. Чўлпон бошлаб берган, драматик асарларнинг таржимачилик жараёни эса, ўтган асрнинг ўрталарига келиб, яна Шекиспир асарларига мурожаат этишдан бошланди: "Ўзбекистон халқ шоири Ғафур Ғулом 1965 йили Шекспир ижодига иккинчи бор қўл уриб, шоҳ асарларидан бўлган "Қирол Лир"ни ўзбек тилига ағдарди... Ғафур Ғулом "Лир" таржимасида бой тажрибаси, шоирлик маҳоратини ишга солган. Натижада Шекспирга хос бўлган тил бойлиги, халқ иборалари, масал, маталлардан фойдаланиш Ғафур Ғулом таржимасида ўз ифодасини топган".[1] Шекспир асарларининг ўзбек тилидаги таржимасига назар ташлар эканмиз, адиб ижодини, унинг драматик асарларининг ўзбек адабиётининг етук ижодкорлари таржима қилганлигини ҳам урғулаш лозим. Чунки Шекспир ижодини таржима этиш ижодкордан жудда катта поэтик маҳоратни ҳам талаб этишини асло унутмаслик лозим. Ҳар бир таржимон ўзига хос поэтик оҳангларни таржима жараёнига сингдирадики, бу эса ижодкор билан ҳам чамбарчас боғлиқдир. Бу ҳақида сўз юритган адабиётшунос олима Ф.Сулаймонова шундай эътироф этади: "Бу таржима "Отелло"да йўл қўйилган жузъий камчиликлар, архаизмлардан холис. Айниқса бўронда қолган "бечора Том", ақлдан озган Лир, иккала кўздан айрилган Глостер, масхарабоз, Кентларнинг дашти биёбонда кезиш саҳнаси, "бечора Том" ва Лирнинг чуқур маънога эга бўлган девонаваш сўзларини, масхарабознинг заҳархандали ҳақиқатларини беришда таржимон катта маҳорат кўрсатди".[2]

Шекспирнинг яратган драматик асарларининг ҳар бирида санъатнинг катта имкониятларини кўрсатишга интилганлиги, инсон табиати, характери ва ҳаётини, борлиқни тўла-тўкис англашга ҳаракат қилганлигидан даолат беради. Ҳар бир драматик асарида даврининг ўта мураккаб, зиддиятларга бой ўринларини, яъни драматик асарга хос драматизимни асарлари сюжетига сингдирган. Бир талай шекспиршунос олимларнинг тадқиқотлари, изланишларига кўра, Шекспир ўз даври ва муҳитида тинимсиз ижодий изланишлар олиб борганлиги, буларнинг маҳсули сифатида шундай драматик асарлар майдонга келганлигини алоҳида қайд қилишган. Драматург асарларида беқиёс катта маҳорат билан қўлланган санъатнинг бир қанча воситаларини салафлари яратгани, ўзи эса ажойиб ақл ва истеъдод эгалари бўлган драматурглар сафида, улар билан ижодий беллашиб асарлар яратганлиги қайд этилади.

Адабиётшунос Ғайбуллоҳ ас-Салом таъкидлаб ўтганидек: "Шекспир ўз асарларига ҳар хил тарихий йилномалар, воқеаномалар, новеллаларни асос қилиб олиб, уларни таниб бўлмас даражада, тамомила янгича талқин даражасига кўтаргунга қадар қайта ишлаб, умуминсоний муаммоларни инглиз миллий руҳи билан йўғирган ҳолда тақдим этади".[3] Шекспир асарларининг моҳиятидан англашилган тушунчалар замиридаги фалсафийлик, унинг давр муаммоларини теран англаганлиги билан изоҳлаш мумкин.

Резюме: В данной статье исследуется литературное влияние мировой литературы, особенно драм великого мыслителя английского возрождения Уильяма Шекспира, на узбекскую национальную литературы, общие черты и сходства. На сравнительных примерах показана роль английского драматурга в развитии нашей национальной драматургии. Максимально освещаются идейные сходства английской и узбекской драм, композиционная структура, общность сюжетов, близость персонажей.

Resume: In this article, the literary influence of world literature, especially the dramas of the great thinker of the English Renaissance, William Shakespeare, on Uzbek national literature, commonalities, and similarities are studied. The role of the English dramatist in the development of our national drama is shown in comparative examples. Ideological similarities between English and Uzbek dramas, compositional structure, commonalities between subjects, closeness between characters are covered as much as possible.

[1] Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда. Монография. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.143.
[2] Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда.Монография. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 143.
[3] Ғайбуллоҳ ас-Салом. Асарлар. Эзгуликка чоғлан одамзод. Иккинчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 47.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

КИЧИК ШЕЪРИЙ ШАКЛЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Дошанова Гулжахан,
Қорақалпоқ давлат университети ўзбек тили ва адабиёти кафедраси катта ўқитувчиси

Жаҳон адабиётида шеърий асарлар шакл ва мазмунига кўра жанрларга ажратилади. Одатда ҳар қандай шоир ўз қалбидаги ҳис-туйғуларини маълум бир шеърий шаклларда баён қилади. Жаҳон шеърияти тарихига эътибор берилса, айрим шеърий жанрлар муайян характерига, генезисига кўра муайян бир миллат ёки ҳудудга ҳам тегишли бўлади. Шу эътибордан шеърий жанрлар жуда улкан категория сифатида Шарқ ва Ғарбда яратилган шеърий жанрларга бўлиниши мумкин. Замонавий ўзбек шеъриятидаги кичик жанрлар негизини қайсидир маънода мумтоз шарқ шеъриятига боғлаш ҳам ўринлидир. Зеро, замонавий ўзбек шеъриятида тўрт мисрадан иборат шакл – тўртлик кенг омалашган бўлиб, уни муаллифлар кўп ҳолларда "рубоий" деб ҳам номлашади. Ҳолбуки, ўзбек мумтоз поэтикасида рубоийга "шарқ мумтоз шеъриятида кенг тарқалган лирик жанр, ҳазаж баҳрининг ахраб ва ахрам шажараларида ёзилиши"га урғу берилади. Демак, рубоий мумтоз аруз вазнининг ҳазаж баҳрида бўлиши қатъий қоида саналади. Шунингдек, назарий манбаларда рубоий қофияланиш тартибига кўра "а-а-б-а тарзида қофия" ланиши ҳам айтилади. Рубоий форс ва араб шеъриятида кенг қўлланиладиган жанр саналиб, кейинчалик ўзбек мумтоз шоирлари ҳам бу жанрда кўплаб ижод қилганлар. Шу билан бирга рубоий генезисини баъзи адабиётшунос олимлар туркий халқлар оғзаки ижодида мавжуд бўлган тўртликлар билан ҳам боғлашади. Табиийки, Маҳмуд Кошғарийнинг "Девони луғатит турк" асарида жамланган кўплаб халқ қўшиқлари тўрт мисрадан иборат экани айни фикр учун асос бўлади.

Агар замонавий кичик шеърий жанр намунаси бўлган шеър ҳазаж баҳрининг ахрам ва ахраб шажараларида ёзилмаган бўлса, уни тўртлик деб аташ ўринлидир. Адабиётшунос Ёқубжон Исҳоқов ўзбек адабиёти тарихида энг кўп рубоий ёзган шоир сифатида Алишер Навоийни кўрсатади[1] ва бу хусусда ёзади: "Бирор тўртликни рубоий деб аташ учун унда тугал мазмун, рубоий шакли бўлишидан ташқари, рубоий вазни ҳам бўлиши керак. Тўртлик қанчалик чуқур маъно ва гўзал шаклга эга бўлмасин, агар у рубоийнинг махсус вазнига тушмаса, рубоий бўла олмайди". Дарвоқе, айрим мумтоз рубойиларнинг ҳар тўрт мисраси ҳам қофияланган бўлиши мумкин. Уни "таронаи рубоий" деб аташ урфга кирган. Алишер Навоийнинг:

"Кўнглумни ғаму дард ила қон айлади ишқ,
Кўз йўлидин ул қонни равон айлади ишқ.
Ҳар қатрани билмадим қаён айлади ишқ,
Бедил эканим буйла аён айлади ишқ"

деган рубоийси юқоридаги фикр учун мисол бўлади. Қолаверса, мумтоз шоирлар ижодидаги кичик жанрлар ўз хусусиятлари, мазмуний теранлиги билан шеърият мухлислари диққатини ўзга жалб этади. Уларни ёд олиш ҳам кўпинча осон кечади.

Замонавий ўзбек шеъриятидаги тўртликлар қайсидир маънода шарқ шеъриятидаги ана шундай шаклларга боғланади. Шоирлар мумтоз шоирлар ижодига ҳавас қилган ҳолда ўз тўртликларини "рубоий" деб номлаётгани шундан далолат беради. Шу ўринда шарқ шеъриятидаги яна бир кичик жанр хусусида фикр юритиш ўринли бўлади. "Туюқ" деб номланган бу шеърий шаклга ўзбек адабиётшунослигида луғавий томондан "туймоқ, ҳис этмоқ" деган маъноларга эгалигини таъкилаш билан бирга "туркий халқлар шеъриятидаги тўрт мисралик, тажнисли қофияга асосланган, рамали мусаддаси мақсур вазнида ёзиладиган лирик жанрга айтилади. Туюқлар, кўпинча, а-а-б-а тарзида қофияланади, шунингдек, а-а-а-а ёки а-б-в-б тарзида қофияланган кўринишлари ҳам мавжуд", деб таъриф берилади[2]. Туюқнинг келиб чиқишини ҳам халқ оғзаки ижоди билан боғлаш ҳолатлари мавжуд. Кейинчалик бу мумтоз шеърий шаклдан Лутфий, Навоий, Бобур, Убайдий, Огаҳий каби

[1] Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 154.

[2] Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 336.

қатор шоирлар кенг фойдаланишган. Дарҳақиқат туюқда омоним сўзлар қўлланилиши ва махсус аруз вазнида бўлиш шарт саналади. Табиийки, бундай шеърни ёзиш учун шоир улкан истеъдод эгаси бўлмоғи лозим. Гарчанд аруз вазнига тушмаса ҳам айрим замонавий ўзбек шоирлари ижодида туюққа ўхшаш тўртликлар борлигини инкор этиб бўлмайди.

Ғамларни ўзга "дўсту ёр" деб билган истеъдодли шоир Рауф Парфи кўплаб тўртликлар ёзди. Унинг тўрт мисрадан иборат:

"Йўқ, шоир деб қарама атай,
Ҳукм этмакка шошилма бир оз.
Мен куйиниб севаман, нетай?
Мен куйиниб сўзлайман, холос"[1],

деган шеъри барча давр шоирлари табиатига қайсидир жиҳатдан мос келади.

Замонавий ўзбек шоирлари орасида Сирожиддин Саййид ўз тўртликларининг ҳар жиҳатдан пухта-пишиқлиги билан ажралиб туради. Шоирнинг ўзи айни шеърий шаклга эҳтиёж туғилганлиги тўғрисида шундай ёзади: "Бу тўртликларни мен осмондан олиб ёзмадим. Болаликда, раҳматли момомдан кўп эшитганим, янгаларимга айтадиган "Қилиқнинг иссиғи – бахтнинг исириғи" ёки "Аёл – эркакнинг вазири" деган гаплардан тортиб то ҳозирга қадар, Тошканнинг Эски жўва бозорида "Дўмбоққина ҳандалаклардан олиб кетинг" деган опахоннинг сўзларигача – ҳаммаси ўзимга таниш, қадрли, кўнглимга, ҳаётимга дахлдор кечинмалардир.

Уларда номлар, исмлар бор: улуғ зотларнинг, устозларимизнинг номлари, яна бошқа номлар. Тилга олиш баҳонасида мен бу зотлар олдидаги узиб бўлмас қарзимни назарда тутганман. "Ўчоқдаги ўт бошқаю юракдаги ўт бошқа" деганларидек, бу ёзганларим – балки менинг яна бир уринишим, кўнгилга томон яна бир чоғланишимдир. Ёзилмаган катта шеърларнинг парчаларидир, балки кунларим, тунларимнинг бўлакларидир. Билмайман. Нима бўлганда ҳам бошимдан, кўнглимдан кечирдим шуларни"[2]. Шоирнинг "ёзилмаган катта шеърларимнинг парчаларидир" деган иқрорида ҳам улкан маъно бор. Барча ижод намуналари шоир умриниг бўлаги – тунлари ва кнуларида бошидан кечирган туйғулари саналади.

Аслида рубоий, тўртлик, туюқ, учлик, иккилик деб номланган шеърий шакллар замонавий ўзбек шоирлари ижодида кўп қўлланади. Замона шоирлари ўзлари ёзган кичик жанрдаги шеърий шаклларга баъзан мисралар сонидан келиб чиққан ҳолда, баъзан мумтоз шеърият анъаналарига мос равишда жанрини белгилаш ҳолатлари кузатилади.

Мумтоз адабиётда ҳар бир банди уч мисрадан такриб топган шеърий шаклга "мусаммат", яъни учлик дейилади. Фақат уч мисрадангина иборат бўлган шеърий шакл ҳам замонавий ўзбек шеъриятида "учлик" номи билан юритилади. Бу табиийки бир томондан мумтоз шоирлар ижодида мавжуд бўлган шаклнинг узвий дпвомидир. Иккинчи томондан қаралганда дунё адабиётида мавжуд бўлган уч мисрадан иборат бўлган "хайку" жанрига тақаш ҳам ўзбек шоирлари ижодидаги кичик жанрлар пайдо бўлишига жаҳон шеърияти, хусусан, япон шоирларидан қилинган таржималар таъсир кўрсатганини тахмин қилиш мумкин. Учликларни Р.Парфи, А.Обиджон, Фарида Афрўз ва бошқа шоирлар ижодида учратиш мумкин.

Истеъдодли шоир Анвар Обиждонлинг учликлри адабиётшунослар эътиборига тушди.

"Оч ётганга емак бер…
Ҳеч бўлмаса кўмак бер –
Суяб элт бир Ҳотамга".

Бу учликда инсонпарварлик ғояси илгари сурилган бўлиб, сахийликда барчага маълум ва машҳур Ҳотами Той образи эсга олинади ва мумтоз поэтик санъат воситасида шоир ўз тушунчаларини кучайтириб тақдим этади.

"Қуруқ "шов-шув" кўп асар
Гўлнинг хуморин босар,
Бувак сўрган сўрғичдек"[3].

Ушбу учликдаги шоирнинг ҳикматини алоҳида топилдиқ сифатида баҳолаш ўринли бўлади. Биринчидан, жуда содда ва тушунарли, иккинчидан, бадиий асарни, шеърни ёки бирор романни тушуниш, англаш жараёнига тегишли бу фалсафа шоирнинг адабий-эстетик қарашларини ҳам намоён қилади. Чуник баъзи асарлар қуруқдан-қуруқ шовшув билан кўтар-кўтар қилинади. Аммо моҳиятида деярлик мақташга арзигулик бирор фикр-мулоҳаза, образ ёки тасвирий ифодалар бўлмайди. Шоир бу тоифадаги асарларни, бунга ўхшаган ижод намуналарини чақалоқнинг оғзига тутқазилган сўрғичга ўхшатади. Қуруқ алдаш ва ҳақиқат чекиниш ҳодисасини Анвар Обиджон шундай ихчам ва жуда маънили баён қилади.

Фарида Афрўз учликлари ҳам мавзу кўлами кенглиги билан алоҳида ажралиб туради. Одатда учликларда ҳикматлар, баъзан афористик руҳ устиворлик қилади. Учлик шеърий шаклда ижод

[1] Рауф Парфи. Сайланма. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 31.

[2] Сирожидди Саййид. Кўнгил соҳили. – Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. – Б. 6.

[3] https://hamroh.ucoz.ru/news/anvar_obidzhon_sherlar/2014-12-13-65.

қилган бошқа шоирлардан фарқли ўлароқ Фарида Афрўз учликларида ишқ-муҳаббат изҳорлари, армонлари ўз ифодасини топгани кузатилади:

“Мен сени алдадим:
“Севмайман!” дедим.
Ўзимга кучим етмади”

Бошқа бир саҳифада шоиранинг лирик қаҳрамони ўз ошиқиға таъкидлаб шундай дейди:

“Мени кечир,
Сен учун яшагим келди.
Ўзим учун яшай билмадим”[1].

Шу билан бирга шоира илгари сураётган ишқий тезислар, оилавий муҳит тўғрисидаги тушунчалари китобхонни мушоҳадага чорлайди.

“Улар бирга яшайдилар, тўқ,
Сизлайдилар бир-бировларин.
Ҳар неси бор, севгидан бошқа”

Инсон учун, оилавий муҳит учун, икки қалб эгасининг тўлақонли ҳаёт тарзи учун албатта, муҳаббат муҳим. Шоира шундай жуфтликлардан бирининг турмуш тарзига назар солади ва унинг тасаввурида бу бой-бадавлат оилада, ҳурмат-эҳтиром бор, улар бир бирларига “сиз-сизлаб” мурожаат қиладилар, айни дамда уларнинг қорни тўқ, камбағалик нималигини билишмайди. Аммо улар орасида муҳаббат сезилмайди. Эҳтимол, ўқувчи шоирага эътироз ҳам билдириши мумкин. Бу оила вакиллари ўзлари ўртасидаги севгини кўз-кўз қилмас, ошкора қилмасалар керак,балки, деган маънода.

Кўриниб турганидек, мумтоз шоирларнинг кўнгил дардлари Фарида Афрўз учликларида қандайдир маънода мантиқий равишда давом эттирилади. Уч мисрадан иборат бўлган шеърлар генезиси хусусида адабиётшунос Қаҳҳоржон Йўлчиев ўзининг бу йўналишдаги махсус тадқиқотида шундай хулосаларини баён қилади: “Уч мисрали мустақил шеърлар илдизи ўзбек халқ оғзаки ижоди, ўзбек мумтоз адабиётга бориб тақалади. Уликлар ана шу манбалардаги анъанавий шакллар ва замонавий шеърият ютуқлари асосида XX аср сўнги чорагида қатор шоирларнинг жиддий услубий изланишлари натижасида қайта ишланган жанрдир”[2].

Хулоса шуки,биринчидан, замонавий ўзбек шоирларининг кичик ва ихчам шеърий шакллари ўзига хос мавзуларни бадиий талқин қилоганлиги билан алоҳида аҳамият касб этади. Иккинчидан, замонавий тўртликларни мумтоз адабий жанр бўлган рубоий ёки туюк билан аралаштириб юбормасдан, уларни ўз номи билан “тўртлик” деб аташ ўринли бўлади.Учинчидан, учликлар қайсидир маънода халқ оғзаки ижоди жанрлари бўлган топишмоқлар ва халқ қўшиқлари негизида майдонга келганлигини, шунингдек, жаҳон шеъриятида оммалашган “хайку”ларнинг ҳам қайсидир маънода таъсир борлигини таъкидлаш ўринли бўлади.

Rezyume: This article provides a personal analysis of the small Uzbek poetic works of modern Uzbek poets and their depictions of the breath of life, as well as the artistic interpretation of specific themes in compact poetic forms.

Резюме: В этой статье анализируется малые поэтические формы в произведениях современных узбекских поэтов, а также изображения ими жизненных сцен в малых и связных формах.

[1] Фарида Афрўз. Ушшоқ. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 123.
[2] Қаҳҳоржон Йўлчиев. Типологик ўхшашликлар: бирлик ва учлик. – Тошкент, Турон замин зиё, 2016. – Б. 124.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHAXS VA JAMIYAT ZIDDIYATLARINING "SABO VA SAMANDAR" ROMANIDAGI IN'IKOSI

Atadjanova Yulduzxon Dilshadovna,
Urganch davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Jahon adabiyotshunosligida davr va shaxs muammosining poetik talqini, bu yo'nalishda yaratilgan lirik, nasriy va dramatik asarlardagi davr va shaxs munosabatlarining badiiy, falsafiy, ijtimoiy-tarixiy, g'oyaviy estetik xususiyatlarini belgilash, estetik kategoriyalarini tayin etishda muhim ilmiy natijalar qo'lga kiritilmoqda. Ijodkor o'z davrining umumiy manzarasini badiiy ifoda etadi. Demak, har bir yaratilgan badiiy asar o'z davri, muayyan jamiyat va inson munosabatlarini o'zida ifodalaydi. Ayni jihat asosiy nazariy muammolardan biri sifatida dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida davr va shaxs muammosi faqat badiiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy muammo emas, ayni paytda psixologik, umummadaniy muammo sifatida global tushunchaga aylangani yuzasidan ahamiyatli ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilmoqda. Shu jihatdan, alohida olingan ijodkor asarlarida davrning inson taqdiri, ruhiyatiga ko'rsatadigan ta'sirini belgilashga alog'ida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, dunyo xalqlari adabiyoti namunalarida urushdan jabr ko'rib, qalbi jarohatlangan, taqdiri chigallikka yuz tutgan, tinchlik sari intilayotgan inson obrazlarida yaqqol namoyon bo'layotganiga doir tadqiqotlar ushbu fikrni tasdiqlaydi. Umuman, davr va inson konsepsiyasini zamonaviy tadqiqot tamoyillari asosida ilmiy baholash jahon adabiyotshunosligida ham muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Har bir davr o'zidan oldingi davr adabiyotida mavjud eng yaxshi jihatlarni o'ziga singdiradi va o'zidan nimadir qo'shishga intiladi, shu asosda taraqqiyot jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi. Adabiyotdagi vorisiylik, adabiy an'analarga sodiqlik milliy adabiyotdagi o'ziga xoslik, milliy qiyofani yo'qotmaslik kafolatidir. Tabiiyki, boy adabiy an'anaga tayangan adabiyotning rivojlanish imkoniyatlari boshqalarga nisbatan yuqori bo'ladi. Masalan, xalqimizning boy adabiy-madaniy an'analari XX asr boshlarida kuzatilgan yangi o'zbek adabiyotining shakllanish jarayoni tez kechishini ta'minladi. Shu jumladan, bugungi kunda davr bilan hamnafas o'zbek adabiyoti namunalari milliy an'analar bilan bir qatorda, jahon adabiyotida ro'y berayotgan holat, izlanishlarni o'zida aks ettirmoqda.

Benazir adib Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ta'bir etgan bashoratomuz haqiqat hayotimizda o'z tasdig'ini topmoqda, desak yanglishmaymiz: "Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngul tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tiriklik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg'on bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasinda aning to'lquni odamning har xil maishatiga qarab o'zgaradir."[1]

Zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli namoyandasi Ulug'bek Hamdam ijodining mavzu ko'lami u qadar keng va xilma-xil bo'lmasa-da, unda har qanday vaziyatda, tuzumda ham insonni har tomonlama aniq tasvirlash tamoyili yetakchi o'rin tutadi. Tasavvuf ta'limotidagi komil insonni emas, aksincha, real hayotda zamon va makonda yashab kelayotgan, his-tuyg'ulari, dunyoqarashi, ma'naviy-ruhiy olamining o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lgan inson obrazini yaratish muallif ijodining bosh konsepsiyasidir. Ulug'bek Hamdam o'zbek adabiyotida bayon uslubi, obraz yaratish mahorati, asar kompozitsiyasi va asar poetikasi yuzasidan adabiy an'analarni munosib davom ettirish barobarida bir qator uslubiy yangilanishlarni ham amalga oshirdi. Shitob bilan yangilanib borayotgan adabiyotda an'anaviylik asosida ham barcha adabiyot ahlini befarq qoldirmaydigan asar yaratish mumkinligini yana bir romani "Sabo va Samandar" misolida isbotladi.

"Sabo va Samandar" – yozuvchining mashhur romanlaridan biridir. Bu romanda muhabbat mavzusi asar markaziga olib chiqilgan. Asar lirik yo'nalishda yozilgan, xuddi she'rday ravon va katta hayajon bilan o'qiladi. "Sabo va Samandar"da qalamga olingan muhabbat – jismoniy shavq-u intilishdan xoli sof ruhiy-ichki tuyg'u. "Sabo va Samandar"ni larzaga solgan holat – ulardagi ruhiy-qalbiy uyg'unlik va shu qalb egalarining jismonan bir-biridan ayrilgani. Ular jismonan bir-birlaridan ayriliqda yashasalar ham, xayollari, o'ylari, intilishlari hamisha uyg'un. Roman mana shu jihatlari bilan "Farhod va Shirin", "Layli va

[1] Ўзбек адабий танқиди. Антология. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б. Каримов. –Тошкент: TURON IQBOL, 2011. – Б. 27-28.

Majnun”, “Tohir va Zuhra”, “O‘tkan kunlar”dagi muhabbat tuyg‘usini esga soladi. “Sabo va Samandar” bugungi kitobxonga biroz romantik, hayotdan uzoq bo‘lib ham tuyulishi mumkin. Ulug‘bek Hamdam o‘z qahramonlarini ataylab ana shunday qiyofada tasvirlaydi. Chunki yozuvchining maqsadi muhabbatning ruhiy hodisa ekanligiga, uning har qanday jismoniy intilishlardan kuchli qudrat ekanligiga urg‘u berishdir. Internet sevgisi, shahvoniy intilishlar, oilaviy buzilishlar, mol-mulkka qarab oila qurishlar avj olgan bugungi kunda Ulug‘bek Hamdam zamondoshlar e’tiborini ishq-muhabbatning aynan oilalarning, insonlararo munosabatlarning barbod bo‘lishiga sabab bo‘layotgan unutilgan jihatiga, aynan eng muhim tarafiga qaratadi. Uning ijodida badiiy qiyofa va manzara yaratish qobiliyati uchraydi. Ya’ni, shaxsni muhabbat, ruhiy-ilohiy hodisa deb anglab turgan tuyg‘u bezab turadi. Aynan ana shunday qarash insonga kuch beradi, uni muvozanatga keltiradi. Sabo va Samandar qismatida oddiy sevgi emas, ilohiy muhabbatga talpingan ko‘ngil rozlari manzarasi tasvirlanadi. Shu bois unda jismoniy mayllar tasviri targ‘ib qilinmaydi. Romanda bugunning hayoti, tashvishi bilan barobar o‘z mayllaridan yuqori ko‘tarilgan insonlarning muhabbat manzarasi tasvirga tortiladi. Bu manzara qahramon hayoti, uning amallariga singib ketadi.

Roman mashhur afsonaning zamondoshlarimiz hayoti misolidagi takrori emas, balki insonning ilohni tanish yo‘lidagi intilishlaridir. Ilohga muhabbat insonga muhabbatdan boshlanadi. Agar inson jismoniy mayllardan yuqori tura olsagina, Allohni taniy oladi. Roman personajlarida ayni shu holat namoyon bo‘ladi. Sabo va Samandar sirtdan hamma qatori yashayotganday ko‘rinsa-da, aslida bir umr qalblari bilan betinim olishadilar. Asar so‘ngida ular bir mahalda, bir xil sabab bilan dunyodan ko‘z yumadilar. Ularning umr bo‘yi tortgan iztiroblari o‘lim bilan yakun topadi. Bu yakunda fojiaviylik yo‘q, aksincha, xotirjamlik bor. Bu xotirjamlik ilohiy visolga yetishuvdan umiddir.

Yozuvchining mahorati shundaki, Samandar Saboni uchratmay turib, qalbining tub-tubida intuitiv ichki sezgi bilan kimnidir izlaydi, istaydi... “xayolan Majnunning qiblaga yuzlangan holda Ollohga yig‘lab qilgan iltijolari bilan yashaydi: Layli ishqin tanimda jon qil, Layli shavqin ragimda qon qil, Dardini najotim et, ilohiy, Yodini hayotim et, ilohiy!”.[1] Psixologik iztirob, qalb nidosi go‘yo Ollohga yetadi. Goyibdan bir go‘zal siymosi ko‘ringanday bo‘ladi. Yozuvchi Samandarni majoziy ishqqa ruhan tayyorlaydi.

Romanga olib kirilgan Nodir va Nilufar hikoyati Samandar uchun oddiy ishq ertagi emas edi. Asar go‘yo shaklan roman ichida ishqiy qissa, mohiyatan esa ishq ichidagi ishqni namoyon etadi. Romandan romanga yo‘naltirilgan psixologizm tadriji “Sabo va Samandar”da yanada kuchli va aniq namoyon bo‘ladi. Birinchi hikoyat - Nodir va Nilufar ishqi qissasi go‘yo Sabo va Samandar ishqi qissasining debochasidek tuyuladi. Ishq kuyugining psixologik azoblari Nodirni bu olamdan tamoman uzadi: “Kun kech bo‘ldi. Nodir otasi choshgohda chiqib ketganda qay alfozda o‘tirgan bo‘lsa, hozir - kun kechida ham o‘shandoq: tizzalari ustida devorga qaragan kuyi, boshini xam qilgancha qotib kolgandi. U bir narsadan boshqa – yuragini ayovsiz kuydirayotgan olovdan boshqa hech kim va hech nimani his qilmas, his qilolmasdi”.[2] Ko‘rinadiki, “Sabo va Samandar” romanida badiiy psixologizmning portret usuli yozuvchi tomonidan mahorat bilan qo‘llaniladi.

Roman g‘oyasini ochib berishda qahramon, muallif va o‘quvchi ishtiroki yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan psixologizm vositalarining ta’sirini yanada oshiradi va vazifasiga yanada aniqlik kiritadi, hatto nutq unsurlari psixologik vaziyatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Aytish joiz, o‘tgan asrning so‘nggi choragi va yangi asr boshlarida badiiy asalarda psixologizmning keng ko‘lam kasb etishi, badiiy adabiyotning barcha turlarida chuqurlashuv jarayoni, ijodkorlarning bevosita voqea-hodisalarning quruq tasviridan inson ong osti, ruhiy olamning tadqiq etishga qaratilganligini ko‘rsatadi.

Badiiy psixologizm – inson ichki hayotining muallif tayanadigan tushunchalar, uning shaxs haqidagi tasavvurlari va kommunikativ strategiyasi bilan shartlangan badiiy - obrazli, tasviriy – ifodaviy tiklanishi va ijodiy qayta ishlanishidir. Psixologik tasvir deganda esa, personaj jismoniy jihatlari (his-tuyg‘ulari, kechinmalari, holatlari) va uning ma’naviy-psixologik olamidan chiqib keladigan shaxsiy tajribasining badiiy tadqiqini tushunamiz. Demak, badiiy asardagi har bir badiiy unsur yozuvchi uslubini ochib berishga xizmat qilar ekan, aynan “Sabo va Samandar” romanida qo‘llanilgan psixologizm usul va vositalari – xarakter qirralarini tahlil qilish ham, qalb dialektikasi ham ijtimoiy munosabatlar maishiy to‘qnashuvlarning xarakterlarga ta’sirini tahlil qilishi ham sintezlashgan holda namoyon bo‘lgan Ulug‘bek Hamdam uslubini ifodalaydi.

Romanda yozuvchi shaxs ma’naviy-psixologik dunyosini makon va zamon ichra badiiy jonlantiradi va shu orqali realizmning yangidan-yangi imkoniyatlarini kashf etadi. Bunda sentimentalizm, romantizmga xos unsurlardan ham realizm fonida foydalanadi. Moddiy dunyoda inson nafaqat turmush ikir-chikirlari, yoki burch mas’uliyatlari, balki o‘z psixologik olami,

[1] Улуғбек Ҳамдам. Сабо ва Самандар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 352.

[2] Улуғбек Ҳамдам. Сабо ва Самандар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 357.

ko‘ngil maslagi bilan yashashga haqli degan yozuvchi mulohazalari, qat’iy xulosalari roman g‘oyasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar talqini va tahlili jarayonida ma’lum bo‘ladiki, psixologik tasvir turli asarlarda turlicha vazifalarni bajaradi. Ba’zi asarlarda psixologik tahlil va psixologik detallar u qadar faol kuzatilmaydi. Bunda asosiy tasvir ob’ektini qahramonlar ichki dunyosi, uning badiiy-psixologik tasviri tashkil etadi. Ayrim hollarda esa, psixologik tasvir matnning salmoqli qismini band etish barobarida boshqa unsurlarga nisbatan mustaqillik kasb etadi va asar mazmunini tushunishning favqulodda muhim jihatiga aylanadi. Bizningcha, bunday asarda alohida badiiy uslub – psixologizm yuzaga keladi. Psixologizm bu badiiy tasvir vositalari ko‘magida qahramon ichki olami: uning fikrlari, kechinmalari, xohishlari, hissiy holatlarini batafsil tasvir orqali kashf qilishdir.

Psixologik kechinmalarning bilvosita ifodasini chizar ekan, yozuvchi qahramon kechinmalari va o‘zini tutish motivlari o‘rtasidagi ko‘p tomonlama aloqani aks ettiradigan alohida har bir psixologik detalga urg‘u beradi. Bu yerda mimika, xatti-harakat, nutq va fiziologiyadagi o‘zgarishlar inson ruhiyatining tashqida namoyon bo‘lishini bildiradi. Xarakteriga ko‘ra bunday hatti-harakatlar personaj tomonidan beixtiyor yoki ataylab qilinishi mumkin. Badiiy asardagi har bir badiiy unsur yozuvchi uslubini ochib berishga xizmat qilar ekan, aynan “Sabo va Samandar” romanida qo‘llanilgan psixologizm usul va vositalari – xarakter qirralarini tahlil qilish ham, qalb dialektikasi (N.Chernishevskiy) ham, ijtimoiy munosabatlar maishiy to‘qnashuvlarning xarakterlarga ta’sirini tahlil qilishi ham sintezlashgan holda namoyon bo‘lgan Ulug‘bek Hamdam uslubini ifodalaydi.

“Sabo va Samandar” romanining g‘oyaviy-badiiy mazmuni dunyo va inson qalbi nozikliklarini teran badiiy tasvirlanganligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muhabbat, oila va nikoh masalalarining asarga bosh mavzu qilib olinganligi inson tuyg‘ulari, uning ma’naviy psixologik olami, oila va yaqinlari oldidagi mas’uliyatining psixologik iztiroblar talqini orqali ochib berilishi romanga xos eng asosiy jihatlardan – yozuvchi badiiy mahorati, so‘z san’atini psixologizm orqali ishkishof etilganligidadir. Adib shaxs psixologik olamini real olam bilan yonma-yon tasvirlaydi. Psixologik jarayonlar yozuvchi tomonidan qahramon portreti, ichki va tashqi monolog, tush, peyzaj orqali ifodalar ekan, ular qahramonning har xil psixologik holatlarida turlicha ifodalanadi.

“Sabo va Samandar” romanining bosh mavzusi – ishq g‘oyasi – ishqning Olloh bergan ne’mat, shu bilan birga qismat ekanligini qahramonlar taqdiri orqali ochib berish, yozuvchining konsepsiyasi – inson komilligining ishq orqali takomilga erishuvi masalalari va uning badiiylik orqali shartlanganligidir. Demak, asar mohiyatan ishq talqini ekan, unga xos barcha poetik unsurlar shu mantiqni ochib berishga qaratiladi. Roman matni ustida mushohada yuritar ekanmiz, “Sabo va Samandar” romanida qahramonlar ichki psixologik olamini ochib berishda ahamiyatga molik badiiy jihatlar aynan ishq ekaniga ishonch hosil qilamiz. Asardagi Sabo obrazi doimiy o‘sish-ulg‘ayishda, intensiv tiklanishda tasvirlangani uchun bo‘lsa kerak, kitobxon ko‘z o‘ngida uning ichki go‘zalligi tobora ochila boradi. Boy xonadon erka qizining ishqi nochorgina oila farzandi Samandarga tushadi. Qalbini ishq zabt etgan Saboning Yaratganga iltijosi ilohiy tus oladi va roman voqealari rivojida to‘la-to‘kis ijobat ham bo‘ladi: “Voy Xudoyim, agar muhabbat baxt bo‘lsa, men poyingga tiz cho‘kib, ishqdan o‘zga baxt so‘ramayman! Menga shuni ber va to tirik ekanman, meni undan mahrum aylama! Men ishqning uyida so‘nggi nafasimgacha qolishni istayman! Ishq bilan ko‘z ochib, ishq bilan ko‘z yumsam deyman! Meni shu yerda to‘xtat, meni hayot deb atalmish uzun yo‘lning ishq bekatida tushirib va unutib qoldir, ey parvardigor!”[1] Sabo o‘zini kutayotgan dabdabali hayotdan ko‘ra, haqiqiy ishqni deydi. Bu yo‘lning qanday ekanligini tasavvur qilolmasa-da, uning bekatida qolib ketishni istaydi.

Ma’lumki, komillik falsafasi mumtoz adabiyotimizda voqea-hodisalar oqimida aksini topgan bo‘lsa, zamonaviy adabiyotda bu hol yozuvchi shaxsining boy intellektual olami, uning ruhiyat iqlimlari tasvirini berishi orqali ro‘yobga chiqayotir. Mumtoz adabiyotimizda komillik yo‘li insonni psixologik, ma’naviy kamolotga yetaklovchi yo‘l hisoblangan. Albatta, tasavvufda komil inson ilohiylashtirilgan – uning mezonlari yuksak. Komil insonning zamindagi timsoli sifatida so‘nggi payg‘ambar – Muhammad alayhissalom e’tirof etilgan. Qolgan anbiyo-yu avliyolarning kamoloti esa ul zotga nisbatan olingan. Demak, ilm-u ma’rifati yuksak, xulq-u odobi go‘zal, so‘zi va ishi ko‘pchilikka ibrat bo‘ladigan shaxslarni, obrazlarni barkamol insonlar deyishga haqlimiz.

Romandagi ishq mohiyatini kengroq ochib beradigan, yozuvchining yuksak badiiy mahorati namoyon bo‘lgan lavhalar Sabo va Samandarning radio to‘lqinlari orqali bo‘lgan psixologik muloqotidir. Ushbu lavhalar orqali yozuvchi o‘zining konsepsiyasini: ishq – Olloh bergan inoyat, ishq – ikki qalbning bir vaqtda bir-biriga talpinishi, umr – bir lahzalik visol haqqi, sevilgan va sevgan ko‘ngil to‘kilmalari – inson ruhiyatining eng go‘zal va betakror sahifalari ekanligi orqali ochib beradi. “Sabo va Samandar”ning syujet tizimida, kompozitsion qurilishida, hikoya qilish uslu-

[1]. Улуғбек Ҳамдам. Сабо ва Самандар. – Тошкент:Ўзбекистон, 2011. – Б. 88.

bida, qahramonlar tipologiyasida, voqea-hodisalar tafsilotida, peyzajlarda psixologizm vositalari bir-birini to‘ldirgan mutanosib holda qo‘llaniladi. Roman o‘zida millat va muallifning ma’naviy-psixologik muammolarini ijodiy shaklda mujassamlashtirgani, asarda inson hayotining mazmuni, yashashdan maqsadi va o‘lim kabi falsafiy tushunchalar yozuvchining inson badiiy talqiniga yangicha yondashuvlar orqali ifodalangani bilan ham e’tiborga molik hisoblanadi.

Roman qahramonlari Samandar va Saboning Ollohga bo‘lgan ishqi ularning Vatanga, elga, yorga, insonga bo‘lgan ishqi bilan birlashib ketadi. Natijada ishq zamiridagi ma’no va tushunchalar ufqi kengayadi. “Sabo va Samandar”da muallif va qahramon o‘rtasidagi mushtaraklik juda mustahkam. Muallif va u yaratgan xarakter uzviy yaxlitlik kasb etgan, muallif va xarakterni ajratadigan chegara yo‘qdek. Yozuvchi ijodiga xos jihatlar, munosabatlar guyo “Sabo va Samandar”da o‘z ifodasini topganday.

Bizningcha, mustaqillik yillari romanchiligida inson ruhiyati iqlimlariga tobora chuqurroq kirib borganligi, qalb tebranishlarini aniq ilg‘aganligi, insoniy dardlarni teran idrok ettanligi muallif “men”i orqali ifoda etilayotgan tasvir usuli o‘zini oqlaganligi hamda “men”ning shaxs sifatida shakllanganligi bilan izohlanadi.

“Sabo va Samandar” romanida ishqiy-psixologik tuyg‘ular tasviri katta g‘oyaviy-badiiy vazifani bajaradiki, uning ko‘magida zamondoshlarimiz hayotidagi ijtimoiy muammolar mohiyati ham ochila boradi. Ishqiy psixologik ziddiyatlar orqali birgina bosh qahramonlarning emas, ikkinchi darajali xarakterlar ziynati ham ochiladi.

Insonning insoniyligi faqat u qilgan yaxshi a’mollaridagina belgilanmaydi, balki insoniy tuyg‘ular bilan ham belgilanadi. Ya’ni odamlar fojiasidan, baxtsizligidan chindan kuyinishi, iztirobga tushishi kishining ezgu qalbligidan nishonadir. Chunki har kim bunday holga tushmaydi. Romanda tasvirlangan bir obraz – Bakir obrazi haqida shunday deyishimiz mumkin. Bakir Samandarni bir zum bo‘lsin, yolg‘izlatib qo‘ymaslikka, hamisha muammolariga sherik bo‘lib, ularga yechim topishga harakat qiladi. Do‘stining dardini chuqur his qiladi, unga malham bo‘lishga intiladi. Do‘stining o‘limidan so‘ng, uning qabri ustiga Samandarning o‘z she’ridan tanlagan to‘rtlik satrlari: “O‘lib ketsam, qayg‘urmang, Mendek yuragi yoniq, Odamlarning qalbida qaytib-qaytib yasharman!...” ham Bakirning do‘stlikka abadiy sadoqatidan, yuksak insoniy fazilatlaridan darak beradi. Shunday insonlar bois, ezgulik bardavomdir. Roman nihoyasida Samandarning qabri tepasida turgan Sherdilning iqrorlarini o‘qib ham asar davomida xudbinlasha borgan, o‘z do‘stini mensimagan, deyarli hamma narsani pul bilan o‘lchagan, shon-shuhrat-u kibrga berilib borgan ayni mana shu qahramon haqidagi fikrlarimiz o‘zgaradi. Sherdil bilib-bilmay qilgan xato-yu gunohlari uchun tavbaga kelgan, yaqin insonlari – do‘sti va rafiqasining o‘limidan so‘ng pushaymon bo‘lgandi. Uning “Men sizlarni birdek yaxshi ko‘rar ekanman, faqat buni kech tushundim... – Bolalaringdan xavotir olma... Ular yaxshi joylarda ishlab yurishibdi. Xabardorman... – Keyin menga ham oz qoldi... Balki yana birga bo‘larmiz...”[1] qabilidagi iqrori qalbida insoniylik xislatlarining hali so‘nmaganidan darak beradi.

“Sabo va Samandar” romanida yozuvchi falsafiy konsepsiyasi shaxs va jamiyat ziddiyatlarining in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi inson mohiyati to‘g‘risida, o‘tkinchi davrning azaliy va abadiy ziddiyatlari izdihomida inson tafakkurining ma’naviy-intellektual qadriyatlar, madaniy tarix yaratishi xususidagi qarashlarini voqealar kesimida ifodalash orqali kuchli pafos, dramatizmdan unumli foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, adib ushbu asari bilan adabiyotning umidbaxsh tamoyillariga sadoqatini ifodalaydi. Aytish mumkinki, roman adabiyotimizning inson va uning ruhiyatidagi izlanish, shakllanish, o‘zgarish, qiynalish hamda ziddiyat, murakkabliklarni aks ettirib, odamni ezgulikka, insonparvarlikka chorlash, ularni qaror toptirish va mustahkamlash kabi ezgu maqsadlariga hamohangdir.

Resume. The article talks about the fact that the novel “Sabo and Samandar” is a reflection of the writer Ulugbek Hamdam’s philosophical concept. It is analyzed that the writer skillfully used the tools of artistic psychology to reveal the idea of the work, which reflects the love scene of people who have risen above their inclinations in line with today’s life and worries. [1]

Резюме. В статье говорится о том, что роман “Сабо и Самандар” является отражением философской концепции писателя Улугбека Хамдама. Анализируется, что писатель умело использовал инструменты художественной психологии для раскрытия идеи произведения, в котором отражена любовная сцена людей, поднявшихся над своими наклонностями в русле сегодняшней жизни и забот.

[1] Улуғбек Ҳамдам. Сабо ва Самандар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 345.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

НОСИР ФОЗИЛОВ ЭССЕ-ХОТИРАЛАРИДА ИЖОДИЙ ҲАМКОРЛИК ВА ҚАРДОШЛИК РИШТАЛАРИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ

Абдуназаров Ўткир,
Термиз давлат университети Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси ўқитувчиси

Маълумки, ҳар бир миллий адабиёт ривожида адабий алоқлар ва ижодий таъсирнинг ўрни катта. Айниқса, минг йилликлар тарихи давомида бир булоқдан сув ичган қардош халқлар адабий меросига назар ташласак бу янада ёрқинроқ кўзга ташланади. Хусусан, атоқли қозоқ адиби Абай ижодида катта эпик жанрнинг юзага келишида Навоий ижодининг аҳамияти адиб томонидан чуқур эҳтиром билан эътироф этилади. Маълумки, ижодий ҳамкорлик ривожида таржималарнинг ўрни беқиёс. Ўзбек-қозоқ адабий аълоқаларининг мустаҳкамланишида ҳам ҳар икки халқ адабиётидан қилинган таржималар муҳим аҳамият касб этмоқда. Бу борада ,айниқса, "Ўзбек-қозоқ халқининг олтин кўприги" деган фахрий эътирофга сазовор бўлган адибимиз Носир Фозиловнинг хизматлари беқиёс.

Қозоқ диёрида таваллуд топиб, ўзбек юртида камол топган адиб талабалик йилларидаёқ ёш, тажрибасиз бўлсада атоқли қозоқ ёзувчиси Собит Муқоновнинг "Ҳаёт мактаби" номли автобиографик романи таржимасига қўл урди. Ушбу таржиманинг амалга оширилиш тарихи хақида Носир Фозиловнинг "Яхшиларга ёндашиб" эссе-хотирасида батафсил тўхталиб ўтилган. Дастлабки номи "Менинг мактабларим" деб номланган ушбу роман автобиографик роман бўлиб адиб уни ўқиб чиққанидан сўнг таржима қилишга иштиёқ сезгани ва Миртемир домладан маслаҳат сўрагани, домла оқ фотиҳа бергани, романни ихчамлаштириб беришини илтимос қилиб Собит Муқоновга мактуб ёзганлари, таржима муваффақиятли чиқиб ўзбек тилига нашр этилгани ҳақидаги ҳикоялар ўрин олган. 1956 йилда эса Ғабидин Мустафиннинг "Қарағанда" романини ўзбек тилига ўгириб, нашр эттирди.

XX асрнинг ўттизинчи йилларгача барча туркий халқлар араб алифбосидан фойдаланганликлари сабабли бир-бирларини тушунишда таржимонларга унчалик эҳтиёж сезилмаган, адабий алоқалар ўз-ўзидан давом этаверган бўлса, имломиз ўзгартирилиб, аввал лотин, сўнгра кирил алифбосига ўтилиши бу борада ҳам ўзига хос муаммоларга йўл очди.

Натижада энг яқин тилли халқлар ҳам адабий меросни англашда таржимага эҳтиёж сеза бошлади. Носир Фозиловнинг таъбирича: "*Ушбу "ислоҳотлардан" кейин туркий халқлар маънавий узоқлашиб, бир-бирининг адабиётини ўқиёлмай қолди. Бу эса бўлиб келаётган адабий аралашувимизни издан чиқарди. Натижада таржимонларга эҳтиёж юзага келди*"[1]. 1958 йилда Носир Фозилов таржимасида Қалмахон Абдуқодировнинг "Ҳожимуқон" қиссаси нашр этилди. Қозоқ паҳлавони бўлган Ҳожимуқон афсонавий шуҳратга эга бўлиши билан бир қаторда ўзбек халқига ҳам суюкли бўлган, шу сабабли бу қисса юртимизда олти маротаба нашр этилди.

Носир Фозилов моҳир таржимон сифатида Собит Муқоновнинг "Чўлоқ полвон" қиссасини, "Чўпон боласи" романини, Ғабит Мусреповнинг "Қозоқ солдати" ҳамда Абай Қўнанбоевнинг танланган асарларини ўзбек тилига ўгиришда қатта хизмат қилди. "*Таржима дегани жумладан-жумла кўчириш эмас, балки ўша жумланинг негизида ётган маънони ўзбекчалаштириш, ўзбекчалаштирганда ҳам сайратиб, ўқувчи қоқилмайдиган, роҳат қилиб ўқийдиган асар қилиб беришдан иборат эканини тушундим*"[2]. Умуман олганда, Носир Фозиловда икки халқ вакилига хос қардошлик туйғуси барқ уриб туради, бадиий ижодининг асосий мавзуси ҳам шу халқларнинг муштарак орзу-умидлари, турмуш тарзи билан узвий боғлиқ ҳолда тасвир этилади. Адиб қозоқ халқиининг яшаш тарзи, урф-одатлари ва тилини яхши билганлиги учун хам таржималарида асарлардаги миллий колоритни ҳаққоний сақлаган ҳолда, маъно қатламларини яхши очиб бера олади. Ўзбек ва қозоқ халқи азалдан бир-бири билан ёнма-ён яшаб, ҳамиша бир-бирига ўзгача

[1] "Ижодкор" адабий бирлашмаси раҳбари А Пратов билан суҳбат. https://saviya.uz.

[2] "Топдиму йўқотмадим". – Тошкент: Шарқ, 2010 йил. 45-бет.

бир меҳр билан яқиндан назар ташлаб бир-бирини қўллаб қувватлаган. Шунинг учун ҳам икки халқ ижодкорлари ижодида бу жиҳатлар яққол намоён бўлади. Носир Фозилов қайси халқ адабиётидан таржима қилмасин, шу халқнинг ўзига хос тили, қиёфаси, урф одатлари яққол сезилиб туради, бу эса ўша таржима қилинган китобнинг фазилатига фазилат қўшади. Қозоқ ва ўзбек адабиётидаги ижодий ҳамкорлик, айниқса, ўтган асримизда юксак нуқтага кўтарилди. 1935 йилда Сакен Сайфулин, Илёс Жонсуғаров, Султонмаҳмуд Тўрайғиров, Асқар Тўқмағанбетов каби оташнафас қозоқ шоирларининг шеърлари Уйғун ва Тойир Жарўқов таржимасида "Қизил дала" номи билан Тошкентда чоп этилган бўлса, 1938 йилда Ғайратий шеърлари, Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари Абдулла Тожибоев томонидан қозоқ тилига таржима қилингани фикримизга исботидир.

1945 йили қозоқ халқининг улуғ шоири Абай Қўнанбоев таваллудининг юз йиллиги муносабати билан унинг танланган асарлари Миртемир, Уйғун, Ғулом Шодилар томонидан таржима қилиниб илк бор ўзбек тилида нашр этилади. Умуман олганда ўзбек ва қозоқ адабиётлари ўзаро ҳамкорлик жараёнида бир-биридан қувват олиб, юксалиб бораверади. Носир Фозилов эссе-хотираларида бу икки миллат адиблари бир-бирлари билан яқин ҳамкорлик қилиб ижод қилганликларини кузатишимиз мумкин. Ўзбек ва қозоқ адибларининг ўзаро хамкорлик жараёнини таниқли адабиётшунос олим Озод Шарфиддинов шундай деб таърифлаган эди: "*XX аср бошларида ўзбек адиби Абдулла Қодирий яратган романлар қозоқ ёзувчилари учун ҳам адабий мактаб бўлгани ҳақида Мухтор Авезов кўп ёзган... Қозоқ адабиётидаги эпиклик, халқ оғизаки ижодиётига мойиллик каби хислатлар, асосан, муттоз адабиёт анъаналари руҳида шаклланган ўзбек адабиётини янада ёрқин ранглар билан бойитишга муносиб ҳисса қўшди. Икки халқ адабиёти вакилларини бамисоли эгизакка ўхшатиш мумкин, зеро, Мухтор Авезов ва Ойбек, Ғафур Ғулом ва Собит Муқонов, Абдулла Тожибоев ва Миртемир, Абдулла Орипов ва Ўлжас Сулаймоновлар адабиёт майдонига бир-бирига ҳамнафас бўлиб қалам сурдилар...*"[1]. Мунаққиднинг юқорида келтирилган таърифи бу икки халқ адабиётининг нечоғлик муштарак эканлигидан далолат бериб турибди. Айтиб ўтиш жоизки, театрларида ўзбек адибларининг драмалари саҳналаштирилганлиги, жумладан, Чимкент шаҳридаги ўзбек театрида атоқли адиб Муҳаммад Алининг "Навоий ва Бойқаро" драмаси, Сайловбой Жумағулов, Мирпўлат Мирзо ҳамда Эркин Хушвақтовларнинг бир неча пьесалари қўйилганлигини кузатишимиз мумкин. Ўзбекистонлик томошабинлар ҳам қозоқ адибларининг кўплаб драматик асарларидан баҳраманд бўлган. Жумладан, Мухтор Авезовнинг "Абай", Ғабит Мусреповнинг "Ипак қиз", Абдулла Тожибоевнинг "Кўтарилган гумбаз", Шакен Аймановнинг Абайнинг болалиги ҳақидаги "Абай эл фарзанди", Қувондиқ Шанғибетовнинг "Жон қизлар", Олтинсоч Жаҳонованинг "Ҳазрати аёл" каби драматик асарлари мамлакатимизнинг қатор театрларига саҳналаштирилган.

Қозоғистонда ҳам ўзбек шоир ва ёзувчиларининг кўплаб асарлари қозоқ тилига таржима қилиниб, қозоқ ўқувчиларига етказиб берилди. Булар ичида Алишер Навоийнинг "Танланган асарлари", Садриддин Айнийнинг "Қуллар", "Дохунда", "Бухоро жаллодлари", Абдулла Қодирийнинг "Ўтган кунлар", Ойбекнинг "Қутлуғ қон", "Навоий" романлари, Ғафур Ғуломнинг "Шум бола" қиссаси ҳамда шеърий тўплами, Уйғун, Миртемир ва Зулфиянинг шеърий тўпламларини, Абдулла Қаҳҳорнинг "Синчалак" қиссаси ва ҳикоялар тўплами, Шароф Рашидовнинг "Бўрондан кучли", Асқад Мухтарнинг "Опа-сингиллар", "Туғилиш", Мирмуҳсиннинг "Йўқолган гавҳар" асарларини, Саид Аҳмаднинг "Келинлар қўзғолони" пъсасини, Носир Фозиловнинг "Оқим" қиссасини, Тоғай Муроднинг "От кишнаган оқшом" каби прозаик асарларини санаб ўтишимиз мумкин. Келажакда ҳар икки халқнинг шоир ва ёзувчилари ўртасидаги ижодий ҳамкорлик янада ривожланишига умидвормиз. Алишер Навоий ва Абай Қўнанбоев каби буюк бобокалонлар тамал тошини қўйган, Абдулла Қодирий ва Ахмет Бойтурсинов, Ҳамза ва Сакин Сайфулин, Комил Яшин ва Илёс Жонсуғиров, Ойбек ва Мухтор Авезов, Ғафур Ғулом ва Собит Муқонов, Абдулла Қаҳҳор ва Ғабит Мусрепов, Миртемир ва Абдулла Тожибоев, Одил Ёқубов ва Қалтай Муҳеммаджонов, Абдулла Орипов ва Қодир Мирзалиевлардек адабиёт дарғаларини бошлаб берган, ҳозирги даврда кўплаб шоир, ёзувчилар давом эттираётган ижодий ҳамкорликнинг бундан буён ҳам янада юқори даражага кўтарилишига ишончимиз комил. Носир Фозилов эссе-хотираларини ўқиганда ўқувчи ўзбек ва қозоқ халқининг узилмас ришталарини сезгандек бўлади. Бу ришталар кўринмас арқон билан боғлангандек туюлади кишига. Болалар шоири Пўлат Мўмин адиб шахсиятига шундай фикр билдириб ўтади. "*Носир Фозил исми жисмига мос адиблардан. Унинг асарларида соддалиги ҳам, фозиллиги ҳам сезилиб туради. Тил ҳамма учун тушунарли ва ёқимли. Инсон сифатида бошқаларга ғамхўр ва меҳрибон. Таржималари жуда тиниқ, таржимага*

[1] Ўзбек ва қозоқ адабий аълоқалари. Мақолалар тўплами. – Тошкент: Машҳур пресс, 2018. – Б. 3-4.

ўхшамайди. Қардош қозоқ халқи ҳаёти тўғрисида ўзбек ёзувчиси ёздимикин, деб ўйлаб қоласан. Севимли адибимиз Носир Фозиловни ўзбек-қозоқ халқлари ўртасидаги бузилмас кўприкка ўхшатгим келади"[1]. Носир Фозилов ижодининг ажралмас қисми бўлмиш хотираларими ёки бўлмаса ёзган ҳикоя, қиссалари бўладими, албатта, қаҳрамонлар ичида қозоқ миллати вакилини учратасиз, шу қаҳрамон орқали адиб қозоқ халқининг туриш турмуши, яшаш тарзи, одамийлигини кўрсатишга ҳаракат қилади. Бу кўринишлар сабабли адиб ижодида қардошлик ришталарини уфуриб турганлигини кузатишимиз мумкин. Бундай ҳолатларни бошқа адибларимиз асарларида ҳам учратамиз. Носир Фозилов "Ойбек домла" ёдномасида шундай эслайди: "*Ҳа Ойбек домла қозоқ биродарларини чуқур ҳурмат қиларди. Мен домланинг қутлуғ хонадонида бунақанги талай-талай учрашувларнинг гувоҳи бўлганман. Мен бу меҳр-муҳаббатни, оқибатни 1962 йил май ойида Қозоғистонда бўлиб ўтган ўзбек адабиёти ва санъати декадаси пайтида Ойбек домлани қозоқ ёзувчилари бошларига кўтарганларида, Ойбек домла ўзининг "Қутлуғ қон" романида қозоқ халқининг вакили Ўрознинг тўлақонли образини муҳаббат билан чизганида, "Навоий" романида қозоқ Тўғонбек образини алоҳида меҳр билан яратганида, "Болалик" асарида қозоқ далаларини ихлос билан тасвирлаганида ҳис қилганман. Буларнинг бари ихлос ва беқиёс меҳр туфайли эканлиги шубҳасиздир. Бунақа мисолларни айтаверса тугамайди*"[2]. Бу икки қардош халқ адиблари ўртасидаги меҳр-оқибат Носир Фозилов хотираларида кўтаринки руҳда ва ҳаққоний тасвирлар асосида кўрсатилади. Айнан шу ёдловда Ойбек домланинг меҳмонни яхши кўриши, айниқса, қозоқ ёзувчиларидан Мухтор Авезов, Собит Муқонов, Абдулла Тожибоев, Ғабит Мусрепов, Ғабидин Мустафинлар келганида Ойбек ўзининг қон-қариндоши келгандай улар олдига пешвоз чиқиб қучоқ очиб кутиб олиши, уларни иззат-икром қилиши, чеҳраси очилиб суҳбатлашиши икки халқ қардошлигининг бир-бирига меҳрибонлигининг ёрқин намунасидир. Бир сафар қозоқ адиби Мухтор Авезовнинг Ойбек домлани уйига меҳмон бўлиб келгани, бу суҳбатга Носир Фозиловни ҳам иштирок этгани, икки ёзувчининг шарқ файласуфлари ҳақидаги самимий суҳбати, уларнинг чеҳрасидаги бир-бирига бўлган меҳр, яқинлик ҳисси каби кўринишлар муаллиф томонидан чиройли тасвирланади. Гарчи бу буюк сиймолар бугун орамизда бўлмасалар ҳам, уларнинг бизга мерос қилиб қолдирган адабий дўстликларининг шуъласи икки халқнинг ёш авлодига маънавий озуқа бўлиб хизмат қилади. Машҳур қозоқ ёзувчиси Мухтор Шаханов "Дўстлик қадри" мақоласида шундай фикр келтиради: "Адабиётнинг хизмати беқиёс, улкан дарёлар бор. Улар ҳеч бир чегара, тўсиқни тан олмайдилар, турли мамлакатларни кесиб ўтиб, барчасига баробар обиҳаёт улашадилар. Улкан ёзувчилар ҳам ўшандай дарёларга ўхшайди. Истайсизми, истамайсизми, адабиётни алоҳида, катта шахслар яратади. Катта шахсларнинг дўстлиги эса халқларнинг дўстлигига айланади. Шу маънода мен Ғафур Ғулом, Ойбек, Миртемир, Шайхзодалар билан Мухтор Авезов, Собит Муқонов, Ғабит Мусреповларнинг дўстлигига доимо ҳайрат билан қарайман. Улардан кейинги авлодлар ўртасида тиғиз алоқалар ўрнатилмаганидан ачинаман, ташвишга тушаман. Зотан, ижодкор ўз шахсининг эмас, ўз халқининг манфаати учун ҳам бошқа халқ вакиллари билан дўстлашишга мажбур. Ахир Ғафур Ғулом билан Собит Муқоновнинг нафақат расмий, балки ўзаро оилавий учрашувлари, боди-келдилари ҳам бутун халқ, адабиёт аҳли ўртасида байрамга айланиб кетмасмиди?! Улар дўстлашишни, бир-бирларининг ижодларига, шахсий ҳаётларига таъсир ўтказишни билишар эдилар"[3]. Дарҳақиқат, ижодкорларнинг шахсий дўстлиги орқали адабиётларнинг дўстлиги шаклланади. Катта шахсларнинггина бир-бирига яқин биродарлиги халқларнинг дўстлигига замин ҳозирлайди. Бундан ҳам муҳими адабий алоқалар, қардошлик ришталари, миллий адабиётлар тараққиётининг ўзаро бойишига муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Адибимиз Носир Фозиловнинг эссе-хотиралари жамланган "Устозлар даврасида", "Устоз сўзлаганда", "Эсласанг кўнглинг ёришур", "Топдиму йўқотмадим", "Мунаввар лаҳзалар" каби воқеий-хотиралар китобларини ўқиганда ўқувчига бевосита ўзбек ва қозоқ адибларнинг адабий ва абадий дўстлик муносабатлари ҳақида ёрқин тасаввур пайдо бўлади.

Resume: This article tells about the important role of the famous writer Nasir Fazilov in the Uzbek-Kazakh literary relations, as well as about his translation activities.

Резюме: В данной статье рассказывается о важной роли известного писателя Насира Фазилова в узбекско-казахских литературных связях, а также о его переводческой деятельности.

[1] Ғира-шира шомдан оппоқ тонгача. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 2017. – Б. 26.
[2] Топдиму йўқотмадим. – Тошкент: Шарқ, 2010. – Б. 105.
[3] Ўзбек ва қозоқ адабий аълоқалари. Мақолалар тўплами. – Тошкент: Машҳур пресс, 2018. – Б. 92-93.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK-TURK ADABIY ALOQALARI GENEZISI

Tuliboyev Sarvarbek Dilmurodovich,
Termiz davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Dunyodagi barcha millat va elatlarning o‘zaro aloqalari insoniyatning o‘zi kabi qadimiydir. Moziyga nazar tashlar ekansiz, tarix sahnasida paydo bo‘lgan xalq borki hududiy va ma'naviy o‘zaro yaqin bo‘lgan elatlar bilan turli jabhada aloqa o‘rnatganligini ko‘ramiz.

Ayni damda o‘ziga xos taraqqiyot jarayonidagi xalqlarning ozodlikka yo‘naltirilgan maqsad, intilishlarida ham xuddi shunday chambarchas bog‘liqliklarni his etishimiz mumkin. Bu ayniqsa, dini, tili, urf-odatlari, dunyoqarashi yaqin millatlarda yanada kuchliroq seziladi. Xalqaro aloqaning behad jozibador shakllaridan biri bo‘lgan o‘zaro adabiy aloqalar misolida ham o‘zgacha go‘zallik va nafosatni ko‘rishimiz mumkin. Chunki, bir oilaga mansub turkiy xalqlarning so‘z san'ati sarchashmalari yagonaligi va birligi bilan xarakterlanadi. Hatto turli ijtimoiy o‘zgarishlar, siyosiy ziddiyatlar davrlarida ham mushtarak adabiy an'analar o‘z mohiyatini yo‘qotmagan. Tabiiyki, bu ezgu hol xalqlarning iymon-e'tiqod yo‘sini, turmush-muhit tarzi hamohangligi bilan izohlanadi. Aytish mumkinki, taraqqiyotning shunday ajib qonuniyati sababli uzoq moziydan o‘tib kelgan “Kul Tegin”, “To‘nyuquq”, “Bilga xoqon” bitiklari, badiiy namunalar umumturkiy obidalar, barcha turkiy millatga xos bebaho meros sanaladi. Mana shunday tarixiy jarayon sababli bugungi turkiy millatlar o‘tmishdagi o‘nlab allomalari ijodlaridan birdek iftixor hissini tuyadilar. Ularning asarlari ruhida ardoqli milliy qadriyatlar tarannumini va umuminsoniy g‘oyalar tajassumini ko‘radilar.

O‘zbek xalqi qadimdan qardosh xalqlar, jumladan, turkiy xalqlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘lib keldilar. Amir Temur va undan keyingi temuriylar davrida yetishib chiqqan Shohruh Mirzo, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Ulug‘bek, Bobur Mirzo, Ali Qushchi kabi turkistonlik buyuk shoh, olim va shoirlar ta'sirlari Turkiyada ham kuchli bo‘ldi. Undan so‘nggi asrlarda ham bu aloqalar davom etdi.

Tarixdan ma'lumki, Turkiya XIV-XV asrlarda jahonning ilg‘or madaniy mamlakatlaridan biri edi. Sulton Boyazid II temuriyzodalar bilan do‘stona munosabat o‘rnatib, ikki mamlakat o‘rtasida faqat savdo emas, ayni paytda madaniy aloqalarning ham ravnaq topishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Mirzo Ulug'bek vafotidan keyin talaygina samarqandlik ilm va madaniyat ahlining turkiyaga borib qolishi tasodifiy emas. Ali Qushchining Turkiyadagi faoliyati tufayli Mirzo Ulug‘bek o‘sha davrdayoq Yevropaga tanildi. Ulug‘bek astronomiya maktabining buyuk namoyondasi Qozizodaning nabirasi Miram Chalabiyning “Dastur ul-amal tasxih al-jadval” (“Ulug'bek jadvaliga sharhlar”) asarining Boyazid II iltimosiga ko‘ra yozilishi esa turk sultonining o‘zbek ilm-fani va madaniyatiga katta hurmat-e'tibor bilan qaraganidan dalolatdir[1].

Ma'lum bo‘lishicha Sulton Boyazid II davr taqozosi bilan o‘z yurtiga sig‘magan o‘zbek olimlari va hunarmandlarini Turkiyaga taklif etibgina qolmay, Sulton Husayin Boyqaro va Alisher Navoiy bilan ham yaqin aloqada bo‘lgan. Xususan, Alisher Navoiy unga o‘z g‘azallarini yuborib turgan. Boyazid II esa, o‘z navbatida, bu g‘azallarni Ahmad Posho ismli eng mashhur turk shoiriga nazira bog‘lash uchun bergan.

Shu o‘rinda Ahmad Posho haqida bir-ikki so‘z:

XV asr turk adabiyotining eng yorqin yulduzlaridan bo‘lgan shoir Ahmad Posho (Ahmed Paşa), o‘sha vaqtda Usmonlilarning poytaxti bo‘lgan Edirna shahrida tug‘ildi. Uning otasi Valiyuddin Ilyos Murod II ning qoziaskari, ya'ni bosh harbiy qozisi edi. O‘z davrida yaxshi ma'lumot olgan Ahmad Posho faoliyatini Bursadagi Murodiya madrasasida mudarrislikdan boshladi. Tez orada Edirna qozisi bo‘ldi. 1451 yil taxtga o‘tirgan Fotih Sulton Mehmet nazariga tushgan Ahmad Posho qoziaskar, shahzodalar otabegi va vazir lavozimigacha ko‘tarildi. Vazir Ahmad Posho ko‘plab shoirlarga valine'matlik qiladi, ustozi Malihiyni sultonga tanishtirib, hurmatini bajo keltiradi. Sulton undan askarlar ma'naviyatini yuksaltirishda ham foydalanadi. Manbalarda qayd etilishicha, u o‘zining nafosatliligi va sinchkovligi tufayli qo‘shinda “sipohi muftiy” nomi bilan tanilgan[2]. Ammo saroydagi kurashlar shoir Ahmadiyni ham chetlab o‘tmaydi. Shoirning “axloqsiz”ligi haqida podshoga chaquv bo‘ladi va Ahmad Posho zindonga tashlanadi.

Edi-Kule (Yetti minora) zindonida yotgan shoir “Karam qasidasi”ni yozib sultonga yetkazadiki;

[1] Karimov N. Alisher Navoiy va Ahmad Posho // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2002 yil, 21-iyun.

[2] İslâm Ansiklopedisi. Türkiye diyanet vakfi. İstanbul. 1989. 2 cilt. – B. 111.

“Qullarning adashmog‘i mumkin, ammo podshoning avfi qayerda” misralarini o‘qigan shoh shoirni avf qilib Bursaga jo‘natadi. Shoir Bursada Orxan va Murodiya madrasalarida dars beradi. Keyinchalik Anqara sanjaqbeyi etib tayinlanadi, Mehmet II ni vafotidan so‘ng taxtga chiqqan Boyazid II Ahmad Poshoga iltifot ko‘rsatib Bursa sanjaqbeyligini beradi. Ayrim manbalarda Ahmad Posho oila qurmaganligi aytilsa, boshqalarida Fotih Mehmet Ahmadni To‘ti ismli joriyaga uylantirgani, shoirning bir qizi bo‘lib, qizi ham, xotini ham erta vafot etgani, undan so‘ng Ahmadning oila qurmaganligi aytiladi. Ahmad Posho umrining oxirigacha Bursada yashaydi va 1497 yil qazo qilgach o‘zi qurdirgan madrasaga dafn qilinadi[1].

Ahmad Posho Turkiyada sharq madaniyatining mumtoz siymolardan biri sifatida hanuzgacha qadrlanib keladi. Navoiyga qadar bo‘lgan turkiy adabiyot fors she’riyatining kuchli ta’siri ostida rivojlandi. Boyazid II ning fikriga ko‘ra, Navoiy she’riyati an’analarining turk adabiyotiga kirib kelishi, bir tomondan turk shoirlarning mahoratlari oshishiga, ikkinchi tomondan esa, mumtoz fors shoirlari ta’siridan xalos bo‘lishiga yordam berishi mumkin edi. Shuning uchun ham Navoiyning 33 ta g‘azalini Ahmad Poshoga berib, bu g‘azallarga tatabbu yozishni buyuradi.

Manbalarda aytilishicha Alisher Navoiyning 33 g‘azali Turkiyaga 1480- 1481- yillari yetib boradi. Bu g‘azallarning Sulton Boyazid II ga Navoiyning shaxsan o‘zi tomonidan yuborilganligi, ayniqsa, muhimdir. Agar Sulton Boyazid II ning bu g‘azallariga tatabbu bog‘lash haqida Ahmad Poshoga buyruq bergani, Ahmad Poshoning esa g‘azallar buyuk shoirning emas, balki, Husayn Boyqaro vazirining asarlari bo‘lgani uchun ularga tatabbu bog’lashga kirishganini e’tiborga olsak, Navoiy bilan Boyazid II o‘rtasidagi munosabatlar, avvalo ikki davlat arbobi o‘rtasidagi munosabatlar sifatida gavdalanadi. Shunu taxmin qilish mumkinki, 1472- yilda Husayn Boyqaro saroyining bosh vaziri etib tayinlangan va “amiri kabir” unvoniga muyassar bo‘lgan Navoiy 1480-1481- yillarga qadar ham Boyazid II ga bosh vazir sifatida xat yozib turgan va Navoiy bilan Boyazid II o‘rtasida rasmiy, ayni paytda, do‘stona aloqa bo‘lgan. Agar ular o‘rtasidagi aloqa faqat rasmiy bo‘lganida Navoiy turk sultoniga hech qachon eng yaxshi 33 g‘azalini tuhfa sifatida yubormagan bo‘lardi[2].

Muhim jihati shundaki, Ahmad Posho o’z tatabbularini usmonli tilida yozgani uchun taqlid deb hisoblamagan. Navoiyning qaysi g‘azaliga tatabbu bog‘lagan bo‘lsa, shu g‘azalning ta’sir doirasidan biroz bo‘lsa-da chiqishga uringan. Agar Navoiy muhabbat taronalarini kuylashda ko‘proq quyosh obrazidan foydalangan bo‘lsa, Ahmad Posho oy obraziga murojaat etgan. Agar Navoiyning lirik qahramoni serviqor bo‘lsa, Ahmad Poshoning lirik qahramonida hazil-mutoyibaga moyillik ustuvor.

Shoir o‘zining Fotih Mehmet zamonidagi kunlarini eslab, o‘zini Alisher Navoiyga, Fotih Mehmetni Husayn Boyqaroga qiyoslashga ishora bor.

Ahmad Posho g‘azallarida muhabbat – bosh mavzu. Shoir o‘zini “muhabbat kuychisi” ekanligini aytadi. Sevgi jamiki shodliklarning, ayni paytda g‘am-anduhning sababchisidir, u oshiq-ma’shuq munosabatlarini tasvirlar ekan, tabiat ko‘rinishlaridan ustalik bilan foydalanadi:

Har kiminkim hamdami gul yuzli bir jonon o‘lur,
Xonasi jannat kibi doim bahoriston o‘lur,
Oshig‘u ma’shuqqa o‘xshar oftob ila zamin
Kim biri yig‘laguncha birisi xandon o‘lur.[3]

Muhimi, Ahmad Posho Navoiy g‘azallariga tatabbu bog‘lash jarayonida shoir sifatida bir pog‘ona yuqori ko‘tarilgan va o‘z ijodining gultoji bo‘lgan asarlarini yaratganki, bu asarlar turk mumtoz lirikasining oltin xazinasidan joy olgan. Bir so‘z bilan aytganda Ahmad Posho Navoiyning ijod gulshanida mavjud bo‘lgan xushboy tarovatni, badiiy nafosat chechaklarini turk she’riyatiga olib kirdi. Uning Navoiy lirikasidan bahramand bo‘lishi turk she’riyati ufqlarining kengayishi, tili va uslubining yanada milliylashishi, guzallashishi va saqlanishiga imkoniyat yaratdi. Binobarin Navoiy tufayli o’zbek-turk adabiy aloqalarining muhim bir tarixiy davri boshlandi, qolaversa, turk she’riyati taraqqiyoti tarixida har jabhada yangiliklar yuzaga kela boshladi.

Professor Mehmet Chavusho‘g‘li o‘zining 1976 yilda yozgan “Sultonlik davrining so‘nggiga qadar Anadoluda Navoiyning ta’siri haqida eslatmalar” sarlavhali maqolasida Navoiyning Usmonli she’riyatiga ta’siriga e’tibor qaratadi.

Alisher Navoiy va uning she’rlari Usmonli davlat arboblari tomonidan qay darajada baholangan? Avvalo, bu holatni to‘liq tushunishimiz uchun usmonlilar hamda temuriylarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatlardagi munosabatlariga teranroq nuqtai nazardan qarash kerak bo‘ladi.

Biz ushbu mavzuga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Mavjud manbalardan m’lum bo‘lishicha, Usmonlilar hamda Temuriylar o‘rtasidagi munosabatlarni ikki davrga asosan tahlil qilishimiz lozim.

Birinchi davr. Amir Temurdan Abu Said Mirzogacha bo‘lgan davr qamrab olingan. Bu davrning eng muhim voqeasi Boyazid I ning Amir Temur tomonidan tor-mor etilishidir. Usmonlilar bu mag‘lubiyatidan

[1] Alimbekov A. Turk adabiyoti tarixi /o’quv qo’llanma/ ToshDShI nashriyoti, 2005.

[2] Karimov N. Alisher Navoiy va Ahmad Posho // O’zbekiston adabiyoti va san’ati. 2002-yil, 21-iyun.

[3] Turk adabiyoti tarixi. (XIII-XVIII asrlar). Alimbekov A. tarjimasi // o’quv qo’llanma. ToshDShI nashriyoti. 2005.

keyin Mehmet II ga qadar temuriylarga soliq to‘lashga majbur bo‘ladilar. Bu davrning ikki muhim sultoni Amir Temur va Shohruxmirzo o‘z hukmronligi davrida Usmonlilar yerlari ustidan ham nazorat o‘rnatib, Suriya va Boltiq bo‘ylarigacha bo‘lan hududlarda yetarlicha hukmronlik qildi.

Ikkinchi davr. Husayin Boyqaro bilan boshlangan davr. Bu davrning eng muhim shaxslaridn biri bu shubhasiz Alisher Navoiy edi. Oldingi davrdan farqli o‘laroq, bu davrda Usmonlilar va Temuriylar munosabatlari boshqacha muhitda o‘zaro birlashadi. Abu Said Mirzoning Uzun Hasan tomonidan mag‘lubiyatga uchratilishi bilan yaqin Sharqda temuriylar hukmronligi zaiflashdi va biroz o‘tgach barham topdi. Temuriy shahzodalar esa ushbu voqeadan so‘ng avvalgi shon-shuhratlarini tiklay olmadilar. Temuriylar o‘z kuchini yo‘qotayotgan paytda bir tomondan Istanbulni olgan Usmonlilar, ikkinchi tomondan Qoraqo‘yunlular va Temuriylarni mag‘lub etgan Oqquyinlilar hukmron kuchga aylana boshladilar. Fotih Mehmet Sulton Uzun Hasan ustidan g‘alaba qozonganidan so‘ng esa Usmoniylar ham, Temuriylar ham yengil nafas oldilar. Ammo bu qulaylik uzoqqa cho‘zilmadi va tez orada barham topdi[1].

Bu davrda Usmonlilar va Temuriylar munosabatlari ham siyosiy, ham madaniy rivojlandi. Bu san’at va adabiyot nuqtai nazaridan o‘z tarixidagi eng yorqin davr edi. O‘sha davrda yashab o‘tgan Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy Hirotni butun islom va turk olamining ko‘z qorachig‘i sifatida tasvirlab, shuhratini olamga yoyishdi. Bir so‘z bilan aytganda Hirotni san’at va adabiyot shahriga aylantirishga erishdilar[2]. Bu davr Husayn Boyqaro vafotigacha davom etdi. Lekin Hirot madaniyat va san’at markaz bo‘lish borasida Istanbuldan bir qadam oldinda edi. Bunga ham ikkita muhim sabab bor. Birinchisi, Hirotning Istanbulga nisbatan eskiroq turk-islom poytaxti ekanligi, ikkinchisi, Usmonlilarning yangi imperiyaga aylanishi edi.

Ayniqsa Husayn Boyqaro Alisher Navoiy, Kamoiliddin Behzod yashagan yillarda Hirotga islom olamining turli burchaklaridan ilm ahli kirib kelgan. Bu davrda Hirot so‘fiylar, san’atkorlar va madaniyat ahlini o‘ziga tortadigan muhim markazga aylandi. Usmonli sultonlari va ziyolilari ham Hirot maktabiga nisbatan qiziqishlari asnosida, o‘zaro raqobatni kuchaytirishga harakat qiladilar. Masalan, Fotih Sulton Mehmed bilan, Hirot maktabiga yaqindan qiziqib, u yerdagi shoir va san’atkorlarni Istanbulga jalb qilishga harakat qiladi. Fotihning bu boradagi sa’y-harakatlari ham qadrlanadi. Anado‘lining Markaziy Osiyoga bo‘lgan qiziqishini, ular bilan bo’lgan madaniy aloqalarini ko‘rsatadigan yana bir nuqta bor. Ayrim manbalarga ko‘ra, bu davrda Anadoluda yashagan turklarning o‘z ildizlari ham aynan Markaziy Osiyoga borib taqalishi. Shuningdek turklarning so’zlashuvida Chag‘atoy shevasining foydalanishi ham bunga asos bo’ladi.

Birnbaumning yozishicha, Sulton Mehmed Fatih farzandlariga O‘g‘uzxon, Qo‘rqud kabi turkcha nomlar berishni boshlashi; Murod II davridagi tangalar va qurol-aslahalar ustidagi eski turk o‘ymakorligiga oid tamg‘alarini chizish, ba’zi davlat farmoyishlarida uyg‘ur yozuvidan foydalanish va h.k. voqealar bu qiziqishdan dalolat beradi. Nemis turkologi Zigrid Kleynmixel ham o‘z maqolasida xuddi shu nuqtai nazarga o‘rin beradi va Navoiy hamda Ahmad Posho munosabatlariga e‘tibor qaratadi[3].

Shu davrda yashab o‘tgan mashhur shoir Ahmadi Doiy[4] va Kirmonli Nizomiy[5]ning Chig‘atoy shevasida yozilgan g‘azallari ana shu qiziqishni ko‘rsatadigan yana bir ishoradir.

Professor Dr. Mehmet Chavusho‘g‘li bu borada shunday deydi: “Aslida Ahmad-i Doiy devonida Chig‘atoy talaffuzida yozilgan g‘azallari bo‘lsa ham Anadolu adabiyotining zabt etilishigacha bo‘lgan davrda O‘rta Osiyo madaniyatining davomi sifatida, menimcha, Navoiyning Onado’luda tan olinishi uchun zamin tayyorlagan siyosiy va madaniy infratuzilma uning butun turk dunyosida mashhur bo‘lishining eng muhim sababi, ehtimol, o‘sha asrdagi turkiylarning holati bilan bog‘liqdir[6].

Ma’lumki, Navoiy yashagan davrda, o’rta asrlarda Osiyoda ikki xil adabiy til mavjud edi: fors va turk. Navoiy yashagan XV asr boshida fors tili she’riy til sifatida yuksak cho’qqiga chiqdi. Chunki Attor, Sa’diy, Salmon, Dehlaviy, Hofiz kabi buyuk zotlar, shoirlar tufayli forsiy she’riyat butun Sharqqa, qolaversa, arablarga qadar yoyildi. Turklar esa o‘z tillarida she’r yozish o‘rniga fors tilini she’r tili sifatida qo‘llaganlar.

[1] Selahattin Tansel, Osmanlı Kaynaklarma Göre Fatih Sultan Melımed in Doğu Siyaseti, MEB. – İstanbul, 1971. – S. 299.

[2] Molla Cami (Jomiy), Baharistan, çev. Nuri Gençosman, MEB. – Ankara, 1945. – S. 165-167.

[3] Sigrid Kleinmichel, Mir ‘Alişer Nava’i und Ahmed Pasa. Archivum Ottomanicum, XVII. (1999), 79.

[4] Otasining ismi Ibrohim, bobosining ismi Mehmed. Ismi va taxallusi birga zikr etilgan Ahmad-i Doiy haqida ma’lumot beruvchi manbalarning barchasida tug’ilgan joyi va sanasi mos kelmaydi. Navoiy bilan zamondosh turk shoiri va jamoat arbobi. Doiyning vafot etgan sanasi noma’lum. Bursa shahrida uning nomi bilan atalgan masjid, mahalla va hammom bor. Masjid yonidagi Doy Dede ismli bir kishining qabri Ahmad-i Doiyga tegishli ekani aytiladi. (Manba: İslâm Ansiklopedisi. Türkiye diyanet vakfi. İstanbul. 1989-y. 2 cilt. 56-58-sahifalar)

[5] 1435-1473-yillarda yashab o’tgan turk shoiri. (Manba: İslâm Ansiklopedisi. Türkiye diyanet vakfi. İstanbul. 1989-y. 2 cilt. 56-58-sahifalar)

[6] Osman F. Sertkaya, “Osmanlı Şairlerinin Çağatayca Şiirleri IV”, TDED, CXIX, (1971), 5.

Navoiy ta'kidlaganidek, turk yoshlari butunlay fors tilida o'ylardi va ijod qilishardi.

Chig'atoy turklarida Navoiygacha bo'lgan davrda Sakkokiy va Lutfiy kabi zabardast shoirlar ijod qilgan va ular faqat devon sohibi bo'la olgan. Navoiyning o'zi ta'kidlaganidek, bu davrda turk tili "she'r tili" emas edi, uni qayta ishlash, she'r tiliga olib kirish kerak edi. Navoiy o'sha davr turkiy shoirlari kabi fors tilida she'r yozishni davom ettirib, she'r yozishga kirishmadi, aksincha, u hali tayyor bo'lmagan turk tilini sayqallab, ijod tili sifatida maydonga olib chiqdi. Bu tilda ham juda chiroyli she'rlar yozish mumkinligini yozgan she'rlari bilan isbotladi. Shuning uchun ham ko'p shoirlar, xususan, Abdurahmon Jomiy Navoiyning turkchaga yozilgan dastlabki ijod namunalarini kuzatib brogan va Navoiyning xizmatlari beqiyosligini, g'azallarining go'zalligini, o'zining turkiy she'rlarida alohida ta'kidlashgan[1].

XVI asrning ko'zga ko'ringan ulug' shoirlaridan biri Muhibbiy ham Alisher Navoiy ijodiga katta qiziqish bilan qaragan. Asli ismi Muhammad Emi bo'lgan Muhibbiy hijriy 1651-yili Damashqda tug'ilgan U Fazlulloh al-Muhibbiyning o'g'li bo'lib, Istanbul va Bursa, shuningdek, Damashqda mudarris, Qohira va Bayrutda qozi bo'lib ishlagan, turli asarlar yozgan, aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Muhibbiy turkiy va fors she'riyatiga qiziqib, ularni arab tiliga tarjima qilgan. Muhibbiyni o'z davrida shoirlar sultoni deb e'tirof etishgan. Usmonli she'riyati tarixida eng ko'p g'azal yozgan shoirlardan biri sifatida nom qozongan Muhibiy Navoiyning ko'plab g'azallariga nazira bog'lagan. Masalan, Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonidagi "Ko'ngul" radifli g'azalini misol qilishimiz mumkin:

Navoiy:

Nolani har nechakim eldin nihon aylar ko'ngul,
Seni sog'ing'ach yana bexud fig'on aylar ko'ngul[2].

Muhibbiyning javobini ko'rib chiqamiz:

Derd-i hicrini şeha gerçi nihan eyler gönül
İlle vaslun anıcak vay ki fig'an eyler gönül[3].

Ko'rinib turibdiki, bu matla juftliklari orasidagi dialekt farqlarini hisobga olmasak, unchalik katta farq yo'q. Navoiy sevgilisi uchun nola qilishni iloji boricha yashirishga harakat qildi, lekin uni o'ylab ko'rishni istamadi. U yorga murojaat qilayotganini aytadi. Muhibbiy ham xuddi shu xayoliy siymosini bir necha so'z bilan ifodalagan. U "Nola" o'rniga "derd-i hijron"ni ishlatadi, U "seni sog'ingach" o'rniga "vaslun acak"ni (doimiy yodda tutish)ni afzal ko'radi. Bundan tashqari, ko'rinib turibdiki, qofiya so'zlari ham deyarli farq qilmaydi.

Bu holatni Alisher Navoiyning "Badoye ul-vasat" devonidagi g'azallarida ham ko'rishimiz mumkin:

Ey, yuzung gulbargiga oshuftavu hayron sabo,
Telbalardek gulshani ko'yungda sargardon sabo.[4]

Muhibiyning javobi:

Gül yüzine olalı aşufta vü hayran saba
San yürir divanedür gülşende sergerdôn saba

Bu baytda Navoiy shunday deydi: "Tong shamoli atirgul barglaridek mahbuba yuziga qoyil qoladi. Xuddi telbadek atirgul bog'ida sarsonu-sargardon.

Muhibiy ham xuddi shunday tasvir usulini qo'llaydi. Faqat Muhibbiy ikkita o'zgarish qiladi. "*gulbarg"* o'rniga "*gul yuz*" ni, *"telba*" o'rniga *"devona*" so'zini qo'llaydi.

Endi Navoiyning "Navodir ush-shabob" devonidan o'rin olgan *"Koshki"* radifli g'azalga ham Muhibbiy tomonidan tatabbu bog'lanadi:

Ochmag'ay erding jamoli olam oro koshki,
Solmag'ay erding bori olamda g'avg'o koshki.[5]

Bu g'azalga Muhibbiyning javobi:

Kılmasam cana cemaliün ben temenna kaşkı
Salmasam dil mülkine her lahza gavga kaşkı.[6]

Atoqli olim Najmiddin Komilovning fikricha, Alisher Navoiyning "Koshki" radifli g'azaliga Abdurahmon Jomiy ham fikr bildirib, ushbu g'azalga tatabbu' bog'lagan.[7]

Ko'rinib turibdiki, Navoiy she'rlari ko'pgina usmonli shoirlari kabi Muhibbiy tomonidan ham o'rganilib, uga nazira tarzida bir qancha she'rlar tartibga solingan. Hatto, ba'zi matla'lar ham o'z holicha qolgan. Darhaqiqat, boshqa shoirlarning bayt va g'azallarini bunday qabul qilish Sharqda ko'chirish, o'g'irlik yoki tayyor oshga bakovul kabi qabul qilingan. Lekin, shunday shoirlar borki, ularning ijodi hamma tomonidan qabul qilinadi, ularning she'rlariga tatabbu bog'lash yoki ularga ergashish sharaf deb hisoblanadi. Bular she'riyatning eng buyuk namoyondalari, masalan Rumiy, Hofiz, Sa'diy va boshqalardir. Navoiy ham shu darjada ediki, turkiy she'riyatda unga ergashish, uning g'azallariga tatabbu bog'lash, muallif uchun sharaf, qolaversa buyuk yozuvchiga bo'lgan cheksiz ehtirom natijasidir.

[1] Molla Cami (Jomiy), Baharistan, çev. Nuri Gençosman, MEB. – Ankara, 1945, 165-167.

[2] Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 6-jild. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 268.

[3] Osmanli araştirmalari XXVI. Alişir Nevai'nin osmanli şiirine ve kanuni sultan Süleyman'a tesiri ve sebepleri üzerine. Yusuf Çetindag. – İstanbul, 2005.

[4] Alisher Navoiy. Badoye ul-vasat / Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 5-jild. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 31.

[5] Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob / Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 4-jild - Toshkent: Fan, 1990. – B. 453-454.

[6] Osmanli araştirmalari. XXVI. Alişir Nevai'nin osmanli şiirine ve kanuni sultan süleyman'a tesiri ve sebepleri üzerine. Yusuf Çetindag. – İstanbul, 2005.

[7] Komilov N. Adabiyot va uch buyuk zot. //O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2004 yil 6-son.

Resume: The literary relations of the Uzbek people with the peoples of the East, including the Turks, date back to ancient times. Throughout its development, it has taken on different directions and characteristics under the influence of different historical conditions. These relations, especially during the reigns of Alisher Navoi and Hussein Boykaro, began to develop under the influence of socio-political changes. This article talks about the genesis of Uzbek-Turkish literary relations.

Резюме: Литературные связи узбекского народа с народами Востока, в том числе и с тюрками, восходят к глубокой древности. На протяжении своего развития она принимала различные направления и характеристики под влиянием различных исторических условий. Эти отношения, особенно в период правления Алишера Навои и Хусейна Бойкаро, стали развиваться под влиянием общественно-политических изменений. В данной статье анализируются о генезисе узбекско-турецких литературных связей.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"LOLAZOR" ROMANIDA HAYOT VOQELIGINING MAJOZIY, KO'P QATLAMLI BADIIY PSIXOLOGIK TASVIR USULLARI

Berdiyeva Nazira O'ralovna,
Termiz davlat universiteti boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Jahon adabiyoti durdonalari xazinasiga kirgan asarlarni umrboqiylikka daxldor bo'lishining asosiy sabablari ularning eng avvalo umumbashariy g'oyalar bilan to'yinganligi, geografik chegara bilmasligi, kuchli psixologizm mahsuli ekanligi hamda qiziqarlilik, yuksak pafos bilan yozilganligi, ijodkorning iste'dod darajasining so'zda in'ikos topishi, ruhiy quvvati va badiiy yuksakligi, falsafiy mohiyati bilan o'lchanadi. Tabiiyki, har bir adabiy turga mansub janrda yaratilgan san'at asarlari ijodkorning falsafiy, ijtimoiy, axloqiy qarashlarining romandagi badiiy sintezi mahsulidir.

Milliy zamonaviy nasrimizda alohida hodisa sanalgan iste'dodli yozuvchi M.M.Do'stning tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan "Lolazor" romani, "Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G'aybarov", "Mustafo", "Iste'fo" qissalari ham falsafiy, ijtimoiy, axloqiy qarashlarni o'zida yuksak badiiylikda aks ettirgan.

"Lolazor" romanini falsafiy, ijtimoiy axloqiy jihatdan tahlil va talqin qilishdan oldin bir haqiqatni ham ta'kidlash joiz: chunki har qanday badiiy asar matnlararo aloqaning hosili bo'lib, unda o'zgacha yaratilgan ma'naviy durdonalarning badiiy sintezi in'ikos topadi. Shu nuqtai nazardan qaraganimizda M.M. Do'stning "Lolazor" romani ham o'zigacha bo'lgan jahon va milliy nasrimiz an'analari, g'oyalari, uslublarini stilizatsiyasidan iborat. O'z davrining ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy, axloqiy fojialarini boricha dramatik va tragik pafosda aks ettirgan jahon adabiyoti durdona asarlarining ham sevimli, o'qimishli ekanligining eng muhim omili ularning haqsizlik, adolatsizlik, zulm-zo'ravonlikning avra-astarini titganligidadir. Bunga Stendal, Mopassan, L.Tolstoy, F.Dostoevskiy, E.Xeminguey, M.Bulgakov, L.Andreyev, B.Pasternak, M.Sholoxov, Jon Steynbek, Jorj Oruell, G.Markes, Ch.Aytmatov asarlari guvohdir.

Sevimli yozuvchimiz M.M.Do'st ham dunyoning ulug' titanlari yo'lidan borib o'z davri – turg'unlik zamonlari fojialarini "Lolazor" romanida yuksak badiiylik va falsafiiylikda, ijtimoiy istehzo va majozlarga boy tarzda ijtimoiy tuzum dramalarini tasvirlagan.

M.M.Do'st, T.Murod, E.A'zam, A.A'zam kabi 80-yillar avlodi yozuvchilari ijodida kuzatilganidek, N.Eshonqul, A.Yo'ldosh, Z.Qurolboy qizi, S.Vafo, L.Bo'rixon, I.Sulton, U.Hamdam singari 90-yillar avlodi nasrida ham ayni jihat ko'zga yaqqol tashlanadi. Inson va olam fenomenini metaforik uyg'unlashtirish usuli nasriy ijodning deyarli barcha janrlarida uchraydi.[1] Barcha davrlarda badiiy adabiyotning vazifasi bir xil bo'lgan, ya'ni "Adabiyot – insonni tushunishga urinishdir. Har bir ijodkor, har bir asar insonni qaytadan,

[1] Ботирова Ш. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий психологизм (Улуғбек Ҳамдамнинг "Мувозанат", "Исён ва итоат", "Сабо ва Самандар" романлари мисолида) ф.ф.д (PhD) дисс… Қарши, 2019. 66-б.

yangitdan, mutlaqo o‘zgacha nuqtai nazarlardan tushunishga harakatdir..[1]

Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o‘rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma’naviy va ma’rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o‘tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido –yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolotning o‘zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o‘zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o‘rtasidagi kurashda ifodalanadi.

Yaxshiboyevning Oshnodan farqli tomoni u o‘zi yashayotgan nosog‘lom muhitning fojiasini aniq biladi. Uning kinoyalari, odamlar haqida to‘qigan latifalari, ongining ostki qatlamlarida tez-tez isyon ko‘taradigan, ammo buni hech kim anglamaydigan fikrlari ichdan vayron bo‘lgan soxta tuzumning mukammal mundarijasi, deyish mumkin.

Mansab pillapoyalarilaridan birin-ketin ko‘tarila boshlagan Oshno Bulduruqqa keladi. Hotam Sho‘ro boshchiligidagi katta-kichik rahbaru xodimlar uni munosib kutib olish taraddudida, ammo kelayotgan yangi rahbarning Oshno ekanligidan bexabar. Sir ochilgach, Hotam Sho‘ro ham, Yaxshiboyev ham behad quvonishadi.

–E Nazarboy, bu, qiziq ish bo‘pti-ku!..

– Nima bo‘pti, -dedi Yaxshiboyev, - ho‘kiz tug‘ibdimi, Sho‘ro buva?..[2]

Oshno (*Xorun Kalonov, Nazar Yaxshiboyev uni Xorun ar-Rashidga o‘xshatadi. Ta’kid bizniki–N.B.*) yuqori mansabga ko‘tarilsa ham insoniylik, kamtarinlik, samimiyligini saqlab qoladi. Bolalikdagi qadrdoni va Hotam Sho‘roni katta mansabdorday emas, o‘zining qadrdonlariday quchoqlab bag‘riga bosadi, ular bilan o‘zining yaqin kishilaridek gaplashadi. Oshno Yaxshiboyevning “–Oldinroq aytsang o‘lasanmi? Yo‘q, rostini so‘zla, tag‘in bizni aldayotgan bo‘lma, g‘unajin azobiga yo‘liqasan lekin!” degan xalqona haziliga ham kulib turaveradi. Oshnoning izzattalab emasligi, o‘zaro suhbatdan ayon bo‘ladi. U bir hafta davomida o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyda qoladi, a’zali xonadonlarga kiradi, keksalarning duosini oladi, oqsoqollar bilan kengashib, ularning nasihatini oladi. Bulduruqlik bolalarga atab olib kelgan bir qop o‘yinchoqni tarqatadi. Hatto ilg‘or sog‘uvchi xotinning ko‘zi yoriganda erining iltimosiga ko‘ra unga Komron deb ism qo‘yadi. Yozuvchi rahbar xodimning xalqqa oqibatli bo‘lishining oqibatini hayotiy, ishonarli tasvirlaydi. Ota-onalar o‘sha davrlarda hatto o‘zlari ham ko‘rmagan bu oddiygina o‘yinchoqlarni tokchalarga qo‘yishadi, buni katta amaki sovg‘a qilgan deb asrashadi, bolalariga bu o‘yinchoqni katta amaki seni yaxshi o‘qisin, ota-onasining gapiga quloq solsin, agar yaxshi o‘qisa, katta amakiday bo‘lishini, odamlar suratini tokchaga qo‘yishlarini ta’kidlashdi. Birgina e’tibor xalqqa shunday katta ta’sir qilishi, katta-kichikning qalbida mehr, hurmat, hayotsevarlik uyg‘otishi barcha davrlar uchun eskirmas ibrat namunasi deyish mumkin. Yana boshqacha, Leninning “Hamma yaxshi narsalar bolalarga” degan o‘z davridagi mashhur shiorini eslatib yuboradi. Bu yozuvchining istehzosi deb tushunish ham mumkin.

Oshno bilan Yaxshiboyev qishloqni tepadan birga tomosha qilishadi, uning suvsiz qovjirab qolishidan kuyunishadi, hatto Yaxshiboyev yig‘lab yuboradi. Inson tabiati go‘zalligidan, o‘z yurtining go‘zalligidan hayratlanib ko‘z yoshi to‘kishi uchun unda ulkan qalb bo‘lishi lozim. Yaxshiboyevning o‘z yurtini sevishi, qolaversa, ijodkor ekanligi qalbida kuchli hayajon uyg‘otadi, olovli urush o‘chog‘ida ko‘ziga yosh olmagan insonni yig‘lashga majbur qiladi. Ko‘rinadiki, Yaxshiboyev hayotning har qanday qiyinchiliklariga mardona dosh bera oladigan, nochorlik, yo‘qchilik, mashaqqat, mehnatdan qo‘rqmaydigan, vijdon amriga itoat qiladigan oriyatli qishloq yigiti. Uning xirmonda sevgi izhor qilgan go‘zal beva Kunsuluvga bo‘lgan munosabati halol or-nomusli, qat’iyatli va mard ekanligini ko‘rsatadi. Uning axloqi toza ekanligi ijarada yashagan davrida Oshno ergashtirib kelgan qiz blan muomalasida ham yaqqol ko‘rinadi. U o‘shanda do‘stini ham yoshlikning muqarrar xatosidan qaytarib qoladi.

Yaxshiboyevning jamiyatda yuqori qatlam ko‘tarilishida axloq muhim o‘rin tutadi. U tabiatan toza ko‘rinsa-da, ayniqsa ayollr masalasida o‘zini qanday tutishni yaxshi biladigan, bu masalaga jiddiy e’tibor qaratadigan inson. U oilada, do‘stlar davrasida, turli vaziyatlarda, qo‘li uzun amaldorligida faqat tabiatan vazmin, o‘z nafsini jilovlay oladigan erkak, doim halollikni qadrlaydigan inson sifatida namoyon bo‘ladi. Oshno va Saidqul Mardonning tabiati bilan uning axloqiy qarashlari tubdan farq qiladi.

Sharqda qadimdan insonni axloqiy jihatdan kamol toptirish, ma’naviy qiyofasini shakllantirishga katta e’tibor qaratilgan. Jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lgan axloq ma’naviy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Roman qahramonlari axloqiy, umuman ma’naviy va ma’rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli bosqichlardan – johillik, nodonlikdan

[1] Саидов Ҳ. Файласуф адиб / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2021, 18-yanvar. № 2.

[2] М.М.Дўст. Лолазор. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б. 452.

ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o‘tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolotning o‘zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql va zakovat sohibi sifatida o‘zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o‘rtasidagi kurashda ifodalanadi. Nazar Yaxshiboyevning Muhsina xonim bilan ajrashish to‘g‘risidagi qarori va bunga Oshno va Muyassarning aralashuvi natijasida qahramonning o‘z fikrini o‘zgartirishga majbur qilinishi ijtimoiy muhitning inson erki, kechinma-hislariga ta’sirini va uning oqibatini ko‘rsatadi. Asar qahramonlarining aql, tafakkuri, ruhiyatida yaxshilik, adolat, oqibat, insof kabi xislatlarga moyillik muayyan jamiyat va davrda o‘zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so‘nishi mumkin. Yaxshiboyevning vaqt o‘tishi bilan axloqiy, ijtimoiy qarashlari o‘zgaradi, u o‘zining obro‘, mansab, vakolatidan foydanib hamma ishni atrofidagilarga buyuradi, o‘zi ularni boshqarishning yo‘llarini rejalashtiradi. U haqiqatni anglaydi, tan oladi, ammo boshqacha yashashni tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun ijodda o‘zining haqiqiy darajasiga ko‘tarila olmaydi. Oshno esa yaxshi yozuvchi bo‘lishi mumkinligini biladi, ammo bundan o‘z ixtiyori bilan voz kechadi.

Yuqori mansab ilinjida xushomadgo‘ylik qiladigan sun’iy egizaklar, o‘zini xalqparvar ko‘rsatadigan, ammo maqsadi obro‘ orttirish, shuhrat qozonish, birovlar mehnati evaziga qahramon bo‘ladigan To‘pori, o‘zini halol ko‘rsatishga chirangan, ammo halollik bilan ma’naviy qullikni farqlamaydigan, yuqoridagilardan maqtov kutib yashaydigan, shuning uchun kinomotografiyadagi lentalarni o‘lchagan, bir paxta yig‘im-terim mavsumida 500 tonna hosil yig‘aman deb va’da bergan Qurbonoylar obrazida yolg‘on va poraxo‘rlikka g‘arq botgan ijtimoiy tuzumning asl qiyofasi ochilgan.

“Xayoliga kelgan qaltis fikrdan cho‘chib tushdi. Nima bo‘lardi, deb o‘yladi, anavi qumloq maydonchaga yugurib qaytsam-da, qizg‘ish qumni tepkilab turib Oshnoni bo‘ralab so‘ksam... nima bo‘lardi?

Ta’zim qilaverib buklanib qolgan qadlarni rostlash uchun nedir bir oliyjanob ish qilish kerak-da, axir! O‘shanda qadlar tiklanadi, anavi “hassakashlar” qo‘lingdan hassani tortib olib, chalajon qilib savalaydi qiziq tomosha bo‘lardi, lekin!..”[1]

Yaxshiboyev haqiqatni biladi, jamiyatda yuz berayotgan ko‘zbo‘yamachilik, soxtakorliklarni yaxshi anglaydi, o‘zi ham ana shu oqim bo‘ylab suzayotganligini his qiladi. Ba’zan oqimga qarshi suzishni, haqiqatni ro‘y-rost aytishni istaydi, ammo unga jur’ati yetmaydi. Hatto Oshno bilan o‘rtalaridagi munosabat saqlanib qolgan bo‘lsa-da, o‘rtalarida jarlik bor. U endi boshqalar qatori Oshno nimani istasa, o‘shani bajarishga majbur.

Oshno Surxondaryoning Tojikistonga tutash bir rayon[2]iga safarga chiqqanda Yaxshiboyevni ham o‘zi bilan birga olib ketadi. U yerda Oshno o‘zi bilan birga urushga qatnashgan bir-ikki frontovik jo‘ralarini tuzukroq mansabga tayinlaydi, kun bo‘yi yangi ochilayotgan maktab, bog‘cha, kasalxona, hammomlarning ochilish marosimida tasma kesadi. Tushdan keyin ulkan molxonaga borishadi. Yem-xashak, suv o‘zi keladi, go‘ngni o‘zi tashqariga chiqib ketadi, hamma sharoitlar mavjud. Yaxshiboyev umri bino bo‘lib ko‘rmagan molxona, g‘aroyib sigirlar. Xullas, ko‘p qatori, Yaxshiboyev ham molxonadagi shart-sharoit, zotdor sigirlrni ko‘rib hayratlanadi. Biroq unga molxonadagi ob-havo shubha uyg‘otadi, g‘alati dimoqni qitiqlaydigan ifor, naq mushku anbardan hayron qoladi. Moskvada Temiryazev akademiyasida ta’lim olgan kolxoz raisi mingdan ortiq sigirlarning juniga atir septirib chiqqanligini Oshnoga istehzo aralash shunday deydi: “Otasiga rahmat, o‘sha Temirniyozoving, yaxshi o‘qitibdi”. Oshno uning kinoyasini payqamaydi-yu, do‘sti ulug‘ olimning nomini buzibroq aytganidan xijolat bo‘ladi. U rayon rahbarlariga qarata, molxona yaxshi qurilibdi, endi mana shunaqa olijanob molxonalarni ko‘paytiraylik, deb rag‘batlantiradi.

Jorj Oruellning “Molxona” (Hayvonlar fermasi) qissasida ham sho‘rolar davlati, undagi ijtimoiy-tarixiy voqelik aks etgan. Cho‘chqalar boshqaradigan molxona, unda o‘rnatilgan tartib-qoidalar, ichki qoidalarga rioya qilmaganlarga tayinlanadigan jazo, hayvonlarning haq-huqulari, yashash sharoitlari, shaxsiy fikrning ta’qib ostiga olinishi orqali mustabid tuzum akslantirilgan. Bu ikki asarda sho‘ro tuzumidagi haqiqiy holat real tasvirlangan[3].

Yaxshiboyev yashirincha Oshnoga laqab qo‘ygan. Bu laqabni Hotam Sho‘ro ham biladi. Yaxshiboyevning Xorun deb laqab qo‘yishi bejiz emas. Xorun ar Rashid tarixda yashab o‘tgan mashhur hukmdor va u adolatliligi, saxovatpeshaligi bilan nom qozongan. Oshno o‘ziga yaqin olgan kishilarni siylab turishi romanda ham aks etgan. Oshno laqabida ham kinoya, ham uning tabiatiga xoslik mavjud.

Huzuriga kirgan bir tanishiga birdaniga hovli, mashina, unvon berishi, o‘zining oltmish yillik yubileyi arafasida birgalashib yozilgan “Tantana” degan qutlov yozilishi va o‘sha yili Yozuvchilar ittifoqiga birvarakayiga ijodkorning a’zolikka qabul qilinishi, 5

[1] М.М.Дўст. Лолазор. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б. 525.

[2] Туман.

[3] Қаранг: Оруэлл Ж. Молхона. – Тошкент: Ниҳол, 2020. – Б. 98.

mlnn tonna “oq oltin”ning 6 mln tonnaga oshirilishi kabi lavhalar Oshnoning “Xorun” ekanligini tasdiqlaydi. Yaxshiboyev bu ishlarning ko‘zbo‘yamachilik, soxtakorlik ekanligini biladi, o‘zi ham ularning biri ekanligini tushunadi, lekin hech kim haqiqatni aytishga jur’at topolmaydi. Yaxshiboyev bilgan haqiqatlar faqat uning latifalari, boshqalarga bo‘lgan kinoyalari orqali ko’rinadi.

Mashina ichida Oshno bilan Yaxshiboyev suhbatlashar ekan, ustunlik qaysi tomonda ekanlgi aniq ko‘rinadi. Yaxshiboyev o‘zi xohlaganday yashashga urinsa ham, baribir endi Oshnoning izmida edi. Yaxshiboyev bir paytlar Oshno tomonidan O‘rtaqo‘rg‘onga uch yil muddatga “surgun” qilinganini va u yerda Oliyani sevib qolgani, xotinidan ajrashmoqchi, Oliyaga uylanmoqchi bo‘lgani, Oliyaning qamalishi va uni ozodlikka chiqishi evaziga Muhsina xonim bilan yashashga majbur qilinganini eslaydi. U o‘ziga ilk bor berilgan unvonni eslasa xo‘rligi keladi. Oshno uni “surgun”dan Toshkentga qaytarib olarkan, “xizmat ko‘rsatgan artist” qilgandi.

Kattakon Paxtakorning o‘limidan so‘ng vaziyat qaltislashganda, paxta ishi boshlanish arafasidagi kasalxonada ikkovi yolg‘iz suhbatlashadi. Yaxshiboyev Oshnoga ichidagi og‘riqli o‘yni aytishga o‘zida nihoyat kuch topa oladi: “...– Istagan paytda yo‘qotib yuborishing mumkin,- u o‘zi sezmagan holda “sen”lashga o‘tdi. – Yodingdami meni sotib olganing? Savdomiz O‘rtaqo‘rg‘onda pishuvdi! Oliyani qamatib, ozodligi evaziga meni sotib oluvding! Xunimdan qolgan ozgina nasiyani eslatishga haqqim bormi, yo‘qmi?

Oshno ildam chiqib ketdi. Yaxshiboyev nomiga yo‘lakkacha kuzatgan bo‘ldi”[1]

Yaxshiboyevning omadi-yu omadsizligi Oshnoga do‘st ekanligi bilan bog‘liq. U Oshno bilan tanish bo‘lmaganida ehtimol o‘zining noyob iste’dodini yuzaga chiqargan, noyob asarlar yozgan bo‘lardi. Saidqul Mardon kabi e’tiqodiga sobit qolganida, Oshnoning mavqeidan foydalanmaganida o‘zligini yo‘qotmas, o‘ziga xiyonat qilmay yashay olardi.

Moskvadan boshlanayotgan “paxta ishi”– yangi sho‘ro terrorini sezib qolgan Oshno Do‘stidan maslahat so‘raganida, u hech ikkilanmay o‘zining ko‘nglini og‘ritgan, nazar pisand qilmay qo‘ygan ikki kishini qurbonllikka berish kerakligini aytadi. Ularning biri pistachidan qahramonga aylangan, biri mavsumda ming tonna paxta tergan “qo‘g‘irchoq” qahramon Qurbonoy, ikkinchisi, g‘o‘zashunos olim, Iskandar ismini Aleksandrga o‘zgartirib olgan, cho‘llarni o‘zlashtiraman deb Orolni qurishiga sababchi bo‘lgan nihoyatda ayyor, ikkiyuzlamachi, Oshnoni o‘z izmiga solib olgan chol.

J.Oruell va M.M.Do‘stning asarlarida ilgari surilgan inson va jamiyat kontseptsiyasi qiyosiy-tipologik jihatdan qaralsa, J.Oruelning «Ular toki ongli bo‘lmagunlaricha isyon qilmaydilar, toki isyon qilmagunlaricha ongli bo‘lolmaydilar»[2], degan g‘oyani ilgari surganligini, o‘zbek adibi esa shaxsning yemirilishida jamiyatning o‘rni mavjud, ammo ilohiy haqiqatlar baridan ustun va inson o‘zligini tanisa, unga hech qanday kuch qarshi chiqolmaydi, u ruhiy jihatdan ozodlikka erishishi mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Qahramon ruhiyatini his qila olgan kitobxon asar qatiga singdirilgan ijtimoiy norozilik kayfiyati, fikrlar botinidagi haqiqatlar, ramzu ishoralarni ilg‘ab oladi.

Inson siyratidagi komillik istagi xalq siyratiga ham ko‘chib o‘tadi - xalq komil orzular qanotida yashaydi. Hech bir sog‘lom xalq faqat farovon yashash, faqat to‘yib yeb-ichish darajasida qolib ketishni istamaydi. Saidqul Mardon obraziga muayyan ma’noda shu haqiqat singdirilgan. Saidqul Oshno va Yaxshiboyev bilan bolalikdan tanish bo‘lsa ham, ularning oldiga biror marta yordam so‘rab kelmaydi, hatto ulardan o‘zini olib qochadi. Qarigan chog‘ida Yaxshiboyevga bog‘qilishda ko‘maklashgan Saidqul o‘zi tanlagan yo‘ldan adashmaganligidan xotirjam bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda o‘zini Yaxshiboyevga solishtirib, xarakteridagi kamchiliklarni ham tan oladi, inson sifatida o‘zini chuqurroq anglashga urinadi.

Yaxshiboyev unga chala asarini tahrir qilishga berganida, asarning boshlanishini boshqa birov o‘zidan oldin tuzatganligini sezib qoladi, ammo keyingi qismlarni o‘qirkan ikkiyuzlamchillikka, savodsizlikka toqat qilolmaydi. Yarim tunda Yaxshiboyevning uyiga kelib, asar qo‘lyozmasini unga qaytarib beradi va Yaxshiboyevga uning kimligini ochiq ayta oladi.

Yaxshiboyev na xotini, na o‘g‘illari, na shuncha yillik orttirgan shuhratiga ishonadi. O‘g‘li Avvalbek aytganidek, “Sassiq cholni o‘lganidan keyin ham o‘qishadimi?” degan malomat boshiga tushishini sezadi. U inson zotiga xos o‘z jasadi tug‘ilgan tuprog‘ida yotishini xohlaydi. U o‘z o‘ligini faqat bir kishiga Saidqulga ishonishi mumkinligini bilardi, shuning uchun vasiyatnomasida o‘zini tug‘ilgan joyi Bulduruqqa etib dafn qilishni unga ishonib topshiradi. Vasiyatnomada bundan tashqari o‘sha yerdagi maktab ta’miri uchun 10 ming so‘m ajratilgandi. Buni eshitgan Yaxshiboyevning xotini Muhsina xonim Saidquldan vasiyatnomani oshkor qilmaslikni, marhumni shaharda dafn qilishni, maktab uchun ajratilgan mablag‘ning uchdan bir qismini unga berib, qolganini o‘zi olishni taklif qiladi-ki, bu narsa erining xotirasidan ko‘ra uning pulni ko‘proq yaxshi ko‘rishini ko‘rsatadi.

[1] М.М.Дўст. Лолазор. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б. 540.

[2] Оруэлл Жорж. Таржимон: Карим Баҳриев. – Тошкент: ООО «Asaxiy Books», 2020. – Б. 68.

Biroq Saidqul vasiyatnomani xalqqa oshkor qiladi, Yaxshiboyevning jasadini Bulduruqqa etid dafn qildiradi. Dafn marosimida tilovat qilayotgan chollardan chekkaroqda turishi, Saidqulning sho‘ro qatag‘onlari, siyosiy tazyiqlardan zada bo‘lganligini, ichida qo‘rquv borligini ko‘rsatadi.

70-yillarning o‘rtalaridan boshlab adabiyotga yangi bir avlod yangicha badiiy tafakkur, o‘zgacha poetik obrazlar bilan kirib qoldi: bu avlod asarlardagi qahramonlar jamiyatni va insonni tuzatishga astoydil bel bog‘lagan adolatparvar, vatanparvarlar obrazlari emas, o‘z-o‘zini taftish qilayotgan, o‘zini-o‘zi so‘roqqa tutayotgan, dushmanlaridan ko‘ra ko‘proq o‘zi bilan olishib yashayotgan odamlar edi. Bu holni nasrda, T. Murod, Omon Muxtor, Murod Mansur, Erkin A’zam, Xurshid Do‘stmuhammad, ayniqsa, Murod Muhammad Do‘stning asalarida ko‘rish mumkin. Ularning qissa va romanlarida badiiy obrazning yangilanishi bevosita ijodkor fenomeni bilan ham bog‘liq.

80-yillarda umumlashma, siyqasi chiqqan, an’anaviy obrazlar o‘rniga alohida shaxsning faqatgina o‘ziga xos ruhiyat qatlamlarini tasvirlashga o‘tila boshlandi. Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” romani bu jarayondagi qaldirg‘och deyish mumkin. Chunki, aynan o‘sha romandan e’tiboran, adabiy aholining individual qiyofa kasb etishiga, fikr odami sifatida qabartirib ifodalanishiga e’tibor ortdi.

Resume. In this article, it was revealed that the artist’s level of talent is measured by his ability to express himself in words, his spiritual power and artistic excellence, and his philosophical essence.

Резюме. В данной статье раскрыто измерение уровня таланта творца по его словесному восприятию, духовной силе и художественной высоте, философской сущности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

A’ZAM O‘KTAM SHE’RLARIDA AVTOPSIXOLOGIK LIRIKANING AKS ETISHI

Jo‘rayeva Gavhar,
Termiz davlat universiteti magistranti

Davrlar o‘zgarib, adiblarning yangicha uslub va ruh bilan ijod qilayotgani adabiyotda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Jahon adabiyotida turli oqimlar, ifoda va so‘z aytish yo‘sinlari yangilandi. Bu jarayon turli “izm”lardan mutlaqo ayri holatda, eng avvalo ijodkor ongu shuurida, ruhiyatida, o‘y-fikrlarida va badiiy niyatida aks etdi.

Taniqli adabiyotshunos olim D.Quronov qator darsliklari va ilmiy maqolalarida ijodkorlar asarlarida avtopsixologik lirika elementlarini tekshiradi. Olim tartib bergan adabiyotshunoslik terminlari lug‘atida ushbu adabiy birikmaga haqida bunday deyiladi. Avtopsixologik lirika – lirikaning sub’yektiv tashkillanishiga ko‘ra ko‘rinishi, *ijroviy lirikaga* (q.) zidlagan holda farqlanuvchi lirik kechinma bevosita shoir tilidan ifoda etilgan she’r. Mutaxassislar lirika aksar hollarda avtopsixologik bo‘lishi, ayni chog‘da, lirik qahramon bilan biografik shoir doim ham bir-biriga teng emasligini ta’kidlaydilar (q. *lirik qahramon*)[1].

O‘zbek she’riyatiga XX asrning 80-90-yillarida kirib kelgan bir guruh yosh ijodkorlar qatorida A’zam O‘ktam qalamiga mansub asarlarda ham lirik bo‘yoqdorlik singari avtopsixologik lirika hodisasi ham kuzatiladi. Buning sababini bevosita shoirning ichki tug‘yonlari – umummilliy umummanfaatlar yo‘lidagi ayrim yutqiziqlar, javobini topmay kelayotgan savollar, yechimini topmay halak bo‘layotgan tugunlarda ko‘rish mumkin.

A’zam O‘ktamning “Betobligimda” nomli hajman kichik she’ridagi quyidagi misralarni misol qilib olaylik:

Garchand tilinmadi yer,
Bosmadi ustdan osmon,
Ezsa biroq bir-birin
Elning to‘ri to‘zarkan...

[1] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 8.

Ayni satrlar haqida taniqli adabiyotshunos olim Rahmon Qo‘chqorov quyidagicha fikrlarni bayon etadi; “Harqalay, ziyrak o‘quvchi bu misralar qaysi tarixiy manbani yodga tushirishini, o‘sha manbaga darj etilgan so‘nmas alamli nidoning aksi va sadosi ekanini allaqachon ilg‘agan bo‘lsa kerak” O‘rxun-Enasoy toshbitiklariga mangu muhrlangan mana bu achchiq savol, afsuski, tayinli javobini hali hamon topgani yo‘q: “Ey, turk budun (turkiy xalq), tepadan osmon bosib tushmayotgan bo‘lsa, pastdan yer yorilib yutmayotgan bo‘lsa, kim va nima sening orangni buzadi, nima seni to‘zg‘itadi?!”[1].

Adabiyotshunos Rahmon Qo‘chqorov “Betobligimda” she’rining g‘oyaviy manbaiga bexato yondoshganini inobatga olgan holda, bizningcha, ushbu satrlar shoirning avtopsixologik kayfiyatida yuzaga kelgan isyon mahsuli bo‘lib, o‘zi yashab turgan muhitning muayyan ziddiyatlari, turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma’rifiy, diniy-irfoniy hayotda bir yoqadan bosh chiqarolmasligi yo‘lidagi majhul oqibatlar va alomatlar ta’sirida yozilgan.

Ushbu kurashchan ruh she’rxonning A’zam O‘ktam shaxsiyatiga bo‘lgan ixlosini, mehr-muhabbatini oshirmay qolmaydi, albatta. Zotan xalq hamisha o‘z qalbida xuruj qilib turgan og‘riqlarni baralla, boricha ifoda etgan qahramonlarini sevib-ardoqlagan.

Shoir sharq mumtoz adabiyotidagi kabi malomatiylar yo‘lidan borib, eng avvalo pichoqni “o‘ziga uradi”. Uning “Nega?” deb sarlavha qo‘yilgan she’rida o‘z kechinmalarini bo‘lishadi:

Mahkam bog‘lasam-da rost yo‘lga belni,
Ko‘ngil ravshan emas, dog‘i bor dilning,
Yurtimni tanidim, bildim-ku elni,
Biroq unutmadim o‘zimni hanuz.[2]

Malomatiylik kayfiyati, ayniqsa, “So‘roq” she’rida yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Qishda qushlarga don sepgan qo‘lingni,
Nopok luqmalardan qochgan qo‘lingni,
Olloh, deb duoga ochgan qo‘lingni –
Uzatding yeyishi, ishi haromga...[3]

Milliy dardlari uyg‘oq shoir A’zam O‘ktam she’riyatining avangard g‘oyalarini tashkil etadigan millatparvarlik ruhi shoir shuurining, iste’dodiy safarbarligining tabiiy hosilasi hisoblanadi. U el-yurt taqdirini o‘ylab, ichiga cho‘g‘ tushgan ulug‘ salaflari kabi tunu-kun bedor, bezovta. Hamma uyquga ketgan pallada haqiqiy shoirning zehni hushyor tortadi, hamma o‘tmishining, kechmishining mag‘lubiyatlari sabablarini unutganda yoki paysalga solganda chin shoir unutmaydi, talmovsiramaydi. U hamisha haqiqatni ro‘yirost aytadi. U shuning uchun ham shoir. Ayni xususiyatlar A’zam O‘ktamning “Uyqum qochgan kechada” deb nomlangan she’rida mufassal aks ettirilganki, bu bevosita shoir avtopisxologik lirikasining nechog‘liq yuksakligidan dalolat beradi.

She’rda milliy tanazzul, istibdod va xiyonat bag‘oyat ishonarli va favqulodda badiiy topilma sifatida tan olishga arzirlik syujet liniyasiga tizib chiqiladi. Shoir syujetni “tun”, “otlar”, “uyqu”, “keksalik”, “darvoza” kabi motivlar bilan she’rxonning ko‘z o‘ngida jonli manzara hosil etadikim, bunda muallifning metaforik mahorati, tasvir yo‘sini, ayniqsa, ta’sirchan:

Oy cho‘chib tislanar ortga nogahon,
Terak bosh chayqaydi, g‘ijirlar og‘ir.
Kuli titkilangan o‘choqdir osmon,
Yaproqlar shivirlar, titrashar dir-dir.
Pishqirar, kishnashar notinch tulporlar,
Zanjir sharaqlaydi, kimdir kuladi.
Pichoq qayrayotgan yovuz xunxorlar
Boshlab bosh ko‘targan xarob bo‘ladi.[4]

Ko‘rinib turibdiki, she’rning dastlabki ikki bandida peyzajning g‘oyaga mutanosib harakatlanganligi she’rxon ruhiyatini tasvir izmidan yetaklab, uni mash’um hodisotga tayyorlaydi. Navbatdagi bandda uyqudagi, karaxt va betob nasllar tasvirlanadikim, buni dastlabki ikki banddagi peyzajning obrazlar xatti-harakatiga evrilgan uzviy davomi sifatida talqin qilish mumkin.

Yigitlar, uxlashar, kelinlar bedor,
Beshiklar qattiqroq do‘killay boshlar.
Bobolar keksargan, momolar bemor,
Onalar chakkasi lo‘qillay boshlar.

Shoir bedorlikda xiyonatning bosh sabablarini nogoh uni yovga eshik ochib bergan ajdodlarning befarq va loqaydligidan, xoinlikka moyil odamlarning shaxs yoki jamiyatga nisbatan shaxsiy adovati tufayli butun boshli mamlakatni sotishdan ham tap tortmasligi, eng achinarlisi, bunday kasblar o‘sha paytda jamiyatda talaygina topiladi: *Bu qaysi zamondir, bu qaysi makon, // Nechun hech tinmasdan tushga kirmoqda: // O‘v, mana. Qaysidir nomard bu zamon, // Yovga darvozasin ochib bermoqda.*

Eng muhim sinovlarda millatning himoyasiga chiqadigan zotlar yovga qarshi kurashishga yaraydigan arkoni davlat va ilm ahlining mastu sarxush, sotqinu mute bo‘lganini, lirik qahramon nafrat bilan sifatlaydi:

Ulug‘lar may bilan bo‘lsalar mashg‘ul,
Tosh qotsa zahmatdan horigan dehqon.
Go‘daklar ko‘p bo‘lsa, yigit-qizlar qul,
Ustiga eshikbon sotilsa yomon!

Shoir ko‘hna sharqning sayqali, javohiri sanal-

[1] Qo‘chqorov R. A’zam O‘ktam she’riyatida lirik qahramon shaxsining namoyon bo‘lishi // “A’zam O‘ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari. – Andijon, 2020. – B. 295.

[2] Аъзам Ў. Кузатиш. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – Б. 10.

[3] Аъзам Ў. Кузатиш. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – Б. 6.

[4] Аъзам Ў. Кузда кулган чечаклар.: Шеърлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б. 48-49.

adigan o‘zbeklarning qadimiy maskanlari bo‘lgan muqaddas shaharlarning darvozasi beega qolganini (“*So‘ngra yopilmadi sira ham yohu”*), bu holat misli qarg‘ish – tavqi la’nat kabi millat boshidan arimayotganini *(“Yomon qarg‘ish tegdi shu kundan go‘yo”)*, barcha strategik muhim shaharlar, resurslar istibdod iskanjasida qolganini (*“Yurtimda qadimiy shaharlar ko‘pu, // Biron darvozasi qolmagan ammo”*) obrazli tasvirlar ekan, shoir bedorlikda o‘ylarkan, yaqin o‘tmishda millat izmini yovga topshirib qo‘ygan noiloj ota-bobolarning hazin qiyofasini unutolmaydi (“*Ketmas ko‘z o‘ngimdan. Turishar mahzun, // Xato qilib qo‘ygan ota-bobolar*”). Shunday bo‘lsa ham, uning alamga to‘la qalbida umid uchqunlari paydo bo‘ladi. Bunga haqqoniy asos bor va bu yetarli deya hisoblaydi lirik qahramon. Bu umid uchqunlari – kelajak avlod – millatining boshiga tushgan barcha sinovlardan xabardor va hammasini tuzatishga, yovni tag-tomiri bilan ona tuprog‘idan yulib tashlashga qodir bo‘lgan bolalardir! (“*Qarayman – har uyda o‘smoqda bugun // Qoshi chimirilgan yovqur bolalar*”). Lirik qahramon xulosa avvalida moziyni qoralash bilan o‘ralashib qolishni emas, aksincha, olg‘a – kelajakka qarab yurishga zarurat sezarkan *(“Suyunmam moziyga garchand tosh otib, // Ammo do‘stlarimga so‘z aytgim keldi –*”), kelajak avlodni sergaklikka, kurashchanlikka, o‘zga elning manfaatlariga xizmat qilmaslikka, birlashishga chorlaydi *(“Yigitlar uxlamang bunday tosh qotib, Odamlar, o‘lgudek ishlamang endi”)*. Xulosa o‘laroq keltirilgan so‘nggi ikki satr esa ezgulik ruhi yo‘g‘rilgan bo‘lib, “avlodlarga imkon” qoldiradi. Barcha yutqiziqlar, boy berishlarga qaramay milliy mustaqillik va taraqqiyotga erishish mumkinligini bayon etadi. *(“Yutqizdik barini. Bizdadir ammo, // Qolgan shaharlarni asrash imkoni!”)*.

Ushbu xulosa adabiyotning azaliy va abadiy missiyasi – eng asosiy vazifasiga muvofiq keltirilgani tabiiy. Buni shoirning ezgulikni tarannum etadigan kurashchan qalbi mahsuli, deya izohlash mumkin.

Biz, A’zam O‘tkam she’rlarini tadqiq etar ekanmiz, aksariyat muallif tilidan bayon etilgan she’rlarda lirik qahramon kayfiyat fasllarining, ruhiy holati rang-barangliklarining turfa hodisalariga duch kelamiz. Muallifning avtopsixologik lirikasi bevosita o‘ziga taalluqli bo‘lgan va qalamga olingan mavzuning jonli tasviri, muammoning ildizlari, baayni davrdagi holati hamda kelgusidagi oqibatlari haqida jo‘yali xulosalar beradiki, bu badiiy-g‘oyaviy she’rlarning aksariyati ijtimoiylik kasb etadi.

Resume: This article analyzes some of the poems of Azam Oktam. Also, the characteristics of the autopsychological lyrics in these poems are discussed.

Резюме: В данной статье анализируются некоторые стихотворения Азама Октама. Также обсуждаются особенности автопсихологической лирики в этих стихотворениях.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

“SABZAZOR” MILLIY SHE’RLAR MAJMUASI XUSUSIDA

Do‘salova Xusniya Rustam qizi,
Termiz davlat universiteti magistranti

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston hududida jadidchilik sifatida namoyon bo‘lgan milliy uyg‘onish harakati XX asrning 20-yillarigacha davom etdi. Milliy adabiyotimiz tarixining shonli sahifalaridan biri[1] bo‘lgan bu davrda mumtoz adabiyot va jadid adabiyoti bir-biriga qorisha boshladi. Jadidchilar o‘z yaratgan asarlarida: roman, drama, sahna asarlari, she’riy to‘plamlarida mumtoz adabiyotni ham chetga surmagan holda, jamiyat va xalq hayotini namoyon eta boshlashdi. 1906-yildan boshlab nashrdan chiqa boshlagan “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat” singari milliy gazetalarda ma’rifatparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan, vatanparvarlik ruhidagi milliy she’rlar va qo‘shiqlar chop etila boshlandi. Milliy matbuotimizning ikkinchi davriga kelib, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Oyina” kabi nashrlar ham yuzaga keldi. Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hamza, Tavallo, Sidqiy, Cho‘lpon, Xislat, Ajziy, Vasliy, So‘fizoda kabi ko‘plab shoir va yozuvchilarning ijodlari, milliy she’rlar va qo‘shiqlari gazeta va jurnallarda bosilib xalqni ma’naviyatga yetaklay boshladi. Jadid adabiyotining buyuk ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlar dunyoviy ilm-ma’rifatni targ‘ib etish, inson kamoloti bilan bog‘liq ideallarni kuylash orqali insoniyat badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga xizmat qilgan. Jadid she’riyatining birinchi bosqichi 1905 – 1917 yillar oralig‘i deb belgilansa[2], shu qisqa vaqt ichida yuz bergan jarayon ko‘p asrlik an’ana qolipini parchalab yubordi. Bu bosqich she’riyatda “tajriba bosqichi” bo‘ldi va u ifodaning to‘porilikdan jozibadorlikka o‘tishiga zamin hozirladi. “Kuydan da’vatga”[3] aylangan bu davr she’riyatini ma’rifiy ruhdagi she’rlar bayozi[4], deyish mumkin. Unda “erkinlik”, “taraqqiyot”, “ma’rifat” mavzulari qizil chiziq bo‘lib o‘tganini ko‘ramiz. She’riy asarlar dastlab matbuot vositasida keng tarqalgan bo‘lsa, asta-sekinlik bilan sharq tazkirachilik, devon tuzish an’analarini saqlagan holda she’riy to‘plamlar, bayozlar tuzish ommalashdi. She’riy asarlarning kitob holida nashr etilishida devon an’anasiga rioya qilinar ekan, shuning barobarida bu asriy tartib-qoidalarda o‘zgarishlar yuz berdi. Shuningdek, bayoz adabiyoti ham yangi bosqichda davom etdiki, ularning mavzu yo‘nalishi butunlay yangicha edi[5]. Shu o‘rinda adabiyotshunos H.Boltaboyev ta’kidlaganidek, XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi jahon adabiyotshunosligi andozalaridan oziqlangunga qadar mumtoz adabiyot an’analarining vorisi sifatida shakllandi. Tazkirachilik bu davrda mazmunan boyib, tarkib jihatdan rang-baranglashdi va nafaqat adabiy tanqidning, balki umumiy adabiyotshunoslikning faol sohasiga aylandi. Uning tarixiy taraqqiyoti natijasida poetik antologiya (bayoz) va xrestomatiya (majmua) lar yaratish sari qadam qo‘yildi[6]. Aytish mumkinki, XX asr boshlari o‘zbek adabiyotida tazkirachilikning boyishi, bayozu majmualarning yaratilishi va ayni paytda ularning yangilanishi natijasida yangi shakl hamda mazmunga ega she’riy to‘plamlar paydo bo‘ldi[7]. Shunday she’riy to‘plamlarning biri “Sabzazor”[8] to‘plamidir.

Mazkur to‘plam “Sadoyi Turkiston” (1914-1915) gazetasida e’lon qilingan she’rlardan jamlangan bo‘lib, tuzuvchisi Munavvarqori Abdurashidxonovdir. “Sabzazor” milliy she’rlar to‘plami hamda shu davrda jamlangan she’riy to‘plamlar va bayozlarning g‘oyasi mushtarak bo‘lib, xalqning milliy ruhini uyg‘otishdir. Bu to‘plamlardan o‘rin olgan she’rlar va qo‘shiqlar millatning keyingi rivoji uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, bu she’rlar va qo‘shiqlarda xalqning yashash tarzini ochiq-oydin namoyon eta-

[1] Afoqova N. Jadid she’riyati poetikasi. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 2.

[2] Қосимов Б. Миллий уйғониш:жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 128.

[3] Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 184.

[4] Эгамқулова Н. XX аср бошлари адабий жараёни муаммолари (1906-1917 йиллар ўзбек вақтли матбуоти мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс... – Тошкент, 2021. – Б. 20.

[5] Nazarova Sh. XX asr boshlari o‘zbek she’riyatining yangilanish tamoyillari (yangi o‘zbek she’riyati kontekstida): Filol. fan. dok. diss... – Toshkent, 2023. – B.34.

[6] Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Фил.фан.док... дисс. – Тошкент, 1996. – Б. 30.

[7] Nazarova Sh. XX asr boshlari... – Toshkent, 2023. – B. 34.

[8] Сабзазор. Баёз. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Мунаввар қори. – Тошкент: Ильин босмахонаси, 1914. – 49 б. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Шарқ қўлёзмалари хазинаси, асосий фонд, тошбосма. Инв №12891.

di. Turkiston xalqini birdamlikka chorlash taraqqiyot sari olg‘a qadam bosishga undaydi. Ibrohim G‘afurov so‘zlari bilan aytganda, XX asr milliy adabiyotimizni boshlab bergan bu kitoblar uzoq zamonlar yo‘qqa chiqarib yuborildi. Ular o‘rganilmadi. Ularning keyingi milliy adabiyotning harakatidagi o‘rni va ahamiyati aniqlanmadi. Qo‘rqitilgan odamlarda urf bo‘lib ketgan siyosiy hafsalasizlik bunga yo‘l bermadi[1]. Holbuki, bu to‘plamlar yangi millat hayotini, undagi o‘zgarishlarni olqishlagan va milliy hafsalasizlikning barcha turlariga qarshi tanqid o‘tini yoqqan ilk nashrlar edi.

“Sabzazor” to‘plami hijriy 1332-yil, milodiy 1914-yil 22-avgustda Toshkentda Ilin bosmaxonasida nashr qilingan Hajmi 49 sahifa. O‘lchovi 23x14. Matn o‘lchami 11x18. Muqovasi och yashil tusli kartondan. Hozirda bu bayoz Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanib kelinmoqda. Bayozda, asosan, ma’rifatparvarlik ruhidagi she’rlar o‘rin olgan. Bayozning unvon varag‘ida to‘plovchi va noshir Munavvarqorining *“Sadoyi Turkiston” jaridasina she’r yozib turgon yosh shoirlarimizning durun dillaridan chiqorub, millati islomiyaning ahvol hozirasin go‘zal sur’atda tasvir etgan, milliy she’rlarini millat xotirida abad qoldurmak orzusinda aksarlarining masoidai millat parvonalari ila bu risola tartib olundi”*[2], degan izohi bor. Bu haqda adabiyotshunos I.G‘afurov ham qayd etib o‘tadi: “kitobcha bor-yo‘gi o‘ttiz betgina, u ham uzuq-yuluq sahifalardan to‘planib, to‘ldirilgan, avaylab yopishtirilib bir butun holga keltirilgan. Chamasi bu xayrli ishni, boshqa ko‘p ulug‘ xizmatlari qatori domla Nosiruf ado etgan. Titul varag‘ida u kishining qo‘llari bilan sana va mundarija darj etilgan”[3]. Ushbu she’riy to‘plam “Sadoyi Turkiston” sahifalarida e’lon qilingan materiallar asosida, bayoz shaklida tartiblangan bo‘lib, taraqqiyparvar jadidlarning millatni yangilash, ma’rifatli qilish g‘oyalarini aks ettirishi bilan yangi o‘zbek she’riyatiga yo‘l ochgan. Bayozdan Vasliy, So‘fizoda, Avloniy, Xislat, Tavallo, Ajziy, Xolid Said, Miskin, Hamza, Laylixonim, Afandixon, Mulla Qo‘shoq kabi ijodkorlarning g‘azal, muxammas va musaddaslari joy olgan. She’rlarning barchasi gazetaga tabriklar va milliy mavzuga oid mavzularda bo‘lib, xalqni hushyorlikka undovchi ruhda yozilgan. “Sabzazor” boshdan oxir millatga, xalqga murojaatdan iborat. Millatni taraqqiyotga yetaklovchi, ilm-u fanga e’tibor orqali Turkiston xalqini dunyoda o‘z o‘rnini topishga undovchi ruhda berilgan. To‘plamdan 47 she’r o‘rin olgan, ba’zilari sarlavhasiz kiritilgan. Asar odatiy hamd va na’t bilan boshlangan:

Beadad ul xudoyo hamdu sano,
Bandai parvar karim bo himmato.
Xoliqu insu va jin va laylu nahor,
G‘ofuru zanbi olamil asror[4].

Avloniyning “Ikki sado”, “Biz nelar qilamiz?”, “Jarida muhiblarina”, “Shoir ila to‘ti”, “Iffatli insonlar”, “Gapurmanglar”, “Sadoyi bulbul”, Hamzaning “Ahvolimiz”, “Jahlda qolganlarmiz”, So‘fizodaning “O‘qunglar, onalar” musaddasi, kabi she’rlarida taraqqiyparvarlik davri she’riyatiga xos shikoyat, hasbi hol, millat axloqi masalalari aks etgan.

Avloniyning she’rlari bayozda katta qismni egallagan. Ushbu she’rlarning “Sadoyi Turkiston” uslubuga moslab yozilganini e’tiborga olsak, ularda usmonli shevadagi so‘zlarning ko‘p qo‘llangani, xususan, “Tarjimon” tiliga yaqinlashishga harakat bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. “Tazkirayi Qayyumiy”da keltirilishicha, “15 yoshlaridanoq turli shevadagi adabiyot bilan qiziqib va ularga o‘xshatib o‘zi ham she’rlar so‘zlay boshladi”[5]. She’riyatni yangilash masalalari qalamga olingan: “Gapurmanglar” she’rida buni aniqroq ko‘ramiz:

Sizga arzim budur, ey shoiron, ishqiya nazm etmang,
Qalam qosh, zulfi sunbul, sarvi qomatdan gapurmanglar.
Ziyonlik tilga o‘rnashgan yomon ishlarni tashlayluk
Ota-bobom qilan deb urfu odatdan gapurmanglar[6]

Gazeta xalqni ma’rifatga boshlovchi bir yo‘l deb qaragan jadidlar buning uchun Allohga hamdu sanolar aytishadi. Parvardigorning bandalariga qilgan himmati uchun ash’orlar bitishdi. Bundan tashqari tashakkurnoma va tabriklar aytib she’rlar yozishib gazetada nashr qilishdi.

Ko‘nglum aylar duoyi Turkiston,
Manga lozim sanoyi Turkiston.
Vatanimdur markazi fazola,
Jon erur oshnoyi Turkiston.
Yerlaring shohi erdi ushbu zamin,
Boshqalardur gadoyi Turkiston[7].

Bir tomondan din peshvolari maktablarni “kufr” deb e’lon qilgan, ikkinchi tomondan, mustabid mustamlakachilar qarshilik ko‘rsatgan, uchinchi tomondan, xalq ommasi hali qo‘rquv va esankirash iskan-

[1] G‘afurov I. Mangu latofat. – Toshkent: Sharq NMAK, 2008. – B. 12.

[2] Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 1.

[3] G‘afurov I. Mangu latofat. – Toshkent: Sharq NMAK, 2008. – B. 12.

[4] Sayyid Ahmad Vasliy. Bismillahir Rohmanir Rohim. – B. 2.

[5] Пўлотжон Домла Қайюмов. Тазкирайи Қайюмий. 3-жилд. – Тошкент: ЎзРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1999. – Б. 582.

[6] Abdulla Avloniy. Gapurmanglar. Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914 // Sadoyi Turkiston. 1914. №11.

[7] Sayyid Ahmad Vasliy. Tashakkur. Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 3.

jasida turgan zamonda “Sadoyi Turkiston” gazetasida nashr qilingan xalqni ma’rifatparvarlikka chorlovchi she’rlar “Sabzazor” to‘plamida jamlanib bayoz holiga keltirilgan. To‘plamga kiritilgan she’rlarda boshqa millatlar va o‘z millatimiz hol-ahvoli solishtiriladi. Boshqa millatlar ilm-fanga sarmoya tikayotgan bir paytda, bizning millatimiz aysh-ishratga berilib qolganiga achinishdi. Topgan pulini taraqqiyotga, farzandlari ta’limiga sarflamay, dabdabali to‘y va ma’rakalarga xarajat qilayotganliklarini ta’kidlashdi. Zeroki millatning kelajagi ilm-fan ekanini she’rlari orqali xalqqa yetkazishga urinishdi.

Ikki jahon saodati ilmu fununddadir,
Jon ila dil farog‘ati ilmu fununddadir,
Millatni shonu shavkati ilmu fununddadir,
Ag‘yor elini diqqati ilmu fununddadir,
Biz mundin e’tiroz va firor aylamakdabiz[1].

Taraqqiyotga qadam qo‘yish uchun faqatgina o‘g‘il bolalarni emas, qizlarni ham o‘qitish kerakligini ta’kidlashdi. Farzandlarning tarbiyali bo‘lishi uchun onalar ham o‘qigan va tarbiyali bo‘lishlari kerakligi haqida she’larida takror va takror bitishdi:

Ilmg‘a berdi sha’rimiz keng yo‘l,
Qomomong siz tor yo‘llara chandon.
Faqat erlar o‘qush ila bo‘lmas,
Qizlarimiz ham bo‘lsalar o‘qig‘on.
O‘qigan yosh yigitki, nodon qiz
Yoqmagay hech bu so‘zg‘a bormu gumon.
Bololar tarbiyatlik ulmak uchun,
Onalar bo‘lsun tarbiyat ko‘rgan[2].

“Sabzazor”da o‘rin olgan she’rlarda qo‘llangan poetik obrazlar yangilanayotgan o‘zbek she’riyati asosiy xususiyatlarini ham ko‘rsatib turadi. An’anaviy she’riyatdagi poetik obrazlar (gul, bulbul, yor, ag‘yor) yangi mazmun kasb eta boshladi. “Maktab”, “ilm-fan”, “ma’rifat”, “taraqqiyot” tushunchalari asosiy o‘ringa ko‘tarildi. Bu davrga kelib mahbubaga emas, aksincha ilmga, ma’rifatga muhabbat e’lon qilindi[3]. Jadid shoirlari o‘zlarining muhabbat haqida yozilgan she’rlaridan voz kechdi. Misol uchun, samarqandlik shoir “Siddiqiy-Ajziy o‘zining xuddi shunday “xushtab’”lik ila yozilgan ishqiy she’riyatidan voz kechdi, ularni kuydirib tashladi”[4]. Prof B.Qosimov Avloniyning 90-yillardagi ishqiy she’rlarining bizgacha yetib kelmaganligiga ham shu holatni sabab qilib keltiradi. Jadidlar millatni ozodlikka olib chiquvchi yagona yo‘l, yagona chorani ilm-ma’rifatda ko‘rishdi. Ahamiyatlisi, jadid she’riyatida millat onalarini g‘aflatdan uyg‘otish, xotin-qizlarni ilm-ma’rifatli qilish masalasi ham alohida o‘rin tutgan. So‘fizodaning “O‘qing, onalar” she’ri buning yorqin ifodasidir:

Muncha yomon sho‘rladi peshonalar ,
Qizlarimiz - joriyayi xonalar .
Siz edingiz jonlara jononalar ,
Qadringizi bilmadi debonalar .
Qumri bilan bulbulu bedonalar ,
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing onalar

“Sabzazor” to‘plamiga kiritilgan she’rlarning katta qismi aruz vaznida yaratilgan. Mumtoz she’riyatning g‘azal janridan keng foydalanilgan. Bundan tashqari she’riyatning barmoq vaznidan ham foydalanilgan.

Yuqoridagi mulohazalar shu kunga qadar alohida tadqiq etilmagan “Sabzazor” to‘plami xususida boshlang‘ich fikrlar, tahlillardir, deb ayta olamiz. XX asr boshlari adabiy jarayoniga mansub yana “Milliy ash’ori Tarjimon” (1910), “Milliy she’rlar majmuasi yoxud adabi din” (1912), “Yangi adabiyot” (1915) deb nomlangan ko‘plab bayoz va to‘plamlar borki, ular hanuzgacha o‘z tadqiqotchisini kutib turibdi. Bu kabi manbalarni tabdil va izohi bilan nashrga tayyorlash, ilmiy muomalaga olib kirish, albatta, jadid adabiyoti va adabiyotshunosligini yangi ma’lumotlar bilan boyitadi.

Resume: the article analyzes the “Sabzazor” collection. It is a collection of poems published by bayoz Munavvarqori Abdurashidkhanov in “Sadoyi Turkistan” newspaper. The article reflects the translation and analysis of some of the poems included in this work.

Резюме: в стате анализируется коллекция “Сабзазор”. Это сборник стихов, опубликованный баёзом Мунавваркори Абдурашидхановым в газете “Садои Туркистон” В стате отражен перевод и анализ некоторых стихотворений, вошедших в данное произведение.

[1] Sidqiy. Qazoyi ahvolaribiz. Sabzazor. 1914. – B. 14.
[2] Samarqand: Sidqiy. Yangi g‘ozetamizga xitob. Sabzazor. 1914. – B. 13.
[3] Эгамқулова Н. XX аср бошлари адабий жараёни муаммолари (1906-1917 йиллар ўзбек вақтли матбуоти мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс... – Тошкент, 2021. – Б. 82.
[4] Авлоний, Абдулла. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 50.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NUTQIY KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISHDA PODKASTLARNING ROLI

Ibragimova Hilola Bahodirjon qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Mamlakatimizda ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish va ularning metodologik asoslarini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etayotganligidan kelib chiqqan holda qayd etishimiz lozimki, ta'lim tizimini takomillashtirish borasidagi o'zgarishlarni zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni egallagan yetuk kadrlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenting 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiton Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklarini ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini yanada oshirish masalasi muhim o'rin tutganligini ta'kidlab o'tishimiz lozim[1].

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, maxsus o'quv dasturi va o'qitish metodikasini qo'llashni taqozo etadi. Nutqiy kompetensiya – bu fikrimizni izchil ifoda etish va o'zgalar bilan muloqot qilish imkonini beradigan qobilayatlardan biri hisoblanadi. Mavjud tizim shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ingliz tilini o'qitishda nutqiy kompetensiyaning har to'rtala turini ya'ni o'qish, yozish, gapirish va tinglashni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Taniqli metodist-olim Jamol Jalolov ta'rifiga ko'ra, "Nutqiy kompetensiya og'zaki va yozma shaklda ro'yobga chiqadi"[2]. Og'zaki nutq tinglab tushunish va gapirishdan iborat bo'lsa, yozma nutq yozish va o'qish turlaridan iboratdir. Nutqiy kompetensiya turlari va til materiali o'rganish jarayonida birgalikda yaxlit holda o'rgatiladi. Ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda, nutqiy kompetensiya turlarini rivojlantirishga qaratilgan til materiallari tanlanadi va o'quvchi talabalarga taqdim qilinadi.

"Podcast" tushunchasi Stiv Jobs asos solgan Apple iPod portativ media pleyerlarining keng tarqalishi tufayli mashhur bo'lgan ingliz tilidagi podcasting so'zidan kelib chiqqan. Podkasting so'zining o'zi esa "iPod" va "broadcasting" (ingliz tilida – radioeshittirish) ikkita so'zni birlashtirish natijasida paydo bo'lgan va dunyo bo'ylab Internetda tarqatiladigan audio va video eshittirishlar uchun moslashtirilgan maxsus formatdir. Macmillan lug'atiga ko'ra, podkast internetdan yuklab olish va audio va video pleyerlarda tinglash mumkin bo'lgan multimediali fayl hisoblanadi.[3]

Vikipediya esa (2007) podkastni quyidagicha ta'riflaydi: "Portativ media playerlarda va shaxsiy kompyuterlarda ijro etish uchun sindikatsiya fidlari yordamida Internet orqali tarqatiladigan raqamli media fayli yoki bir qator bunday fayllar. Podkast - bu "radio" singari, tarkibning o'zi yoki uni sindikatsiya qilish usulini anglatishi mumkin bo'lgan veb-translyatsiyaning o'ziga xos turi hisoblanadi".

D.Ashley esa podkastni internetdagi audio va video vositasi sifatida umumiy mavzuga ega epizodlar to'plami sifatida belgilaydi. Ushbu epizodlar tinglovchilarga epizodlarga obuna bo'lish va avtomatik ravishda yangi epizodlarni olish imkonini beruvchi "tasma" deb nomlangan fayl bilan birga keladi[4].

P.V. Sisoyev podkastni "har qanday shaxs tomonidan tayyorlangan va butun dunyo bo'ylab tarmoqda tinglash yoki tomosha qilishdan iborat bo'lgan audio yoki video yozuv" deb ta'riflaydi. Ushbu ta'rifga ko'ra, podkastning mualliflik huquqi har qanday shaxsga tegishli bo'lishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin[5].

Ko'rib chiqilgan ta'riflarga asoslanib, L.Agafonova va J.S. Anikina tomonidan ishlab chiqilgan podkastning eng umumiy tushunchasiga to'xtalib o'tishimiz lozim. Mualliflar podcast texnologiyasining quyidagi ta'rifini beradi: "shaxsiy kompyuter yoki mobil quril-

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ 5117-son Qarori. 2021.

[2] Jalolov J.J., (2012). Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi. – B. 11.

[3] Corbeil J. C. The Macmillan Visual Dictionary. – M: , 1992. – P. 862.

[4] Ashley, D., (2007). Podcasting. A Teaching with technology white paper. https://www.cmu.edu/teaching/technology/whitepapers/Podcasting_Jun07.pdf

[5] Сысоев П. В., Евстигнеев М. Н. Технологии Веб 2.0: Социальный сервис подкастов в обучении иностранному языку // Иностранные языки в школе. 2009. № 6. – С. 8-11.

malarda tinglash uchun internetda tarqatiladigan audio yoki video fayl”[1].

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, podkastning foydalanuvchiga qulay bo‘lgan har qanday vaqtda ochiq kirish imkoniyati, shuningdek, oflayn rejimda tinglash uchun yuklab olish imkoniyatini bera oladigan dasturlardan biridir. Qoidaga ko‘ra, podkastlar muntazam ravishda yangilanadigan bir qator dasturlardir. Podkastni chiqarilish davri hamda uning davomiyligini bir necha daqiqadan bir soatgacha yoki undan ko‘pgacha o‘zgarishi mumkin. Podkast – bu foydalanuvchilar bilan to‘ldiriladigan ijtimoiy xizmatlardan biridir, chunki har kim o‘z dasturini joylashtirish imkoniga ega. Shu hisobdan oladigan bo‘lsak, internetda juda katta tematik va rasmiy podkastlarga duch kelishimiz mumkin. Podkastning tarkibi, mavzusi va shakli faqat podkast kanalining muallifi tomonidan belgilanadi. Podkast – bu audio blog ya’ni muallifning onlayn kundaligi hisoblanib, suhbatlar seriyasining analogi va har qanday mavzudagi ma’rifiy yoki ko‘ngilochar kontentlardan iborat bo‘lishi mumkin. Shuni ham ta’kidlash kerakki, internetda yuqori sifatli yozuv va tarkib bilan ajralib turadigan professional podkastlardan tortib havaskor audio eshittirishlarni ham topishimiz mumkin. Chet tili o‘qituvchisi o‘quv jarayonida podkastlardan foydalanishda ushbu faktlarni hisobga olishi va o‘quv tarkibini tanlashga ehtiyotkorlik bilan yondashishi kerak.[2]

D. Warlick va C. Adamsning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, podkastdan dastlab ma’lumot va o‘yin-kulgi vositasi sifatida foydalanilgan.[3] Ammo tez orada o‘qituvchilar uning o‘qitish va o‘rganish uchun ulkan salohiyatga ega ekanligini tahlil qildilar.[4] Shunday qilib, podkastdan foydalanish ingliz tilini o‘rganish jarayonini yangi bir bosqichga olib chiqadi. Shuni ta’kidlashimiz joizki, u EFL kontekstida foydalanish va umuman chet tilini o‘qitishga yordam beradigan boy materiallar manbalarini foydalanuvchilarga taklif qiladigan dasturlardir biridir. Podkastlar o‘quvchilarga qachon va qayerda o‘rganishni tanlash va hattoki buni o‘zlari xohlagan o‘rganish tezligi va usulida foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, podkastlarni osongina yuklab olish, ulashish va hattoki tahrirlash mumkin, bu esa o‘quvchi talabalarga o‘z bilimlarini ko‘proq nazorat va egalik qilish imkoniyatini beradi.

Ba’zi tadqiqotchilar ingliz tilini bilish darajasini oshirish uchun podkastning samaradorligini alohida ta’kidlashadi. Misol uchun, Md.M. Hasan va T.B. Hoonlar podkastlarning o‘quvchilarning til ko‘nikmalariga ta’siri va ularning podkastlarga bo‘lgan munosabati va idrokiga ta’sirini o‘rgandilar. Ular podkastdan foydalanish an’anaviy bo‘r va nutq usulidan ko‘ra foydaliroq va samarali ekanligini aniqladilar. Bundan tashqari, podkastlar integratsiyasi akademik samaradorlikni, talabalarda tilni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirishi va o‘rganishni rag‘batlantirishi mumkinligini ta’kidlab o‘tdilar.[5] Shuningdek, podkast o‘quvchilarning nafaqat tinglash, balki talaffuz, lug‘at, grammatika, nutq va boshqa tegishli nutqiy faoliyatlari kabi boshqa til sohalarida ham o‘rganishni jadallashtiradi. Rajval va V.A. Devi til ko‘nikmalarini oshirishda Podkastning afzalliklarini yoritib berdi[6]. Mualliflarning fikriga ko‘ra, texnologiya va til o‘rganishning birlashuvi ta’limda uni Tech-eduga aylantirish uchun yangi poydevorlardan biri bo‘ldi. Podkast kabi innovatsion mobil texnologiyalar o‘rganuvchilarni adabiyotni qadrlashga undaydi.

Podkast servisi, shuningdek, o‘quvchilarga barcha o‘zgarishlarda imtiyozlar beradi va shu bilan birga o‘quv jarayonida yangi davr paydo bo‘lishiga olib keladi.

Har bir texnologiya singari podkastning ham o‘ziga yarasha afzallik va kamchiliklari mavjud. Podkastning kamchiliklari quyidagilardir:

1) yuqori xarajatlar (kompyuter sinflarini jihozlash, dasturiy ta’minotni sotib olish, o‘qituvchilar va talabalarni ushbu dasturlardan foydalanishga o‘rgatish);

2) to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zaro ta’sirning yo‘qligi;

3) saytga kirishda mumkin bo‘lgan muammolar;

4) saytdagi podkastning paydo bo‘lish vaqti bilan bog‘liq bo‘lgan kechikish;

5) podkastni yuklab olish va tinglash uchun vaqt sarflash;

6) ma’ruzalarga qatnashish ko‘rsatkichining taxminiy pasayishi.

Boshqa tomondan olib qaralganda, ushbu kamchiliklarni haqiqiy afzalliklar bilan qoplash mumkin:

1) Podkastlar turli xil o‘rganish uslublariga ega odamlar uchun, ayniqsa, “yo‘l- yo‘lakay” o‘rganishga odatlanganlar uchun yaxshi vositalardan biridir.

2) Podkastlar ba’zi talabalarga o‘rganilgan materialni yaxshiroq tushunish yoki oldingi darsda muhokama qilingan narsalarni batafsil eslab qolish,

[1] Агафонова Л. И, Аникина Ж. С. Дидактико-методические особенности использования подкастов при обучении иностранному языку // Вестник Томск. гос. пед. ун-та. 2009. № 4. – С. 23-27.

[2] Салин Б. С. Некоторые аспекты использования подкастов в обучении английскому языку // Современные проблемы науки и образования. 2010. № 4. – С. 91–93.

[3] Warlick, D. (2005). Podcasting. Technology and learning. https://www.techlearning.com/news/podcasting

[4] Adams, C. (2006). Geekning zamonaviy davrda o’qitish bo’yicha qo’llanmasi. Instruktor, 115(7). – P. 48-51.

[5] Hasan, Md.M., Hoon, T.B.,(2013). Podcast Applications in Language Learning: A Review of Recent Studies. English Language Teaching, 6 (2)ISSN 1916-4742 1916- 4750 http://dx.doi.org/10.5539/elt.v6n2p128.

[6] Rajval S., & Devi V.A.,(2011). Podcast: Enhancing Listening and Speaking Skills. Language in India, Volume 11, October: ISSN 1930-2940. – P. 259-265.

shuningdek, imtihonga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qayta-qayta tinglash yoki ma’ruza o‘qish uchun juda kerakli manba hisoblanadi. Podkast bilan birga skriptni taqdim etilishi bu dasturning mutloq manfaatli jihatlaridan biridir, chunki talabalar eshitmagan yoki tushunmagan narsalarni tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3) Podkastlar ko‘rish qobiliyati yoki disleksiyadan aziyat chekayotgan o‘quvchilarga juda katta yordam beradi.

4) Podkast chet tilini o‘rganishda qiyinchilikka uchragan talabalarning ehtiyojlarini qondirishi mumkin.

5) Podkastlar talabalarga vaqt va joyni, qachon va qayerda o‘rganishni, ularning xohish va istaklariga qarab tanlash imkonini beradi.

6) Podkast sirtqi yoki masofadan o‘qiyotgan talabalarga kunduzgi talabalar bilan bir xil miqdordagi materiallar bilan ta’minlashga imkon beradi.

7) Podkastning samaradorligini uning mashg‘ulot mazmunini tahlil qilish uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratishi bilan tasdiqlashimiz mumkin. Talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatdiki, podkastlardan foydalanish o‘qitilayotgan materialni tushunishni sezilarli darajada oshiradi.

8) Hozirgi kunda podkastlardan foydalanish orqali ishni, oilani va maktabni birlashtira olmaslik yoki yo‘lda ko‘p vaqt sarflash kerakligi sababli o‘qishni to‘xtatadigan talabalar soni kamaymoqda. Podkastlardan foydalanish talabalarga o‘z ishlarini qulay tarzda rejalashtirishga, ularga ish, oila va ta’limni birlashtirish zarur bo‘lganda o‘z vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi.

9) Podcast o‘quv jarayoniga yangi bir nafas, xilma-xillikni olib keladi (o‘quv faoliyatini o‘zgartirishga yordam beradi).

10) Agar talabalar biron bir sababga ko‘ra ma’ruzani o‘tkazib yuborsalar, bu o‘rinda ular podkastlar orqali materiallarni olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Podcast ularga ta’lim jarayonining to‘liq ishtirokchilari bo‘lishlariga imkon beradi.

11) Podkastdagi materialning turli xil taqdimoti akademik darsliklardan farqli ravishda talabalarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni rag‘batlantiradi.

12) Podkast darslikni o‘qigandan ko‘ra, ma’lumot olishning (tinglashning) nisbatan qulayligini ta’minlaydi.

Podkast ijtimoiy xizmatining asosiy xususiyatlarini va didaktik prinsiplarni amalga oshirish imkoniyatlarini o‘rganib va tahlil qilib, podkastlar bilan ishlashning mumkin bo‘lgan usullarini ko‘rib chiqamiz. Podkastlar o‘qituvchi va o‘quvchilarning tasavvurlari va ijodkorligi tufayli ta’lim jarayoniga yangi nafas beradi. O‘quv jarayonida podkastlardan foydalanish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

T.N. Robbning yozishicha, ingliz tilini o‘rganish jarayonida podkastlar bilan ishlaydigan talabalar quyidagi rollarni bajarishlari mumkin:

1) Birinchidan, iste’molchining roli. Talabalar taqdim etilgan podkastlarni tinglashadi va o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan topshiriqlarni bajarishadi.

2) Ikkinchidan, yaratuvchining roli – bu yerda talabalarga o‘zlarining podkastlarini yaratish va boshqa foydalanuvchilar uchun internetda nashr etish imkoniyati beriladi. Shu bilan birga, talabalar talaffuz, intonatsiya va boshqalarni o‘qitish maqsadida keyingi nashrlarsiz o‘zlarining foydalanishi uchun podkastlarni yaratishi mumkin. Bunday holda talabalar o‘rganilgan materialni to‘liq ishlab chiqmaguncha va kerakli natijalarga erishmaguncha yozib olishlari va yozishlari mumkin.[1]

Ish jarayonida podcast texnologiyalarini chet tilini o‘qitishda qo‘llashning didaktik potentsiali aniqlandi, u quyidagilardan iborat:

- foydalanuvchilarning shaxsiy podkastlarini Internetda podcast xizmatiga joylashtirish imkoniyati;
- podkast xizmatida shaxsiy foydalanuvchi zonasini yaratish imkoniyati (shaxsiy foydalanuvchilar zonasi podkastni tarmoq muhokamasini tashkil qilish uchun zarur);
- mikroblogda xizmatdan foydalanuvchining shaxsiy maydonida podkastning tarmoq muhokamasini tashkil etish imkoniyati;
- foydalanuvchi shaxsiy zonasini yaratish va uni moderatsiya qilish podkast muallifi tomonidan amalga oshirish imkoniyati.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, podkastlar keng ko‘lamli dasturga ega bo‘lib, birinchi navbatda nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu texnologiya bizga yangi materiallar va ma’ruzalarni taqdim etish, semantik maydonni kengaytirish va til materiallarini o‘rgatish, shuningdek talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish imkonini beradi. Podkastlar nafaqat retseptiv vazifalar uchun, balki nutqni rivojlantirish, tayyorlangan va tayyorgarliksiz nutqni o‘qitish va boshqarish uchun ham qo‘llaniladi. Podkastlar turli xil o‘rganish uslublariga ega odamlar uchun, ayniqsa “yo‘l-yo‘lakay” o‘rganishga odatlanganlar uchun yaxshi vositalardan biridir. Ba’zi talabalar uchun podcast servisi o‘rganilgan materialni yaxshiroq tushunish yoki oldingi darsda muhokama qilingan narsalarni batafsil eslab qolish, shuningdek imtihonga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qayta-qayta tinglash yoki ma’ruzalarni o‘rganish uchun samarali vositalardan

[1] Robb, T. N., (2007). Podcasting for ELT – What, Why and How? Retrieved from 2007 from http://www.cc.kyoto-su.ac.jp/~trobb/podcasting2.html

biri hisoblanadi. Podkast bilan birga skriptni taqdim etilishi bu dasturning eng muhim afzalliklaridan biri hisoblanadi, chunki talabalar eshitmagan yoki tushunmagan narsalarni tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, podkastlar ko‘rish qobiliyati yoki disleksiyadan aziyat chekayotgan o‘quvchilarga ham juda katta yordam beradi. Shuningdek, talabalar podcast servisi orqali nafaqat podkastlarni tinglab, mashqlarni bajarishadi balki o‘zlari ham turli xil berilgan mavzu doirasida o‘z podkastlarini yaratib, uni saytga joylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Resume. The search for effective means of optimizing student learning is an urgent problem of modern methods of teaching foreign languages. In teaching a foreign language, it is important to regularly use modern information and communication technologies. A very popular podcast service in this area allows students to listen to and view podcasts hosted on the Internet, as well as record and host their own podcasts on any server. This article analyzes the methodology for using podcasts to develop students' conversational competence, listening comprehension, writing, reading and speaking skills. Authentic audio and video podcasts, based on their didactic properties, are the best means of developing speech activity. The validity of the inclusion of podcasts in teaching a foreign language is confirmed by the variability of the types of tasks performed using this technology, the simplicity of their implementation, the effectiveness of their use to increase the speech and thinking activity of students. To date, podcast technology is the most modern and effective tool for developing students' speech competence.

Резюме. Поиск эффективных средств оптимизации обучения студентов является актуальной проблемой современной методики обучения иностранным языкам. В обучении иностранному языку важно регулярное использование современных информационных и коммуникационных технологий. В этой сфере очень популярен сервис подкастов, который позволяет студентам слушать и просматривать подкасты, размещенные в Интернете, а также записывать и размещать собственные подкасты на любом сервере. В данной статье анализируется методика использования подкастов для развития у учащихся разговорной компетенции, понимания на слух, навыков письма, чтения и разговорной речи. Аутентичные аудио- и видеоподкасты, исходя из их дидактических свойств, являются лучшими средствами развития речевой деятельности. Обоснованность включения подкастов в обучение иностранному языку подтверждается вариативностью типов заданий, выполняемых с помощью данной технологии, простотой их выполнения, эффективностью их использования для повышения речемыслительной активности учащихся. На сегодняшний день технология подкастов является самым современным и эффективным инструментом развития речевой компетенции учащихся.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

AFG‘ONISTON MAKTABLARI O‘QUV DASTURLARINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA UNGA DOIR MUAMMOLAR

Samadi Nooria,
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Afg‘onistonning haqiqiy ta'lim ehtiyojlariga javob beradigan sifatli o‘quv dasturini ishlab chiqish, mamlakatning inson kapitalini shakllantirish va ushbu mamlakatda istiqomat qiladigan xalq, va ushbu mamlakat kelajagi bo‘lgan yosh avlodlarning ehtiyojlarini qondirish, ular xohlaydigan bilim, ko‘nikma, qadriyatlar va munosabatlarni rivojlantirish uchun muhim elementidir.

Afg‘oniston o‘quv dasturi so‘ngi 80 yil davomida siyosiy va ideologik (mafkuraviy) vosita bo‘lib kelgan. 1381-(2002) yilgacha, Afg‘on ta'lim tizimining rivojlantirish, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning ehtiyojlarini qondirishga hech qanday e'tibor berilmagan.

Afg‘oniston ta'lim tizimida qo‘llaniladigan o‘quv dasturnining shakllanishi va undagi muammolarni tahlil qilish uchun qisqacha izlanishlar olib borildi. Izlanish jarayonida ushbu muammolarni o‘rganish yuzasidan Afg‘onistan xalq ta'lim vazirligining “National education strategic plan for Afghanistan”, “Education interim plan” va Amiri Fayaz (2016), “Curriculum matters” va internet manbalar metodologik manba bo‘lib belgilandi.

Fayaz Amiri (2016)ga ko‘ra, o‘quv dasturlarni ishlab chiqish odatda obyektiv va texnik jarayon sifatida taqdim etilsa-da, siyosiy mafkuralar va iqtisodiy manfaatlar bu jarayonni asoslaydi (Jones, 2009). Ko‘pincha hukmron kuchlar milliy mafkurani aks ettirishi uchun yangi o‘quv dasturining yo‘nalishini belgilaydi. Masalan, 1986-yildan 1992-yilgacha USAID Afg‘on yoshlari uchun jihodiy o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni moliyalashtirish uchun 50 million dollar ajratdi (Coulson, 2004). Mujahedinlar davrida o‘quv dastur matematikani o‘rgatish uchun o‘q va bombalarni sanashga va savodxonlikni o‘rgatish uchun jihodchilarga asoslangan edi (Davis, 2002; Spink, 2005; Woo & Simmon, 2008; Jones, 2009; Burde, 2014).

Bundan tashqari, Tolibon davrida ishlab chiqilgan va o‘qitilayogan o‘quv dasturlarning tasvirlari va mazmuni jangovar qo‘mondonlarni tarbiyalashga qaratilgan. Xususan, asosiy matematik ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun o‘quv dasturi qurol tasvirlarini o‘z ichiga oladi. Brude (2014)ga ko‘ra “Tadqiqotchilar o‘quv dasturi mazmuni bilan o‘rganish va potentsial mojaroga olib keladigan xatti-harakatlarning o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydilar” (Ahmadi: 2004; Grasanbo: 2006, Sto‘ber, 2007; UNESCO-IBE, 2004). Ammo o‘quv dasturning hozirgi asosiy maqsadi tenglik, axloq, demokratiya va hayotning yaxshi tomonlarini o‘rgatishdir. Topshiriqlarda tinchlik, birlik, tenglik, hurmat va hamma uchun teng imkoniyatlar bo‘lishi kerak[1].

1381, ya'ni 2002-yilda vazirlikdagi (complation and translation) ya'ni muallif va tarjima bo‘limi umumiy ta'limning yangi o‘quv dasturini ishlab chiqishga kirishdi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi butun mamlakat bo‘ylab qo‘llaniladigan va standartlashtirilgan o‘quv dasturi edi. Eng ustuvor vazifa 1-6 sinflar uchun tegishli o‘quv dasturini yaratish edi.

Donorlar ko‘magida 1385-ya'ni 2006-yilda vazirlik o‘rta (high school) maktablar uchun o‘quv dasturni ishlab chiqishga kirishdi. O‘quv dasturini qo‘llab quvvatlash uchun darsliklar asosan USAID va DANIDA tomonidan taqdim etilgan mablag‘ va texnik yordam hisobidan ishlab chiqarilgan; bu qo‘llab quvvatlash bir muncha vaqt davom etishi taxmin qilingan. Dastlabki darsliklarni tarqatish harakatlari samarasiz bo‘lib, maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ko‘plab darsliklar yetkazib berish jarayonida yo‘qolgan[2].

Afg‘oniston ta'lim tizimida qayta ko‘rib chiqish, ehtimol, tubdan o‘zgartirishga muhtoj bo‘lgan jiddiy muammolar mavjud. Ta'lim tizimida asosiy muammo va qiyinchilik darslik matnidir. Kitoblarni tuzatish va chop etish uchun katta mablag‘ sarflanadi, lekin har safar bu kitoblar o‘quvchilar va o‘qituvchilarga yan-

[1] Amiri Fayaz. (2016). Curriculum Matters: An Analysis of Primary Schools' National Curriculum in Afghanistan Post9/11, Lehigh University,- p4.

[2] Islamic Republic of Afghanistan Ministry of Education. National Education Strategic Plan for Afghanistan. (1385-1389) , p 66.

gi nuqson va muammolar bilan yetib keladi. So‘ngi yillarda o‘sib va ko‘zga tashlangan va rasmiylar doim bu o‘sishda faxrlanib kelgan narsa o‘quvchilar, talabalar, maktablar va universitetlarning soniga ko‘payishdir. Bu orada hech kim sifat haqida gapirmagan. Maktablar va universitetlar va ularda ta’lim olayotgan o‘quvchi va talabalar soniga baho berish bilan ovora bo‘lgan rasmiylar, ta’lim muassasalari va talabalar sifatini hamisha e’tibordan chetda qoldirib kelganlar. Son jihatdan o‘sishda behuda maqtanish jamoatchilikni sifatdan mahrum qilib kelgan[1].

2017-yilda ta’lim vazirligi maktab fanlarini isloh qilish jarayonini o‘z zimmasiga oldi. Vazirlik ushbu ishlarning maqsadi o‘quv dasturlarini standartlashtirish va sifatini oshirish ekanini aytdi. Ushbu jarayon boshlanganiga ikki yildan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa ham, ta’lim vazirligi talab qilingan islohotlarni amalga oshira olmadi. Bir qator sobiq vazirlik mutasaddilari vazirlikni islohotlarni amalga oshira olmaganligi uchun qobiliyatsizlikda ayblamoqdalar. Shuningdek, ayrim bola huquqlari faollari ham o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va isloh qilish zarurligini ta’kidlab, ta’lim vazirligi o‘quvchilar duch kelayotgan muammolarni tushungan holda amaldagi o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlamoqda. Ayni paytda ta’lim vazirligi mutasaddilari islohot jarayoni hamon maslahatlashuvda ekani, vazirlik fanlar akademiyasi, olimlar va soha mutaxassislarining fikrini o‘rganish ustida ish olib borilayotganini aytishdi.

Ta’lim vazirligi 1398-2019-yilning aqrab oyining 20-chi sanasida ushbu o‘quv dasturiga o‘quv dasturini standartlashtirish va sifatini yaxshilash uchun o‘zgartirishlar kiritishni e’lon qildi. O‘shanda xalq ta’lim vazirligi mutasaddilari o‘quv dasturlarida kurs materiallarining qo‘llanilmasligi, darsliklar hajmining kattaligi, darsliklarning dolzarbligi yo‘qligi yoki yangilanmaganligi, imlo xatolari kabi muammolarni aniqlanganliklarini va shu bois izlanishlar olib borishganini aytishgan edi. Bu muammolarni hal etish maqsadida vazirlik qator ta’lim sohasida o‘z g‘oyalarini ishga solayotganini ta’kidladi. Bu jarayon boshlanganiga uch yilga yaqin vaqt o‘tdi, biroq ta’lim vazirligi haligacha o‘zining yakuniy maqsadiga ya’ni o‘quv dasturlarining sifatini oshirish va takomillashtirishga erishgani yo‘q[2].

O‘quv dasturlarini baholash va darslik yozish va xalqaro standartlarga mos kelish, Afg‘oniston uchun muammoli masala hisoblanadi. Afg‘onistonda dasturlarini baholash va qayta ko‘rib chiqishda jiddiy muammolar bo‘lishi mumkin, biroq qo‘shni davlatlar va boshqa ingliz tilida so‘zlaydigan davlatlar ham turli darajada bo‘lgan o‘xshash muammolarga duch keladilar. Masalan, Ghorbani (2011) maktabni bitirgandan keyin tildan, ya’ni ingliz tilidan foydalana olmaydigan eronlik o‘quvchilar uchun asosiy muammo sifatida o‘qituvchi malakasi va darslik sifatidagi kamchilik deb hisoblaydi. Uning qo‘shimcha qilishicha, darsliklar bir necha bor qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lsada, ular hali ham mazmun sifati jihatdan o‘quchilarning kommunikativ ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emas[3].

Maktab o‘quv dasturi o‘quvchilarda muxolif kuchlarga qarshi provokatsion (g‘alamislik), siyosiy va diniy mafkuralarni tarbiyalash uchun ishlatilgan. Kontentni o‘zgartirish asosan sovet istilosi davrida ham, tolibon rejimi davrida ham muayyan jangari guruhlarni qo‘llab-quvvatlovchi turli mamlakatlar va razvedka agentliklari tomonidan moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlangan[4].

2001-yilda maktablarda bir nechta eskirgan o‘quv dasturlari qo‘llanila boshlandi. 2001-yilda ta’lim vazirligi asosiy ta’lim bo‘yicha faol o‘qitish usullariga asoslangan, mazmuni o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan yangi o‘quv dasturini ishlab chiqishni yakunladi. Yangi darsliklar va o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar ta’lim vazirligi o‘quv dasturlari tomonidan ishlab chiqildi, chop etildi va butun mamlakat bo‘ylab 1-9-sinf o‘quvchilariga tarqatildi. 10-12-sinf o‘quvchilari uchun yangi darsliklar va o‘quvtichilar uchun qo‘llanmalar ham ishlab chiqilmoqda[5].

Afg‘onistonda umumiy ta’lim uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqaruvchilar yangi o‘quv dasturlarini, jumladan: darsliklar, o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar va ota-onalar uchun qo‘llanmalar kabi o‘quv resurslarini ishlab chiqmoqda. Ular YuNESKO (UNESCO) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, umumiy ta’lim bo‘yicha milliy asoslari loyihasi va t’lim vazirligining ta’limni isloh qilish yo‘nalishlariga muvofiq o‘quv re-

[1] آموزشی-روزنامه ۸ صبح دانش آموزی و سیستم عقیم . https://8am.af/student-and-infertile-educational-system/

[2] https://8am.af/curriculum-reform-the-ministry-of-education-is-still-in-its-infancy/

[3] Ghorbani, M. R. (2011). Quantification and graphic representation of EFL textbook evaluation results. Theory and practice in language studies, 1(15), 511-520.

[4] Spink, J.(2005). Education and Politics in Afghanistan: the importance of an education system in peacebuilding and reconstruction. Journal of peace education, 2(2), 195-207.

[5] Islamic Republic of Afghanistan Ministry of Education. Education Interim Plan 2011-2013, p18.

surslarini ishlab chiqish bo‘yicha texnik maslahat va ekspertiza beradi[1].

O‘quv dasturlarini ishlab chiqish jarayoni Afg‘onistonda jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Bu masalalar byurokratlarning aralashuvi, maktab va universitet o‘quvchilari/o‘qituvchilarning ishtirok etmasligi va boshqalar. Ta’lim vazirligi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish kengashlarida o‘tirgan mutaxassislar maktab darsliklarining eskirgan bo‘limlarini qayta ko‘rib chiqish uchun akademik resurslardan to‘g‘ri foydalanishni taklif etgan. Ular professional tajriba izlashlari kerak va ishonchim komilki, ular Afg‘oniston o‘quv dasturlarini ishlab chiqish ehtiyojlarini qondirish uchun innovatsion yechimlarini taklif qilishadi. Kimdir o‘quv dasturi nima? degan savol tug‘dirishi mumkin. Ta’lim haqida fikr yuritar ekan men, eng muhim fikr o‘quv dasturidir, derdim. O‘quv dasturi – bu maktab/universitet ma’muriyati o‘quvchilarga ta’lim va hayotiy ko‘nikmalarni berish uchun kerak bo‘lgan kanaldir.

Ammo afsuski, Afg‘oniston sharoitida bu g‘oya juda noto‘g‘ri tushuniladi, chunki o‘quvchilar maktabda/universitetlarda boyitilgan ta’lim tajribasiga ega emaslar[2].

O‘quv dasturlarini takomillashtirish ekspeditsiyasi shu bilan tugamadi; YuNESKO (UNESCO) Afg‘onistonda ta’lim uchun kontekstga mos va sifatli ta’limning umumiy resurslarini ishlab chiqishda Afg‘oniston ta’lim vazirligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator umumiy mavzularga oid veb-seminarlar va onlayn seminarlar o‘tkazishni rejalashtirimoqda. YuNESCOning Qobul byurosi tomonidan tashkil etilgan o‘quv dasturlarini isloh qilish bo‘yicha tadbirlar Shvetsiya xalqaro taraqiyot hamkorlik agentligi (SIDA) tomonidan moliyalashtirilgan “Afg‘oniston kelajagi uchun ta’lim tizimini yanada yaxshilash” (BESAF) loyihasining bir qismidir.

Loyiha Afg‘oniston ta’lim vazirligi (MoE), xususan o‘quv dasturlari va kasbiy revojlanish bosh-boshqarmasiga o‘quv dasturlarini, fun dasturlarini va darsliklar, o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar va ota-onalar uchun qo‘llanmalar kabi o‘quv resurslarini revojlantirish uchun texnik yordam ko‘rsatadi[3].

Ta’lim vazirligi rasmiylarining aytishicha, vazirlik amaldagi maktab o‘quv dasturlarini olib tashlashni rejalashtirmagan, agar kerak bo‘lsa, o‘quv dasturiga faqat yangi o‘quv fanlari kiritiladi. Muorif vazirligi matbuot kotibi Nazar Muhammad Erfan KALID GURUP nomli yangiliklar saytiga o‘quv dasturi jamiyat ehtiyojlariga qarab isloh qilinishini aytdi. Uning qo‘shimcha qilishicha, ba’zi islomiy mavzular qo‘shilishi mumkin va bu har bir davlatda odatiy holdir. Erfanning so‘zlariga ko‘ra, ta’lim vazirligi rahbarining o‘quv dasturiga oid so‘zlari noto‘g‘ri tushunilgan. Boshqa tomondan, mamlakatning bir qator fuqarolari o‘quv dasturiga o‘zgartirishlar bo‘lsa, jamiyat ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerakligi aytishdi. Amaliy bo‘lmagan fanlarni olib tashlash va ularning o‘rniga ehtiyoj va talablarga javob beradigan amaliy fanlar bilan to‘ldirilishi kerak, dedi ular. Broq bir qator ta’lim mtaxassislarining fikricha, o‘tgan qirq yil davomida, ayniqsa, so‘ngi 20 yil ichida o‘quv dasturlarida katta islohotlar amalga oshirilmagan.

Ta’lim bo‘yicha ekspert Nur Habib Nisorning ta’kidlashicha, agar ta’lim vazirligi o‘quv dasturlarini isloh qilmoqchi bo‘lsa, texnik, ilmiy va texnik fanlarni keraksiz fanlar bilan almashtirish kerak. Uning qo‘shimcha qilishicha, o‘quv dasturlarini isloh qilish ko‘p vaqt talab qiladi va buning uchun yetarli kadrlar bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, Nisor ta’lim vazirligi o‘quv dasturlarini isloh qilish rejasida muhim fikr-mulohazalarini bildirib o‘tganini, ularning amalga oshirilishi yaxshi natijalarga olib kelishini aytdi. Oldingi hukumat rahbariyati Afg‘onistondagi o‘quv dasturlarni bir necha bor tanqid qilib, jiddiy qayta ko‘rib chiqishga chaqirgan, biroq u bunga erishmagan[4].

Afg‘oniston o‘quv dasturi ko‘p yillar davomida siyosiy va ideologik (mafkuraviy) vosita bo‘lib kelgan. Afg‘on ta’lim tizimining rivojlantirish, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning ehtiyojlarini qondirishga hech qanday e’tibor berilmagan.

O‘quv dasturlarini yaratish, darsliklarni o‘quvchilarning talablariga javob beradigan va ularning saviyasiga va xalqaro standartlarga mos kelish, Afg‘oniston ta’lim tizimi uchun muammoli masala hisoblanadi.

Afg‘oniston ta’lim tizimidagi o‘quv dasturlarni qa-

[1] Good learning objective in the new Afghan curriculum are the key to quality learning resurces.

[2] Problem and issues of curriculum development in Afghanistan|-Pajwok Afghan News.
https://pajwok.com/opinion/problems-and-issues-of-curriculum-development-in-afghanistan/

[3] Good learning objectives in the new Afghan curriculum are the key to quality learning resurces.
https://en.unesco.org/news/good-learning-objectives-new-afghan-curriculum-are-key-quality-learning-resources

[4] نصاب تعلیمی به حال خود باقی است-ویب سایت خبری کلید گروپ
https://tkg.af/2020/11/22/%86%D8%B5%

yta ko‘rib chiqish, ushbu tizimda asosiy muammolar qatoridan joy olgan. Asosiy muammo va qiyinchilik ta’lim tizimida kitoblarni tuzatish va chop etishda kuzga tashlanadi, uchunki darsliklar har safar o‘quvchilar va o‘qituvchilarga yangi nuqson va muammolar bilan yetib keladi. Masalan, ingliz tili uchun chop etilgan darslik hajmiga va unga ajratilgan vaqtga e’tibor berilmagan, natijada kitoblar yakunlanmay o‘quv yili nihoyasiga yetgan, bu esa o‘quvchilarni bilim olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniq.

Bizning fikrimizcha, Afg‘on ta’lim tizimida xalqaro standartlarga mos keladigan va afg‘on xalqining ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy manfaatlarini nazarda tutgan holda o‘quv dasturni yaratish, ushbu mamlakat taraqiyoti va yoshlarining kelajagi uchun asosiy poydevor hisoblanadi.

Resume. In this article, illustrated the formation of the curriculum in Afghanistan’s educational system of the last 80 years and its problem.Slso the conclusions of many researchers in their scientific research in this field and the fact that the curriculum has great influence for the development of the country and the future of youth were discussed.

Резюме. В этой статье проиллюстрировано формирование учебной программы в образовательной системе Афганистана за последние 80 лет и ее проблемы. А также выводы многих исследователей в их научных исследованиях в этой области и тот факт, что учебная программа имеет большое влияние на развитие обсудили страну и будущее молодежи.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2023; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDA SIFAT VA RAVISH SO‘Z TURKUMLARI GRAMMATIK SHAKLLAR BAZASINI TUZISH

Nizomiddinov Obidxon,
Termiz davlat universiteti magistranti

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda tilshunoslikning kompyuter lingvistikasi tarmog`i jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Qayd etish lozimki, ushbu sohaning taraqqiy etishi o‘zbek tilini o‘qitishni osonlashtirish bilan birgalikda uni dunyo tillari orasidagi maqomining ham yuksalishiga xizmat qiladi[1]. Ushbu maqola ham aynan ushbu soha bilan hamohanglikni yuzaga keltirish maqsadida o‘zbek tilida ravish va sifat so‘z turkumlariga oid so‘zlarning grammatik shakllari bazasini tuzish borasidagi fikrlar tahlilga tortilgan.

Sifat va ravish so‘z turkumlarining grammatik shakllari morfologiyaning o‘rganish obyekti sanaladi. Ularning grammatik shakli deganda, eng avvalo, so‘zlarning grammatik vosita bilan qo‘llanilishi nazarda tutiladi. Grammatik vositalar ham xilma-xil bo‘lib, ularga misol sifatida qo‘shimchalar, so‘z takrori, ohang va shu kabilarni keltirish mumkin. Sifat va ravish so‘z turkumlariga oid grammatik shakllar esa ularning ma'lum grammatik vositalar bilan qo‘llanilishi orqali yuzaga keladi[2]. Bugungi kunda kompyuter texnologiyalarining keng qamrovli qo‘llanilishi ularning kompyuter bazasiga kiritilishini davr talabiga aylantirmoqda hamda bu orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

o‘zbek tilini o‘qitishda yanada kengroq ko‘lamni qamrab olish;

til o‘qitishni osonlashtirish;

til korpusini shakllantirishda ulardan unumli foydalanish darajasini oshirish va hokazo[3].

Sifat hamda ravishlarga doir lingvistik bazasini yaratishda qator qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Jumladan:

sifat hamda ravish so‘z turkumiga oid so‘zlarni alifbo tarzida kompyuter bazasiga kiritish;

sifat hamda ravish turkumiga oid so‘zlarni ma'lum guruhlarga birlashtirgan holda aks ettirish, ya`ni hid bildiruvchi sifatlar yoki holat ravishlari tarzida uyalarga birlashtirgan holda qo‘llash;

sifat hamda ravishlarning ma'lum grammatik shaklda aks ettirilgan holatiga misollar keltirish;

sifat hamda ravishlar bilan birgalikda qo‘llanilgan grammatik vositalarni alohida qatorda ajratib ko‘rsatish va hokazo[4].

Buni affikslar doirasida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ushbu holatni quyidagi jadval asosida yoritish maqsadga muvofiqdir:

Sifat so‘z turkumiga oid misolning grammatik shakl bazasining kompyuter texnologiyalari yordam aks ettirilishi (1-jadval)

№	Sifat turkumiga oid so‘zga namuna	Tarkibida qo‘llanilgan grammatik vositaga izoh	Ushbu misol ishtirok etgan gapga namuna
1	*Kattaning*	*-ning* qaratqich kelishigi qo‘shimchasi	*Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning (Otlashgan holatda qo‘llanilishiga namuna)*
2	*Oqni*	*-ni* tushum kelishigi qo‘shimchasi	*Oqni oq demay qora deguvchilar ham topiladi, albatta.*

[1] Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Qarshi: Nasaf, 2005.
[2] Ne'matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.-Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
[3] Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
[4] Mengliyev B. Lisoniy sistema yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: filol. fan. dokt. … dis. – Toshkent, 2002; Ne'matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1995.

3	*Qizilroq*	*-roq* qiyoslash qo‘shimchasi	*Bu mato narigisiga qaraganda anchayin qizilroq ekan.*
4	*Yaxshida*	*-da* o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi	*Yaxshida hikmat bor, yomonda minnat.*
5	*Chiroylidan*	*-dan* chiqish kelishigi qo‘shimchasi	*Chiroylidan oladiganing nima bo‘lardi hayronman!*

Ravish so‘z turkumiga oid misolning grammatik shakl bazasining kompyuter texnologiyalari yordam aks ettirilishi (1-jadval)

№	Ravish turkumiga oid so‘zga namuna	Tarkibida qo‘llanilgan grammatik vositaga izoh	Ushbu misol ishtirok etgan gapga namuna
1	*Bugunni*	*-ni* tushum kelishigi qo‘shimchasi	*Bugunni avayla, axir, erta keladimi yoki yo‘q bizga qorong`i.*
2	*Kamroq*	*-roq* qiyoslash qo‘shimchasi	*Kamroq so‘zla, shunda odamlarning izzatlisi bo‘lasan.*
3	*Kechadan*	*-dan* chiqish kelishigi qo‘shimchasi	*Kechadan beri gapirganing gapirgan, boshim ham og`rib ketdi.*
4	*Sekinroq*	*-roq* qiyoslash qo‘shimchasi	*Sekinroq yuguring, marraga yetguncha charchab qolasiz.*
5	*Tezroq*	*-roq* qiyoslash qo‘shimchasi	*Chiroylidan oladiganing nima bo‘lardi hayronman!*

Jadvalda qayd etilgan birliklar sifat va ravish so‘z turkumiga oid birliklarning grammatik vositalar (qo‘shimchalar) yordamida qo‘llanilishidir. Yuqorida aks ettirilgan jadvalda berilgan misollar alifbo tartibida berilgan, grammatik vositalar alohida qatorda izohlangan hamda ularga mos misollar ham qayd etilgan.

Bundan tashqari, sifat hamda ravish so‘z turkumlarining grammatik shakli ko‘makchilar orqali ham hosil qilinadi[1]. Ushbu holatni kompyuter bazasida shakllantirish xuddi qo‘shimchalar jadvali asosidagi ketma-ketlikda hosil qilinadi, ya`ni ko‘makchi bilan qo‘llangan so‘z, grammatik vosita hamda unga muvofiq keluvchi namuna:

Sifat so‘z turkumiga oid misolning grammatik shakl bazasining kompyuter texnologiyalari yordam aks ettirilishi (3-jadval)

№	Sifat turkumiga oid so‘zga namuna	Tarkibida qo‘llanilgan grammatik vositaga izoh	Ushbu misol ishtirok etgan gapga namuna
1	*Katta bilan*	Bilan ko‘makchisi	Katta bilan muomala qilayotganda odob-axloq qoidalariga amal qilish maqsadga muvofiqdir.
2	*Oq orqali*	Orqali ko‘makchisi	Bu shaklni oq orqali aks ettirish rasm fonining yanada yorqinroq ifodalanishiga xizmat qiladi.

[1] Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Nabiyeva D. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Tasvir, 2009.

3	*Qizil kabi*	Kabi ko‘makchisi	Qizil kabi ajoyib rang yo‘q, nazarimda.
4	*Yaxshi bilan*	Bilan ko‘makchisi	Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, sifat hamda ravish so‘z turkumlarining grammatik shakllari bazasini yaratish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Tilning yanada kengroq yoyilishi, undagi grammatik qoidalarning osonlik bilan o‘qitilishi bevosita grammatik shakllar bazasi bilan bog`liq hisoblanadi.

Resume. This article discusses the creation of a database of grammatical forms of adjectives and adverbs in the Uzbek language. It is worth noting that it is appropriate to work in harmony with the computer linguistics direction of linguistics and the morphology department in creating the grammatical base of adjectives and adverbial categories.

Резюме. В данной статье рассматривается создание базы данных грамматических форм прилагательных и наречий в узбекском языке. Стоит отметить целесообразность совместной работы с направлением компьютерной лингвистики языкознания и кафедрой морфологии в создании грамматической базы прилагательных и деепричастных категорий.